

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

O. ORTIQOV, Sh. UBAYDULLAYEV, I. TO'XTASHEV, B. G'AFUROV

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK

I qism

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
uchun o'quv qo'llanma*

6-nashri

UO‘K 355.233.1 (575.1)(075)

KBK 43.4ya722

Ch31

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash hamda
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ekspert Kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Ushbu qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining turlari va ularning tuzilishi, harbiy Nizomlar haqida tushunchalar, saf amallarini bajarish, otish qurollari va harbiy texnika turlari, ulardan foydalanish uslublarini o‘rganish bilan birga, jismoniy sifat, chidamlilik, kuchlilik, tezlik, chaqqonlik bo‘yicha jismoniy mashqlarni bajarish qoidalari, harbiy kasbni mukammal egallamoqchi bo‘lganlarga harbiy o‘quv yurtlari va o‘qishga qabul qilish qoidalari haqida ma’lumot berilgan.

Taqrizchilar: **Sh. UMIRZOQOV** — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Birlashgan shtabining katta ofitseri, podpolkovnik;
S. SAYAPIN — Xalqaro huquq magistri (XQQQ);
A. SOTVOLDIYEV — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti harbiy kafedraasi katta o‘qituvchisi, zaxiradagi kapitan; **A. ALIMQULOV** — Marhamat suv xo‘jaligi kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi;
M. HOLIQOV — Asaka akademik litseyi o‘qituvchisi.

KIRISH

Yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni asosida, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

Yoshlarga ta'lim berish jarayonida «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fanining vazifasi quyidagilardan iborat:

- mamlakatni qurolli tajovuzdan himoya qilish va mamlakat mudofaasi haqidagi o'zlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq va burchlarini, harbiy (2000-yildan e'tiboran mudofaa) doktrinamizning mudofaa tavsifi va maqsadlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari hamda boshqa qo'shin turlarining maqsad va vazifalarini puxta bilib olishlari;

- O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy hisobi to'g'risidagi Nizomini, harbiy xizmatni o'tashdan bo'yin tovlash va sodir etilgan harbiy jinoyatlar uchun qonunlarda belgilangan ma'muriy va jinoiy javobgarliklarni bilishlari;

- harbiy qasamyod va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Nizomlarining asosiy talablarini chuqur anglagan holda o'rganishlari;

- harbiy qismning qurollanishi, harbiy texnikasi va shaxsiy tarkibning joylashish faoliyati bilan tanishishlari;

- harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalar, shuningdek, jismoniy chiniqish va ruhan bardam bo‘lishni o‘rganishlari;

- fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallashlari;

- «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik» fanini o‘zlashtirgan o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga harbiy xizmatga chaqirilgan paytda Vatanni himoya qilishda o‘zining konstitutsiyaviy burchini benuqson bajarishlari va qisqa muddatda ularga ishonib topshirilgan zamonaviy qurollar hamda harbiy texnikalarni bilishlari lozim.

Yoshlarga harbiy ta‘lim berishda ularga qo‘shinlarning o‘quv jangovar faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagiga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o‘rgatish nazarda tutiladi. Bu mashqlarni ko‘p marotaba takrorlash natijasida yoshlarda zaruriy harbiy bilimlar va kasbiy mahorat asoslari yuzaga keladi.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy rahbarligi ostida o‘tkaziladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini moliyalashtirish hamda moddiy-texnik jihatdan ta‘minlashni amalga oshiradilar, o‘quv-moddiy bazasini barpo etgan holda bunday tayyorgarlikning tashkil etilishi uchun javobgar hisoblanadilar.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashni tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib borish, «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik» fanining o‘qitilishini uslubiy jihatdan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek, ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, Davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

«O‘z istiqloli va ozodligining qadrini bilmaydigan, uni himoya qila olmaydigan, bunga kuch-qurbi yetmaydigan millat hech qachon erkin yashay olmaydi», degan fikrning tarixiy bir isboti tariqasida «Agar kimki, o‘z armiyasini boqmasa, ertaga o‘zgalar armiyasini boqishga majbur bo‘ladi», degan hikmatni hech qachon unutmaslik zarur, deb o‘ylayman. Bu so‘zlarda nafaqat chuqur ma‘no, balki o‘ta achchiq haqiqat ham bor», deydi Prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining «Milliy armiyamiz mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir» kitobida.

Respublikasining mudofaa doktrinasini — umumdavlat ahamiyatiga molik yirik hujjat. U davlat strategiyasining muhim qismi bo'lib, harbiy siyosat asosida, harbiy faoliyat hamda harbiy qurilishning yo'nalishi va harbiy kadrlar uchun majburiy hisoblangan harbiy nazariya va amaliyotining asosiy, yetakchi, rasman qabul qilingan qarashlari va qoidalarini aks ettiradi.

O'zbekistonning mudofaa doktrinasini Markaziy Osiyo mintaqasida hozirgi harbiy-siyosiy holat, harbiy xavfning yashirin turdagi manbalari, bosh harbiy strategik vazifalar, qurilish tamoyillari va Qurolli Kuchlarni qo'llash shartlari, Qurolli Kuchlar, xalq hamda mamlakatni mudofaaga tayyorlash masalalarini o'z ichiga olgan. Mudofaa doktrinasining ushbu tamoyillari mudofaa masalalarini tushunish va hal qilishga nisbatan qarashlarning birdamligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasini uch asosiy bo'limdan iborat:

I. Umumiy qoidalar.

II. Doktrinaning siyosiy jihatlari.

III. Doktrinaning harbiy-tashkiliy jihatlari.

Mudofaa doktrinasining asosiy ustunliklari quyidagicha: siyosiy nuqtayi nazardan «urush va harbiy tajovuzni bartaraf etish — bosh strategik yo'nalishdir», degan qoidaning mavjudligi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi quyidagicha aks etgan aniq majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi yoki O'zbekiston bilan o'zaro harbiy yordam to'g'risidagi muvofiq shartnomalarga aloqador boshqa davlatlarga qilingan bosqinchilikni qaytarishdan tashqari hollarda o'z Qurolli Kuchlarini o'zga davlatlarga qarshi qo'llamaydi;

- hech kimga tahdid solmaydi va jahonning biron davlatini o'zining dushmani, deb hisoblamaydi hamda ularning birontasiga na hududiy, na boshqa da'vogarlik qilmaydi va xalqaro huquq asoslari, o'zaro xavfsizlik manfaatlarini inobatga olgan holda barcha mamlakatlar bilan munosabat o'rnatishga tayyor;

- yadrosizlik tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi, amal qiladi;

- yadro qurolini joylashtirmaslik, ishlab chiqarmaslik va sotib olmaslik.

O'zbekiston ushbu tamoyillarga amal qilib qolmay, mintaqamizda tinchlik va barqarorlik bo'lishini xohlaydi, shuning uchun

imkon qadar kurashadi hamda soʻzsiz aql-idrokning gʻalabasi, oʻz irodasini tatbiq etish orqali erishiladi, deb hisoblaydi.

Harbiy tashkilotchilik borasida mudofaa doktrinasini Markaziy Osiyo mintaqasining oʻziga xos jihatlari, harbiy xavfning yashirin manbalarini, hozirgi zamon urushlariga xos xarakter va oqibatlarini inobatga olib, bosh harbiy strategik vazifalarni aniq belgilaydi. Bu tinchlik davrida zarur, yetarli darajada respublikaning hududiy yaxlitligini, uning suverenitetiga yoʻnaltirilgan turli-tuman igʻvogarlik va tajovuzni batamom yoʻqotishni kafolatlovchi davlatning mudofaa qudratini saqlash, mustaqil ravishdagi singari jamoaviy xavfsizlik haqidagi Shartnoma ishtirokchi davlatlarning Qurolli Kuchlari bilan hamkorlikda bosqinchilarga zarba berish uchun uning Qurolli Kuchlarining doimo har tomonlama shayligini taʼminlash demakdir. Urush paytida — bosqinchilikning kafolatli tarzda qaytarilishi: oʻz kuchlari singari Oʻzbekiston Respublikasi bilan muvofiq shartnomalarga asosan, aloqador boshqa davlatlarning harbiy kuch-qudrati hamkorligida bosqinchiga qaqshatqich zarba berish.

Mudofaa doktrinasini Qurolli Kuchlar qurilishi tamoyillarini belgilaydi. Unda, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilishga qodir qoʻshin turlarini muvozanatli rivojlantirish qaror topganligi taʼkidlangan. Va nihoyat, mudofaa doktrinasini Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalarni yuksak saviyada bajarish maqsadida tezkor va jangovar tayyorgarlik muammolarining umumiy shakllarini, shaxsiy tarkib taʼlim-tarbiyasi ustunliklarini koʻrsatib bergan.

Doktrinada Markaziy Osiyo mintaqasi hozirgi paytda xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikni yoyishga, mintaqadagi mamlakatlarni oʻzlari tanlagan demokratik taraqqiyot yoʻlidan qaytarishga urinayotgan — qoʻporuvchi markazlarning oʻta manfaatdor obyektiga aylanayotgani hisobga olingan. Bunday sharoitda davlatning eng muhim vazifasi Mudofaa vazirligi, zamonaviy qurol-aslahaga ega, professional jihatdan yaxshi tayyorlangan qism va boʻlinmalarni tashkil etish, mamlakatning yagona himoya va mudofaa tizimini, barcha qoʻshin turlari va idoralari oʻzaro hamkorligining samarali mexanizmini shakllantirishdan iboratdir.

Qabul qilingan doktrina mutlaqo mudofaaviy xususiyatga ega boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasining tinchlikparvar siyosati

ifodasidir. Doktrinada vazirlik va idoralarning, davlat va nodavlat tashkilotlari, muassasalarining mamlakat mudofaa salohiyatini ta'minlash borasidagi o'rni va mas'uliyati belgilab berilgan. Doktrina qoidalarini amalga oshirish Vatanimizning har bir fuqarosi uchun muqaddas burchdir.

Mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarning harbiy xizmatga qiziqishining kuchayishi hamda davlat mudofaa qudratini yanada mustahkamlash maqsadida «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun 2002-yil dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq X sessiyasida qayta tahrir qilingan holda qabul qilindi. Qonunda harbiy xizmatni tashkil etish masalalari takomillashtirilib, harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etildi:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt (shartnoma) bo'yicha harbiy xizmat;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Muddatli harbiy xizmat yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir. Muddatli harbiy xizmat kalendar hisobida oddiy askarlar va serjantlar uchun 12 oy, oliy ma'lumotli shaxslar uchun 9 oy qilib belgilandi.

Qonun asosida harbiy xizmatning yangi turi — safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat joriy etildi. Muddatli harbiy xizmatni o'tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilishi huquqiga ega bo'lmagan, biroq, Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy tamoyil asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maxsus hisobvarag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutgan. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga fuqarolar 27 yoshga to'lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishlari

mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa, haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan fuqarolar 27 yoshga to'lganlaridan keyin, Qurolli Kuchlar rezervi xizmat safiga olinadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslar to'laydigan pul badallari miqdori va ularni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi. Bu mablag'lar muddatli harbiy xizmatdagi muddatli harbiy xizmatchilarning pul va moddiy ta'minotini oshirish, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslarning harbiy yig'inlarini o'tkazishga aniq maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni tashkil etish va o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Qurolli Kuchlar islohotlarida professional armiya tashkil etish asosiy strategik vazifa hisoblanadi. Shu sababli, Qurolli Kuchlarni tashkil etishda, *kontrakt bo'yicha harbiy xizmat* alohida ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'taydilar. Harbiy xizmatni o'tash muddatlari va asosiy shartlari kontraktida belgilanadi. Dastlabki kontrakt xizmatini oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha 3 yil, ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha 5 yil muddatga tuziladi.

Harbiy xizmatning kontraktida nazarda tutilgan muddati oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari bilan o'qish davri uchun kelgusida ularning ofitserlar tarkibi lavozimlarida harbiy xizmatni kamida besh yil majburiy o'tash sharti bilan kontrakt tuziladi.

Kontrakt muddati tugagandan keyin, taraflarning kelishuvi bilan, bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi va muddati O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Qonunda xizmatning yana bir turi sifatida Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati ko'rsatildi. *Rezervchilar xizmati* haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek, safarbarlik

chaqiruvi rezervdagi xizmatini o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibidan tashkil etiladi. Bu Qurolli Kuchlarning qo'shilmalari, qismlari va bo'linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek, urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tariqasida, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini saqlab turish, rezervchilarning harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha majburiyatlarini tinchlik va urush davrida bajarishi zarur bo'lgan ko'nikmalarini saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida harbiy qismlar bazasida hududiy tamoyil asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik bo'yicha harbiy yig'inlarni o'tashga jalb etilishlari mumkin.

Rezervchilardan urush davrida ham, tinchlik davrida ham O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi va mamlakat xavfsizligiga tahdid tug'ilganda, tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan, qo'shilmalar va qismlar tarkibida jangovar maqsadlar bo'yicha foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmatda bo'lgan shaxslarga davlat tomonidan ma'lum darajadagi imtiyozlar beriladi.

«Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunning 12—17-moddalarida fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash xususida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarida, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va shuningdek, boshqa mutasaddi vazirliklar hamda tashkilotlarning bu borada olib borishlari lozim bo'lgan ishlarni ko'rsatib o'tadi. Qonunning 13-moddasida mazkur fan, shu jumladan, fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan ekanligi hamda bu fan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning qaysi bosqichlarida o'tilishi, shuningdek, bu fanning mamlakat xavfsizligi, aholining barqaror hayot kechirishini ta'minlash maqsadida o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarini tashkil etish qayd etib o'tilgan.

I. HARBIY ISH ASOSLARI

Harbiy ish — harbiy san'atning tarkibiy qismi. Bu esa, qo'shilmalar va bo'linmalarni jang olib borishi davrida nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini qay darajada egallagan tayyorgarliklarini o'ziga qamrab oladi. Bundan tashqari, ko'zlangan harbiy maqsadlarga erishishdagi operativ san'atning boshqaruvida o'zaro umumiy qonuniyatlar bog'liqligi bilan ahamiyatlidir.

Harbiy ish uzoq tarixi, o'tmishimizda armiyalarning tarkib topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning rivojlanishi esa, qurolli to'qnashuvlar davrida otish qurollarining takomillashuvi, ishlab chiqarilgan jangovar texnikaning sifati va samaradorligi oshishi, jangovar vazifalarni bajarish jarayonida qo'shinlar shaxsiy tarkibi mohirona harakat olib borish sifat ko'rsatkichlari yuqori saviyada o'sdi.

Harbiy ishning asosi — qo'shilma va bo'linmalar shaxsiy tarkibining jang olib borishi, jangda harakatlanishi va unga tayyorgarlik ko'rishni o'rganish. Bunga quyidagilar kiradi: jang olib borish nazariyasi va uni tashkil etish, o'z qo'shilmasi va chet el armiyalari qurol-aslahalari, jangovar xususiyatlari, jang olib borishda harakatlanish turlari va usullari, shaxsiy tarkibni yuzaga kelgan qiyin sharoitlar davrida va joyning turli sharoitidan kelib chiqqan holda tunda va kunduzi harbiy texnika, qurol-aslahalarni jangda mohirona usulda qo'llash, shaxsiy tarkibni ruhiy-jangovarlik fazilatlarini singdirilgan holatda tarbiyalash, qo'shilmaning turli xildagi qo'shin turlari bilan kelishilgan holda jangda mohirona harakatlar olib borish.

Harbiy ish mahoratlarini o'rganishga tayyorgarlik olib borish davrida qo'shilmalar va bo'linmalarni takomillashtirish, yangi namunada ishlab chiqilgan jangovar texnikalar, qurol-aslahalarini jang davomida qo'llanish usullarini tekshirish va aniqliklar kiritish ham mumkin. Harbiy ishning asosiylaridan biri—qo'shilma

va bo'linmalarining shaxsiy tarkibining dala sharoitida ta'lim olishi. Shuning bilan birga taktik mashg'ulotlarda bo'lishi mumkin bo'lgan qiyin jangovar sharoitga yaqinlashishni o'rganishdir.

Harbiy ishni o'rganish davrida askar jangovar tayyorgarlik va boshqa hamma fanlarni o'rganishga bo'ysundiriladi. Bunga shaxsiy tarkib bilan yagona bilim va ko'nikmalarni egallashda otish tayyorgarligi, texnik-muhandislik, saf va jismoniy tayyorgarlik, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalaniish va boshqa fanlarni o'rganishlar ham kiradi. Harbiy ishni o'rganishda asosiysi qo'shilma va bo'linmalarining shaxsiy tarkibi jangda g'alabaga erishishidir.

Harbiy san'atning rivojlanishida buyuk sarkardalar va lashkar-boshilar o'z davrida ulkan hissa qo'shishdi. Bular Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalardir.

Harbiy san'atning rivojlanishida Sohibqiron Amir Temur merosi noyobdir. U mashhur tashkilotchi, aql-zakovatli davlat rahbari, ona-yurtning buyuk sarkardasi, yirik markazlashgan davlat hamda o'z davridagi jangovar va ilg'or armiyaning yaratuvchisi edi. Amir Temur buyuk va qudratli davlat qurdi. U o'z armiyasining salohiyati bilan emas, balki xalq manfaatlarining huquqiy asoslari bilan aks ettiruvchi, ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan kuchli edi. «Kuch—adolatda» shiori Sohibqironning davlat arbobi, sarkarda, daho inson ekanligini ko'rsatadi.

Amir Temurning harbiy merosi alohida e'tiborga molikdir. Bu — sarkardalik san'ati, uning g'alabaga oid fan, harbiy nasihatlar deyarli jahonning barcha harbiy akademiyalarida o'rganilishi, uning naqadar buyukligini yana bir bor tasdiqlaydi. Amir Temur jang maydonlarida namoyish etgan tezkorlik san'ati, taktik usullari va strategiyasi bugungi kunda qurolli kuchlar qurilishida o'z o'rnini topmoqda. Yurtboshimiz I.A. Karimov aytganidek, «Bizning tariximizda Amir Temurdek shaxs bor ekan, agar uning merosi, nasihatlar va o'gitlari hayotimiz bilan hamohang tarzda muam-molarni yechishda ko'maklashar ekan, demak bu merosni o'rganmaslikka, uni izohlamaslikka, targ'ib qilmaslikka haqqimiz yo'q». Mudofaa doktrinasi talablariga muvofiq, rivojlanayotgan O'zbekiston Qurolli Kuchlari yil sayin ma'naviy oziqa olib, o'z xalqining har tomonlama qo'llab-quvvatlashiga tayangan holda

yanada harakatchan va safarbar qilingan organizmga aylanmoqda. Aynan shu zamonaviy vazifalarni bajarish darajasida bo‘lmish, mustaqil Vatanimiz, xalqimiz tinch yaratuvchilik mehnati va osoyishini ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

1-bob. UMUMQO‘SHIN JANGI ASOSLARI


- **Jang haqida tushuncha** • **Zamonaviy umumqo‘shin jangi tavsifi, uning maqsadi** • **Umumqo‘shin jangining asosiy turlari** • **Askarning jangdagi majburiyatlari**
- **Askarning shaxsiy quroli va anjomlari**

Jang — qisqa vaqt ichida chegaralangan hududda dushmanni yo‘q qilish (tor-mor etish), uning zarblarini qaytarish va boshqa taktik vazifalarni bajarish maqsadida, maqsad bo‘yicha kelishilgan va rejalashtirilgan, zarblar joyi va vaqti, qo‘shilmalar, qismlar va bo‘linmalar olovi manyovrini namoyon qiluvchi, qarama-qarshi jang olib boruvchi tomonlardagi qismlar va bo‘linmalarning tashkillashtirilgan qurolli to‘qnashuvi.


Zamonaviy umumqo‘shin jangi tavsifi, uning maqsadi

Jang maqsadi — dushmanning jonli kuchini yo‘q qilish yoki asirga olish, uning jangovar texnikasi va qurol-aslahalarini yo‘q qilish yoki qo‘lga kiritish hamda dushmanning keyinchalik qarshilik qilish qobiliyatini so‘ndirish. Unga barcha turdagi qurollar zarbi quvvati, harbiy qismlar va bo‘linmalar qat’iy va faol harakatining qo‘rqmasdan o‘tkazilgan manyovri bilan erishiladi.

Zamonaviy umumqo‘shin jangi — unda qatnashayotgan qo‘shinlarning birlashgan kuchlari tanklar, piyodaning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar), artilleriya, havo hujumi mudofaa vositalari, samolyotlar, vertolyotlar hamda boshqa texnika va qurol-aslahalarni qo‘llash bilan olib boriladi. U qat’iyatlilik, keskinlik, tez kechuvchanlik, yuqori manyovrlilik va jo‘shqinlik bilan, vaziyatning tez o‘zgaruvchanligi, ichkariga quvvatli olov ta’siri hamda jangovar vazifani bajarishning turli xil usullari qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Zamonaviy jang maydoni.



2-rasm. Motoo'qchi guruhi mudofaada.

Umumqo'shin jangining asosiy turlari

Umumqo'shin jangining asosiy turlari bo'lib, *mudofaa* va *hujum* hisoblanadi. *Mudofaa* — dushman hujumini qaytarish, unga zarar yetkazish va o'z qo'shinlarimizni hujumga o'tishi uchun sharoit yaratib berish maqsadida ataylab yoki majburan amalga oshiriladi.

Mudofaa oldindan yoki jang sharoitida dushman bilan yuzmayuz kelinganda tayyorlanishi mumkin. Mudofaa dushman qo'llagan barcha qurollar zarbini qaytara oladigan, barqaror va faol bo'lishi kerak.

Hujum — dushmanni tor-mor etish (yo'q qilish) va joyning muhim marralari (obyektlari)ni egallash maqsadida o'tkaziladi. U dushmanni mavjud bo'lgan barcha vositalar bilan zararlash, qat'iy hamla, dushmanning jangovar tartibi ichiga bo'linmalarning shiddatli kirib borishida, jonli kuchini yo'q qilish va asir olishda, qurol-aslaha, texnika hamda belgilangan hududlar (marralar, joydagi obyektlar)ni egallab olishda ifodalanadi.

Mudofaadagi dushmanga guruh (seksiya)ning hujumi, unga to'g'ridan to'g'ri yaqinlashishda yoki ichkaridan harakatlanib kelganda (birdan, yo'l-yo'lakay) amalga oshiriladi. Motoo'qchi guruh o'z qurolini, joy va undagi muhandislik jihozlarini hamda to'siq va g'ovlarni mohirona ishlatib, hujumga o'tgan dushmanga katta talafot yetkazgan holda egallab olgan pozitsiyalarini ushlab qolish qobiliyatiga ega. U qoidaga ko'ra, vzvod tarkibida mudofaaga kirishadi, batalyon rezervida turib jangovar qo'riqlashga, jangovar razvedka kuzatuviga va o't ochuvchi pistirmaga belgilanishi, kuchlarining bir qismini yoki to'laligicha batalyon (vzvod)ning zirh guruhi tarkibiga kirishi mumkin.

Motoo'qchi guruh front bo'yicha 200 m.gacha va ichkariga 200 m.gacha bo'lgan tayanch punktini mudofaa qiladi. Motoo'qchi guruhining mudofaasi o'ziga: guruhning jangovar tartibini, guruh tayanch punktini va o't ochish tizimini oladi.

Guruhning *jangovar tarkibi* qo'yilgan vazifa va joy sharoitiga bog'liq holda quriladi. Motoo'qchi guruhning seksiyalar pozitsiyasi, qoidaga ko'ra, bitta transheyada chiziqda bo'ladi. Motoo'qchi guruhning *tayanch nuqtasi* seksiyalar pozitsiyasidan, piyodalarning jangovar mashinalari va ixtiyoridagi o't ochish vositalari hamda o't ochish pozitsiyalaridan iborat.

Guruhning mudofaadagi *o't ochish tizimi* guruh mudofaasi old chegaralarida tayyorlangan yig'ilgan olov uchastkasini; mudofaaning oldingi chegarasi oldida, oraliqlarida, qanotlarda va mudofaa ichkarisida piyoda jangovar mashinasining tankka qarshi zonasi va guruhning boshqa barcha o't ochish vositalari ko'p qavatli olovini; xatarli yo'nalishlarda tayyorlangan piyodaning jangovar mashinasi va boshqa o't ochish vositalarining tayyorlangan olov manyovrini o'z ichiga oladi.

Dushman bilan yuzma-yuz kelish holatida hujumga o'tish

Dushman bilan yuzma-yuz kelish — qo'shinlarning shunday holatiki, bunda qarama-qarshi tomon bo'linmalari mudofaada turishadi. U shunday holatda paydo bo'lishi mumkinki, agar dushman qandaydir marrani egallagan, qattiq mudofaada turib uni ushlab qolgan, uning jangovar tartibini yorib o'tishga yo'l qo'ymagan, hujumga o'tuvchi tomonni mudofaaga o'tishga majbur qilganda.

Dushman bilan yuzma-yuz hujumga o'tish boshlang'ich holatdan boshlanadi. *Boshlang'ich holat*—transheya (okop) hisoblanib, uni jangchi yashirin vaziyatda komandir ko'rsatgan vaqtda egallaydi. Askar hujum uchun boshlang'ich holatda dushmanning ehtimoldagi hujumini qaytarishga doimo shay bo'lishi kerak.

Hujumga tayyorlanish vaqtida askar o'zi hamda guruhning vazifasini; mina-portlovchi g'ovlardan o'tish tartibini aniqlab oladi; qurolning sozligi va uning jangga tayyorligini, belgilangan me'yordagi o'q-dori bor-yo'qligini, individual himoya vositalari borligi va uning sozligini tekshiradi; ust-boshlari va unga taqiladigan jihozlarni ko'rib, to'g'rilaydi hamda signallarni o'rganadi.

Guruh pozitsiyasiga tanklar yaqinlashganda, komandirning «Guruh, hamlaga shaylan» komandasiga asosan, askar qurolini o'qlashga, uni saqlagichdan yechishga, qo'l granatalarini harakatga tayyorlashga (zapallar qo'yiladi), nayza-pichoqni o'rnatishga majbur. Tanklar guruh pozitsiyasiga kelishi bilan «Guruh, hamlaga olg'a» komandasi bo'yicha askar tezda transheyadan sakrab chiqadi va boshqa jangchilar bilan shu yo'nalishda hamlaga o'tgan tank ortidan yugurib yoki tez qadam tashlab, olg'a harakatlanadi.



3, 4-rasm. Guruhning g'ovlarni tank izidan yurgan holda bosib o'tishi.

Piyodaning jangovar mashinasi (BTR) bu vaqtda dushmanga o't ochgan holda guruhning mina-portlovchi g'ovlardan o'tishini ta'minlab, guruh ortidan foydali marraga harakatlanishga tayyor holatga turadi. Shaxsiy tarkibning mina-portlovchi g'ovlardan o'tishi va mudofaaning oldingi marrasiga hamla qilish piyoda tartibda birdaniga hujum qilishga o'xshab amalga oshiriladi.

Hamla paytida askar guruh hamlasini yo'nalishidagi joyni va qanotlarni kuzatib, joyning holati, undagi predmetlarga berkingan holda transheya va aloqa yo'llaridan tashqaridagi dushmanga yaqin jang vositalari va granatalarini qo'llab, dushmanni o'z vaqtda topadi va yo'q qiladi. Tanklar harakati to'xtab qolmasligi va hamladagi guruh askarlari ulardan ajralib qolishga majbur etilishining oldini oladi. Shuning uchun har bir askar dushman harakatini tezda ko'zlab olib, darhol dushmanning o't ochish vositalarini, avvalo, tankka qarshi va jonli kuchlarini yo'q qilish uchun o't ochadi.

Birdan hujumga o'tish

Birdan hujumga o'tish oldidan askar o'z guruhi tarkibida komandir ko'rsatgan joyga yashirincha joylashadi, u yerda quroli va jangovar texnikani tayyorlaydi hamda dushmanning yer, havodan bo'ladigan hujumlarini qaytarishga doimo jangovar shay holda turadi.

Bajarilayotgan vazifaga, joy xarakteri va vaziyatning boshqa shartlariga ko'ra, askar motoo'qchi guruh tarkibida piyodaning jangovar mashinasi (bronettransportyor)da, piyoda yoki tankda desant holatda harakatlanishi mumkin.

Piyodaning jangovar mashinasi (bronettransportyor)da hujumga o'tilayotganda, askar oldindan o'tirishga tayyorlanadi. Bunda u asosiy diqqatni o'zining shaxsiy ekipirovkasiga, qurolining sozligiga, belgilangan o'q-dori me'yoriga, bundan tashqari, qurolning o'qlanmaganligiga qaratadi. Agar «Qurol o'qlansin» komandasi berilgan bo'lsa, avtomat saqlagichga qo'yilganligini tekshiradi, nayza-pichoq chiqarib olinadi.

Seksiya tarkibidagi askarlarni jangovar mashinalarga o'tqazish uchun mashina oldidagi belgilangan joyda «Mashinaga» komandasi (signali) bo'yicha saflanadilar. «Joylarga» komandasi (signali)da askarlar g'ildiraklar, zanjirlar, oyoq qo'yadigan joydan foydalanib, jangovar mashinadagi o'rinlarni egallashadi.

O'tqazish vaqtida qurol qulayroq qilib olinadi, PK pulemyotidan tashqari. Pulemyot joylashtirilayotganda, harbiy xizmatchi yoki orqada turganga uzatiladi.

BMP (BTR)da birdan hamlaga o'tish

Guruh jangovar chiziqqa yoyilishi bilan mexanik-haydovchi (haydovchi) seksiya komandirining ko'rsatmasiga ko'ra, BMP (BTR)ni o'z yo'nalishiga olib chiqadi va mo'ljalga oluvchi-operator (pulemyot mo'ljalga oluvchisi) hamla qilish obyektini, keyinchalik hujum qilish yo'nalishini va g'ovlardan o'tish joylarini aniqlab oladi. BMP (BTR)da hamla boshlanishi bilan mexanik-haydovchi mashinani tank ortidan 100—200 m uzoqlikda haydab boradi.

Minalashtirilgan maydon tankda mavjud bo'lgan traldan foydalanib bosib o'tiladi, tral yo'q bo'lganda esa, guruh komandiri ko'rsatgan yo'ldan tanklar va qo'shin jangovar mashinalar bilan birgalikdagi o'zaro harakatda o'tiladi.

G'ovlardan o'tib bo'lgandan keyin mexanik-haydovchi aniq belgilangan vaqtda jangovar mashinani dushman mudofaasining oldingi marrasiga chiqaradi va hujum yo'nalishidan chiqmaydi, to'xtamasdan uni mudofaa ichkarisiga olib kiradi.

Mo'ljalga oluvchi-operator seksiya komandiri komandasi bo'yicha yoki mustaqil ravishda harakatlanish davomida va hamlada mashinaga o'rnatilgan qurollar bilan o't ochish vositalarini, birinchi navbatda, tankka qarshi qurollarni yo'q qiladi. Avtomatchilar va pulemyotchilar dushmanning o't ochish vositalari hamda jonli kuchini shinaklar orqali o'qotar qurollar bilan yo'q qilishadi. Avtomatchi va pulemyotchi shinak orqali otilganda, otish yo'nalishi 45—60° bo'lishini bilishi kerak.

Yayov tartibda hamlaga o'tish

Seksiya komandirining piyoda tartibda hamlaga o'tish bo'yicha «Seksiya, piyoda tartibga tayyorlan» komandasini olgan mexanik-haydovchi (haydovchi) jangovar mashinaning harakatlanish tezligini kamaytiradi, askar shinakdan qurolini chiqarib, uni saqlagichga qo'yadi va piyoda yurishga hozirlanadi.

Askarning jangovar mashinadan chiqishi (yayov holatga o'tishi) — orqa eshik orqali; bronetransportyordan tuynuk orqali

amalga oshiriladi. Jangovar mashinaning yayov holatga o'tish marrasida seksiya komandirining «Mashinalarga» komandasi bo'yicha mexanik-haydovchi (haydovchi) harakatni sekinlatadi yoki joy sharoiti va mavjud bo'lgan pana joyda qisqa muddatga to'xtaydi.

Seksiya komandirining komandasi bo'yicha askar jangovar mashinadan sakrab tushadi. Hamla boshlanishi bilan askar hamla qilinayotgan obyekt va ulardan o'tish tartibini aniqlab oladi.

Tank ortidan izma-iz yurib, u o'zining olovi bilan dushmanning o't ochish vositalarini yo'q qiladi, birinchi navbatda, tankka qarshi vositalarni, seksiya harakatiga halaqit beradigan eng xavfli nishonlarni o'z vaqtida tankka ko'rsatadi.

Hamlaning shiddatli bo'lishi — muvaffaqiyat garovi.

Minalashtirilgan maydonga yaqinlashganda, guruh komandirining «Guruh mening ortimdan bir (ikki) kolonna bo'lib, minalashtirilgan maydondan ochilgan yo'lakka, yugur» komandasi bo'yicha pulemyotchi birinchi bo'lib yo'lakka yaqinlashadi, o't ochish guruh harakatini yashirib turadi. Qolgan askarlar esa, bir kolonna bo'lib saflanib, tank ortidan uning izidan yoki tayyorlangan yo'lakdan yurib, BMP (BTR)ning olovli yopib turishi ostida minalashtirilgan joyni bosib o'tadi. Minalashtirilgan joydan o'tib bo'lib, askar guruh komandirining «Guruh, jangga olg'a» komandasi bo'yicha yana guruh zanjirida o'z o'rnini egallab, yurgan holda dushmanga qarata o'q uzib, shiddatli ravishda hamla obyektiga qarab harakatlanadi.

Transheyaga 30—35 m yaqinlashgan askar komandirning «Granata bilan o't och» komandasiga binoan, granatani transheyaga uloqtiradi va o'ta shiddatli ravishda, engashgan holda mudofaaning oldingi marrasiga yugurib chiqadi, dushmanni yaqin masofadan o't ochib yo'q qiladi va ko'rsatilgan yo'nalish tomonga to'xtovsiz hamlani davom ettiradi.

Agar askar transheyada yoki aloqa yo'lida jang olib borishga majbur bo'lsa, unda tez harakatlanishi kerak. Transheyaga yoki aloqa yo'liga kirishishdan oldin askar granata uloqtiradi va avtomatdan bir-ikki bor o'q uzadi.

Transheya yoki aloqa yo'llarida dushman tomondan o'rnatilgan «kirpi», «ayri» va hokazo ko'rinishdagi simli to'siqlar nayza-pichoq bilan yuqoriga chiqarib tashlanadi yoki granata bilan portlatiladi. Agar

buni bajarish imkoni bo'lmasa, bunday uchastka yuqoridan xufyona aylanib o'tiladi.

Dushman transheyasida harakatlanayotganda, diqqat bilan transheyada mina — «sovg'a» va boshqa portlovchi qurilmalar yo'qligini ko'zdan kechirish kerak. Mina-portlovchi g'ovlar topilganda, ularni zararsizlantirish zarur, imkoni bo'lmasa, aniq ko'rinuvchi ogohlantiruvchi belgi qo'yilishi darkor.

Dushmanni bunday sharoitda yo'q qilish juda qiyin, askar, asosan, qo'l jangi olib borish mahoratiga, quroli va kuchiga ishonib, bunda nayza sanchish, qo'ndoq (magazin) yoki piyoda kuragi bilan urishni, granata uloqtirish va yaqin masofadan o'q uzishni inobatga olishi kerak.

Motoo'qchi guruh vzvod tarkibida batalyon rezervi tarkibida, shturmchi guruh va jangovar harakatlanishi, undan tashqari, taktik desantning oldingi guruhida harakatlanishi mumkin.

Qoidaga ko'ra, motoo'qchi guruh 200 m frontda hujumga o'tadi, motoo'qchi seksiya esa, yayov tartibda front bo'yicha 50 m harakatlanadi. Motoo'qchi guruhga hujumda hamla qilish obyekti va keyinchalik hujum uyushtirish yo'nalishi ko'rsatiladi. Radio orqali jangovar vazifa qo'yilayotganda, guruhga keyinchalik hujum uyushtirish yo'nalishi ko'rsatilishi mumkin.


Motoo'qchi guruhning hamla obyekti bo'lib, odatda, okopdagi yoki boshqa tayanch punktining istehkom inshootlaridagi dushman hamda hujum yo'nalishida joylashgan tanklar, to'p va zambaraklar, pulemyotlar va boshqa o't ochish vositalari hisoblanadi. Hamla jangovar tartibdagi motoo'qchi bo'linmalarining tanklar, piyodaning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar) tez o't ochishi bilan birgalikdagi shiddatli va to'xtovsiz harakatida, dushman bilan yaqinlashganda esa, uni yo'q qilish maqsadida boshqa qurol turlaridan otib, harakatlanishida ifodalanadi.

Motoo'qchi guruhning shaxsiy tarkibi yayov holatga o'tganda, piyodalarning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar)da mo'l-jalga oluvchi-operatorlar (bronetransportyor pulemyotchilari) va mexanik-haydovchi (haydovchi)lar qolishadi, ular jangovar mashinalarning qurol-aslahalaridan o't ochib, jangda o'z bo'linmalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Tog' hujumida joyning yurishi qiyin uchastkalarida motoo'qchi guruh vzvoddan ajralib, mustaqil harakatlanishi, seksiya esa, Tank

115 mm.li silliq devorli to'p, u bilan juftlashtirilgan 7,62 mm.li PKT pulemyoti va 12,7 mm.li DSHK-M zenit pulemyoti bilan qurollangan.

Tank ekipaji 4 kishidan iborat (komandir, mo'ljalga oluvchi, o'qlovchi va mexanik-haydovchi). Mexanik-haydovchi boshqaruv bo'lmasida, ekipajning qolgan a'zolari esa, jangovar bo'lma (bashnya)da joylashadi (11-rasm).




11-rasm. T-62 tankining umumiy ko'rinishi.

Taktik-texnik tavsifi. Tank og'irligi — 37000 kg. Dvigatelning eng yuqori quvvati—580 ot kuchi, tuproq yo'lda harakatlanishning o'rtacha tezligi 22—27 km/s, shosseda 32—35 km/s, shossedagi eng yuqori tezligi — 50 km/s, shossedagi yurish zaxirasi — 450 km, tuproq yo'lda — 320 km, o'ta oladigan to'siqlari: eng yuqori ko'tarilish burchagi — 32°, eng katta kren — 30°, chuqurlik kengligi — 2,85 m, devor balandligi — 0,8 m, o'ta oladigan suv havzasi chuqurligi — 1,4 m.

T-72. Quvvatli qurol-aslahaga, ishonchli zirhli himoyaga va yuqori manyovrchanlikka ega bo'lgan jangovar zanjirli mashina. Tank ekipaji 3 kishidan iborat. Tank ikki tekislikda bir xil to'g'rilanuvchi 125 mm silliq devorli to'p va unga juftlashtirilgan 7,62 mm.li PKT pulemyoti va 12,7 mm kalibrli zenit pulemyoti bilan qurollangan (12-rasm).

Taktik-texnik tavsifi. Tank og'irligi — 44000 kg, dvigatelning yuqori quvvati — 840 ot kuchi, tuproq yo'lda harakatlanishning o'rtacha tezligi 35—45 km/s, shosseda—50 km/s, shossedagi eng yuqori tezligi— 60 km/s, shosseda yurish zaxirasi— 700 km,



12-rasm. T-72 tankining umumiy ko‘rinishi.

tuproq yo‘lda 460—650 km, o‘ta oladigan to‘siqlari: eng yuqori ko‘tarilish burchagi — 30°, eng katta kren — 25°, chuqurlik kengligi 2,6—2,8 m, devor balandligi — 0,88 m, o‘ta oladigan suv havzasi chuqurligi 1,2—1,8 m.

O‘q uzish — jangda dushmanni yo‘q qilishning asosiy vositasi

O‘q uzish — jangda dushmanni yo‘q qilishning asosiy vositasi, uni mohirlik bilan olib borish va nishonni birinchi o‘q bilan zararlash uchun jangchi:

- o‘z qurolini to‘liq bilishi, uni saqlashni, otish uchun astoydil tayyorlashni;

- otish uchun joyni ustalik bilan tanlashni, chegaralangan vaqtda, kunduzi va kechasi, har xil holatlardan otishni to‘g‘ri bajarishni;

- nishongacha bo‘lgan masofani mo‘ljal qo‘yiluvchisi va mo‘ljalga olish nuqtasini to‘g‘ri aniqlashni hamda yondan esgan shamolga va nishon harakatiga to‘g‘rilik kirita olishni;

- komandir komandasini diqqat bilan eshitish va aniq, tez bajarishni;

- mustaqil o‘q uzishda ongli tashabbus ko‘rsatishni bilishi kerak.

Avtomatchilar o‘q otish uchun guruh komandiri ko‘rsatgan joylarni egallashadi, mustaqil harakatlanganda uni o‘zlari tanlashadi. Tanlashda vaziyat, joy xarakteri va qo‘yilgan vazifa hisobga olinadi.

Otish uchun joy qulay, keng, ko‘rish maydoni va otishni hamda o‘qchining dushman kuzatuvidan panalab turishini ta‘minlashi kerak. BMP (BTR) pulemyot va granatomyotlar uchun o‘t ochish pozitsiyasi guruh komandiri tomonidan tanlanadi va ko‘rsatiladi.

O‘t ochish pozitsiyasining joylashuvi qo‘yilgan vazifalarni oliy darajada bajarilishi, olovli manyovr imkoniyatini tug‘diradigan yaxshi ko‘rinish va otishga egaligi, tabiiy niqoblanishi, qulay kirib-chiqish va yangi yoki zaxiradagi o‘t ochish pozitsiyasiga ko‘rinmasdan borish yo‘llari bo‘lishi talablariga javob berishi kerak.

RPGdan otish uchun bulardan tashqari, otish xavfsizligini ta‘minlash kerak, ya‘ni orqada gazlarning erkin chiqishi uchun to‘siqlar bo‘lmasligi (2 m.dan yaqin emas) hamda xavfsiz zona (30 m) chuqurligi orasida odamlar, o‘q-dorilarni joylashtirmaslik lozim. O‘t ochish pozitsiyasi (otish uchun joy)ni shunday tanlash kerakki, bunda dushman bajarayotgan ishlar yaqqol ko‘rinib tursin, o‘zi esa, ko‘rinmasin.

**• O‘t ochish turlari • Jang manyovri haqida tushuncha
• Manyovr turlari • Guruhlarning jangovar
harakatlarini ta‘minlash**

Motoo‘qchi (tankchi) guruhning (seksiyaning, tankning) olovi jangovar vazifani bajarishda, dushmanni yo‘q qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dushmanni o‘t ochib, ishonchli zararlash: nishonni o‘z vaqtida razvedka qilish, o‘t ochish vositalarini ularning jangovar imkoniyatlariga qarab mohirona qo‘llash; o‘t ochishning aniqligi, uni qo‘llashning qo‘qqisidan va o‘ta zichlikda hamda yuqori tezlikda qo‘llanishi; jangda o‘t ochishni mohirona boshqarish orqali erishiladi.

O‘t ochish:

- *qurol turi bo‘yicha* — o‘qotar, granatomyot, piyodaning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar), tanklar, artilleriya, zenit vositalari va boshqalar;
- *otish usuli bo‘yicha* — to‘g‘ridan to‘g‘ri, yarim to‘g‘ri va yopiq o‘t ochish pozitsiyasidan otish bilan farqlanadi.

O‘qotar qurollarning o‘t ochish turlari quyidagilar:

- *taktik qo'llanishi bo'yicha* — sidirg'asiga kesib otish (o't qo'qqisidan, yaqin masofadan bir yo'nalishda ochiladi) va yig'ilgan tartibda (bitta nishonga motoo'qchi guruhning yoki seksiyaning barcha turdagi o'qotar qurollari bilan o'q uzish);

- *otish yo'nalishi bo'yicha* — frontal (nishon frontiga perpendikular ravishda), qanotdan (nishon qanotiga, uning frontiga parallel ravishda) va kesishma o'q uzish (bitta nishonga kamida ikki yo'nalishdan o'q uzib olib borish);

- *otish qizg'inligi bo'yicha* — bittalab o'q uzib otish, qisqa va uzun sidirg'alar bilan hamda barcha turdagi o'qotar qurollardan uzluksiz o'q uzish;

- *otish usuli bo'yicha* — joydan, to'xtab (qisqa to'xtab), yurib ketayotib, bortdan, nuqtaga qarab o't ochish, front bo'yicha olovni yoyib, ichkariga olovni yoyib, maydon bo'yicha va boshqalar.

Artilleriya olovi turlari o'z ichiga: alohida nishon bo'yicha o't ochish, jamlangan, to'siqli (harakatli va harakatsiz) yoppasiga o'qqa tutish va boshqalarni oladi.

Mudofaani tashkillashtirishda, ayniqsa, tog'larda, barcha turdagi qurollarni jalb qilgan holda ko'pqatlamli va ko'pqavatli olov hosil qilinadi. Dushmanning tirik kuchlariga alohida o't ochish vositalari yoki motoo'qchi guruh va seksiyaning o'qotar qurollaridan yog'ilgan olovi bilan otib zarar yetkaziladi.

Jangda motoo'qchi (tank guruhi), joyning qulay sharoitlaridan foydalanib, o't ochishning harakat bilan mohirona biriktirib va manyovrni keng qo'llashi kerak. Manyovr kuchlar va vositalari o't ochish bilan o'tkaziladi.

Kuch va vositalar manyovri dushmanning jangovar tartibidagi eng zaif joyiga, ayniqsa, qanotlar orqa tomoniga hamda o'z bo'linmalarini dushman zarbidan o'z vaqtida chiqarish uchun o'tkaziladi. Kuch va vositalar manyovri turlari bo'lib qurshov, aylanib o'tish, ularning birikmasi va chekinishi hisoblanadi.

Aylanib o'tish — ancha ichkarilama manyovr dushmanning orqa tomonidan zarba berish maqsadida o'tkaziladi.

Chekinish — o'z qo'shinlarini dushman zarbidan chiqarib olish va qulay holatini egallash uchun qo'llaniladigan manyovr. U faqat katta komandir ruxsati bilan o'tkaziladi.

Manyovr g'oyasi bo'yicha oddiy bo'lishi, ya'ni tezda, yashirincha va dushman uchun qo'qqisdan o'tkazilishi kerak. Uni amalga oshirish uchun dushmanni olovli zararlash natijasida ochiq qanotlari, oraliqlar, joy sharoitlari, yashirincha borish yo'llari, tutun va aerezollar, mudofaada esa, bundan tashqari, transheyalar va aloqa yo'llari inobatga olinadi.


Olovli manyovr dushmanni samaraliroq zararlash uchun qo'l-laniladi. U guruh (seksiya)ning bitta muhim nishon bo'yicha olovini yig'ishga, bir nishondan boshqasiga olovni o'z vaqtida ko'chirish va guruh bilan bir vaqtda bir necha nishonga o't ochishni olib borishda ifodalanadi.

Motoo'qchi (tankchi) guruhlar (seksiyalar, tanklar) harakatini jangovar ta'minlash, jangovar shaylikni ushlab turishga yo'nal-tirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va tashkillashtirish hamda uning jangovar qobiliyatini saqlab qolish, qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida va muvaffaqiyatli bajarish uchun qulay sharoitlar yaratib berishda ifodalanadi. U jangning barcha turlarida: mashq o'tash paytida va joyda joylashganda, komandir qarori asosida tashkil-lashtiriladi va o'z ichiga razvedka, qo'riqlash, niqoblash, muhan-dislik ta'minlash va kimyoviy himoyalaniishni oladi.

Motoo'qchi (tankchi) guruhlar (seksiyalar, tanklar) koman-dir o'q-dorilar, yoqilg'i zaxiralarini o'z vaqtida to'latib olish chora-tadbirlarini, jangovar mashinalar va qurol-aslahalarga texnik xizmat ko'rsatishni, shaxsiy tarkibni individual himoya va maxsus tozalash, oziq-ovqat va boshqa moddiy vositalar bilan ta'minlashi hamda askar va serjantlar anjomlarining to'laligini tekshirish, ulardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilib borishi kerak.



Anjomlarga askar va serjantlar uchun mo'ljallangan aslaha va boshqa buyumlar kiradi. U ko'tarib yuriluvchi va tashiluvchi qismlarga bo'linadi. Anjomlarning ko'tarib yuriluvchi qismi, qoidaga ko'ra, askarda va serjantda bo'ladi hamda o'ziga shaxsiy qurol, o'q-dorilar, gazniqob (respirator), piyodalar belkuragi, po'lat shlem, bronejilet, dala anjomlari, suvli flyaga, buyumlar xaltasini o'z ichiga oladi. Buyumlar xaltasida: qozoncha, qoshiq, krujka, quruq payok, individual aptechka, suvni zararsizlantiruvchi vositalar va shaxsiy gigiyena buyumlari joylashtiriladi. Komandirning qarori bilan olib yuriladigan anjomlarning tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Qurshov



Aylanib o'tish

1/3 mo'gr




Chekinish


13-rasm. Bo'linmalarning jangdagi manyovri (variant).

Qurshov — dushman qanotiga zarb berish uchun amalga oshiriluvchi manyovr.


Qurshov, odatda, olovli va taktik hamkorlikda amalga oshiriladi, aylanib o'tish esa, frontdan harakatlanuvchi taktik hamkorlikda.




Bir tomonga g'ujlab o't ochish



Ketma-ket tomonlarga g'ujlab o't ochish



Taqsimlab o't ochish



O't ochishni yangi obyektga o'tkazish

14-rasm. Olovli manyovr (variant).

Barcha qolgan buyumlar anjomlarning tashib yuriluvchi qismiga kirib, ular piyodaning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar, avtomobillar, tanklar)da olib yuriladi. Ishlatish bo'yicha qo'llanmalar va boshqa hujjatlarga muvofiq joylashtiriladi.

ZAMONAVIY ARMIYA QUROLLARI

Qurollarning asosiy turlari: tanklar, jangovar samolyotlar, vertolyotlar va artilleriyaning taktik-texnik tavsiflari hamda ularning zaif tomonlari

Zirhli tanklar

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning Qurolli Kuchlari uchun yangi tank namunalarini ishlab chiqarishga katta e'tibor berilyapti. Zamonaviy jangda tanklarning taktik-texnik tavsiflariga bo'lgan talab doimo ortib bormoqda. Dushman bilan muvaffaqiyatli jangovar harakatlar olib borilishi uchun qudratli qurol-aslahaga, yaxshi optik asboblarga, zamonaviy nishonni aniqlash vositalariga, kerakli o'q-dorilar komplektiga, quvvatli dvigatel qurilmasiga, ishonchli yurish qismiga ega bo'lish lozim.


«M1A1» tankining taktik-texnik tavsifi. «M1A1» tanki AQSH armiyasida qurol-aslahaga sifatida turadi. Jangovar og'irligi — 55,9 tonna, eng yuqori tezligi — 66 km/s, to'p kalibri — 120 mm, dvigatel quvvati — 1500 ot kuchi, ekipaji — 4 kishi (15-rasm).



15-rasm. «M1A1» tanki.


MI «Abrams» tankining taktik-texnik tavsifi. MI «Abrams» tanki o'tgan asrning 50-yillarida yaratilgan bo'lib, Amerika Qo'shma Shtatlari armiyasining zamonaviy qurollaridandir. Jangovar og'irligi — 30,0 tonna, aylanuvchi boshnyasi 105 mm.li to'p bilan jihozlangan, 60-yillarga kelib, dizel yonilg'isi o'rniga gazli turbi-

nada ishlaydigan bo'ldi. Bugungi kunda tank bilan AQSH va Germaniya armiyasi qurollangan.



16-rasm. M1 «Abrams» tankining klassik joylashuv chizmasi.

«Leopard-2K» tankining taktik-texnik tavsifi. «Leopard-2K» tanki Germaniya armiyasining quroli hisoblanadi. Jangovar og'irligi — 50,5 tonna, eng yuqori tezligi — 68 km/s, to'p kalibri — 120 mm, dvigatel quvvati — 1500 ot kuchi, ekipaji — 4 kishi.




17-rasm. «Leopard-2K» tanki.

«Chellenjer-2» tankining taktik-texnik tavsifi. «Chellenjer-2» tanki Buyuk Britaniya armiyasining quroli hisoblanadi. Jangovar og'irligi — 62,5 tonna, shosseda yurish zaxirasi — 450 km, ekipaji — 4 kishi.



18-rasm. «Chellenjer-2» tanki.


«Merkava Mk.1» tankining taktik-texnik tavsifi. «Merkava Mk.1» tanki Isroil armiyasining quroli hisoblanadi. Jangovar ogʻirligi — 56,0 tonna, yuqori tezligi — 46 km/s, shosseda yurish zaxirasi — 500 km, ekipaji — 4 kishi.



19-rasm. «Merkava Mk.1» tanki.

Bashnya va korpus istalgan nuqtada kalibr osti hamda kumulyativ snaryadlar bilan zararlantiriladi


Yuqorigi zirh kumulyativ snaryadlar bilan zararlantiriladi



Kuzatuv asboblari, faralar oʻqotar qurol olovi bilan zararlantiriladi


20-rasm. Tankning zaif joylari.

Jangovar vertolyotlar




21-rasm. MI-24 B jangovar vertolyoti.

Taktik-texnik tavsifi. Bo'sh vertolyotning og'irligi — 8500 kg, dvigatel quvvati — 2225 ot kuchi, eng yuqori tezligi — 320 km/s, uchishining eng yuqori balandligi — 4600 m, uchish uzoqligi — 1000 km, ekipaji — 3 kishi (uchuvchi, operator va bort texnigi).




22-rasm. Ka-52 «ALLIGATOR» jangovar vertolyoti.

Taktik-texnik tavsifi. Bo'sh vertolyotning og'irligi — 7700 kg, dvigatel quvvati — 2225 ot kuchi, eng yuqori tezligi — 350 km/s, uchishining eng yuqori balandligi — 5000 m, ekipaji — 2 kishi.



23-rasm. AN-64D «Apach Longbou» jangovar vertolyoti.


Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 261 km/s, eng baland uchishi — 3800 m, vertolyot uzunligi — 17,7 m, balandligi — 4,9 m, ekipaji — 2 kishi (uchuvchi va operator), uchish masofasi 6 km.gacha bo‘lgan «Xellfayr» raketasi ega. AQSH armiyasi qurollangan.



24-rasm. UH-64 «Blek Xok» — AQSHning quruqlikdagi kuchlari asosiy transport vertolyoti.


Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 361 km/s, eng baland uchishi — 5790 m, vertolyot uzunligi — 15,2 m, balandligi — 5,1 m.

Jangovar samolyotlar




25-rasm. Uzoqqa raketa tashuvchi-bombardimonchi TU-22-M3.

Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 2300 km/s, eng baland uchishi — 13300 m, samolyot uzunligi — 42,4 m, balandligi — 11 m.




26-rasm. Front bombardimonchi SU-24 samolyoti.

Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 1700 km/s, eng baland uchishi — 11000 m, samolyot uzunligi — 24 m, balandligi — 6 m.




27-rasm. Razvedkachi-bombardimonchi MIG-25RB.

Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 3000 km/s, eng baland uchishi — 23000 m, samolyot uzunligi — 21,5 m, qanotlari uzunligi — 13,4 m. Samolyot havo razvedkasi uchun mo'ljallangan. Samolyotga bir-birini to'ldirib turuchi har xil razvedka qurilmalari, foto, radiotexnik va radiolokatsion razvedka jihozlari o'rnatilgan.




28-rasm. Qiruvchi-bombardimonchi SU-17.

Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 1900 km/s, eng baland uchishi — 15200 m, samolyot uzunligi — 18,9 m, balandligi — 4,9 m.




29-rasm. Qiruvchi-bombardimonchi MIG-27.

Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 1800 km/s, eng baland uchishi — 15600 m, samolyot uzunligi — 16,7 m, balandligi — 5,7 m.




30-rasm. Shturmchi SU-25.

Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 970 km/s, eng baland uchishi — 7000 m, samolyot uzunligi — 15,5 m, balandligi — 4,8 m.



31-rasm. Front qiruvchisi MIG-29.


Taktik-texnik tavsifi. Eng yuqori tezligi — 2450 km/s, eng baland uchishi — 18000 m, samolyot uzunligi — 17,3 m, balandligi — 4,7 m.



32-rasm. Uzoqdan radiolokatsion kuzatish (dozor), aniqlash va to'g'rilash samolyoti A-50.

Taktik-texnik tavsifi. Patrullash tezligi — 600 km/s, eng baland uchishi — 10200 m, uchish davomiyligi — 7 soat, samolyot ekipaji — 5 kishi, samolyot uzunligi — 46,5 m, balandligi — 14,7 m. IL-76 samolyoti bazasida yaratilgan.


Artilleriya



33-rasm. Reaktiv artilleriyasining jangovar mashinasi:

1—truba; 2—lyulka; 3—asos (tayanch); 4—pogon; 5—rama;
6—mo'ljalga olish moslamalari.


Taktik-texnik tavsifi. Otish uzoqligi — 20 km va undan ortiq, jamlanmasi — 120 snaryad, snaryad og'irligi — 66 kg, raschyoti — 6 kishi.



34-rasm. 120 mm.li minomyot:

1—stvol; 2—ikki marta o'qlashdan saqlagich; 3—nishonga oluvchi;
4—burish mexanizmi; 5—ko'tarish mexanizmi; 6—ikkioyoq-lafet;
7—gorizontlash mexanizmi;
8—amortizator; 9—tayanch plitasi.

Taktik-texnik tavsifi. Otish uzoqligi — 1000 m.dan 10000 m.gacha, jangovar jamlanmasi — 80 snaryad, raschyoti — 5 kishi.



35-rasm. 122 mm.li D-30 zambaragi jangovar holatda.


Taktik-texnik tavsifi. Otish uzoqligi — 15,3 km.gacha, jangovar jamlanmasi — 80 snaryad, snaryad og'irligi — 21,7 kg.

2-bob. ASKARNING JANGDAGI HARAKATI

- **Mudofaada olovli pozitsiya haqida tushuncha.**
- **Uni tanlashning tartibi, holatni egallash, jihozlanishi.**
- **Mudofaaga mahalliy predmetlarni moslashtirish, o'q otish sektorini tozalash va okopni niqoblash**

O't ochish pozitsiyasi — bu askar bilan dushmanning jang olib borish joyi yoki joy uchastkasi. O't ochish pozitsiyasi joyga bog'liq holda tanlab olinadi va u askar tomonidan shunday tanlab olinishi (yoki komandir ko'rsatishi) kerakki, u yerdan oldinda turgan dushman kuzatuv olib borishi mumkin bo'lgan joy yaxshi ko'rinsin. Joy o'qotar qurolning ta'sirli o'q uzish uzoqligida ko'rinib turishi kerak. Agar oldinda ochiq joyda jangovar harakatlar olib borish turgan bo'lsa, askar unga ko'rsatilgan o't ochish pozitsiyasi joyini diqqat bilan o'rganib chiqishi lozim. O't ochish pozitsiyasi dushman olovi ostida egallanishi mumkin.

Dushman olovi ostida yotib otish uchun bir kishilik okop qazish quyidagicha bajariladi: tanlangan joyda askar qurolini o‘zidan o‘ngroqqa, cho‘zilgan qo‘l uzoqligida stvolning og‘zini dushmanga qaratib, yerga qo‘yadi; chap biqinga yonboshlab, piyodalar kuragini g‘ilofdan chiqaradi; keyin kurakning dastasidan ikki qo‘llab ushlab, o‘ziga qarab urib, chimni kesadi (36-rasm).




36-rasm. Avtomatdan yotib otish uchun bir kishilik okop qazish ketma-ketligi.

Chimni olib bo‘lib, uni yoniga qo‘yadi, okopni qazib, uni Brustverni niqoblashga ishlatish mumkin bo‘lishi uchun tuproq boshidan oldinga, keyin esa, yon tomonga tashlanadi, u o‘qlar, snaryad yoki mina parchalaridan saqlanishni ta‘minlaydi.

Ishlash paytida bosh imkon qadar, yerga yaqinroqda ushlanishi kerak, chunki dushmanni uzluksiz kuzatib turish mumkin bo‘lsin. Okopning old qismini 20 sm.cha qazib, askar ozgina orqaga siljiydi va qolgan qismini qazishni davom ettiradi. Okop kengligi 60 sm, uzunligi esa, 170 sm bo‘lishi kerak. Ish oxirida Brustver joyning muhiti rangiga moslab niqoblanadi.

Agar dushman faollik ko‘rsatmasa, okopni jihozlash ishlari davom ettiriladi, u tizzalab otish uchun 60 sm.ga chuqurlashtiriladi va moslashtiriladi (37-rasm), keyin esa, turib otish uchun 110 sm.ga-cha chuqurlashtiriladi.




37-rasm. Avtomatdan tizzalab otish uchun okop.

Qulay sharoitlarda, ayniqsa, dushman o'zini passiv ko'rsatganda, guruh komandirining ko'rsatmasi bo'yicha yoki mustaqil ravishda bir kishilik okoplar guruh pozitsiyasiga o'zaro birikadi va ular to'liq profilga (ko'rinishga) yetkaziladi.

Shu maqsadda askar okopdan chiqmasdan, o'zining chapdagi qo'shnisiga chiqish uchun birlashtiruvchi yo'l qaziydi.


Ish tartibi bir kishilik okop qazitish tartibi bilan bir xil. Agar okop oldida buta yoki baland o'tlar bo'lsa, ko'rinishni yaxshilash va otish uchun ulardan tozalanadi, biroq buni dushman sezmasligi kerak. Bulardan tashqari, tungi jang oldidan mo'ljallagichsiz otishga avtomatlar va pulemyotlar shay holatga keltiriladi.




38-rasm. Avtomatdan turib otish uchun okop.

Okopdan o't ochishda, askarning xavfsizligini ta'minlash uchun mahalliy predmetlar (qurigan o't, shox-shabba va shu kabilar)dan foydalaniladi, joy tusiga moslashgan niqoblash to'rlarini ham ishlatish mumkin. Okopning old qismidagi otish sektorini tozalash kerak, bu yerdan askar hujumga yotgan dushmanga qarata o't ochadi hamda jang maydonini kuzatib boradi.

Dushmanning tanki yaqinlashishiga qarab, unga granatomyotning haqiqiy o't ochish uzoqligida RPG-7 bilan zarba beriladi.




39-rasm. Samolyotlarga to'siqli o't ochish.




40-rasm. Granatomyotning haqiqiy o't ochish uzoqligida RPG-7dan tanklarni zararlash.

Merganlar tank va bronetransportyorning otish qurilmalariga uni ishdan chiqarish maqsadida o't ochishadi.




41-rasm. Tank va BTRning kuzatuv asboblariga merganlarning o'q uzishi.

Dushmanning tanki yaqinlashishiga qarab, granataning haqiqiy o't ochish uzoqligida tankka qarshi undan foydalaniladi.



42-rasm. Granata uloqtirib, tankni zararlash.

Mudofaaning oldingi marrasidagi transheyaga tanklar tushsa, ular tanklar ustiga otiladigan granata bilan zararlantiriladi.



43-rasm. Qanot bo'ylab harakatlanayotgan tankka granata uloqtirish.

Tanklar va boshqa harakatlanayotgan zirhli obyektlarga qarshi kurash minalar yordamida olib borilishi mumkin. Joylarda, tankka qarshi minalarni, mina g'ovlari o'rnatadigan mashina yordamida, askarlar esa, qo'lda o'rnatadilar.

Dushmanning zirhlangan mashinalari kuzatish asboblari pulemyotchi va mergan ham o't ochib kurashishi mumkin.

Alohida hollarda guruh komandirining buyrug'i bo'yicha tanklar bilan kurashish uchun askar tayinlanadi. U joy relyefidan foydalanib, guruh olovi yoki to'pchilar ostida qo'l granatasi bilan tanklarga yaqinlashgan holda ularni yo'q qiladi.


Pozitsiyaga yorib kirgan dushmanni yo'q qilish

Agar dushmanning alohida guruhlari mudofaaning oldingi marrasiga yorib o'tib transheyalarga tushsa, askarlarning tarqab ketmasligi uchun avvaldan tayyorlanib qo'yilgan «kirpi» va «ayrilar» darhol o'rnatiladi. G'ovlarni qo'yib bo'lib, yorib kirgan dushman bilan jangga kirishiladi va bir vaqtda transheya ichida harakatlanishga intilgan yoki g'ovlarni transheyadan chiqarib tashlamoqchi (portlamoqchi) bo'lgan dushman kuzatiladi. Ularni qisqa masofadan otib, granata uloqtirgancha qo'l jangiga o'tib, yo'q qilinadi.

• Askarning hujumdagi harakati • Transheyadan hujumga o'tishga tayyorlanish va o'tish • Jang maydonida harakatlanish usullari va uslublari • Jangda to'siqlar va g'ovlardan o'tish • Hujum paytida dushmanni yo'q qilish usullari • Okoplarda va transheyalarda qo'l va o't ochish janglarini olib borish

Hujumda askar dushmanni o't ochib, zararlash natijalaridan foydalanib, guruh (seksiya)ning boshqa askarlari bilan o'zaro harakatlangan holda bor kuchini to'liq ishga soladi.

Hujumdan oldin u o'zining vazifasini, seksiya va guruhi vazifasini, zararlash uchun nishonlarni va o't ochish tartibini aniqlashi, tank raqami (tanish belgisi)ni va shu tank ortidan harakatlanayotgan seksiyani hamda boshqa o't ochish vositalari bilan o'zaro harakatni bilishi lozim. Yayov tartibda hamlaga o'tganda — piyoda holatga o'tish joyi va tartibi, seksiya zanjiridagi joyi, g'ov to'siqlardan o'tish tartibini bilishi; komandir o'rgatgan signallarni eslab qolishi; qurolning sozligini tekshirishi va uni jangga shaylab qo'yishi; o'q-dorilar sonini tekshirib chiqishi va kerak bo'lsa, ularning o'rnini to'ldirishi; shaxsiy himoya vositalari sozligi va sonini, ust-boshi va unga taqilgan narsalarning to'g'riligini tekshirib ko'rishi zarur.




44-rasm. Piyoda jang qilish.

- **Parchalanadigan qo'l va tankka qarshi granatalarni uloqtirish usullari** • **Dushman olovi ostida okop qazish va niqoblash** • **Askarning tungi hujumdagi harakati va suv to'siqlaridan o'tishi**


Granatani uloqtirish quyidagi usullarda amalga oshiriladi: uloqtirishga hozirlik ko'rish (granatani o'qlash va uloqtirish holatini qabul qilish) va granatani uloqtirish.



45-rasm. Dushman transheyasida granata portlashi.



46-rasm. Dushman transheyasida jang.




«Sharqliklar»

«G'arbliklar»

47-rasm. BMP mudofaada turibdi, to'p va pulemyotlar olovi bilan BTR va tank bilan hujumga o'tgan bo'linmalarga zarar yetkazmoqda. Tanklar BMPga o'q uzib, ularni zararlayotir.

Granatani o'qlash «Granatalar hozirlansin» komandasiga ko'ra, jangda esa, mustaqil tarzda amalga oshiriladi. Granatani o'qlash uchun uni sumkadan olib, korpus trubkasidan tiqinni chiqarish va zapalni trubkaga burab kiritish lozim. Shunda granata uloqtirish uchun tayyor bo'ladi.



48-rasm. Zapalni burab o'rnatish va saqllovchi tortiqni sug'urish.

Granatani uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:


- granatani qo'lga olib, barmoqlar bilan o't ochish tirragini granata korpusiga siqib tutiladi;
- o't ochish tirragini mahkam siqib turgan holda ikkinchi qo'l bilan saqllovchi tortiq uchlari to'g'rilanadi va uni barmoq bilan halqasidan tortib, zapaldan sug'urib olinadi;
- quloch ochib, granatani nishonga qarata uloqtiriladi, mudofaa mobaynida qo'llaniladigan granata uloqtirilganda panaga o'tiladi.

Ayni paytda qurol tezkor harakatni ta'minlovchi holatda bo'lmog'i lozim. Granatani bir joyda tik turgan holatda uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

- nishonga yuzlanib turiladi;
- granatani o'ng qo'lga (chapaqay — chap qo'lga), qurolni esa, chap (o'ng) qo'lga olib, saqllovchi tortiq sug'uriladi;
- o'ng (chap) oyoq bilan, tizzani bukib, ortga bir qadam tashlanadi;
- tanani o'ng (chap)ga biroz burib (eshib), granata yoy bo'yicha pastga va ortga otiladi;
- o'ng (chap) oyoqni tez to'g'rilab turib, ko'krak nishon tomonga buriladi va granatani yelka uzra olib, uloqtiriladi. Granata uloqtirilayotganda, tirsak qo'shimcha siltanadi.

Uloqtirish mobaynida tana og'irligi chap (o'ng) oyoqqa o'tkazilib, qurol keskin ortga tortiladi. Granatani tizzada turib uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

- tizzaga turiladi;
- granatani o'ng qo'lga, qurolni esa, chap qo'lga olib, saqllovchi tortqi sug'urib olinadi;
- tanani ortga tashlab, o'ngga buriladi va quloch ochiladi;
- biroz ko'tarilib, granatani yelka uzra oshirib, harakat so'nggida chap oyoq tomonga keskin bukilib, uloqtiriladi.



49-rasm. Joyda turib granata uloqtirish usuli:

a, b, d, e — harakatlar ketma-ketligi.

Granatani yotgan holatda uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

- yotgan holda o't ochish holati qabul qilinadi;
- qurol yerga yotqizilib, granata o'ng qo'lga olinadi;
- chap qo'l bilan saqllovchi tortqi sug'urib olinib, yerga qo'llar bilan tiraladi va undan itarilib, tizzalarga turiladi;
- o'ng oyoqni biroz ortga tashlab, chap tizzaga, uni joyidan qo'zg'atmay turiladi va shu paytning o'zida quloch yoyiladi;
- o'ng oyoqni to'g'rilab, ko'krakni nishon tomon burib, oldinga yiqila borib, granata uloqtiriladi;
- qurolni olib, o't ochishga hozirlik ko'riladi.

Granatani harakat mobaynida uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

- granatani yarim bukilgan o'ng qo'lda, qurol esa, chap qo'lda tutilib, saqllovchi tortqi sug'urib olinadi;
- chap oyoq tashlanganda, qo'l granata bilan birgalikda oldinga chiqariladi;

— navbatdagi qadam tashlanganda (o'ng oyoq bilan), qo'l yoy bo'yicha pastga ortga harakat qilish davom etadi va ayni paytda tana o'ngga buriladi;

— uchinchi qadamda, chap oyoqni nishon yo'nalishi tomon uchiga qo'yib, o'ng tizzasi bukiladi va tana burilishi, quloch ochilishi to'xtatiladi;

— harakat tezligidan foydalanib, uloqtirish jarayoniga oyoq, tana va qo'l kuchini mujassamlashtirgan holda granata yelka uzra oshirib uloqtiriladi.

Granatani avtomobildan uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

— o'rindiqla o'tirgan yoki ikki oyoqqa turib yoxud chap oyoqning tizzasini o'rindiqqa qo'ygan holat qabul qilinadi;

— granatani o'ng qo'lga, qurolni chap qo'lga olib, saqllovchi tortqi sug'urib olinadi;

— qurol tutgan chap qo'l bilan avtomobil borti ushlab turiladi va tanani ortga, ayni paytda o'ngga burib, granata bilan quloch ochiladi;

— granatani yelka uzra olib o'tib, oldinga keskin egilib, uloqtiriladi va bort ortiga bekiniladi.

Agar avtomobil tuynukka ega bo'lsa, granatani uloqtirishdan oldin tuynukning qopqog'ini ochish, uloqtirgach esa, yopilishi lozim.

Granatani tank (o'ziyurar artilleriya qurilmasi)dan uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

— o'qlovchi hozirlangan granatani o'ng qo'lga olib, nishon tomonga buriladi va saqllovchi tortqini sug'uradi;

— tuynuk qopqog'ini turtib, uning dastasidan tutib turadi;

— tuynuk qopqog'ini ochib, granatani tuynuk orqali uloqtiradi va tuynuk qopqog'ini zudlik bilan yopib, qulflaydi.

Granatani transheya yoki okopdan uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

— qurol okop yoki transheya qirg'og'iga yotqiziladi;

— granatani o'ng qo'lga olib, saqllovchi tortqi sug'urib olinadi;

— o'ng oyoqni imkon qadar ortga tortib, bel va oyoqlar biroz bukiladi va granata ushlagan o'ng qo'l oxirigacha yuqoriga, ortga tortiladi;

— chap qo'lga tiralgan holda keskin to'g'rilanib, granata uloqtiriladi va transheya (okop) ichiga yashirilinadi.

Dushmanning okop, transheya yoki ochiq joyda mavjud bo'lgan jonli kuchini yakson qilish uchun granatani gorizontga nisbatan

35°—45° burchak ostida, nishon ustiga tik tushirib, imkon qadar sakratmasdan uloqtirish zarur.

Granatani binoning deraza va eshiklariga uloqtirish mobaynida ularga aniq tegishi talab etiladi, shuning uchun granata trayektoriyasi nishonga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Granatalarni deraza va eshiklarga aniq tegishiga muntazam va davomli mashqlar bilan erishiladi. Granata uloqtirayotgan shaxs granatani uloqtirgach yashirinishi lozim, aks holda nishonga tegmay portlagan granata parchalari bilan o'zi yaralanishi mumkin.

Agar granata uloqtirilmagan va zapalidan saqllovchi tortqi sug'urilmagan bo'lsa, u komandirning kuzatuv ostida o'qsizlantiriladi.

«Granata o'qsizlantirilsin» komandasiga ko'ra, zapal burab chiqariladi, lattaga (qog'ozga) o'raladi va granatalar qopchig'iga joylashtiriladi; korpus trubkasiga tiqin burab joylashtiriladi va granata o'z sumkasiga solinadi.

3-bob. RAZVEDKA


Kuzatish uchun joy tanlash

Joy va dushman razvedkasini olib borish uchun askar kuzatuvchi qilib tayinlanishi va kuzatish posti tarkibida harakatlanishi mumkin. Kuzatish posti yashirincha jihozlanadi, niqoblanadi va dushmanni kuzatish uchun kerak bo'lgan barcha vositalar bilan ta'minlanadi. Kuzatish punkti uchun joy, joyni va dushmanni ning postdagi predmetlarini, o'z qo'shinlari harakati ko'rsatilgan polosada imkon qadar, uzoqlikdan kuzatish imkonini ta'minlashi kerak.


Odatda, kuzatish uchun polosa dushmanni razvedka qilishdan tashqari, o'z qo'shinlari harakatini kuzatib borish; sektor faqat dushmanni va o'ta kesishgan sharoitli joyni kuzatish uchun belgilanadi. Kuzatuv postida okopda, transheyada, snaryad (bomba) portlagan chuqur maxsus jihozlangan inshootda, jangovar mashinada yoki kuzatish qulay bo'lgan joyda bo'lishi mumkin.

Kompas — ufq (gorizont) tomonlarni to'g'ri aniqlash uchun kerak.

Yirik masshtabli xarita — 1:25000, 1:50000 unga kuzatuv posti shartli belgisining kuzatuv sektorini, dushman paydo bo'lib qoladigan yo'nalishni, dushman mudofaasining old chegarasini, uning o't ochish vositalari joylashuvi va boshqalarni chizish uchun.



50-rasm. Kuzatuv postini ta'minlash.



51-rasm. Kuzatuv punkti:

a — ochiq okop; *b* — yopilgan va kuzatish uchun tuynukka ega okop.

Durbin — bu kuzatish vositasi boʻlib, uning yordamida joy va dushmani kuzatuvchi kuzatadi. Durbinning optika tizimi shunday qurilganki, undan kuzatilganda barcha predmetlar haqiqiy joylashuvchidan 2 dan 15 marotabagacha yaqin masofaga keltiriladi.

Kuzatish jurnali — kuzatish natijalari haqida barcha maʼlumotlarni kiritishga moʻljallangan.

Soat — aniq vaqtni bilish uchun.

Telefon (radiostansiya) — komandir bilan aloqa bogʻlab turish hamda kuzatuv natijalarini yuborish uchun.

Ofitser chizgʻichi va qalami — xaritada ishlash uchun moʻljallangan.

Kuzatuv punkti 51-rasmda koʻrsatilgandek boʻlishi kerak.

Kuzatuv posti plansheti — dala sharoitida dushman va joyni razvedka bilan kuzatuv olib borishni shaxsiy tarkibga yordam koʻrsatishga moʻljallangan.


Koʻrinish cheklangan sharoitda joy va joydagi predmetlarni oʻrganish

Joy va joydagi predmetlarni kuzatish uchun qulay boʻlgan qoidaga koʻra, kuzatish postidan kuzatib oʻrganiladi. Eng avvalo, joyni toʻgʻri oʻrganish uchun uning chizmasini tuzish kerak. Unga kuzatuv postining joyi, oʻz qoʻshinlari va dushmanning old marasi chizilib, oriyentirlar belgilanadi hamda ulargacha boʻlgan masofa aniqlanadi. Joy chizmasida shimol yoʻnalishi koʻrsatilgan strelka chiziladi.


Kuzatish qulay boʻlishi uchun kuzatish sektori ichkariga qarata 2—3 zonaga boʻlinishi kerak (yaqini 400 m.dan 800 m.gacha va uzogʻi odam koʻzi koʻrishi chegarasigacha). Zonalar chegarasi, odatda, oriyentirlar yoki joydagi predmetlar bilan belgilanadi.

Kuzatish yaqin zonadan oʻngdan chapga shartli belgilangan marralar boʻyicha oʻzidan ichkariga qarab, joyni va joydagi predmetlarni birma-bir kuzatib chiqish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Joyning ochiq uchastkalari tezroq koʻrib chiqiladi, yopiqdari esa, aniqroq kuzatiladi.

Barcha koʻrgan va aniqlaganlarni kuzatuvchi kuzatuvni toʻxtatmasdan komandirga bildiradi. Bildiruvda kuzatuvchi oriyentirni va undan qancha uzoqlikda (oʻngda, chapda, yaqinda, uzoqda)



52-rasm. Joy chizmasi.



53-rasm. Kuzatish sektorlarini zonalarga bo'lish.

nima payqaganini aytadi, masalan, «ikkinchi oriyentir — chapga 50, yaqinga — 100, sariq buta yonida dushmanning kuzatuv punkti». Bularni u telefonda yoki radiostansiya orqali uzatadi.

Tunda kuzatishni olib borish, ayniqsa, mushkul. Shuni yodda saqlash kerakki, tog'da yuqoridan pastni ko'rish, pastdan yuqorini kuzatishdan ko'ra qiyin. Shuning uchun kuzatish punkti joyi dara va past joylarda tanlanadi, chunki u yerdan dushmanni tezroq topish



54-rasm. Butalar ostidan joyni kuzatish.



55-rasm. Toshlardan foydalanib, joyni kuzatish.



56-rasm. Daraxtdan foydalanib, joyni kuzatish.

mumkin. Oriyentirlar sifatida joyda kontur chiziqlariga ega bo'lgan predmetlar tanlanadi. Tun sharoitida kuzatish tungi ko'rish asboblari yoki ko'z yordamida olib boriladi.

Kuzatish olib borayotgan jangchi, amaliy mashg'ulotlar paytida komandir tomonidan berilgan topshiriqlar qanday bajarilgan bo'lsa, jang paytida ularga to'liq rioya qilish talab etiladi.



57-rasm. Balandlikda harakatlanayotgan dushmanni kuzatish.

Joyda predmetlar va nishonlargacha bo'lgan masofani aniqlash

Masofa metrlarda o'lchanadi. Eng aniqroq masofa xarita mashtabi bo'yicha xaritani joy bilan solishtirish yo'li bilan aniqlashi mumkin. Razvedkachi masofani aniqlashning quyidagi usullaridan ko'proq foydalanadi:

1. Obyektlar (nishonalar)ning burchak o'lchamlari bo'yicha.

Buning uchun biron-bir oraliqda kuzatilayotgan chiziqli o'lchamlar va burchaklarni bilish lozim. Burchak kattaliklari durbin va kuzatishning boshqa vositalari yordamida o'lchanadi.

Misol. Bir qavatli uyning balandligi (8 m) durbinning ikki bo'lagi (0—10)ga teng keladi. Nishongacha bo'lgan masofa quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$U = \frac{B_x \cdot 1000}{BU}; \quad U = \frac{8 \cdot 1000}{10} = 800 \text{ m},$$

bu yerda, B_x — nishon balandligi; BU — minglarda berilgan burchak.

2. Otish paytidagi olov va tovush bo'yicha.

Tovush meteorologiya sharoitlariga bog'liq holda soniyasiga 330—340 m tezlikda tarqaladi (yoki taxminan 1 km.ni 3 soniyada bosib o'tadi). Yorug'lik tarqalishi esa, o'ta tez (soniyasiga 300000 km).

Misol. O'q ochish tovushi otish paytidagi olovdan to'qqiz soniyadan keyin razvedkachiga yetib keladi. O'q uzilgan qurolgacha bo'lgan masofani toping:

$$S = V \cdot T; \quad 330 \cdot 9 = 2970 \text{ m},$$

bu yerda, S — uzoqligi; V — tezligi; T — vaqt.

3. Chiziqli o'lchamlar bo'yicha (chizg'ich yordamida).

Buning uchun millimetrli bo'lakchalariga ega chizg'ich olinadi va uni ko'zlar oldida cho'zilgan qo'l masofasida (ko'zdan taxminan 60 sm uzoqlikdan) ushlanadi, aniqlanishi kerak bo'lgan masofaga, oriyentir (nishon)ga shu chizg'ichning necha millimetri uzunligi (balandligi, kengligi) bo'yicha to'g'ri kelganligi aniqlanadi. Predmetning ma'lum bo'lgan santimetrdagi kattaligi o'lchashlarda hosil bo'lgan millimetr sonlarga bo'linadi va natijada, doimiy son oltiga ko'paytiriladi.

Misol. Agar 6 m balandlikdagi telegraf simyog'ochi o'lchash paytida chizg'ich bo'yicha 8 millimetrni egallasa, ungacha bo'lgan masofa $(600:8) \cdot 6 = 450 \text{ m}$.


4. Predmetlarning ko'rinish darajasi bo'yicha.

5. Dushman joylashgan yerni, uning harakatlanishi va ungacha bo'lgan masofani tovushlar yordamida taxminan aniqlash mumkin.

Durbin shkalasi burchaklarining bahosi mingdan beshga teng —0—05, durbin shkalasining ikki burchagi mingdan o'nga teng —0—10.

Uzoqlikni o'lchash

Durbinning burchak o'lchash turi yordamida joydan predmet (nishon)gacha bo'lgan uzoqlikni o'lchash mumkin, qachonki, o'sha predmet (nishon)ning yoki shu nishon oldida turgan predmetning o'lchamlari ma'lum bo'lsa.



58-rasm. Durbinning burchak o'lchash turi.

Uzoqlikni o'lchash uchun:


1. Predmet (nishon)ning balandligi yoki kengligi burchagi burchak o'lchovida o'lchanadi.

2. Predmet (nishon)ning metrlarda ko'rsatilgan o'lchamlari soni burchak o'lchovi bo'laklariga bo'linadi.

3. Hosil bo'lgan son mingga ko'paytiriladi.

Natijada, metrlarda o'lchangan izlanayotgan uzoqlik aniqlanadi.

Misol. Telegraf simyog'ochining balandligi 6 m.ga teng. Simyog'och 0—30 burchak ostida ko'rinmoqda, ungacha bo'lgan uzoqlik $6 \cdot 1000 : 3 = 2000$ m.ga teng. Burchakning minglar kattaligi (U) qo'l ostidagi predmetlar yordamida aniqlanishi mumkin.



59-rasm. Qo'l ostidagi predmetlardan burchakning minglar kattaligini o'lchashda foydalanish.

Joyning sxemasini qisqa vaqt ichida tuzish uchun razvedka tayyorgarligida normativ belgilangan.

Shaxsiy tarkib kuzatuv postida. Joyning sxemasini tuzishda 500 metrdan 2000 metrgacha uzoqlikda joylashgan, 6 tagacha belgilangan oriyentirga masofani aniqlash. Aniqlashda durbindan foydalanishga ruxsat etiladi. Vaqt vazifa ko'rib chiqish paytidan ishlab chiqilgan sxema topshirishgacha hisoblanadi.

Askarlarning razvedka kuzatuvidagi harakati

Jangovar razvedka kuzatuvi (dozor). Motoo'qchi guruhi batalyon-dan, ba'zida esa, vzvoddan, qoidaga ko'ra, dushman mudofaasining ichkarisida hujum olib borganda hamda dushman bilan yuzma-yuz kelganda, mudofaaga o'tishda jangovar razvedka kuzatuvi tayinlanishi mumkin. Jangovar razvedka kuzatuvi qaysi bo'linmadan yuborilsa, o'shaning manfaatiga doir razvedka vazifalarini bajaradi.



1-mashina



2-mashina



3-mashina

60-rasm. 3 ta BMP tarkibidagi jangovar razvedka kuzatuvi:

1-mashina—kuzatuv mashinasi; 2—3-mashinalar—kuzatuvning asosiy qismi.

Guruh komandiri 2-mashinada.

Jangovar razvedka kuzatuviga vazifa qo'yilishida:

- dushman haqida ma'lumot;
- kuzatuv tarkibi;
- razvedka yo'nalishi (obyekti), qanday ma'lumotlarni qaysi muddatda olish;
- aloqa bog'lab turish va razvedka natijalari haqida bildiruv berish tarkibi;
- vazifa bajarib bo'lingandan keyin harakat tartibi;
- xabarlashish, boshqaruv va o'zaro harakat signallari ko'rsatiladi.

Bulardan tashqari, jangovar razvedka kuzatuviga razvedka olib borayotgan qo'shni bo'linmalar harakati haqida, o'zaro tanib olish usullari tartibi hamda jarohatlangan va o'lganlarni evakuatsiya tartibi, asirlar va hujjatlarni olib borish uchun ko'rsatmalar berish mumkin.



1-mashina

2-mashina

3-mashina

61-rasm. 3 ta BTR tarkibidagi jangovar razvedka kuzatuv:

1-mashina—kuzatuv mashinasi; 2—3-mashinalar—kuzatuvning asosiy qismi.

Guruh komandiri 2-mashinada.

Kuzatuv mashinasi ko‘rish uzoqligi va pulemyotlar (qurol-lar)ni, BTR, BMPlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati masofasida harakatlanadi.

Hujumda jangovar razvedka kuzatuv quyidagi vazifalarni olishi mumkin:


- hujumga o‘tgan bo‘linmalarining front oldida va qanotlarda dushmanning bor-yo‘qligini aniqlash;
- dushman harakatlarining xarakterini aniqlashga, ularni front bo‘ylab va ichkarida manyovrga o‘tish imkonini aniqlash;
- o‘t ochish vositalarini, ayniqsa, tankka qarshi vositalarning joylashuv yerini ochish;
- dushman mudofaasining zaif uchastkalari va ochiq qanotlaridagi zaif joylarini aniqlash;
- dushmanning jangovar tartibi ichkarisi va front oldida to‘siqlar hamda g‘ovlar mavjudligini bilish kerak.

Jangovar razvedka kuzatuv komandiri razvedkani olib borish vazifasini, qoidaga ko‘ra, hujum boshlanishidan oldin oladi. Kerak bo‘lgan paytda jangovar razvedka kuzatuv jang davomida ham yuborilishi mumkin, bu holatda vazifa uni yuborilishdan oldin qo‘yiladi.


Dushman mudofaasi yorib kirilganda, jangovar razvedka kuzatuv o‘z bo‘linmasining jangovar tartibida harakatlanadi. Jangovar tartibdagi o‘rinni kuzatuvga yuborilgan komandir aniqlaydi, u jang maydonidagi vaziyatga, jangovar razvedka kuzatuvining dushman jangovar tartibi ichkarisiga taxminan kirib borish vaqti va marrasiga bog‘liq.

Agar jangovar razvedka kuzatuv dushman mudofaasining birinchi pozitsiyasini yorib kirishda yuborilsa, mudofaani yorib kirishda u jangovar mashinalar liniyasi ortida bo‘ladi. Bu holatda jangovar razvedka kuzatuv shaxsiy tarkibi jang maydonini kuzatadi, vaziyatni o‘rganadi, kirish marrasiga yaqinlashganda esa, kuzatuv komandiri dushmanning jangovar tartibidagi oraliqlar va uni buzish joylarini izlaydi.


Jangovar razvedka kuzatuvining mudofaadagi dushman jangovar tartiblari orqali yorib kirish.



*BMP dushman mudofaasi ichkarisiga,
uning mudofaa orasidan kirishga tayyorlanmoqda.*



Jangovar razvedka kuzatuv i dushmaning mudofaa jangovar tartibini bosib o'tishi — uning mudofaasi ichkarisida razvedka olib bormoqda.



Jangovar razvedka kuzatuvi hujum rivojida dushmanning jangovar tartibi ichkarisiga kirishida, guruh kolonna safida hujumga o'tayotgan bo'linmalar jangovar tartibiga shiddat bilan kelib qo'shiladi.

Joydan ustalik bilan foydalanib, dushmanga yuzma-yuz chiqiladi va o'z bo'linmasi fronti oldidagi hamda qanotlardagi tayanch pulemyotlari va qarshilik tugunlarining chegaralarini aniqlaydi. Dushmanning faoliyat xarakteri, o't ochish vositalarining joylashuvi, g'oyalar va to'siqlar bor-yo'qligini belgilaydi. Keyinchalik dushmanning jangovar tarkibidagi oraliqlar va zaif joylardan foydalanib, jangovar razvedka kuzatuvi marralariga asosan, qat'iy harakatlanib, uning mudofaa ichkarisiga kirib boriladi.

Jangovar razvedka kuzatuvi jangga shunday holatlarda kiradiki, qachonki, dushman haqidagi kerakli ma'lumotlarni kuzatish yo'li bilan olib bo'lmaganda, dushmanni o't ochishga majbur kuzatuv uning o't ochish vositalari joyini aniqlaydi va boshqa ma'lumotlarni oladi.

Mudofaada jangovar razvedka kuzatuvi quyidagi vazifalarni olishi mumkin:

- mudofaa chizig'iga yaqinlashayotgan dushman harakatini bilib olish;
- dushman artilleriyasi va minomyotlarini o't ochish pozitsiyalarida yoyilish joyi va vaqtini aniqlash;
- hujumdagi dushmanning motopiyoda va tanklarini hamlaga o'tishga yoyilish marralarini aniqlash;
- boshqaruv punkti va boshqa obyektlarning yoyilish joylarini ochish.

Jangovar razvedka kuzatuvining komandiri razvedka olib borish vazifasini otishga ko'ra, mudofaa tashkillashtirilayotganda oladi.

Belgilangan vaqtda kuzatuv ko'rsatilgan marraga chiqadi va dushman harakatlari kutilayotgan ehtimoldagi yo'llarda kuzatuvni tashkillashtiradi. Dushman kolonnalari yaqinlashganda, kuzatuv dushman harakatining parallel yo'nalishi bo'yicha chiqadi va uni yoyilish joyi yoki marrasigacha kuzatib boradi.

Dushman mudofaani yorib kirganda, jangovar razvedka kuzatuvi qo'yilgan vazifalarni bajarishda davom etadi. Qaltis vaziyatda o'z qo'shinlari joylashgan yerda qaytarilishi mumkin, yuqori manyovrli jangovar harakatlar sharoitida motoo'qchi va tank

batalyonlarida jangovar razvedka kuzatuvi kuchlari bilan razvedka olib borish keng qo'llanishlarni topadi.

Jangovar razvedka kuzatuvi dushman mudofaasining jangovar tartibini bosib o'tib, uning mudofaasi ichkarisida razvedka olib boradi.

Jangovar razvedka dozori (kuzatuvi) marshda

Tog'larda jangovar razvedka kuzatuvi marshga chiqqanda, odatda, yo'llar, vodiylar, adirlar bo'ylab harakatlanadi va qo'mondonlik mexaniklarni birma-bir ko'zdan kechiradi va ularning kuzatuvini olib boradi. Harakat yo'nalishidan qolib ketgan yo'llar, so'qmoqlar va daralar kuzatishning o'ng'ay bo'lgan kuzatuv punktlaridan guruh komandiri orqali ko'rib chiqiladi yoki ularni ko'rib chiqish uchun kuzatuv seksiyasi (tank) yuboriladi. Bunda asosiy e'tibor dushman tomonidan qo'yilishi mumkin bo'lgan pistirma va har xil g'ov-to'siqlarga qaratiladi. Joy uchastkalarini qiyinchilik bilan kuzatiladigan joylarga piyoda kuzatuvchilar yuboriladi.

Kuzatuv seksiyasi (tank) qulay kuzatuv punktidan boshqasiga qayta tezlikda, bo'linmalar harakatiga xalaqit bermasdan harakatlanadi. Harakatlanish yo'lida joy va undagi predmetlar sinchiklab ko'zdan kechiriladi.


Shunday qilib, har bir askar razvedka kuzatuvini olib borishni, kuzatuv posti uchun joyni to'g'ri tanlashni, jihozlashni va joyni niqoblashni, topografik xaritadan, kuzatuv asboblardan, aloqa vositalaridan foydalanishni bilishi, nishongacha bo'lgan masofani durbin yordami va qo'l ostidagi vositalar bilan to'g'ri aniqlashi kerak.

BMP-2 da razvedka olib borishda muhim obyektlarni ko'zdan kechirish uchun yayov kuzatuvchilarni tushirish vaziyati tug'ilishi mumkin. 62-rasmda juft kuzatuvchining piyoda obyektga qarab yurishi tasvirlangan.




62-rasm. Juft patrullar joyni ko'zdan kechirmoqda.

Mudofaada razvedka olib borish




BMP harakatlanayotgan dushman bo'linmalarining jangovar texnikasini razvedka qilmoqda va bu haqda komandirga bildiruv bermoqda.

BMP-2 dagi razvedka dozori (kuzatuvi)ning marshdagi harakati



BMP-2 dagi razvedka dozorining marshdagi harakati



Razvedka kuzatuvdagi ekipajning barcha a'zolari va desant oldini, o'ngni, chapni va ortini marshda kuzatib boradi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kuzatuvchi qanday topshiriqni bajaradi?
2. Kuzatuv postining tarkibi qanday tuziladi?
3. Kuzatuv postida qanday vositalar bo'lishi kerak?
4. Kuzatuv postidagi telefon nima uchun kerak?
5. Kompas mili (strelkasi) dunyoning qaysi tomonini ko'rsatadi?
6. Durbinlarning qanday turlarini bilasiz?
7. Durbin shkalasining minglardagi bo'laklarini bayon eting.
8. BRM-1K, BRDM-2 nima?
9. Jangovar razvedka kuzatuv va uning tarkibi qanday vazifalarni bajaradi?
10. Jangovar razvedka kuzatuv shayligi va dushman mudofaasining ichkarisiga kirishini bayon eting.
11. Mudofaada turgan jangovar razvedka guruhi tomonidan dushman tarafining qanday razvedka qilinishini izohlang.
12. Joyning chizmasi qanday tuziladi va oriyentirlar qanday belgilanadi?

4-bob. MUHANDISLIK JIHOZLASH VA ULARNI KO'ZDAN YASHIRISH

Ustalik bilan jihozlangan istehkomlar urush tajribasida ko'p jihatdan oldindan belgilanganidek, jangda muvaffaqiyatlarga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilari yuqori saviyadagi muhandislik tayyorgarligiga ega bo'lish bilan birga hudud va maydonlarda jihozlanish vaziyatini a'lo darajada qo'llash imkoniyatiga egadir.


Zamonaviy jang olib borish jarayonida muhandislik jihozlash ishlari muhim darajada o'sdi. Zamonaviy jang olib borish bilan birga, ommaviy va oddiy vositalarni shikastlash ta'sir kuchlari, qo'shilma va qismlarning namunaviy-texnikaviy ta'minlanishi oshishi natijasida, muhandislik jihozlash yo'llari bilan dushmanning shaxsiy tarkibini shikastlash vositalari bilan himoyalaniishiga ularni sirli va oshkor bo'lmagan vaziyatlarda front oldi hamda uning ichkarisida tez epchil harakat qilib, jang olib borishini ta'minlaydi.

Seksiyaning muhandislik jihozlash ishlariga yashirinish joylari, okoplar va aloqa yo'llari qurilishi bilan birga mina portlatish to'siq-larini tayyorlash ham kiradi. Dushman bilan bevosita yaqinlash-ganda, seksiyaning okoplari, tarmoq yo'llarini aniqlagan dushman ularni sindirish vaziyatida bo'ladi. Buning uchun yer o'yuvchi mashinalardan foydalaniladi. Dushman bilan bevosita yaqinlashish sharoitlarida jihozlash vaziyati qo'lda kovlash yo'li bilan bajariladi.

Okoplar va kovaklar

O'qchilar, pulemyotchilar va granatomyotchilar avval yotgan holda otish uchun, keyinchalik ochiq joygacha 60 sm chuqurlikda tizza holatida va 110 sm chuqurlikda turgan holatlarda otish uchun yakka-yakka okoplar tayyorlashadi. Granatomyotchilar uchun ham, o'qchilar uchun ham xuddi shunday yakka okop kerak bo'ladi. Ularning farqi shundaki, granatomyotning otish yo'nalishidagi qarama-qarshi tomonlari tuproq uyumlari bilan to'ldirilmaydi. Okopda granatomyot o'qchisi, granatomyot uchun maydonga granatomyot va uning o'q-dorilarini yashirish uchun kovaklar qilinadi. Dushmanning o'qi va yondiruvchi vositalaridan himoyalaniish maqsadida okoplarda bir, ikki kishi uchun tuproq uyumlaridan yasama do'ngliklar quriladi.

Seksiya uchun okop yakka holdagi okoplar birlashtirilgandan keyin tashkil etiladi. Bu quyidagicha tuziladi: okoplar hududi bo'ylab, oldi va orqa tomonlar tuproq uyumlaridan yasama do'ngliklar qilinadi, o'qchilar uchun, asosiy va zaxiradagi pulemyot hamda granatomyotlar uchun joylar, orqa tomonda esa, aloqa yo'llari hamda o'q-dorilar, oziq-ovqatlar uchun kovaklar tayyorlanadi.



63-rasm. Okopdagi seksiya:

- 1—jang olib borilayotgan ochiqlik; 2—yon tomonlarga o'tish kovagi; 3—pulemyotlar uchun joy; 4—otish uchun joy; 5—usti yopilgan istehkom; 6—granatomyot uchun joy; 7—usti yopilgan jang olib boruvchi ochiqlik; 8—asosiy o't ochish pozitsiyasida BMP uchun joy; 9—apparel; 10—tuproq uyumi; 11—zarurat joyi; 12—aloqa yo'llari; 13—zaxirada o't ochish vaziyatidagi BMP uchun joy.

BMP (BTR)lar uchun okoplar asosiy va zaxiradagi joylardan ko‘z uzmaganda holda to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, mashinalar uchun maydoncha jihozlanadi, tuproq uyumlaridan qilingan yasama do‘nglikdan madad berish maqsadida yurib chiqish yo‘llari tayyorlanadi. Kovak seksiya oldinga tikka chiqish uchun jihozlanadi. Chuqurligi 1,5 m, kengligi 0,6 m, uzunligi 3 m.dan kam bo‘lmagan okopdan to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish joyi tayyorlanadi. Kovak xodalar, yog‘ochlar va shoxlar bilan berkitiladi.

Mina — portlatuvchi to‘siqlar. Dushman tanklari va piyodalarining harakat qilish yo‘llariga hamda eng oldingi joylarga tankka qarshi, piyodalarga qarshi va aralash joylarga alohida guruh minalari o‘rnatiladi. Tankka qarshi minalar maydoni uch-to‘rt qatorda joylashtiriladi. Joylashtirilgan minalar oraliq qatori 10 m.dan 40 m.ni, har qaysi qatordagi minalar bir-biridan 4 m.dan 5,5 m.gacha oraliqni tashkil qiladi. Minalar maydonining umumiy uzunligi 20 m.dan 120 m.ni tashkil etadi.

Piyodalarga qarshi minalar maydoni siquv holatida, odatdagidek, ikki va to‘rt qatarga o‘rnatiladi. Minalar qatoridagi masofa 2 m.dan 4 m.gacha bo‘ladi, minalar qatoridan minalar orasi 1 m.gacha bo‘ladi. Dushmanni harakatlanishi mina portlash to‘siqlari o‘rnatilgan joylar orqali amalga oshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qurolli kuchlarda muhandislik jihozlash qanday o‘rin tutadi?
2. Seksiyaning muhandislik jihozlanishini izohlang.
3. Tankka qarshi minalar maydoniga minalarni joylashtirish holatini bayon eting.
4. Piyodalarga qarshi minalar o‘rnatish tartibi qanday?

5-bob. QUROLLI KUCHLARDA QO‘LLANILADIGAN MINALAR

Zamonaviy jangda muhandislik to‘siqlari qo‘shilmalarining jangovar holatlarini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Dushmanga shikast yetkazish va oldinga harakatlanishni susaytirish hamda uning manyovr qilishini qiyinlashtirish maqsadida ochiq joyga (suvda yoki havoda) o‘rnatiladi.


Muhandislik to‘siqlarining asosiy turlaridan biri—mina portlashi hisoblanib, dushmanga tavsifiy ta‘sir etish uchun qo‘llaniladi.

Ikkinchi Jahon urushi davrida muhandislik to'rsiqlariga o'rnatilgan mina portlashlari natijasida dushmanning 10000 dan ortiq tanklari yakson qilingan. Ayniqsa, Moskva ostonasi va Kursk yoyidagi janglarda dushman ko'p tanklarini yo'qotadi.

Mina portlash to'rsiqlarini jihozlashda minalar qo'llaniladi. O'zining tayinlanishi bilan ular tankka va piyodalarga qarshi bo'linadi.

Tankka qarshi minalar

Tankka qarshi minalar tankning zanjiriga qarshi bo'lib, ular tanklarga, raketa va artilleriya qurilmalariga, piyodalarning jangovar mashinalariga, zirhli transportyorlar va dushmanning boshqa transport mashinalari joylashuvlarini minalashtirish uchun qo'llaniladi.




64-rasm. Tankka qarshi TM-57 mina MVZ-57 portlagich bilan birga ko'rinishi:

a—transport holatidagi umumiy ko'rinishi; *b*—jangovar holatidagi minaning kesmada ko'rinishi: 1—korpusi; 2—qalqoncha; 3—MVZ-57 portlatgich; 4—diafragma (parda to'siq); 5—zaryadi; 6—osti; 7—markaziy detanator; 8—yonboshdagi detanator; 9—qopqog'i.


Zanjirga qarshi TM-57, TM-62 rusumli minalar — jangovar texnikalarning yurish qismlari minani bosib o'tganda ishlay boshlaydi. TM-57 rusumli mina (diametri—320 mm, balandligi — 110 mm) korpusi metall dan tayyorlanadi. Minaning og'irligi 9 — 9,5 kg. Zaryadining og'irligi 6,5 kg; ishlash rejimi 200—500 kgs.

TM-62 rusumli mina: TM-62 M rusumli metall dan, TM-62 D rusumli yog'ochdan, TM-62 P rusumli plastmassadan, TM-62 PE rusumli polietilendan, TM-62 T rusumli mina korpusi bilan gazmol materialdan tayyorlanadi. Minalar og'irligi 9,5—10 kg, zaryad og'irligi 7—7,5 kg, ishlash rejimi 150—550 kgs.



65-rasm. Tankka qarshi minalarni chim bilan qoplangan joylarga o'rnatish:

1—tunroq bilan to'ldirish; 2—mina; 3—niqoblangan chim.



66-rasm. Tankka qarshi minaning yaydoq yerlarda o'rnatilishi:


1—niqoblovchi qatlam; 2—mina; 3—mina tuproq o'lchami;
4—qoziqcha; 5—birlashtiruvchi; 6—yonbosh portlatgich.

TM-62 rusumli mina (67-rasm)ga MVCH-62 portlatgich (68-rasm) bilan qo'llaniladi. Minalar harakatlanish jihatlari: portlatgich qalqonchasi bosilishi bilan pastga tushadi, uning tiqini M-1 kapsul-detanator bilan detanatorni qo'zg'atadi. Chekning qisilishi bilan uzilib, soqqalardan (zoldir) zarbdor ozod bo'lib, jangovar prujina harakatga kelib, M-1 kapsul-detanator cho'g' oldirishi bilan uning portlashini qo'zg'atadi va minalar portlaydi.

Mina tiqini chiqarilgach, rezinali prokladkalar mina ko'zidagi o'rni to'g'riligiga ishonch hosil qilinadi; mina portlagichini burab, uni kaliti bilan qattiq bog'lanadi.

Mina chuqurlikka yoki uning ustiga o'rnatiladi. Qo'riqlagich cheki portlagichdan bo'shatiladi va tezlik bilan ishga tushiruvchi tugmacha bosiladi. Mina niqoblanadi.

Minalarni bo'shatish zarurati: mina chiqarib olish holatida o'rnatilganligiga ishonch hosil qilinadi. Mina niqoblangan qatlamlardan chiqariladi. Portlatgichni jangovar holatdan transport holatiga o'tkaziladi.




67-rasm. Tankka qarshi TM-62 M mina:

a—minaning MVCH-62 portlatgich bilan birga transport holatidagi umumiy ko‘rinishi; *b*—minaning portlatgichsiz (qopqog‘i bilan) kesilgan holda ko‘rinishi:
 1—korpusi; 2—qopqog‘i; 3—qistirma; 4—zaryadi; 5—tubi; 6—qo‘shimcha detanator;
 7—qotirish uchun dastak teshigi.

O‘rnatilgan joydan mina chiqariladi va u tuproq qatlamlaridan tozalanadi, buyumning shikastlangan joylari ko‘zdan kechiriladi:

- tuzatilgan (sozlangan) minalar o‘rab joylashtiriladi;
- MVCH-62 portlatgichni jangovar holatida transportda olib ketish zarur;
- rezinali qalpoqcha oldingi krandan chiqariladi;
- kalit bilan oldingi kran soat strelkasi yo‘nalishida uch-to‘rt aylanasi buraladi, shuningdek, boshlovchi tugmacha yuqoriga ko‘tarilishi shart;
- kalitni boshlang‘ich holatiga burab qaytarish va uni ichidan chiqariladi;
- rezinkali qalpoqcha kiygiziladi;
- qo‘riqlagich o‘rtasida chekiga boshlovchi tugma kiygizilib, zanjir bilan berkitiladi.


MVCH-62 portlatgich bilan TM-62 rusumli minalarni ko‘chirish va transportda oxirgi shaylash holatda tashishga ruxsat etiladi. Tankka qarshi TM-57 rusumli mina MVZ—57 rusumli portlatgich bilan birga qo‘llaniladi. Minalarning harakatlanish jihati: o‘rnatilgan mina bosilishi bilan uning qopqog‘i shaklini o‘zgartiradi; portlatgichning zarbdor mexanizmi pastga qo‘yib yuboriladi; tiqin KD—MV kapsul-detanatorning parda to‘sig‘iga borib taqaladi; keyingi bosilishda chek qirqladi; sharikchalar zarbdorni bo‘shatadi; jangovar prujinaning harakatlanishi natijasida zarbdor kapsul-detanatorni cho‘g‘ oldirtirib, uning portlashini yuzaga keltirishi bilan mina portlaydi.



68-rasm. MVCH-62 portlatgich:

a—portlatgichning jangovar holatdagi kesimi; *b*—portlatgichni transport holatiga o'tkazish uchun kalit; 1—konus shaklidagi asosi; 2—qalqoncha; 3—qo'riqlagich o'rta chakini o'rnatish uchun joy; 4—tugmachacha; 5—ijrochi disk; 6—rezba; 7—korpusi; 8—qopqoq; 9—M-1 kapsul-detanatorning zarbdor mexanizmi bilan; 10—detanator (portlatgich modda); 11—kesishgan chek.


Minalarni o'rnatish uchun zaruriyat: minalardan tiqin burab olinadi; minalardan qopqog'i olinganda shakli o'zgarganligiga ishonch hosil qilinadi; portlatgichdan qalpoqcha burab chiqariladi va mavjud bo'lgan rezinali qistirma borligiga ishonch hosil qilinib, portlatgichni soat mexanizmi kaliti bilan buraladi; minaga portlatgich



69-rasm. Tankka qarshi minaning yumshoq (zax) yerda o'rnatilishi:

1—niqoblovchi qatlam; 2—mina; 3—taxta taglik; 4—tuproq bilan to'sish.

burab kirgiziladi; mina chuqurlikka yoki uning yuqorisiga o'rnatiladi; mina portlagichi jangovar holatga yuqoriga ko'tarilishi uchun qo'riqlagich o'rta chakini tugmasidan uzoqlashtiriladi va tugma bosib qo'yiladi, mina niqoblantiriladi.



70-rasm. Qish (qor yoqqan) sharoitda tankka qarshi minaning oʻrnatilishi:

1—niqoblovchi qor; 2—qor; 3—zichlangan qor; 4—mina.

Minalarni chiqarib olish zaruriyati: mina chiqarib olish holatida oʻrnatilganligiga ishonch hosil qilinadi; minalar niqoblangan qatlamlardan chiqariladi; portlagich minadan burab olinadi; portlagich jangovar holatdan transportga oʻtkaziladi va burab kirgiziladi.

Oʻrnatilgan mina joyidan chiqariladi.

Piyodalarga qarshi minalar

Bu minalar dushmanning tirik kuchlarini shikastlash maqsadida qoʻllaniladi. Ular ikki xil: *fugasli* va *oskolkali* boʻladi.

Umumiy tuzilishi. Mina korpusi, yondiruvchi zaryad zarrachalari va portlatish oldindan saqlagichning tuzilishi boʻyicha xavfsiz joylashtirilishidan iboratdir. Baʼzi bir minalar oʻrnatish uchun maxsus moslamaga joylashtirilgan.

Harakatlanish holati. Minaning cheki uzib tashlangandan keyin metall elementi (vaqtinchalik predokranitel) ikki yarim daqiqa oʻtishi bilan jangovar holatga keladi. Jangovar holatda turgan mina bosib olinganda, uning qopqogʻi tushishi bilan «T» shaklidagi chekni portlagich surib yuboradi. Zarb boʻshab, jangovar prujinalar zapalga qadalib, portlashni yuzaga keltiradi.

Piyodalarga qarshi minalar portlash natijasida fugasli va oskolkali holatlari bilan shikastlash taʼsirini koʻrsatadi. Fugasli minalar portlash tartibiga koʻra, bir kishini shikastlaydi. Oskolkali minalar bir holatning oʻzida bir qancha kishini shikastlaydi.

Minalarni joylashtirish. Tank va piyodalarga qarshi minalar dushmanning harakatlanish yoʻllariga oʻrnatiladi. Mudofaada tur-

ganda esa, eng oldindagi hududlarga, ayniqsa, yon tomonlarni to'sish va ikki narsa orasidagi masofalarga va uning ichkarisiga hujum qilish vaqtida, oldingi maydondagi dushmanning hujumga o'tishini qaytarish uchun o'rnatiladi. Tanklar va piyodalarga qarshi minalar joylarga maxsus asbob-uskunalar bilan jihozlangan vertolyotlarda va to'siqlarni o'rnatuvchilar yordamida qo'lda o'rnatiladi.

Minalarning qo'lda o'rnatilishida chuqurni mina hajmida belgilab, shunday o'lchamda kovlanadi. O'rnatilgan mina bir qancha tuproqni yuqori qismidan chiqib turish bilan portlagichni aylan-



Yer qatlamidagi buzilishga qo'yilgan mina



Yerning o'pirilgan joyidagi mina



Simda tortilgan mina



Do'nglikdagi mina



O'simliklarga o'rnatilgan mina



Ajriqdagi mina



Minaning ko'rinib qolgan qismi



Minalarni ko'rsatuvchi belgi

71-rasm. O'rnatilgan minalarning ko'rinishi.

tirib, portlagich jangovar holatga keltiriladi. Qo'riqlagich chekini uzib olib niqoblantiriladi. Tankka qarshi mina tuproq qatlamidan 5—8 sm.da, piyodalarga qarshi mina esa, qatlamdan 1—2 sm.da niqoblanadi. Tankka qarshi minalarni chiqarib olish taqiqlanadi, ularni portlash zaryad zarrachalari kovlab olinishi yoki boshqacha turlar bilan yo'qotiladi.

Belgilab qo'yilgan hudud joylariga o'rnatilgan minalardan maydon tashkil qilinadi. Minali maydonlar tankka, piyodalarga qarshi va aralashma holatida o'rnatiladi. Yashirilmagan mina belgilari do'ng va tepaliklarda yoki ulardan keyin, yig'ishtirilmagan yerlarda, qishda esa, zichlangan qorda, yerning cho'kkan joylarida yoki yerni tig'izlab berkitilgan joylarga tashlab yuborgan asboblari yoki kerakli jihozlarga minalar o'rnatiladi. Mashinalar va odamlarning yo'lida mina to'siqlarini ko'rsatuvchi belgilarni uchratish mumkin. Ayrim yashirilmagan minalar belgilarining tavsifi 71-rasmda ko'rsatilgan.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qurolli kuchlarda muhandislik jihozlash qanday o'rin tutadi?
2. Seksiyaning muhandislik jihozlanishini izohlang.
3. Tankka qarshi minalar maydoniga minalar joylashtirish holatini bayon eting.
4. Piyodalarga qarshi minalar o'rnatish tartibini so'zlang.

6-bob. JOYDA XARITASIZ ORIENTIRLANISH

Joyda oriyentirlanish — bu ufq tomoniga nisbatan o'zining o'rnatilgan joyini, joylanish holatini aniqlashda, joy predmetlarini ajratib va aniq izchil ko'rsatilgan yoki tanlangan yo'nalish bo'yicha harakatlanish. Ko'rinish holati chegaralangan, notanish bo'lgan o'rmon joylarda, jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda, bilimdonlik va epchil harakatlar qilish, joyni aniq oriyentirlash talab qilinadi.

Joyda oriyentirlashni topografik xaritalar yordamida va xaritasiz amalga oshirsa bo'ladi. Joyni xaritasiz mo'ljalga olishda, odatda, ufq tomonlarini aniqlay bilish kerak bo'ladi.

Ufq tomonlarini aniqlash

Joyning qanday tavsifidan qat'i nazar, kunning vaqti va ufq tomonlarining ko'rinish holati, kompas, quyosh holati, quyosh

va soat bilan, qutb yulduzlari, joyning buyum belgilari va boshqa usullarni qo'llash bilan aniqlanadi.

Kompas bilan tomonni aniqlashda (72-rasm), shimol-janub bo'ylamasida joylashgan magnit meridianasidagi magnit millari asosiy xususiyatlarni ishlash jihatiga bog'liq bo'lib, boshlashdan oldin mushkani nolidan limba (burchak o'lchagich asboblari darajaga bo'lingan doira) simlarga ajratiladi.



72-rasm. Andrianov kompassi:


a—umumiy ko'rinishi; *b*—kompas qopqog'ining mushka bilan kesishgan ko'rinishi;
d—limba (burchak o'lchagich asboblari darajaga bo'lingan doira).

Buning bilan birga, kompas gorizontal holatda o'rnatiladi va millar to'xtatiladi. Kompasni burib, magnit milining shimol tomonidagi oxiri nol bilan limba ajralgan joyiga qarama-qarshi bo'lishiga erishish kerak. Kompasni mo'ljal olish holati bo'yicha mil yo'nalishlari nol bilan limba bo'lingan tomoni shimol yo'nalishida turadi. Bundan keyin kompasning kesishgan joyi va mushkasi joydagi predmetga to'g'rilanadi, so'ngra ko'rsatmasidan foydalaniladi. Shimol yo'nalishlarini bilish bilan birga, ufq tomonlarini aniqlash oson bo'ladi.

Ufq tomonlarini aniqlash maqsadida, quyosh holatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Shimoliy yarimsharda taxminan: 7.00 da (yozda 8.00 da) — sharqda, 18.00 da (14.00 da) — janubda, 19.00 da (20.00 da) — g'arbda bo'ladi.


Quyosh va soat bilan ufq tomonlarini (73-rasm) aniqlash uchun, soat gorizontal holatda o'rnatiladi, bu bilan soat mili quyosh yo'nalishida bo'lishi kerak, keyin soatni shu holatda ushlab turib, xayolda soat millari burchagi va raqamlari o'rtasida bo'linadi. Olingan to'g'rilik janubga harakatlanishi yaqinlashganini ko'rsatadi. Kunning yarmigacha aylanma yoyini (soat raqamlari ko'rsatilgan kifarlat) o'rtasidan bo'lib, soat millari 13.00 (14.00)dan, kunning yarmidan keyin esa, aylanma yoyi 13.00 (14.00)dan o'tganda bo'linadi.

Ufq tomonlarini qutb yulduzlariga qarab aniqlash maqsadida, osmondagi yulduzlar orasida katta ayiq (katta yetti og'ayni)



73-rasm. Quyosh va soatga qarab, ufq tomonlarini aniqlash.

yulduzini topish zarur. Keyin esa, ikki choʻmich yulduzi oʻrtasidan, xayolan toʻgʻri kesib (a va b), kengaygan qismi tomonigacha kuzatish davom ettiriladi va besh marta ajratiladi (74-rasm). Olingan nuqta qutb yulduzlari tartibini koʻrsatadi, qaysiki, yulduzlar kichik ayiq (kichik yetti ogʻayni) yulduzi bilan birga chiqadi va har doim shimolga harakatlanishda boʻladi.




74-rasm. Qutb yulduzini topish.

Joydagi predmetlar belgilari orqali ufq tomonlarini aniqlash maqsadida, joydagi predmetlar quyosh yoʻnalishi tartibida aniqlanadi. Shuningdek, daraxtlar, yirik toshlar, toʻnka va shox bilan qoplangan qoyalar.

Oʻrmonlardagi chumoli uyalarini janubga tikka tushgan boʻladi; oʻt-oʻlanlar va boshqa daraxt mevalari oʻz koʻrinishini janub tomoniga qarab jilovlantiradi. Janubga qarab turlanishda esa, bahorda qor shimolga nisbatan janubda tez eriydi. Nasroniy ibodatxonalari va protestantlar xochi hamma vaqt sharqqa, musulmonlar ibodat qiluvchi machit qubbalaridagi oylar janubiy-gʻarbga yoʻnalgan boʻladi (75-rasm).

Gumbaz qismidagi xochlar shimol va janub yoʻnalishlari tomoniga intiladi. Koʻrsatilgan toʻsiq xochlari shimolga yoʻnaltiriladi.



75-rasm. Ufq tomonlarini kuzatuv joyida aniqlash.

Turgan joy haqida axborot

Oʻzining turgan joyi haqida (nuqta joyini) axborot joyning buyumlariga bogʻliq boʻlib, ufq tomonlarini aniqlash (moʻljallash)da, joy buyumini aytishda axborot qiluvchi bevosita oʻsha yerda boʻlishi, joyning buyumlar masofasigacha (moʻljallar) ufq tomonlarini koʻrsatuvchi yoʻnalishlarni aniqlaydi. Masalan, oʻrmonning shimoliy chekka qismidan: shimolda 600 m—zavod quvuri, gʻarbda 200 m — qishloq, janubda 300 m—daryo, sharqda 500 m—yoʻl.

Magnit azimuti va joydagi predmetlar bilan oriyentirlanish

Azimut boʻylab harakatlanishda, mohirlik bilan kompas yordamida koʻrsatilgan yoki belgilangan yoʻnalish boʻyicha tayinlangan

punktga aniq chiqish bilan ahamiyatlidir. Joydagi predmet bo'yicha aniqlashda, odatda, magnit azimutdan foydalaniladi. Ular ufqqa yo'naltirilgan burchak bo'lib, harakatlanishda soat millarining shimoliy meridian yo'nalishidan predmetgacha bo'lgan yo'nalishi hisoblanadi. Bu 0° da 360° gacha ahamiyatga ega bo'ladi.

Magnit azimutini aniqlash maqsadida, joydagi predmetga kompas yordamida, predmetga yuz tutgan holatda turib, kompasni mo'ljall olinadi. Keyin esa, mo'ljallangan holatda kompasni ushlab turib, o'lchash asboblari qo'yib, o'lchash yo'llarini bo'lib, yo'nalishga to'g'rilashi kerak. Shu holatda limba (burchak o'lchagich asboblari graduslarga bo'lingan doira)ga qarshi mushka, magnit (to'g'ri) azimut (yo'nalishi) bo'yicha joydagi predmetlarning o'lchamini ko'rsatadi.


Qaytish azimuti — bu joydagi predmetdan turish nuqtasigacha bo'lgan yo'nalishdir. To'g'ri azimutdan 18.00 dan oshiq bo'lsa, undan ayirib, hisoblab aniqlanadi. Joyning tomon yo'nalishlarini magnitli azimutga mushka ko'rsatkichlari o'rnatib hisoblanadi, topshirilgan magnit azimut tengligi aniqlangan holda kompas orqali mo'ljallanadi. Keyin esa, kompasni mo'ljallagan tartibda ushlab, joy o'lchamida uzoqlashtirilgan buyum o'lchanib, mushkasidan kesiladi. Bu buyum bo'yicha yo'nalishi kerak bo'ladi.

Kompas bilan ishlash davrida uni ko'zdan 10 sm past o'lchamda chap qo'lda ushlab, yon tomoni tirsaklari bilan qattiq qisib qo'llash lozim.

Azimut bo'ylab harakatlanish

Azimut bo'ylab harakatlanish chog'ida, magnit azimutini har qaysi punkti bo'ylab masofani, masofalar oralig'idagi juft qadamlar (o'rta bo'yli odamning juft qadami $1,5$ m.gacha qabul qilinadi) bilan harakatlanishni bilishi lozim. Bunday tavsilotlarni seksiya yoki vzvod komandiri tomonidan harakatlanish marshrut sxemasi to'ldiriladi (76-rasm).

Bir punktdan boshqa punktga harakatlanib o'tishda, yo'nalish oriyentiriga amal qilgan holda juft qadam bosish hisobga olib boriladi. Qaytish va burilish punktlarida kompas yordamida topshirilgan azimutga harakatlanish yo'nalishlari axtariladi. Bunday yo'nalishni tanlash va eng olisdagi oriyentirni yoki yaqin masofada harakatlanish punkti burilish marshrutini esga olib qolishi kerak bo'ladi. Agar o'rta oraliqdagi mo'ljall burilish punktida ko'rinmagan bo'lsa, keyingi oriyentir bo'yicha aniqlanadi.



76-rasm. Magnit azimutlari:


daraxtga—67°; fabrika mo'risiga—137°; shamol tegirmoniga—230°; archaga—323°.

Ochiq bo'lgan joyda mo'ljalsiz harakatlanish ustuvor (ikki narsa kuzatish nuqtasi orqali o'tgan to'g'ri chiziq) o'rnatiladi. Qaytish nuqtasida kompas bo'yicha keyingi nuqtaga harakatlanish belgilari shu yo'nalish bo'yicha bir joydan, ikkinchi joyga qo'yiladi. Vaqt-vaqti bilan qarab, ularni kuzatib turish orqali keyingi harakatlanish to'g'ri yo'nalishga tushishini, xayolan ortda qoldirilgan belgilar (harakat qadami izlari) bilan solishtirib borilishi shart.

Vaqt-vaqti bilan nazorat uchun harakat yo'nalishini azimutga qaytishda osmon bo'ylab ko'rinishi mavjud bo'lgan mo'ljallar xaritalar (sxemalar) bilan joy harakatlanish marshruti solishtirib ko'riladi. Agar qaytishga zarurat tug'ilsa, shu yo'l bo'ylab oldingi marshrut sxemasidan foydalaniladi. Qaytishda oldindan to'g'ri azimutlar bo'yicha harakatlanishga o'tiladi. Tun oralig'idagi (yordamchi) oriyentirlarda joydagi predmetlarning uzoqdagi yorituvchi nuqtalarida, yaxshi ko'rinishdagi yulduzlardan foydalanadi.

Agar bunday imkoniyat bo'lmasa, erkin qo'yilgan kompas strelkalarini mo'ljal holatiga qo'yib, harakatlanish yo'nalishida mushkaning kesishgan oralig'idan to'g'ri olish lozim.

To'siqlardan aylanib (ko'rish imkoni bo'lmaganda) o'tishda, to'siqlarga to'g'ri bo'lgan harakat yo'nalishi va to'siqlar tomoni ko'z ostiga olinib, masofa oralig'i o'lchami va bunga bosib o'tilgan yo'l o'lchami qo'yiladi. To'siqlardan aylanib o'tilib, oldindagi kesishgan yo'nalish yo'li kompas bilan aniqlanadi.



77-rasm. Azimutlar bo‘ylab qadamlab yurish chizmasi
(j.q. — juft qadam).

T/r	Yo'nalish hududi	Gradus magnit hududi	Juft qadamdagi masofa
1.	Saroy—minora	80°	610
2.	Saroy—tomorqa	88°	560
3.	Tomorqa—yakka daraxt	78°	850

TOPSHIRIQ

1. Ufq tomonlarini kompas, mahalliy predmetlar yordamida aniqlang.
2. Turgan joyingizdagi mahalliy predmetlarni belgilash orqali axborot bering.
3. 100 metr o'lchab qadamlab yuring, azimut bo'ylab 1000 qadam tashlang.



NAZORAT SAVOLLARI



1. Tankka qarshi qanday minalar qo'yiladi?
2. Quyosh bo'yicha ufq tomonlari qanday aniqlanadi?
3. Qutb yulduzi qanday topiladi?
4. Topografik aniqlash usullarini izohlang.
5. Kompas bo'yicha ufq tomonlarini bayon eting.
6. Magnit azimuti nima?

II. OTISH TAYYORGARLIGI

Har bir harbiy xizmatga chaqiriluvchi o'q otish qurollarini bilishi, ulardan qanday foydalanish mumkinligini o'zlashtirib olishi lozim. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida zamonaviy qurollarning texnik tavsiflari, ularning mo'ljalni yo'q qilish imkoniyatlarini puxta o'zlashtirib olishi, harbiy xizmatga chaqirilganda asqotishi turgan gap.

Tajribali ustozlar olib borgan mashg'ulotlar asosida o'q otish qurollarini sinab ko'rish xavfi foydadan xoli emas. Ushbu bo'limda hozirgi kunda amalda bo'lgan o'q otish qurollari haqida atroflicha ma'lumot berilgan.

Otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida otish qurollaridan jang davomida shaxsiy tarkibga turli nishonlarga shikast yetkazish usullari o'rgatiladi. Bularga otish qurollarining asosiy qismlari, nishonlarga o't ochish, qo'l granatalari haqida ma'lumotlar, ularning qo'llanishidagi usullar bilan birga, razvedka turlari bilan nishonni aniqlash, ungacha bo'lgan masofani belgilash va unga o't ochish usullari kiradi. Bu bo'limda Kalashnikov avtomati, stvol ostidagi GP-25 granatomyoti, parchalanuvchi va tankka qarshi granatalarning jangovar xususiyatlari, tuzilishi, ishlash jihatlarini bilan birga harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan nishonlarga o't ochish qoidalarini haqida ma'lumotlar berilgan.


Otish tayyorgarligi mashg'ulotlari davrida avtomatni otishga tayyorlash, harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan nishonlarga o't ochish usuli hamda qoidalarini bajarish, avtomatni moylash va tozalash, joylashuvini ega bo'lgan jismlari o'rtasidagi masofani burchak o'lchami yordamida o'lchash, parchalanuvchi tankka qarshi qo'l granatalari turli holatlarda masofaga aniq uloqtirishni o'rganish bilan birga, parchalanuvchi va tankka qarshi qo'l granatalarini uloqtirish mashqlarini bajarishadi. Bulardan tashqari, otish tayyorgarligi bo'limi mavzularida jangovar o'qlar bilan avtomatdan boshlang'ich mashqlarni bajarish sharoitida o't ochish uchun kichik kalibrli va pnevmatik multiqlarda otish mashqlarini bajarish kiritilgan.

**1-bob. KALASHNIKOV AVTOMATI, STVOL OSTIDAGI
GP-25 GRANATOMYOTI, PARCHALANUVCHI
QO'L GRANATALARI TUZILISHI,
ASOSIY QISM VA KO'RSATKICHLARI**

Avtomatning vazifasi va jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi, ishlash jihatlari. Taniqli rus ixtirochisi Mixail Timofeyevich Kalashnikov tomonidan yaratilgan avtomat hozirgi kunda ham bir qancha mamlakatlarning qurolli kuchlarida qo'llanilib kelinmoqda. U otish qurollarining eng asosiysi hisoblanadi. Bu qurol tuzilishi va qo'llanilishi jihatidan qulayligi bilan boshqa qurollardan ajralib turadi.

Jahonda birinchi avtomat quroli rus qurolsozi V. G. Fyodorov tomonidan yaratilgan. Keyinchalik Ikkinchi Jahon urushi davrida ixtirochilar V.A. Degtyarov va G.S. Shpaginlar avtomat qurollarining yangi turlarini ixtiro qilishgan.

M.T. Kalashnikov tomonidan yaratilgan avtomat o'zining ixchamligi, jangovar ko'rsatkichlarining ustunligi, qo'llashda qulay bo'lganligi uchun hozirgi kunda qurolli kuchlarimizda keng qo'llanilmoqda. Kalashnikov avtomati askarning shaxsiy quroli bo'lib, dushman kuchlarini safdan chiqarish uchun qo'llaniladi. Avtomatga nayza-pichoq o'rnatiladi va undan qo'l jangi paytida qo'llaniladi.



78-rasm. Kalashnikov avtomatining umumiy ko'rinishi:

a—yog'och qo'ndog'li AK-74; *b*—qo'ndog'i buklanadigan AKS-74.

Avtomat quroli to'xtovsiz avtomatik (AB) tarzda hamda bit-talab (OD) o't ochish xususiyatiga ega bo'lib, asosiysi to'xtovsiz, avtomatik tarzda o't ochishidir. Avtomatning jangovar ko'rsatkichlari va tavsif xususiyatlari quyidagi jadvalda berilgan:

Tavsifi	Qurol turi	
	AKM	AK-74
Stvol kalibri, mm	7,62	5,45
Haqiqiy o't ochish masofasi, m	400 gacha	400 gacha
Nishonga olish masofasi, m	1000	1000
To'g'ri o't ochish masofasi, m:		
ko'krak shaklidagi nishonlar bo'yicha	350	440
harakatlanuvchi nishonlar bo'yicha	525	625
Otish sur'ati, daqiqasiga	600 gacha	600 gacha
Otishning jangovar tezligi, daqiqasiga:		
to'xtovsiz avtomatik tarzda	100 gacha	100 gacha
bittalab, yakka tarzda	40 gacha	40 gacha
Avtomatning o'qlar bilan to'ldirilgandagi o'qdoni og'irligi, kg	3,6	3,6
Nayza-pichoqning qin bilan og'irligi, g	490	490
O'qdonga o'qlar sig'imi, ta	30	30
O'qning uchish masofasi, m	3000	3150
O'qning o'ldirish ta'sirini saqlab qolish masofasi, m	1500	1350
O'qning boshlang'ich tezligi, m/s	715	900


Avtomat tarkibiga quyidagi asosiy qism va mexanizmlar kiradi:

1. Stvol, stvol qutisi, zarbdor-tepki mexanizm, mo'ljalga olish moslamasi, qo'ndiq va pistolet dastasi bilan birga. 2. Olov so'ndiruvchi-kompensator. 3. Stvol qutisining qopqog'i. 4. Zatvor ramasi gaz porsheni bilan birgalikda. 5. Zatvor. 6. Qaytaruvchi mexanizm. 7. Gaz trubkasi stvol qoplamasi bilan birgalikda. 8. Stvol osti dastasi. 9. Magazin. 10. Nayza-pichoq. 11. Shompol. 12. Tozalash anjomlari uchun penal (79-rasm).

Avtomatning to'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochishida poroxli gaz energiyasini zatvor ramaning gaz porsheni stvol kanaliga yetkazib berishi orqali bajariladi.

Qurollanishga V. Sobelnikov rahbarligida bir guruh muhandis-ixtirochilar tomonidan 1974-yilda kalibri kichikroq bo'lgan yangi 5,45 mm.li patron-o'qlar qabul qilindi (80-rasm).


Ushbu patron og'irligi 10,6 g, o'qi 3,4 g, poroxning uloqtiruvchi zaryadi 1,45 g, patron uzunligi 56,7 mm, gilzasining uzunligi 39,5 mm, o'qning boshlang'ich tezligi 900 m/s, og'iz qismidan chiqaradigan energiyasi 1316 J. Gilza shishasimon shaklda gardishsizdir. O'q 350 metrli masofadagi 5 mm po'lat qatlamini



79-rasm. Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari:

1—stvol, stvol qutisi, zarbdor-tepki mexanizm, mo'ljalga olish moslamasi, qo'ndiq va pistolet dastasi bilan birga; 2—olov so'ndiruvchi-kompensator; 3—stvol qutisining qopqog'i; 4—zatvor ramasi gaz porsheni bilan birgalikda; 5—zatvor; 6—qaytaruvchi mexanizm; 7—gaz trubkasi stvol qoplamasi bilan birgalikda; 8—stvol osti dastasi; 9—magazin; 10—nayza-pichoq; 11—shompol; 12—tozalash anjomlari uchun penal.

bemalol teshib o'ta oladi. Shu patron asosida yangi avtomat AK-74 quroli ixtiro qilindi. AK-74 ning qismlari AKM qurolidan olingan. AK-74 qurolining stvoli og'ziga silindr shaklida tormozlovchi kompensatorlarning o'rnatilishi, otish davrida turtuvchi kuch ta'sirini kamaytirish bilan birga, o'qlarni g'uj bo'lib, bir yerdagi nishonlarga aniq tegishini ta'minlaydi.



80-rasm. 1974-yilda yaratilgan 5,45 mm.li oddiy va havoda iz qoldiruvchi o'q namunalari.

AK-74 qurolining og'irligi o'qdon bilan birgalikda hisoblaganda 3,6 (3,5) kg, o'qlar bilan to'ldirilmagan o'qdon og'irligi 0,23 kg, avtomatning uzunligi 956 mm, stvol uzunligi 415 mm, mo'ljalga otish masofasi 1000 m, harakatlanuvchi nishonlarga to'g'rilab o't ochish masofasi 625 m, o'q otishning tezlik sur'ati bir daqiqada 600 marta, otishning jangovar tezlik miqdori, avtomatik (to'xtovsiz) bir daqiqasiga 100 taga, yakka tartibda esa, 40 tagacha bo'lib, o'qdonga o'qlar sig'imi 30 taga mo'ljallangan.

AK-74 quroli AKM quroliga nisbatan o'q uzishning samaradorligi 1,2—1,6 baravariga

ortiqqligi bilan birga, bir qancha qulayliklariga ham egadir. Otishni amalga oshirishda oddiy va havoda otilganda, iz qoldiruvchi o'q (patron)lardan foydalaniladi. Qo'l jangi olishuvlarida esa, AKM qurolinikiga o'xshash og'irligi biroz soddalashtirilgan nayza-pichoq ham o'rnatiladi. AK-74 avtomatiga o't ochish samaradorligini yanada oshirish maqsadida, stvol ostiga kalibri 40 mm GP-25 granatomyoti o'rnatiladi. AK-74 avtomati bilan bir vaqtda qo'ndog'i metallardan yasalgan, yon tomonga buklanadigan AKS-74 quroli yaratildi.


AK-74 quroli asosida RPK-74, RPKS-74 (qo'ndog'i yon tomonga buklanadigan) qo'l pulemyotlari ham ishlab chiqarildi. Ular avtomatga nisbatan biroz uzun, stvoli esa og'ir, tirgagi taxlanishi, mo'ljallagichida yonidan qaytarilgan tuzatishlar kiritish mexanizmi va qo'ndog'ining tuzilishi boshqaruvchanligi bilan boshqa qurollardan ancha farq qiladi. Pulemyotning kalibri 5,45 mm.li, og'irligi 5,46 kg, uzunligi 1060 mm, mo'ljalga otish masofasi 1000 m. Jangovar otish tezligi bir daqiqada, to'xtovsiz (avtomatik) tarzda 150 ta, yakka-yakka tarzda esa, 50 tagacha, o'qdonga o'qlarning sig'imi 45 taga mo'ljallangan. Qo'l pulemyotlarida ham tunda mo'ljalga olib otish moslamasini o'rnatish uchun joy qilingan.

1991-yilda AK-74 avtomatining turi asosida, undan bir qator afzalliklarga ega bo'lgan AK-74 M quroli yaratildi va foydalanishga tatbiq etildi. AK-74 M avtomatining ikki kamerali stvoli og'zining tuzilishi o'zgartirilgan. Uning og'iz qismidagi tormozi, alangani o'chirish bilan kompensator vazifasini bajarishi uchun stvolning og'iz qismiga o'rnatilgan. Yangi bir turdagi ikki kamerasi ifloslanishdan saqlasa, stvol qutisining chap tomonida tunda mo'ljalga olish mexanizmni o'rnatish shakli dastak o'rnatilgan. Stvol qutisi mustahkamroq (qattiq qirralarsiz) tayyorlangan. Stvol ostiga o'rnatiladigan GP-25 granatomyotni qaytaruvchi prujinani yo'naltiruvchi tayoqchasini o'zgartirilmagan holda otish uchun qulaylik yaratildi (AK-74 qurolida o'zgartirishni talab etar edi).

AK-74 M qurolining og'irligi 3,4 kg bo'lib, tez otish va ballistik xususiyatlari AK-74 quroli bilan bir xildir. Qurolidan otishda oddiy va havoda iz qoldiruvchi o'qlardan foydalaniladi. O'qlarni yoritish izi 800 metrgacha ko'rinish beradi. O'qdon qutichasimon bo'lib, korpusi plastmassadan yasalgan. Unga 30 ta o'q shaxmat tarzida joylashadi. O'qdonga 15 tagacha o'qni tez joylashtirish

uchun maxsus asbob ishlab chiqilgan. Avtomatga soddalashtirilgan nayza-pichoq ham oʻrnatilgan.

Stvol — oʻqning moʻljallangan tomonga uchishi uchun xizmat qiladi (81-rasm).



81-rasm. Stvol:

a—avtomat stvolining tashqi koʻrinishi; *b*—pulemyot stvolining tashqi koʻrinishi; *d*—stvolning oxiri kesilgan koʻrinishda; *e* —stvolning ichki koʻrinishi; 1—yoʻnalgan qismi; 2—oʻqning kirish joyi; 3—patrondon; 4—nil asosi; 5—gaz kamerasi; 6—gaz quvuri va stvol osti dastasini biriktiruvchi halqa; 7—moʻljalga olish moslamasining asosi; 8—stvol shtifti uchun ezilgan joy; 9—rezba; 10—pulemyot tirgagi biriktiriladigan asos; 11—shompolni biriktirish uchun sirgʻali halqa.

Stvol ichkarisida toʻrt qirrali kanali boʻlib, chapdan yuqoriga va oʻngga yoʻnalgan. Qirralar oʻqning tez kuchlanib harakatlanishiga xizmat qiladi. Qirralar bilan bogʻlangan yoʻlak boʻlib, bu yoʻlakning oʻrtasi *stvol kalibri* deyiladi.

Stvolning zirhlangan qismi qattiq piston shaklida boʻlgan kanali *oʻqlanish qismi* deyiladi. Oʻqlanish qismidan stvol kanalining qirrali qismiga oʻtishi *oʻqning yoʻlagi* deb ataladi.


Stvolning bosh qismida rezba boʻlib, unga kompensator ulanadi, gaz kamerasi, bogʻlovchi mufta, nishonga olish dastasi hamda oʻq solinadigan joyda otilgan oʻq gilzasini chiqarib tashlovchi qismini ilib olish uchun zirhli kesishgan joyida yoʻnaltiruvchi changakdan iborat (82-rasm).

Gaz tuynugida ishqorlangan yoʻnalish gaz kamerasi orqali gaz kamerasiga oʻtadi.

Stvol qutisi — avtomat qism va mexanizmlarini biriktirish, zatvor ramasining zatvor bilan birgalikdagi harakatini yoʻnaltirish, stvol kanalini zatvor bilan yopish va zatvorni yopish uchun xizmat qiladi.


82-rasm. Og'iz tormozi — olov so'ndirgich (a) va kompensator (b):

1—uchki qismi; 2—tuynuklari; 3—yorma; 4—so'ndiruvchi tirqishlar; 5—biriktirgich uchun kesma; 6—aylanasiga bukilgan qismi; 7—ichki rezba.




Stvol qutisi o'zining qopqog'i bilan yopiladi (83-rasm).

Stvol qutisi qopqog'i — stvol qutisida joylashgan avtomatning qism va mexanizmlarini ifloslanishdan saqlaydi (84-rasm).



83-rasm. Stvol qutisi:


1—kesmalar; 2—qaytaruvchi bo'rtma; 3—bo'rtiqlar; 4—yo'nal-tiruvchi bo'rtma; 5—biriktirgich; 6—bo'ylama oraliq; 7—ko'ndalang oraliq; 8—magazin uchun mo'ljallangan qistirgich; 9—tepki halqasi; 10—pistolet dastasi; 11—qo'ndoq.



84-rasm. Stvol qutisining qopqog'i:

1—yoriq; 2—qattiq qirradi; 3—pog'onali kesim.

Mo'ljalga olish moslamasi — avtomat (pulemyot)ning o't ochish cho'g'ini turli masofalardagi nishonlarga to'g'rilash uchun xizmat qiladi (85-rasm).



85-rasm. Mo'ljalga olish moslamasi:

a—avtomatga o'rnatiladigan; b—pulemyotga o'rnatiladigan; 1—moslama asosi; 2—moslama yo'laklari; 3—planka; 4—yuruvchi halqa; 5—mo'ljal plankasi o'yiqliyasi; 6—yuruvchi halqa tortqisi; 7—nishoncha vintining buragichi; 8—nishoncha.

Mo'ljalga olish moslamasining asosi quyidagilarga ega: moslama plankasiga belgilangan balandlikni berish uchun xizmat qiladigan yo'laklar, nishon plankasini biriktirish uchun halqalar, shtift va gaz trubkasi uchun darchalar; ichida — yassi prujina uchun uya va zatvor ramasi uchun bo'shliq; ortki devorida — stvol qutisining qopqog'i uchun yarim doira kesma.


Yassi prujina moslama asosi ichida joylashgan bo'lib, moslama plankasini o'rnatilgan holatida tutib turadi. Moslama plankasining o'yiqli joyi bo'lib, undagi kesma nishonga mo'ljallanish uchun, plankadagi ko'ndalang kesmalar esa yuruvchi halqani o'rnatilgan holatda prujinali tortqi yordamida tutib turish uchun xizmat qiladi.

Pulemyotdagi nishoncha o'yiqli joyga ega bo'lib, u nishonga to'g'ri olish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari u buragich bilan birgalikdagi vintga, prujinaga, shayba va shtiftga ega. Yuruvchi halqa moslama plankasiga kiydirilgan bo'lib, tortqi yordamida tutib turiladi.

Tunda otish uchun (mo'ljal plankasi qadog'iga va mushkasiga) yoritish jihozlari o'rnatiladi va tungi mo'ljallashlar ham qo'llaniladi. Mushka sirg'aluvchisi tengma-teng mushka asoslariga qotirilgan sirg'aluvchiga va mushka asoslariga xavf berilish holatlari ham aniqlanadi.

Qo'ndog' pistolet dastagi — avtomatdan qulay tarzda otishni ta'minlaydi.


Zatvor ramasi, gaz porsheni bilan birgalikda zatvor va zarbdor-tepki mexanizmini harakatga keltirish uchun xizmat qiladi (86-rasm).



86-rasm. Zatvor ramasi, gaz porsheni bilan birgalikda:

- 1—zatvor uchun kanal; 2—saqllovchi bo'rtma; 3—avtoteptki richagini bo'shatish uchun bo'rtma; 4—stvol qutisi devoridagi bukmaga joylashish uchun kesma; 5—dasta; 6—egri kesma; 7—to'suvchi bo'rtma uchun kesma; 8—gaz porsheni.


Zatvor patronni patrondonga yuborish, stvol kanalini yopish, kapsulni ezish va patrondan gilza (patron)ni sug'urib olish uchun xizmat qiladi (87-rasm).



87-rasm. Zatvor:

a—zatvor asosi; b—zarbdor; d—uloqtirgich; 1—gilza uchun kesma; 2—uloqtirgich uchun kesma; 3—yetaklovchi boʻrtma; 4—uloqtirgich oʻqi uchun tuynuk; 5—jangovar boʻrtma; 6—toʻsuvchi boʻrtma uchun boylama kesma; 7—uloqtirgich prujinasi; 8—uloqtirgich oʻqi; 9—qistirgich.


Qaytaruvchi mexanizm — zatvor ramasini zatvor bilan birga oldingi holatga qaytarishni taʼminlaydi (88-rasm).



88-rasm. Qaytaruvchi mexanizm:

1—qaytaruvchi mexanizm; 2—yoʻllovchi tayoqcha; 3—harakatlantiruvchi tayoqcha; 4—mufta (oʻqni yoʻllovchi).


Gaz trubkasi gaz porsheni harakatini yoʻnaltirish uchun xizmat qiladi. Stvol usti qoplamasi avtomatchi (pulemyotchi)ni oʻt ochish chogʻida stvol qiziganda, qoʻllarini kuyishdan asrashga moʻljallangan (89-rasm).



89-rasm. Gaz trubkasi stvol qoplamasi bilan birgalikda:

1—gaz trubkasi; 2—gaz porsheni uchun yoʻnaltiruvchi qovurgʻalar; 3—oldindagi biriktirgich; 4—stvol usti qoplamasi; 5—ortki biriktirgich; 6—boʻrtma; 7—yassi prujina.

Zarbdor-tepki mexanizmi tepkini jangovar holatdan xalos etish, zarbdorga zarba berish, avtomatik va yakka tarzda o't ochilishini ta'minlash, o't ochishni to'xtatish, zatvor yopilmagan hollarda o't ochishning oldini olish va avtomat (pulemyot)ni saqlagichga qo'yish uchun xizmat qiladi (90-rasm).



90-rasm. Zarbdor-tepki mexanizmining qismlari:

a—teпки; *b*—jangovar prujina; *d*—ilgak; *e*—yakka tarzda o't ochish sheptalosi; *f*—avtoteпки; *g*—avtoteпки prujinasi; *h*—o'tkazgich; *i*—yakka tarzda o't ochish sheptalosining o'qlari va prujinalari; *j*—teпки harakatini so'ndirgich; *k*—teпки harakati so'ndirgichining prujinasi; *l*—quvursimon o'q; *1*—jangovar yuza; *2*—avtoteпки yuzasi; *3*—bukilgan uchlar; *4*—sirtmoq; *5*—egri bo'rtma; *6*—to'g'ri burchakli bo'rtmalar; *7*—dumcha; *8*—kesma; *9*—sheptalo; *10*—tirgak; *11*—zashcholka; *12*—oldingi bo'rtma; *13*—o'tkazgich hududi; *14*—sapfa.

Jangovar prujinali tepki — zarbdorga zarba berishga mo'ljallangan. Tepkida jangovar vzvod, to'xtovsiz avtoboshlovchi vzvod o'qini aylanuvchi qismi bo'yini va o'q (osi)lar uchun teshiklar mavjud. Jangovar prujina tepkini aylanuvchi qismi bo'yicha kirgizilib va o'z ilmoqlari bilan tepkini hamda oxirida boshlovchi tepkini to'g'ri burchakli tumshug'i harakatlanishiga olib keladi.

Tepki harakatini soʻndirgich — oldindagi jangda avtomatik tarzda oʻqlarning gʻujligini amalga oshirishda tepkini susaytirish uchun xizmat qiladi.


Avtotepki — tepkini jangovar vaziyatda ishlashini va tepkini bosish uchun xizmat qiladi.

Yakka oʻt ochish sheptalosi — oʻt ochishdan keyin, yakka oʻt ochishni taʼminlashda tepki qoʻyib yuborilmagan boʻlsa, tepkini eng oxirgi holatida ishlashni taʼminlaydi.

Avtotepki prujina — toʻxtovsiz avtomatik tarzda oʻt ochishda avtoboshlovchi vzvod tepkisini avtomatik ravishda ozod boʻlishi uchun, shuningdek, stvol kanali va zatvor berkitilmaganda oʻt ochishning oldini oladi.


Oʻtkaziluvchi — toʻxtovsiz avtomatik tarzda yoki bittadan oʻt ochishga qoʻriqlagich (predoxranitel)ga oʻtkazish uchun xizmat qiladi.

Stvol osti qoplamasi — avtomatning harakatlanishiga sharoit yaratib, qoʻlni kuyishdan saqlaydi (91-rasm).



91-rasm. Stvol osti qoplamasi (dastasi):
1—barmoqlar uchun joy;
2—boʻrtma; 3—yassi prujina;
4—shompol uchun teshik.


Oʻqdon (magazin) — oʻqlarning joylashishini va s oʻl qutisiga yetkazib berishni taʼminlaydi (92-rasm).



92-rasm. Magazin:


1—korpus; 2—qopqoq; 3—mahkamlovchi planka; 4—prujina; 5—yuboruvchi;
6—tayanch boʻrtmasi; 7—ilgich.

Nayza-pichoq — hujumga o'tish oldidan avtomatga qadaladi, qo'l jangida dushmani safdan chiqarish uchun qo'llaniladi. U bel kamariga qadab yuriladi. Ayrim hollarda u bilan simlar ham kesiladi (93-rasm).



93-rasm. Nayza-pichoq:

a—tig'; *b*—dasta; 1—kesuvchi qirra; 2—arra; 3—charxlangan uchi; 4—teshik; 5—kamar; 6—halqa; 7—kamar uchun ilgich; 8—dastaning metall qismi; 9—qo'shuvchi vint; 10—bo'ylama kesma; 11—tortqi; 12—sop.



94-rasm. Qin:

1—ilgich, sirtmoqli kamar va karabin bilan birgalikda; 2—plastmassali g'ilof; 3—o'q-bo'rtma; 4—tayanch; 5—yassi prujina biriktirgichi.

Avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish

Avtomat toza taxta yoki taglik ustida yoyiladi. Qism va mexanizmlar taxta ustiga ajratilgan holatda tartib bilan terib chiqiladi. Ular ehtiyotlik bilan ajratiladi, biri ikkinchisining ustiga qo'yilmaydi. Shuningdek, ajratish mobaynida ortiqcha kuch va keskin zarbalar qo'llanilmaydi.


Avtomatni yig'ish mobaynida uning qismlaridagi raqamlar taqqoslab ko'riladi. Har bir avtomatning gaz trubkasi, zatvor ramasi, zatvor, stvol qutisi qopqog'i va boshqa qismlardagi raqamlar stvol qutisida mavjud raqamlarga mos kelishi darkor.

1. Magazinni ajratish.


Chap qo'l bilan avtomat qo'ndog'ining bo'ynidan yoki stvol osti dastasidan tutib, o'ng qo'l bilan magazinni ushlash va bosh barmoq yordamida tortqini bosib turib, magazinning ostki qismini oldinga turtib, uni ajratib olinadi (95-rasm).

Shundan so'ng, patrondonda patron yo'q ekanligini tekshirib ko'rish lozim. Buning uchun o'tkazgichni pastga «AB» yoki «OD» holatiga keltirish, zatvor ramasining dastasini ortga tortish, patron qutisini ko'rikdan o'tkazish, zatvor ramasining dastasini qo'yib yuborish va tepkini bosib, uni jangovar holatdan xalos etish darkor.

2. Anjomlar penalini qo'ndog' uyasidan chiqarish (96-rasm).



95-rasm. O'qdonni ajratish.




96-rasm. Anjomlar penalini qo'ndog' uyasidan chiqarish.


3. Shompolni ajratish.

Nil asosidagi tayanch ostidan shompol boshchasini tortib turib, shompol sug'urib olinadi. Shompolning ajralishi qiyin kechganda, anjomlar penali ichidagi chiqargichdan foydalanishga ruxsat beriladi, ya'ni chiqargich shompol boshchasidagi mavjud teshikchaga suqilib, shompol uchi stvoldan ajratilib, sug'urib olinadi (97-rasm).

4. Stvol qutisi qopqog'ini ajratish.



97-rasm. Shompolni ajratish.



98-rasm. Stvol qutisining qopqog'ini ajratish.

5. Qaytaruvchi mexanizmni ajratish.

Chap qo'l bilan avtomat qo'ndog'ining bo'ynidan tutgan holda o'ng qo'l bilan qaytaruvchi mexanizmining yo'naltiruvchi ustuni-ni, uning tovonni stvol qutisidagi kesmalardan chiqquniga qadar oldinga turtish, yo'naltiruvchi ustunning ortki uchini biroz ko'tarib, qaytaruvchi mexanizmni zatvor ramasining kanali ichidan sug'urib olish.



99-rasm. Qaytaruvchi mexanizmni ajratish.

6. Zatvor ramasini zatvor bilan birgalikda ajratib olish.

7. Zatvorni zatvor ramasidan ajratish.

Zatvor ramasini chap qo'lga, zatvorni yuqoriga qaratib olish, o'ng qo'l bilan zatvorni ortga tortib, uning yetakchi bo'rtmasini zatvor ramasining egri kesmalaridan chiqarish va zatvorni oldinga turtib, ajratish.


8. Stvol qoplamasi bilan birgalikdagi gaz trubkasini ajratish (100-rasm).

Noto'liq qismlarga ajragan avtomatni yig'ish tartibi:

- stvol qoplamasi bilan birgalikdagi gaz trubkasini biriktirish;
- zatvorni zatvor ramasiga biriktirish;
- zatvor ramasini zatvor bilan birgalikda stvol qutisiga joylashtirish;



100-rasm. Zatvor ramasini zatvor bilan birga ajratish.



101-rasm. Zatvor ramasidan zatvorni ajratish.

- qaytaruvchi mexanizmni biriktirish;

- stvol qutisi qopqog'ini biriktirish;


- tepkini bosib, uni jangovar holatdan xalos etish va saqlagichni o'rnatish;

- shompolni biriktirish;

- anjomlar penalini qo'ndog'dagi uyaga joylashtirish;

- magazinni avtomatga biriktirish.

Avtomatni qayta yig'ishda qismdagi raqamlar stvol qutisidagi raqamlarga solishtirilib ko'riladi.



102-rasm. Gaz trubasini stvol qo'ndog'idan ajratish.

O'q (patron)ning tuzilishi

Jangovar o'q (patron) tarkibi o'q, gilza, porox zaryadi va pistondan iborat bo'lib, 5,45 mm.li o'qlar oddiy va otilganda havoda iz qoldirishi bilan farqlanadi (103-rasm). Ishlab chiqarilgan o'qlar bilan otish mashqlarini o'tkazishda hamda jangovar vaziyatlarda topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladi.


O'q dushmanning tirik kuchlarini ochiq maydonda va uning niqobini teshishi mumkinligi bilan birga yo'q qilinishiga mo'ljallangan. O'qlar uchli qismidagi bo'yoqlar bilan farqlanadi.

Bo'yoqsizi oddiy o'q bo'lib, bo'yoqlisi havoda iz qoldiruvchi sifatida otishni bir yerga qaratish va nishonni ko'rsatishga (800 metr-gacha yoritish izini qoldiradi) mo'ljallangan. Oddiy o'q jildi po'lat yurakchali va qo'rg'oshinli qalpoqchadan, havoda iz qoldiruvchi o'q jildi qo'rg'oshinli yurakcha, qobig'i (stakan)dan hamda iz qoldiruvchi tarkibdan iborat bo'ladi.

Gilza o'q qismlarini birlashtirish, porox zaryadini tashqi ta'siridan saqlash, porox gazini zatvor tomonidan yorib o'tishini bartaraf etish uchun xizmat qiladi. U o'qni ulash uchun og'izcha, tashqarisida patronni chiqarib tashlash uchun joy, porox alanga olishi uchun ikki teshikcha, zarbani qabul qilib ta'sirini kamaytiruvchidan iborat.


Porox zaryadi o'q yo'lagini ilgarilab harakatlanishi uchun xizmat qiladi. U pirosilinli poroxdan iborat.

Piston porox zaryadini alanga oldirish uchun xizmat qiladi. U jezli qalpoqcha, zarba beruvchi tarkib va zardog'li krujkadan iborat.



103-rasm. Jangovar patron:

1—o'q; 2—gilza; 3—porox zaryadi;
4—piston; 5—gilza og'zi; 6—gilza
tubining qirrasi; 7— sangdon;
8—olov yo'li; 9—zarda beruvchi
tarkib.



104-rasm. O'qlar:

a—po'lat yurakchali oddiy o'q;
b—havoda iz qoldiruvchi o'q; 1—jildi;
2—po'lat yurakcha; 3—qo'rg'oshinli qobiq;
4—qo'rg'oshinli yurakcha; 5—yondiruvchi
tarkib.

Avtomat mexanizmlari va qismlarining ishlash tartibi


Jang paytida yoki otish davrida, avtomatda ro'y berishi mumkin bo'lgan ushlanib qolishlar, nosozliklarni bartaraf etish uchun mexanizmlar, qismlardan ehtiyotkorona va mohirona foydalanish talab etiladi.

Qism va mexanizmlarning o'qlashgacha bo'lgan holati

Zatvor ramasi gaz porsheni bilan zatvorni qaytaruvchi mexanizmning ta'sirida eng oldingi holatida bo'lib, gaz porshenni gaz kamerasining stvol kanali zatvori bilan yopiladi. Zatvor bo'yлама o'qi atrofida o'ngga qarab aylangan, uning jangovar tumshug'i stvol qutisining qirgimida bo'ladi — zatvor esa qulflangan. Qaytaruvchi prujina biroz siquvga ega.

Avtotepki dastasi zatvor ramasining bo'rtib chiqqan tumshug'i harakati ostida oldinga va pastga aylanadi. Tepki tushiriladi va zatvorga qadaladi. Zarbdor-tepki ta'siri ostida oldinga siljiydi. Jangovar prujina biroz siqilgan bo'lib, o'zining ilmog'i bilan tepkini

zatvorga qayrilgan oxiri bilan tepkini to'g'ri burchakli tumshug'ini stvol qutisining ostiga bosadi. Bu paytda tepkning dumi oldinga siljiydi (105-rasm).



105-rasm. Zarbdor-tepki mexanizm qismlarini o'qlashgacha qo'riqlagichdan tushirilib, tepkning qo'yib yuborilgan holati:

- 1—ilgak (tepki); 2—o'tkaziluvchi sektori; 3—yakka o't ochish sheptalosi;
4—tepki harakatini so'ndirgich; 5—ilgakning shaklli bo'rtmasi; 6—jangovar prujina;
7—tepki; 8—avtotepki tirgachi; 9—zatvor ramasi; 10—avtotepki sheptalosi.

Tepkini sekinlatuvchi o'z prujinasi harakatidan oldindagi stvol qutisi ostiga qadaladi. O'tkaziluvchi eng oxirgi yuqori holatida bo'ladi va stvol qutisi qopqog'idagi zinapoyasimon kesilgan joyni berkitadi (o'tkaziluvchi qo'riqlagichga qo'yilgan), o'tkaziluvchi sektori yakka o't ochish sheptalosi bo'rtmasiga kiradi va tepkning o'ng tomonidagi to'g'ri burchak bo'rtmasiga o'mashadi (tepki qulflanadi).


Qism va mexanizmlarning o'qlangan paytdagi holati. Avtomatni o'qlash uchun o'q bilan to'ldirilgan o'qdon birlashtirilib, o'tkaziluvchini avtomatik to'xtovsiz o't ochish (AB)ga qo'yib, zatvor ramasini ushlagichidan ushlab oxirigacha tortiladi va qo'yib yuboriladi. O'qdon birlashtirilgani natijasida o'qdondagi o'q yuqoriga zatvor ramasi pastiga borib taqalishi bilan avtomat o'qlanadi. O't ochish zarurati bo'lmasa, o'tkaziluvchi qo'riqlaguvchiga qo'yiladi.

O'tkaziluvchi avtomatik tarzda o't ochish (AB va OD)ga qo'yilganda, zatvor ramasining dastasi uchun stvol qutisi qopqoqchasidagi zinapoyasimon kesik ozod bo'ladi. O'tkaziluvchi hudud yakka tarzda o't ochish sheptalosining kesilgan joyida qoladi. Ammo tepkning aylana burilishiga xalaqit bermaydi.

Zatvor ramasining orqaga tortilishidagi uzunasiga ochiq bo'lgan yo'nalishida boshqarilib turuvchi bo'rtmasidagi shaklli qirqilgan joyining oldingi qiyaligi bilan harakatlanadi. Zatvor chapga aylanishi bilan zatvorning jangovar bo'rtmasi zatvor qutisi kesimidan chiqishi bilan zatvor ozod bo'ladi. Zatvor ramasi bo'rtmasi avtoboshlovchi dastasini bo'shatadi va avtotepki sheptalo prujinalar harakatida tepkining oldindagi tekisligiga siqiladi.

Keyingi ajratilishida zatvor ramasi bilan birga zatvor orqaga qaytadi. Stvol kanali ochilib, qaytaruvchi prujina siqiladi. Tepki zatvor ramasi ta'siri ostida o'qi (osi) atrofida aylanadi va jangovar tepki birin-ketin tushiriladigan ilgak shaklidagi bo'rtma tepkining sekinlashtirgichdagi surilmasiga joylashadi, tepki avtotepki sheptalosiga o'rnashib oladi. Avtotepki dastasi bu holatda yuqoriga ko'tarilib, zatvor ramasi bo'rtmasini harakatlanishi yo'nalishiga o'tadi. Zatvor ramasining pastki tekisligi o'qdon darchasidan o'tishi bilan o'q o'qdonning prujinasi yordamida oxirigacha, yuqoridagi o'q o'qdon devorining qaytarilgan joyiga ko'tarilib o'tadi.

Zavtor qo'yib yuborilgach, zatvor bilan birga qaytaruvchi mexanizm yordamida oldinga ketadi. Zavtor o'qdondagi yuqorida bo'lgan o'qni itarib, o'qni o'qlashga olib boradi va stvol kanalini yopib yuboradi. Zatvor stvolning o'q joylash uchun qirqilgan joyiga kelganda, chiqarib yuboruvchi ilgagi gilzani halqasimon shakldagi o'yilgan joyiga kirgiziladi. Zatvorning stvol qutisi kesishuvidagi chap qiyaligi, zatvorning jangovar tumshug'i chap qiyaligi yordamida bundan keyingi zatvor ramasining shakli kesilgan joyda, zatvorni harakatga keltiruvchi bo'rtma aylana tirqish atrofidan o'ngga aylanadi. Zatvorning jangovar bo'rtmasi stvol qutisining jangovar tayanchiga o'tib, zatvor berkitiladi. Zatvor ramasi o'z harakatini davom ettirib, oldingi holatiga qaytadi. O'zining tumshug'i bilan avtoboshlovchi dastasini oldinga-pastga ay-



106-rasm. Zarbdor-tepki mexanizmi qismlarining o't ochishgacha bo'lgan holati:

1—ilgak (tepki); 2—otkazgich hududi; 3—tepki harakatini so'ndirgich; 4—tepki; 5—avtotepki sheptalosi; 6—zatvor ramasi.

lantirib, avtotepki tepki harakati holatida avtotepki sheptalosini chiqaradi. Tepki jangovar prujinaning yordami ostida aylanadi, sekinlashtiruvchi esa ilgagidan chiqarilib, jangovar holatga o'tadi.

Avtomat saqlagichga qo'yilganda, o'tkaziluvchi stvol qutisi qalpoqchasidagi zinapoyasimon kesikni yopadi va zatvor ramasi dastagigacha (ushlagichini) orqaga harakatlantiriladigan holatiga turiladi. O'tkaziluvchi hudud oldinga aylanadi. Tepkini to'g'ri burchakli bo'rtmasi o'ngda turishi esa tepkini berkitadi.

Avtomatning to'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochishida qism va mexanizmlarning ishlashi

To'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochishda o'tkaziluvchini AB holatiga qo'yiladi. O'tkaziluvchi hudud avtomatik tarzga qo'yilgach, tepkning to'g'ri burchakli bo'rtmasi bo'shatiladi (teпки ilgagi bo'shab qoladi), yakka lab o't ochish sheptalosining qirqilgan joyida qoladi. O'z o'qi atrofida aylanishga ega bo'lgan tepkini esa, yakka lab o't ochish sheptalosi bilan birga aylanishidan o'tkaziluvchi hudud saqlab qoladi. Tepki bosilgandan so'ng, uning shaklli tumshug'i jangovar holatda tepkning ilgagidan chiqib ketadi. Tepki jangovar prujina yordamida o'z o'qi atrofida aylanib, zarbdorga keskin uradi. Zarbdor o'q pistoni (kapsuli)ni ezishi natijasida ezilgan kapsuldan chiqqan uchqun poroxni yoqib yuboradi. Buning oqibatida, o't ochish ro'y beradi.

O'q poroxli gaz ta'sirida stvol kanali bo'ylab harakatlanib, gaz tarmog'iga ulanadigan oraliqdan o'tgandan keyin, gazning bir qismi oraliq orqali gaz kamerasidagi harakatini davom ettirib, gaz porshenini itarib, zatvor ramasini orqaga harakatlantiradi. Zatvor ramasining ortga qaytishi (zatvor ushlagichidan ortga qaytarilgandek) shaklli qirqib olingan joyni oldingi qiyaligi bilan zatvor bo'ylamasini atrofida aylanadi. Uning jangovar bo'rtmasi stvol qutisini jangovar tayanchidan chiqarib yuborishi natijasida, zatvor va stvol kanalining ochilish imkonini beradi. Zatvor ramasining tumshug'i esa avtotepki dastasini bo'shatib yuboradi.

Prujina ta'sirida bo'lganligi uchun u biroz yuqoriga ko'tariladi, avtotepki sheptalosi tepkning tekisligiga qadaladi. Bu vaziyatda o'q stvol kanalidan chiqib, uchib ketadi. Poroxli gazning bir qismi o'q orasidan borib, kompensatsiyalovchi kamera oralig'idan kompensator tumshug'iga tushadi. Natijada, keragidan ortiqcha

bosim kamera oralig'i qarama-qarshi tomonlarga avtomatning tumshug'ini (chapga, pastga) og'dirib yuboradi. Bunday kutilmagan holat to'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochishda, o'qning (sochilib ketmasligi) nishonga tegib, yakson qilishi ehtimolligini beradi. Zatvor ramasi zatvor yordamida orqaga harakatlanishini davom ettiraveradi. Uloqtirib tashlovchi esa, ilgagidan gilzani ilib olib, stvol qutisi qaytaradigan do'nglikka yuboradi va tuynuk orqali tashqariga uloqtirib tashlaydi.

Keyingi qism-mexanizmlarning tepki va sekinlashtiruvchidan tashqari ishlash jihatida o'qlangan holatidek, zatvor ramasi zatvor bilan birga oldingi holatida turadi, tepkning faqat avtotepki sheptalosi to'xtatib turiladi. Zatvor o'qdondan yuqoridagi o'qlanish qismiga o'qni yuborishi bilan stvol kanali berkilish holati yuzaga keladi. Zatvor ramasi bilan birga qulflanib harakatlanishi oldingi holatda davom ettiriladi. Avtotepki sheptalosi tepkini avtotepki holatidan chiqarib yuboradi. Jangovar prujina ta'sirida bo'lgan tepki aylanib so'ndiruvchi ilgagiga zarba beradi. Bu holatda sekinlashtiruvchi orqaga aylanishi bilan oldindagi bo'rtmasini tepki zarbasiga qoldirib, so'ndiruvchi berilgan zarba natijasida tepkning oldinga bo'lgan harakatini so'ndiradi. Zatvor ramasi va zatvor bilan zarba berilgandan so'ng, ularning dastlabki holatiga qaytish imkoni vujudga keladi. Bu esa, o'qlarning zichligini yaxshilab, ta'minlash bilan birga, so'ndirgichning oldingi bo'rtmasiga zarba berilgandan keyin, tepkini zarbdorga zarba berishi natijasida o't ochish ro'y beradi.


Avtomatning qismi va mexanizmlarini qayta ishlash jihati takrorlanadi. To'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochish tepki bosib turilguncha yoki o'qdonda o'q tugagunga qadar davom ettiriladi. O't ochishni to'xtatish uchun tepkidan qo'lni bo'shatish lozim bo'ladi. Bu vaziyatda tepki jangovar ilgak ta'siri ostida aylanib, uning shakli, tumshug'i tepkning jangovar harakati holatida turadi. Tepki jangovar holatda bo'lib, o't ochish to'xtatiladi. Bunday vaziyatda avtomat to'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochishga tayyor holatida qoladi.

Yakka o't ochish qism va mexanizmlarining ishlashi

Yakka tarzida o't ochish uchun avtomatning saqlagichidagi o'tkaziluvchi ilgagini ODga qo'yish kerak bo'ladi. O'tkaziluvchini saqlovchi holatidan yakka tarzda o't ochish holatiga qo'yilgach,

o'tkaziluvchi hududi tepkning to'g'ri burchakli tumshug'ini bo'shatib, ozod etadi. Tepkning to'g'ri burchakli tumshug'i yakka otish sheptalosidan chiqqach, otishda zarba beruvchi mexanizmni ishlash faoliyatida ishtirok etmaydi. Tepki bosilgandan keyin, uning shaklli bo'rtmasi tepkini jangovar holatidagi ilgakdan chiqarib yuboriladi.

Tepki jangovar prujina ta'siri kuchida bo'ylamasi atrofida aylanib, zarbdorga keskin zarba berishi natijasida o't ochish sodir bo'ladi. Birinchi o'q otilgandan so'ng, qism va mexanizmlar to'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochilgandagidek, o'z faoliyatini davom ettiraveradi. Ammo keyin otish ro'y bermaydi. Bu vaqtda tepki bilan birga yakka otish sheptalosi ham aylanadi. Yakka o'q otish sheptalosi ilgagi tepkning jangovar shay holatida turadi. Tepkning jangovar holati yakka o'q otish sheptalosiga kirib qoladi. Tepki bunda oxirgi orqa holatida to'xtaydi (107-rasm).



107-rasm. Zarbdor-tepki mexanizmi qismlarining o't ochilgandan so'nggi, o'tkazgich yakka tarzda o't ochish holatida:

- 1—ilgak; 2—tepki harakatini so'ndirgich; 3—yakka tarzda o't ochish sheptalosi;
4—tepki; 5—avtotepki sheptalosi;
6—zatvor ramasi.

Keyingi o't ochishda tepkini qo'yib yuborib, uni yana bosish kerak. Tepki qo'yib yuborilganda, jangovar prujina ta'sirida aylanadi, oldin sekinlashtiruvchi surilmasiga, so'ng uning oldingi tumshug'iga zarba beriladi. Jangovar shaylik holatiga o'tiladi. Tepki bosilganda, shaklli bo'rtma tepkning jangovar ilgagidan chiqib ketadi hamda qism-mexanizmlarning ish harakati takrorlanaveradi. O't ochishning navbatdagi holati ro'y beradi.

Stvol ostidagi GP-25 granatomyoti


Stvol osti granatomyoti (108-rasm) ochiq maydonda, okop va transheyalar hamda balandliklar ostidagi nishonlarni yakson qilishga mo'ljallangan. Ushbu granatomyotning qo'llanishida barcha o'lchamdagi Kalashnikov avtomatlari turlariga qo'shimcha ustamlarsiz o'rnatilishi mumkin.



108-rasm. Stvol ostidagi GP-25 granatomyoti.

Stvol ostidagi granatomyotga parchalanuvchi granatalar qoʻllaniladi (109-rasm). Bu granatalar tez portlovchi va oʻzini yoʻq qiluvchi moslamalar bilan taʼminlangan. Granatomyotni avtomatga oʻrnatilmagan holatda otish uchun foydalanib boʻlmaydi. Granatomyotni oʻqlash tartibi, uning stvol boshidan oʻqlanadi.

Granatomyotning betoʻxtov ishlov holati barcha iqlim va ob-havo sharoitlarida (harorat $+ 50^{\circ}\text{C}$ va $- 50^{\circ}\text{C}$ darajada) ham taʼminlangan. Granatomyot shaxsiy qurol boʻlib, bir askarga tegishli hisoblanadi.



109-rasm. Stvol ostidagi granatomyotning qismlarga ajratilgan holatdagi koʻrinishi:


1—moʻljalga olish moslamasi; 2—granatani stvolga oʻrnatadigan joy; 3—VOG rusumli granatasi; 4—korpusi; 5—zarba beruvchi mexanizm.

Kalibri 40 mm, moʻljalga olish masofasi 400 metr, jangovar otish tezligi 1 daqiqada 4—5 marta, granatomyotning uzunligi 323 mm, ogʻirligi 1,5 kg, tashib yuruvchi oʻq-dori miqdori 10 ta.

GP-25 granatomyotining tuzilishi. 1. Stvol, moʻljalga olish va avtomatga oʻrnatish moslamalari bilan; 2. Kazyonik — oʻqlash qismi; 3. Otish boshlovchi mexanizm.


GP-25 granatomyotining ishlash prinsipi. Oʻng qoʻlda avtomatni ushlab, chap qoʻlga granatomyotni olib, stvol ostidagi granatomyot oʻrnatish moslamasiga yuqoridan pastga tushiriladi. Oʻqlash tar-

tibi — VOG-25 rusumli granata granatomyot stvolining bosh qismiga chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan qadab qo‘yiladi. Bu granata o‘qlash qismiga qotirilgan holatda turishi kerak. Shu holatda granatomyot otishga tayyor hisoblanadi.



110-rasm. Stvol ostidagi GP-25 granatomyotining avtomatga o‘rnatilmagan holatdagi ko‘rinishi.

Otish tartibi — granatomyotdan uch holatda otish belgilangan: 1. Tik turgan holatda. 2. Tizzaga tayangan holatda. 3. O‘tirgan holatda (111-rasm).



111-rasm. Stvol ostidagi granatomyotdan o‘t ochish qoidolari: a—tik turgan holatda; b—o‘ng oyoq tizzasi bilan yerga tayangan holatda; d—o‘tirgan holatda.

Granatomyotni qismlarga ajratish — zarba beruvchi mexanizmning korpusi o‘ng qo‘l bilan ushlab, bosh barmoq bilan qotiruvchi moslama bosiladi. Chap qo‘l bilan stvol tanasini ushlab, o‘ng qo‘l bilan esa, soat strelkasi yo‘nalishida chorak holatda buraladi va yuqoriga tortiladi.

To‘la qismlarga ajratish taqiqlanadi. Granatomyotga faqat VOG-25 rusumli granatalar ishlatiladi.

Avtomatni o‘q otishga tayyorlash. O‘q otish davrida avtomatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari

Jang paytida yoki otish davrida avtomatda ro‘y beradigan nosozliklarni bartaraf etish uchun uning mexanizm va qismlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish talab etiladi.

Avtomatni ko'zdan kechirishda quyidagi ishlarni bajarish zarur: avtomatni otishga tayyorlash maqsadida uning jangovar shayligi, tozaligi, moylash sifati qay darajada ekanligi tekshiriladi. Avtomat o'quv mashg'ulotlariga qatnashish, naryadga turish oldidan, uzluksiz jangovar shaylikda yoki kun davomida jangovar topshiriqlarni bajarishga kirishish oldidan doimiy tekshiruvdan o'tkaziladi.

Kundalik ko'zdan kechirish paytida avtomatning barcha qism va zifalarini, ichki qismlarida qum zarrachalari, qor qolib ketgan yoki ketmaganligini, avtomatning biror qismida shilingan, singan, ko'chgan va boshqa nosozliklar bo'lgan yoki bo'lmaganligini, ishlash davrida mexanizmlarning normal (o'rtacha) ishlashiga xalaqit beradigan qismlarning shikastlanishini, yog'och qismi yorilmagan yoki urilmaganligini, shompol mahkam berkitilganligini, bundan tashqari, qism mexanizmlarini moylash tartibini, kamarning holatini, jihozlarning butkulligini, o'qdonlar sumkasini, nayza-pichoqlarning nuqsonlari bor-yo'qligi tekshiruvdan o'tkaziladi.

O'quv mashg'ulotlari, naryadga turish oldidan avtomatni tozalash, kundalik tekshiruv davomida: nishonga olish moslamasi bilan nishon mushkasining to'g'riligi, stvol kanali ko'zdan kechiriladi, biror elementga chang tushgan-tushmaganligi hamda qism mexanizmlarining ishlash tartibi tekshiriladi.

Otish vaqtida avtomatning to'xtovsiz ishlashini ta'minlash uchun tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Buning uchun avtomatni yoyib, har bir mexanizm qismlari tozalab moylanadi. Avtomat yig'ilgandan so'ng, o'qdoni ko'zdan kechiriladi. Otish oldidan avtomatning stvol kanali, kesishgan qismi va o'qdoni yaxshilab artilib, quruq holatga keltiriladi. Agar avtomat bir qancha vaqt sovuq havoda qolib ketgan bo'lsa, otishga tayyorlashda zatvor ramasini qo'l yordamida orqaga tortib, oldiga itarib o'qdonga birlashishi ta'minlanadi.

Jangovar o'qlarni otishga tayyorlashda, o'qlarning gilza qismida urilgan, qisilgan holatlari bor yoki yo'qligi, gilzaning bosh qismi bo'shab qimirlayotgani, gilzaga loy, chang o'rnashib qolgan-qolmaganligi sinchiklab ko'zdan kechiriladi, shu bilan birga, jangovar o'qlar orasiga o'quv o'qlari tushib, aralashib qolmaganligi tekshiriladi. Agar shunday nuqsonlar uchrasa, o'qlar quruq latta bilan artiladi. Shu tariqa o'qlar ko'zdan kechirilib, o'qdonga joylashtiriladi. Moyni ko'p surtish ham avtomat ishlashi va otish paytida ifloslanishiga, sovuq havo sharoitida esa, nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi. Otish joyida yoki tirda o'qlar quyosh nurlaridan berkitilgan holda quruq joyda saqlanishi kerak.

Avtomatning oddiy tuzilmalari to'xtovsiz ishlashini ta'minlash kerak. Aks holda uning qism va mexanizmlari yaxshi joylashtirilmaganligi, tozalanmaganligi hamda o'qlarda sodir bo'lgan nuqsonlar tufayli ko'zlangan maqsadga erisha olmasdan, otish davrida to'xtab qolish sodir bo'ladi. Bunda tezda zatvor ramasini orqaga, oxirigacha tortib, keyin qo'yib yuboriladi va otish davom ettiriladi. Agar yana shunday to'xtab qolish sodir bo'lsa, quyidagi jadvalda ko'rsatilganlarni bajarish lozim:

Tutilishlar va ularni bartaraf etish usullari

Tutilishlar va ularning xususiyatlari	Tutilish sabablari	Bartaraf etish usuli
Patron uzatilmadi. Zatvor oldingi holatda, o't ochilmadi. Patrondonda patron yo'q	1. Magazin ifloslangan yoki nosoz. 2. Stvol qutisidagi magazin uchun mo'ljallangan tortqi nosoz.	Avtomat (pulemyot) qayta o'qlansin va otish davom ettirilsin. Tutilish takrorlansa, magazin almashtirilsin. Stvol qutisidagi magazin uchun mo'ljallangan tortqi nosoz bo'lgan hollarda, avtomat (pulemyot) ta'mirlash ustaxonasiga yuborilsin.
Patron tiqildi. Patron o'qi bilan stvol kesmasida tiqilib, harakatchan qism va mexanizmlar o'rta holda to'xtab qoldi	Magazin nosoz.	Zatvor ramasining dastasidan tutib turgan holda tiqilib qolgan patron chiqarib olinsin va otish davom ettirilsin. Tutilish takrorlansa, magazin almashtirilsin.
O't ochilmadi. Zatvor oldingi holatda, patron patrondonda, tepki bosilgan — o't ochilmadi	1. Patron nosoz. 2. Zarbdor yoki zarbdor-tepki mexanizm nosoz; moyning ifloslanishi yoki to'planishi (k apsulda urilish izi yo'q yoki kuchsiz). 3. Zarbdorning zatvor-da tiqilishi.	1. Qurolni qayta o'qlab, o't ochish davom ettirilsin. 2. Tutilish takrorlansa, zarbdor va zarbdor-tepki mexanizm ko'rikdan o'tkazilib, tozalansin. Zarbdor-tepki mexanizm singan yoki yeyilgan bo'lsa, qurol ta'mirlash ustaxonasiga yuborilsin. 3. Zarbdorni zatvordan ajratib, zatvordagi zarbdorga mo'ljallangan darcha tozalansin.
Zatvor ramasining oldingi holatga qaytmasiligi	Qaytaruvchi prujina buzilgan.	Prujina almashtirilsin (jangovar vaziyatda prujina uchlari joyi almashtirib o'rnatiladi) va o't ochish davom ettirilsin.

Gilzaning tiqilishi. Gilza patrondonda, navbatdagi patron esa unga tiralib turibdi. Harakatchan qismlar o'rta holda to'xtab qolgan	1. Patron kir yoki patrondon kirlangan. 2. Uloqtirgich yoki uning prujinasi kirlangan yoxud nosoz.	Zatvor ramasining dastasi ortga tortilsin va uni tutib turgan holda magazinni ajratib, tiqilgan patron chiqarilsin. Zatvor yoki shompol yordamida gilza patrondondan chiqarilsin. Otish davom ettirilsin.
Gilzaning tutilishi yoki chiqmasligi. Gilza stvol qutisidan uloqtirilmay, aksincha, uning ichida zatvor oldida qolgan yoki qayta patrondonga yuborilgan	1. Ishqalanuvchi qismlar, gaz yo'llari yoki patrondon ifloslangan. 2. Uloqtirgich ifloslangan yoki nosoz.	Tutilish takrorlansa, patronlar va patrondon tozalansin. Uloqtirgich ko'rikdan o'tkazilib, tozalansin va otish davom ettirilsin. Uloqtirgich nosozligida qurol ta'mirlash ustaxonasiga topshirilsin. Zatvor ramasining dastasi ortga tortilib, gilza uloqtiriladi va o't ochish davom ettiriladi. Tutilish takrorlansa, gaz yo'llari, ishqalanuvchi qismlar va patrondan tozalanib, ishqalanuvchi qismlar moylanadi. Uloqtirgich nosozligida, qurol ta'mirlash ustaxonasiga topshirilsin.

Avtomatning qo'shimcha ashyolari. Avtomatni tozalash, moylash va saqlash tartibi

Anjomlar avtomat (pulemyot)ni qismlarga ajratish, yig'ish, tozalash, moylash va magazinni patronlar bilan tezroq to'latish uchun xizmat qiladi.


Anjomlar tarkibiga quyidagilar kiradi: shompol, artkich, artkich-cho'tka, otvyortka, chiqargich, penal, moydon, oboymalar va o'tkazgich (112-rasm).

Shompol — stvol kanalini, shuningdek, avtomat (pulemyot) qismlaridagi kanallar va bo'shliqlarni tozalash va moylash uchun qo'llaniladi. U chiqargich kiritilishi uchun teshikli boshcha va artkich yoki artkich-cho'tkani burab biriktirish uchun rezbagaga ega.

Artkich — stvol kanalini, avtomat (pulemyot) qismlaridagi kanal va bo'shliqlarni tozalash-moylash uchun ishlatiladi.


U shompolga burab biriktirilishi uchun ichki rezbagaga va latta yoxud kanop losini o'rash uchun kesmaga ega.

Artkich-cho'tka — stvol kanalini PCHS (stvollarni tozalash eritmasi) bilan tozalash uchun qo'llaniladi.



112-rasm. Avtomatni tozalash anjomlari:

1—shompol; 2—artkich; 3—artkich-cho'tka; 4—otvyortka;
5—chiqargich; 6—penal; 7—qopqoq; 8—moydon;
9—oboymalar; 10—o'tkazgich.



113-rasm. Yog'ochli
tayoqchalar:

1 va 2—yoriq va tirqishlarni
tozalash uchun; 3 va 4—o'q
soladigan joy (patronnik); gaz
trubasi, gaz trubkalarini tozalash
uchun; 5 va 6—chuqur yoriqlarni
tozalash uchun.

Otvyortka va chiqargich — avtomat (pulemyot)ni qismlarga ajratish va yig'ish davomida ishlatiladi. Otvyortka uchidagi kesma nilni qotirish va bo'shatish uchun, yon tomonidagi kesma esa, artkichni shompolga qotirish uchun mo'ljallangan.

Otvyortkadan qulay foydalanish uchun u penalning yon boshidagi darchaga o'rnatiladi. Stvol kanalini tozalash mobaynida otvyortka penal ichiga shompol boshchasi uzra solinadi.

Penal artkichni, artkich-cho'tkani, otvyortkani va chiqargichni saqlash uchun mo'ljallangan. U qopqoq bilan yopiladi.

Penal nilni qotirish va bo'shatish mobaynida buragich uchun dasta sifatida va gaz trubkasi qotirgichni burash uchun, shuningdek, shompolga dasta sifatida ishlatiladi.

Penal teshiklarga ega bo'lib, ularga avtomat (pulemyot)ni tozalash mobaynida shompol suqiladi, shuningdek, buragich o'rnatilishi uchun tuxumsimon darchaga va avtomat (pulemyot)ni qismlarga ajratish va yig'ish mobaynida gaz trubkasining biriktirgichini burash uchun to'g'ri burchakli tuynukka ega.

Bir bo'g'izli moydon — moy saqlash uchun xizmat qilib, magazinlar sumkasining cho'ntagida olib yuriladi.

Oboyma — patronlarni olib yurish va magazinni patronlar bilan to'latish jarayonini tezlatish uchun xizmat qiladi. Oboymaga 15 dona patron joylashadi.

U ikkita bo'ylama kesmaga va patronlarni tushib ketishidan asraydigan yassi prujinaga ega. Bundan tashqari, yassi prujina oboymani o'tkazgich bilan ishonchli birikishini ta'minlaydi.

O'tkazgich — magazinni patronlar bilan to'latishda, oboymani magazin bilan biriktirish uchun xizmat qiladi. U quyidagilarga ega: quyi qismida (keng joyi) — magazin bo'g'zidagi tegishli kesmalarga kiruvchi ikki bo'rtiqqa; yuqori qismida — oboyma uchun ikkita bo'ylama kesmalar, oboyma prujinasi uchun darcha va oboyma o'tkazgichga o'rnatilishi uning siljishini cheklab turish uchun tayanchga.

Qurollarning saqlanishi va qurollanishiga komandirlar, o'quv yurtlarida esa, o'quv yurti direktori hamda harbiy ta'lim rahbarlari javobgardir. Avtomatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'linib, uning stvoliga har xil chang, gard yuqib qolmasligi, turli jismlarga urilishidan xoli, maxsus o'rnatilgan javonlarda o'qlanmagan holatda, shu bilan birga, o'qdon nayza-pichoq chiqarib olingan holda saqlanadi, shuningdek, tepkisi tushirilgan, o'tkazuvchi yuqoriga ko'tarilgan, nishonga olish moslamasidagi tirgagich «П» holatida o'rnatilgan holda saqlanishi lozim.

O'qdon, ular uchun sumka, nayza-pichoq kamarlar alohida javonlarda saqlanadi. O'qdonlar uchun sumka, kamarlar toza va quruq holda saqlanishi zarur. Mashg'ulotlarda harakat qilish jarayonida avtomatga o'qdon o'rnatilgan bo'lishi shart. Avtomat kamarini shunday qilish kerakki, u biron-bir jismga urilib ketmasin. Mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffuslarda, qoidaga asosan, avtomatni qo'lda ushlash yoki kamar bilan yelkaga olish tavsiya etiladi.




NAZORAT SAVOLLARI

1. Qurol-yarog' va o'q-dorilar bilan ishlaganda, xavfsizlik choralarini bayon eting.
2. Kalashnikov avtomati nima maqsadda Qurolli Kuchlarda ishlatiladi?
3. Avtomatning jangovar ko'rsatkichlarini izohlang.
4. Avtomatning to'liq va qisman qismlarga ajratish tartibini ko'rsatib bering.
5. Avtomatni qayta yig'ish tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. Stvol ostidagi GP-25 granatomyoti qanday maqsadlarda qo'llashga mo'ljallangan?
7. Stvol ostidagi GP-25 granatomyotining texnik tuzilishi va uning ishlash prinsipini bayon eting.
8. Stvol ostidagi GP-25 granatomyotini qismlarga ajratishni bayon eting.
9. Avtomatni otishga tayyorlash tartibini izohlang.
10. Avtomatni moylash va tozalash qanday tartibda bajariladi?

2-bob. PARCHALANUVCHI QO'L GRANATALARINING VAZIFASI, JANGOVAR KO'RSATKICHLARI, UMUMIY TUZILISHI VA ISHLATISH PRINSIPI

Parchalanuvchi qo'l granatalari ko'p yillar davomida armiyalarda qo'llanilgan. Parchalanuvchi qo'l granatalaridan hozirgi zamon janglarida ham ishonchli vosita sifatida foydalanib, dushman ustidan g'alabaga erishishda ishlatiladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida masofadan turib harakatlantiriluvchi RGD-5, F-1 parchalanuvchi qo'l granatalari qo'llanishga kiritilgan (114-rasm).



114-rasm. Parchalanuvchi qo'l granatalarining umumiy ko'rinishi:

a—RGD-5 granatasi; b—F-1 granatasi.

Parchalanuvchi qo‘l granatalari dushmanning tirik kuchlarini parcha ta’sirida safdan chiqarish maqsadida qo‘llaniladi. Granata portlashi jarayonida katta parchalar to‘zib yoyilishi natijasida, dushmanning bir qancha kuchlari safdan chiqadi. Bunday granatalar yaqin masofadagi janglarda (hujumga o‘tilganda, okopdan turib jangga kirganda, aholi yashash punktlarida) o‘z samarasini beradi. Granatalarning jangovar xususiyatlari quyidagi jadvalda berilgan.

Granatalarning jangovar xususiyatlari

Tavsifi	Granatalar	
	RDG-5	F-1
Granatalarning og‘irligi, g	310	600
O‘ldiruvchi (halok qiluvchi) parchalarning yetib borish radiusi, m	25	200
Granatalarning uloqtirish o‘rtacha masofasi, m	40—50	35—45
Granata zapali	UZ GRM	UZ GRM
Zapalning alanga olish vaqti, m/s	3,2—4,2	3,2—4,2

RGD-5 parchalanuvchi qo‘l granatasi, asosan, hujumga o‘tish davrida qo‘llaniladi. U korpus, portlaydigan zaryad va zapaldan iborat.


Granata korpusi — portlaydigan zaryad va zapal trubkalari uchun joylanishiga xizmat qiladi. U yuqori va pastki qismlardan iborat bo‘lib, tashqi qoplamasi hamda qo‘shimcha almashinuvchi detallarning kirishi bilan granata parchalarining portlashi uchun xizmat qiladi. Korpusning yuqori qismiga qadamalar yordamida zapal uchun trubka birlashtiriladi, granata uchun zapalning birlashtirilishi, korpusdagi portlaydigan zaryadni mahkam berkitishga xizmat qiladi. Trubkalarni ifloslanishdan ehtiyotlab, unga plast-massa qopqoq burab kirgiziladi. Korpusga to‘ldirilgan portlovchi zaryad granata parchalarining portlashi uchun xizmat qiladi.

UZ GRM zapali (qo‘l granatasining zamonaviylashtirilgan bir xil shakldagi zapali) portlovchi zaryadning portlashi uchun qo‘llaniladi. U zarbdor mexanizm va shaxsiy zapaldan iboratdir.

Zapallar doimo jangovar holatda bo'ladi. Zarbdor mexanizmning ishlashini tekshirish va qismlarga ajratish qat'iy taqiqlanadi. Zarbdor mexanizm pistonini alangalatib, zapalning alanga olishiga yordam beradi. U quyidagi qismlardan iborat: zarbdor mexanizm trubkasi; birlashtiruvchi to'siq; yo'naltiruvchi shayba; jangovar prujina; zarbdor shaybasi; boshlovchi dastak; saqlagich o'rta cheki, halqasi bilan.

Harakatlanuvchi mexanizm trubkasi zapalning jami qismlarini yig'ishda asosiydir. Birlashtiruvchi to'siq esa zapalni granata korpusi bilan birlashtirish imkonini beradi. Bu yo'naltiruvchi shayba jangovar prujinani yuqori qismining tayanch vazifasini bajarib, zarbdorning harakatini yo'llaydi. Zarbdor — harakatlanuvchi mexanizm trubkasining yuqori qismiga qadalgan. Jangovar prujina zarbdor energiya yetkazib berishni ta'minlaydi, zaruriy uchqun pistonni alangalatadi: alanga zarbdorni yuqoridagi oxirgi qismi bilan yo'naltiruvchi shaybani va pastga yo'naltiruvchi shaybani ham qamrab oladi. Zarbdor mexanizm yonuvchi pistonni alangalatish tayanchi bo'lib xizmat qiladi. U zarbdor mexanizm trubkasining ichkarisiga joylashadi. Shayba zarbdorning oxirgi tor qismida bo'lib, jangovar prujinaning oxirgi tor qismidagi tayanchi hisoblanadi. Boshlovchi dastak zarbdorning tez alanga olmaslik holatini ushlab qolish uchun qo'llaniladi (jangovar prujina qattiq qisiladi). Saqlagich o'rtasidagi zarbdor mexanizm boshlovchi dastakni ushlab turishga xizmat qiladi; boshlovchi dastak tuynuk teshigidan hamda zarbdor mexanizm trubkasi devoridan o'tadi. Halqasi sug'urib olinadi.

Shaxsiy zapal granataning portlaydigan zaryadlarini portlatish uchun qo'llaniladi. U sekinlashtiruvchi tiqin, piston alangalantiruvchi, sekinlashtiruvchi va piston-portlagich modddan iboratdir. Sekinlashtiruvchi tiqinning yuqori qismida birlashtirish uchun rezba bo'lib, zarbdor mexanizm trubkasi, piston alangalatuvchi uyasi bilan birlashtiriladi, ichida kanal bo'lib unga sekinlashtiruvchi joylashadi, tashqarisida piston portlagichning gilza bilan birlashtiruvchi nuqtasi joylashgan. Alangalatuvchi piston sekin alanga olish uchun qo'llaniladi; alangalatuvchi piston va piston portlagichga sekinlashtiruvchi o't oldiradi, u presslangan oz miqdordagi gaz tarkibidan iborat bo'ladi. Piston qoplagich alangalanuvchi granataning portlashi uchun xizmat qiladi. U gilzada joylashadi va sekinlashtiruvchi tiqinning pastki qismiga qotirilgan bo'ladi.



120-rasm. Kichik kalibrli miltiq (TOZ-8):

1—qoʻndogʻ yuz qismi; 2—qoʻndogʻ boʻyni; 3—orqa qalpoqchasi; 4—stvol korobkasi, otishni boshlovchi mexanizm ilovasi bilan; 5—otilgan gilzalarni chiqarib tashlovchi tuyuk; 6—moʻljol; 7—stvol; 8—namushnik; 9—poya yuzasi; 10—yuqori qadogʻich; 11—zatvor dastagi; 12—zatvor; 13—boshlovchi ilgak; 14—boshlovchi halqa; 15—pastki qadogʻich; 16—qoʻndogʻ.

Miltiqni oʻqlash tartibi

Miltiqni yotib olgan holda otishda, miltiq qoʻndogʻining bosh qismini oʻng qoʻl bilan ushlab, oʻng oyoq bir qadam oldinga tashlanadi va oyoqni biroz oʻngroqqa olib, oldinga engashib, chap oyoqni egib, chap qoʻl bilan yerga yotib, chap oyoqning toʻvoni yerga qadalladi va chap qoʻlning koʻksiga olinadi. Chap tomonga yotgan holda qorin tomonga tez oʻgirilib, erkin holda oyoqlarni toʻvoni bilan yozib yuboriladi. Miltiq gʻilofi (poyasi)dan oʻng qoʻlning kaftiga olinadi.

Kichik kalibrli miltiqni oʻng qoʻlda zatvor ushlagichdan orqaga tortib, stvol qutisining ochilgan joyiga oʻng qoʻlning bosh va koʻrsatkich barmoqlari yordamida oʻqni olib uni oʻqdonga solinadi. Oʻqni bosh barmoq bilan oldinga, stvolga toʻliq kirguncha yoʻnaltiriladi, soʻngra oʻng qoʻl bilan zatvor yopiladi.

Otish jarayonida miltiqning oʻziga xos tomonlari

Chap qoʻlning barmoqlari biron harakat qilmasligi, miltiqning poyasi (yogʻoch gʻilofi)ga tegib ketmasligi uchun chap qoʻl bilan miltiqning yogʻoch gʻilofidan (poyasi) ushlab olinadi. Oʻng qoʻl barmoqlari bilan qoʻndogʻining biqinidan ushlab, koʻrsatkich barmoq otishni boshlovchi mexanizm kurogi (tepkisi)ga yoʻnaltiriladi. Qoʻndogʻ oʻrtasi yelkaga qattiq qadaladi.

Yotish holatida otishda yaxshi natijaga erishish uchun tayanchlardan foydalanish mumkin. Tayanchlardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun qum yoki yogʻoch qipigʻi toʻldirilgan qoplardan 20—25 sm balandlikda tayanch oʻrnatish mumkin. Agar tayanch balandligi otishda noqulay boʻlsa, uni pastlatish mumkin.

Miltiqni tozalash va moylash tartibi

Kichik kalibrli miltiqni tozalash va moylash tartibi avtomatni tozalash va moylash tartibi singari amalga oshiriladi. Shuni unutmaslik kerakki, kichik kalibrli miltiq stvol kanalining do‘lbosh qismini tozalash va moylash qat’iyan man etiladi.

Stvol kanalini tozalash uchun uning orqa qopqog‘i ochilib, stvol korobkasi (qutisi)dan zatvor olinadi. Tozalagichning uch qismiga yumshoq mato qiyqimlaridan 4 — 5 sm uzunlikda o‘rab, qurolni moylash uchun ishlatiladigan moyga botiriladi. So‘ngra shompol stvol kanalidan kirgizilib, o‘qlagich tomongacha moylanadi va yaxshilab tozalanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kichik kalibrli miltiq qanday maqsadda qo‘llaniladi?
2. Miltiqning tuzilishini bayon eting.
3. Miltiqni o‘qlash tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Miltiqdan o‘tayoqanda xavfsizlik choralarini izohlang.
5. Miltiqning asosiy qism va mexanizmlarini sanab o‘ting.
6. Miltiqni tozalash va moylash tartibi qanday amalga oshiriladi?

4-bob. QUROLDAN OTISH ASOSLARI VA QOIDALARI

Otish asoslarini nazariy jihatidan o‘rganishga bog‘liqligi bilan, otish qoidalarini, uning bosqich-usullarini amaliyotda qo‘llanilishiga ham bog‘liqdir. Otish qoidalarini bajarish yo‘riqnomasida, otish davridagi asosiy holatni, o‘q otishni idora qilishlikni va o‘q otishga tayyorgarlik ko‘rishni o‘z ichiga qamrab oladi. Otish davrida turli xildagi nishonlarga qisqa muddatda kam o‘q-dori sarflash bilangina, har qanday ob-havo sharoitida ham topshirilgan vazifani samarali bajarishni ta‘minlovchi omil sifatida foydalaniladi.

O‘q otilishining ro‘y berishi

Porox zarrachalarining tez alanga olishi natijasida va poroxli gazning bosimi harakatida stvol kanalidan o‘q (snaryad)ning uzatilishi—*otish* deyiladi. Bu holat juda qisqa vaqt (0,001—0,006 s)da ro‘y beradi. Tepki bosilganda, patron pistoniga tez urilishi oqiba-

tidagi uchqun chiqishi porox zarrachalarining alanga olishiga olib keladi. Bu holat kuchli katta miqdorda qizdirilish natijasida gazga aylanib, o'ta kuchli bosim bilan har tomonlama harakatlanib, birdan kuchlanish miqdorini oshiradi. O'q 250—500 kgs/sm² (o'lchov miqdorida 1 kgs/sm² teng) 0,1 MPa bosim bilan joyidan siljib stvol kesimiga urilib, aylana harakatni davom ettiradi. Bu paytda porox stvol kanalida yonish holatini va gaz (o'lchov va bosim) miqdorini yiriklashtiradi.

O'q 4—6 sm harakatda yo'nalib (2800 kgs/sm²), katta bosimli gaz o'lchamiga yetadi. Yirik tezlanish natijasida o'q o'tilib, yopiq maydonga chiqadi. Yangi gaz o'lchovi bosimni yiriklashtirish bilan bosimni pasaytira boshlaydi. O'qning stvol kanalida uchish holati 300—900 kgs/sm² ni tashkil etadi. Stvol kanalida esa, o'qning harakat tezligi kuchayadi. Lekin gaz darajasi past bo'lsa-da, o'z tazyiqini ko'rsatishni davom ettiradi. Stvol kanalidagi o'q harakatlanishi tezligini to'xtovsiz oshirib, stvol kanali mo'risiga o'tadi. Stvol kanalidan keng yoyilib chiqqan gaz, o'qning ortidagi alanga harakatlanishida zarb to'linini vujudga keltirib, otish davrida tovush manbayini hosil qiladi. O'q uchish inersiya ta'sirida havoda harakatlanishni davom ettiradi.

O'qning boshlang'ich tezligi

Qurolning stvol kanalidan o'tilib chiqqan o'q tezligini oshirish bilan birga uchish nuqtasigacha harakatlanish holati o'qning boshlang'ich tezligi deyiladi. O'qning havodagi uchishini davom ettirishi va tekis harakatlanishi uning boshlang'ich tezligiga ham bog'liq bo'ladi.


Qurolning eng zaruriy jangovar xususiyatlaridan biri — o'qning boshlang'ich tezligi. Boshlang'ich tezlikning kuchayishi o'qning havoda uchish masofasini bosib o'tib, nishonni shikastlash va o'ldirish (halok qilish) holatlarini tezlashtirish bilan bir qatorda, havodagi uchishi davomida esa, tashqi sharoit ta'sirida tezligini qisqartiradi.

O'qning boshlang'ich tezligini oshirishi stvolning uzunligiga, o'q va porox zarrachalari og'irligiga hamda boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Qurolning stvoli qancha uzun bo'lsa (amaliyotda aniqlangan), porox va bosim qancha ko'p bo'lib harakatlansa, o'qning boshlang'ich tezligi yanada ortadi.

Qurolning ortga silkinishi

Stvol kanalidagi gaz bosimi kuchayib, har tomonlama harakatlangan holda kuch bilan o'qni oldinga yo'naltirish holati qurolni ortga qaytaradi. Qurol (stvol)ning otish davrida ro'y beradigan ortga harakatlanish holatini, qurolning ortga qaytarishi (silkinishi) deyiladi.

Qurol tezligi va energiyasini kuchayish harakati davomida ortga qaytish bilan tavsiflanadi. Qurolning ortga qaytishi o'qning boshlang'ich tezligidan bir necha barobar kam bo'lib, quroldan o'q bir necha marta yengilroq bo'ladi. Avtomatning ortga qaytish quvvati 2 kgs/sm^2 (19,6 j) dan ortmaydi va otuvchiga og'riq bermaydi. Poroxli gazlarning bosim kuchi (qaytish kuchi) ortga qaytishga qarshi harakat faqat to'g'ri yo'l emas, balki to'g'ri kelmagan tomonga (qo'ndoqning tayanchiga, qurolning kuchlanish markazi va boshqalarga) ham yo'naltiriladi. Vaziyatdan kelib chiqqan juftlangan kuchning harakatlanishi natijasida, qurolning do'lboshi (og'zi) qismini tepaga ko'tarib turadi (121-rasm). Yelkaga qancha ko'p kuch jamlangan bo'lsa, juftlangan kuch shuncha ko'p qaytariladi. Otish mobaynida qurol stvol tebrantirish va titratish holatlarini ham yuzaga keltiradi.



121-rasm. O'q uzishda turtuvchi kuch ta'sirida qurol stvol qismining yuqoriga ko'tarilishi.

Qurol stvolning do'lboshi (og'zi) qismidan o'qning uchib chiqishi natijasida tebranish (yuqoriga, o'ngga, chapga), boshqa tomonlarga og'ib ketish holatlari ro'y berishi mumkin. Bunday holatlar esa, otish davrida quroldan to'g'ri foydalanmaslik oqibatiga, qurolning ifloslanishiga olib keladi.


Qurolning ortga qaytarilishida o'qning chiqishi, stvolga ta'sir etish va yana boshqa sabablar, otishgacha bo'lgan stvol kanalini do'lboshi (og'zi) qismi yo'nalishida burchakni yuzaga keltiradi. Bu stvol kanalidan chiqqan o'qni havoda uchish davrigacha burchakni tashkil etadi. Bunday burchak *uchish burchagi* deyiladi.

Stvol kanalining do‘lboshi (og‘zi) qismi otishgacha yuqori qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qning havodagi uchish holati qoniqarli, past qo‘yilgan bo‘lsa, qoniqarsiz uchish burchagi deyiladi. Uchish burchagini bir holatda ta‘minlash va qurolning ortga qaytarilish holatlarini kamaytirish uchun, otish va quroldan to‘g‘ri foydalanish qoidalariga to‘la va aniq rioya qilinishiga hamda otish usullari natijalariga bog‘liqdir.

O‘q trayektoriyasi (harakatlanish yo‘li)ning hosil bo‘lishi

Avtomat stvolidan otilgan o‘qlarning burchak balandligi aniq belgilangan holatda bo‘lishi lozim. O‘qning havodagi uchish davri bir yo‘nalishda bo‘ladi. Bu yo‘nalishni esa, o‘qning uloqtirish yo‘nalishi deyiladi.

O‘q havoda uchish davri mobaynida og‘irlik kuchiga, havoning qarshiligiga duch keladi. Og‘irlik kuchi eng kuchlisi hisoblanib, uloqtirish yo‘nalishidagi o‘qni katta kuch bilan pastga tortadi, havoning qarshiligi esa, uchish tezligini pasaytirib, o‘qning bosh qismini orqaga qaytarishga harakat qiladi. Shu ikki qarama-qarshi kuchlar ta‘sirida uloqtirish yo‘nalishidagi o‘q egri shaklda harakatlanadi. O‘q havodagi uchishi davrida, og‘irlik markazidan egri yo‘nalishga yozilib harakat qilish yo‘lini *trayektoriya* (harakatlanish yo‘li) deyiladi (122-rasm).



122-rasm. O‘qning trayektoriyasi (harakatlanish yo‘li).

O‘q trayektoriyasi (harakatlanish yo‘li)ning hosil bo‘lishi burchak o‘lchami balandligiga bog‘liq bo‘lish bilan birga, berkitilgan shikastlanuvchi va o‘lik maydonlarigacha hamda to‘g‘ri otish masofalarigacha bo‘lgan o‘lchamni tasvirlaydi.

O'q trayektoriyasining burchak balandligi kengayadi, o'qning ufqqa to'g'ri uchish holati kuchayishi, ma'lum bo'lmagan tarzda ro'y beradi. Buning oqibatida harakatlanish yo'li (trayektoriya) balandligi kattalashadi, ufqqa qarab harakatlanish esa, biroz pasayadi.

Ufqqa yo'nalgan o'qning uchish masofasidagi balandlik burchagi yanada yiriklashishini katta burchak masofasi deyiladi. Boshqa turdagi qurollarning o'qi uchun burchak kattalik o'lchami 35° gacha bo'ladi. Yuqori burchak balandligidan kichik burchak balandligigacha bo'lgan masofada o'qning yer bag'irlab harakatlanishini yer bag'irlab ketgan trayektoriyasi (harakatlanish yo'li) deyiladi.

O'qning teshib o'tish va shikastlash ta'siri

O'qning teshib o'tishi, to'siq va yashirin joylarning yo'g'onligi, qalinligi bilan mustahkamligiga bog'liqdir.


O'qning o'ldirish holati—tirik organizmda o'q harakatlanib, safdan chiqarishga olib kelishi bilan birga tirik organizmda kinetik quvvatning singishi oqibatida uning kiyimlari hamda hayotiy organlarining shikastlanishiga olib keladi. Kinetik quvvat insonning hech qanday maxsus kiyimi bo'lmagan taqdirda ham uning asosiy hayotiy organlarini hech bo'lmaganda 8 kgs/sm² (78,5 j) miqdorda shikastlaydi.

1943-yilda ishlab chiqarilgan o'qlar namunasi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

To'siqlar	O'qning turi	Otish masofasi (metr hisobida)	O'qning teshib o'tish holati
7 mm zirh yo'g'onligi 90° burchak kuzatuvida kaska (po'lat shlem)	Zirhyorar yondiruvchi	200—300	50—90 %
	Po'lat o'zakli zirhyorar yondiruvchi	900—1100 m.dan yuqori	80—90 %
Okoq tepasiga uyulib ishlangan qor	Hamma o'q turi	500	70—80 sm
Tuproq yoki qum bilan to'ldirilgan to'siq	Hamma o'q turi	500	25—30 sm
Yog'och to'siqlaridan qurilgan doska (20x20 qalinligida)	Po'lat o'zakli zirhyorar yondiruvchi	150	30—40 sm
Pishiq g'ishtli to'siqlar	Po'lat o'zakli zirhyorar yondiruvchi	100	12—15 sm

To'g'ri o'q otish va uning ahamiyati

O'qning nishonga borib tegishi davomida uning o'ldirish holati va teshib o'tishi, uning og'irligiga va tezligiga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda o'qning o'ldirish holati uning havodagi eng so'nggi masofagacha harakatlanishi to'g'ri otish deyiladi (123-rasm).



123-rasm. To'g'riga o'q otish.

Amaliyotda buning qo'llanish jarayoni eng tig'iz damlarda mo'ljalga qo'ymay otish holatidir. Bunday holatda mo'ljalga otish nuqtasi balandligiga nishon namunasidan pastroqqa mo'ljallanadi. To'g'ri otish uslubi masofadagi nishon balandligiga hamda o'qning yer bag'irlab ketgan trayektoriyasiga ham bog'liqdir. Nishon qancha yuqori bo'lsa, o'qning to'g'ri otish masofasiga harakatlanishi ham shuncha katta bo'ladi. Mo'ljalga olishda birinchi navbatda uzoqdagi nishon tezroq shikastlantirilsa, bu vaziyatda dushmanga javob o'qi otishga imkon berilmaydi.

Yashirin joy, o'q tegadigan (shikastlantiradigan) maydon va o'q tegmaydigan maydon


Yashirin joylashgan, o'q teshib o'tolmaydigan berkitilgan joylarni, cho'qqisidan tortib otish nuqtasigacha bo'lgan maydon berkitilgan maydon deyiladi. Yuqori joylashtirilgan yashirin joy o'qning yer bag'irlab ketgan trayektoriyasi (harakatlanish yo'li)dagi mo'ljal nishonlarini shikastlantira olmasa, o'lik (shikastlantirilmagan) maydon deyiladi.

Yashirin pana joylar yuqori balandlikda joylashgan bo'lsa, mo'ljalga olish balandligi pastroq bo'lib, o'qning trayektoriyasi

(harakatlanish yoʻli) ravon boʻladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, berkitilgan oʻlik maydonlarda dushman oʻqlaridan epchillik bilan himoyalaniish lozim boʻladi.

Berkitilgan maydonlarning yana bir qismida nishon shikastlantirilsa, shikastlantirilgan maydon masofasini tashkil etadi. Bu holatda trayektoriya (harakatlanish yoʻli) tarmogʻining pasayishi moʻljallandirigini oʻzgartirmaydi.

Shikastlangan maydonlarda moʻljallandirigini yer bagʻirlab ketgan trayektoriya (harakatlanish yoʻli)ga burchak ogʻishi ham bogʻliqdir. Uning amaliyotidagi ahamiyati shundaki, moʻljallandirigini olish nuqtasining nishongacha boʻlgan katta tomonlardagi masofalari oʻlchashdagi ahamiyatsizlik oʻrinsiz xatolarni keltirib chiqaradi.



124-rasm. Toʻgʻri moʻljallash va moʻljallash vaqtidagi xatoliklar:
a—mushkani toʻgʻri olib, moʻljallangan nuqtaga toʻgʻrilash; b—mushka kichik;
d—mushka katta; e—mushka chapga siljigan; f—mushka oʻngga siljigan.

Moʻljalga olish usullari

Moʻljalga olish — avtomat stvol kanalini oʻq otish uchun tayyorgarlik holatiga keltirilib, moʻljallangan nuqtaga toʻgʻrilanadi. Avtomatning nishonga toʻgʻrilanish nuqtasi—moʻljallangan nuqta deyiladi.


Mushkani toʻgʻri olish uchun mushka moʻljallangan plankasi-ning oʻyiq joyiga toʻgʻri keltirishdir. Uning uchi moʻljallagich plankasi oʻyiq joyining oʻrtasida boʻlishi bilan, yuqori chekkalari bir tekisda boʻlishi kerak (124-rasm).

Moʻljalni tanlash va moʻljallangan nuqtaga, qoʻzgʻalmas nishonga oʻt ochish

Moʻljal va moʻljallangan nuqta shunday hisobga olingan holda tanlanishi zarurki, oʻt ochishda roʻy beradigan oʻrtacha trayektoriya nishonning oʻrtasidan oʻtishi

lozim. 300 metrgacha bo'lgan masofaga avtomatdan o't ochishda, mo'ljallagichni otish qoidasiga asosan, 3 raqamli yoki «П» harfiga o'rnatish shart. Mo'ljallanayotgan nishonning pastki qismiga yoki bo'lmasa, o'rtasiga mo'ljallash kerak bo'ladi. Masalan, avtomatdan 100 metr masofadagi ko'krak shaklidagi nishonlarga o'q otishda, mo'ljallanadigan nuqtasini, nishonni past qismiga qaratib, mo'ljallagichni «П» harfiga qo'yib, o't ochish lozim bo'ladi. Bu holatda trayektoriyani ortib borishi mo'ljallash chizig'idan uzoqligi 25 sm.ga tengdir. Bu esa, nishon markazidan o'tadigan trayektoriyaga mos tushadi.

300 metrda ortiq uzoqlikka o't otishda mo'ljal nishongacha mos keladigan masofaga o'rnatiladi va yuz metr lab yaxlitlanadi. Mo'ljallash nuqtasi sifatida, nishonning o'rtasi olinadi. Mabodo, sharoit taqozosi mo'ljallagichni almashtirishga imkon bermasa, unda mo'ljallagich «П» harfiga o'rnatilib, o't ochish lozim bo'ladi. 400 metrda ortiq masofaga otish uchun nishonning joyi, burchagi va dengiz sathidan kuzatish maydonning balandligi hamda nishonning pastki qismini mo'ljallash bilan tuzatishlar kiritiladi. Ob-havo noqulay kelishi, yondan esayotgan shamol o'qning uchishida salbiy ta'sirini ko'rsatib qolmay, uni chetga og'dirishi bo'ladi. Yon tomondan esayotgan shamol vaqtida mo'ljallash nuqtasini bir necha metr nishonning shakliga yoki surilma bo'lagiga mo'ljal oldindan olinishi lozim. Bunday holatda esa, mo'ljallangan nuqtani boshlangan joyidan, nishonning o'rtasidan shamol esayotgan tomonga ko'chiriladi (125-rasm).



125-rasm. Mo'ljallash nuqtasini butun bir oldinga ko'chirish.

Uzoqlikni o'lchash usullari va minglik ifodasini qo'llash

Odatda, nishongacha bo'lgan masofani ko'rish asboblari yordamida (har qanday sharoitda) burchak kattaligi bilan o'lchanadi. Ko'rish asboblari (glazamer) yordamida uzoqlikni aniqlash; joyning biron-bir jismi bilan; joyning kesishgan holati bilan; ko'rinish darajasiga qarab, har qaysi nishon yoki buyumni o'lchash bilan amalga oshiriladi.

Nishonga olish masofasining burchak kattaligi nishon o'lchami agar (balandligi, kengligi, uzunligi) aniq bo'lsa, minglik ifodasini qo'llash usuli bilan aniqlanadi:

$$M = \frac{B \cdot 1000}{BK},$$

bu yerda, M —nishongacha bo'lgan masofa, metr; B —nishongacha bo'lgan balandlik (kengligi yoki uzunligi), metr; 1000 — doimiy uzunlik; BK —minglikning nishongacha bo'lgan burchak kattaligi.

Nishonning burchak kattaligi minglar yordamida dala durbinini yoki burchak ko'rsatish asboblarning burchak o'lchami shkalasi yordamida o'lchanadi. Binoklning katta shkalasi orasidagi o'lcham 10 ming, kichigi 5 ming (yozilishi 0—10, 0—05)ga teng. Masalan, durbin orqali kuzatilayotganda, o'rtacha odamning o'lchami 1,7 m durbinning bir kichik uzunlik setkasi 0—05 m.ga to'g'ri keladi. Shunday qilib, odam o'rtasida:

$$M = \frac{B \cdot 1000}{BK} = \frac{1,7 \text{ m} \cdot 1000}{BK} = \frac{1700}{5} = 340 \text{ m},$$

minglik — burchak uzunligi to'g'ri 1—1000 radius yoki burchak markazi aylanma yoyi, to'g'ri 1—6000 aylana qism.

Nishon burchak kattaligini qo'ldagi mavjud buyumlar bilan: chizg'ich, qalam, gugurt qutisi yoki qo'l barmog'i bilan ham o'lchasa bo'ladi. Buning uchun ushbu buyumlarning minglik holatini bilish zarur bo'ladi. Chizg'ichni 1 mm—0—02; dumaloq qalam — 0—12; gugurt uzunligi bo'yicha chiziqcha—0—90, kengligi bo'yicha—0—60, balandligi bo'yicha—0—30; qo'l barmoqlari: bosh barmoq — 0—40; ko'rsatkich barmoq—0—30; kichigi—0—20.

Masalan, nishonning burchak kattaligini aniqlash uchun chizg'ich yordamida, nishon masofasi, chekkasi, kengligi, balandligi yoki uzunligi 4 mm bo'lsa, undan nishonning burchak kattaligi $0-02 \cdot 4 = 0-08$ ga teng.

Nishonning burchak kattaligini qo'ldagi buyumlar yordamida aniq o'lchash lozim bo'lsa, ko'zdan 50 sm masofa nariga aniq olib borish kerak.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O'q uzish qanday ro'y beradi?
2. O'q uzish masofasini qanday hisoblash mumkin?
3. Qanday holda to'g'ri o'qlash deb ataladi?
4. Qanday maydon o'q yetmaydigan hisoblanadi?
5. Miltiqni o'qlashni bayon eting.

5-bob. JOYIDA TURIB VA HARAKAT PAYTIDA QO'ZG'ALMAS HAMDA PAYDO BO'LUVCHI NISHONLARGA O'T OCHISH

Avtomatdan o't ochish paytida xavfsizlik choralari


Avtomat bilan ishlash jarayoni o'ta ehtiyotkorlikni talab etadi. Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin qurolning o'qlangan yoki o'qlanmaganligini aniqlash maqsadida diqqat-e'tiborni qaratib, tekshiruv orqali ko'zdan kechiriladi. Tekshirish vaqtida quroldan o'qdon ajratib olinadi, avtomatni 45° burchak ostida ushlab turib, zarba beruvchi tepki ko'rsatkich barmoq bilan bosiladi. Qurol o'qlangan yoki o'qlanmagan taqdirda ham uni odamlar tomoniga qaratish man etiladi. O'quv mashg'ulotlari tugagandan so'ng, avtomat qo'riqlagich qismiga o'tkaziladi.

Avtomat o'qdoniga o'quv o'qlarini joylashtirishda unga jangovar o'qlarning qo'shib qolmasligi uchun diqqat-e'tiborni kuchaytirgan holda tekshiruv o'tkaziladi. O'qning piston qismiga urish yoki bo'lmasa yaroqsiz «osechka» bo'lgan jangovar o'qlardan o'quv mashg'ulotlari davrida foydalanish aslo mumkin emas.

Quroldan otish asoslarini o'rganish va berilgan o'quv mashg'ulotlarini bajarish jarayonida otish qoidalariga qat'iy amal qilinishi zurur. Otish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish davrida quyidagilar taqiqlanadi:

- mashg'ulotlarni o'tkazuvchi komandir yoki harbiy rahbarning ruxsatisiz o'zboshimchalik bilan qurolni qo'lga olish va o'qlash;
- nosoz bo'lgan quroldan jangovar o'qlar bilan o't ochish.

O'qdonga o'qlarni joylashtirish



126-rasm. O'qdonga patron joylash.

O'qdonga o'qlarni joylashtirish zarurati bo'lsa, uni chap qo'lga olib, og'iz tomonini yuqoriga qilib va turtib chiqqan joyining chap tomonidan, o'ng qo'l barmoqlari yordamida o'qlar olinib, o'qdoni og'iz qismiga kirgizilib, o'ng qo'lni bosh barmoq bilan bosib, o'qdon tubiga tushiriladi. O'qdonga o'qlarni joylashtirib bo'lingandan so'ng, u sumkaga joylashtiriladi (126-rasm).


Yotib o't ochishga tayyorlanish

Avtomatdan o't ochishga to'g'ri tayyorgarlik ishlari olib borilsa, bu qurolning turg'unligini ta'minlaydi. O'qning nishonga bexato tegishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O't ochishning asosiy sharti va qoidasiga asosan, otuvchi o'z gavdasini to'g'ri tutib joylashtirishidir. Otishning eng qulay holati—bu otuvchining yotib otishi. Yotib o't ochishda tana va qo'l tirsagi, bilagini yer bag'riga mahkam tayanish evaziga avtomat turg'unligi mustahkam saqlanadi. Otish davrida tayanchdan foydalaniladi. Tayanch sifatida chimdan, yog'och qipig'i yoki qum to'ldirilgan qopchalardan foydalanish mumkin. O't ochishga tayyorgarlik o'q otish holatini va qurolni o'qlash usullarini qamrab oladi.

«Jangga» komandasi berilganda, otuvchi qurolni o'ng qo'lga olib, o'ng oyoq bilan oldinga siljib, sal o'ngroqqa qadam tashlaydi.

Gavda qismini oldinga engashtirib, chap oyoq bilan yerga tiz cho'kiladi. Chap qo'lining barmoqlarini o'ng tomonga qaratib yerga qo'yiladi (127-rasm), oyoqning soni va chap qo'lining bilagiga suyanib, chap tomonda biqin bilan yerga yotib, tez aylanib qorin bilan yotiladi. Oyoqlarning uchi yon tomonlariga qaratilgan holda orqaga uzatiladi va oyoqlari orasi ochib qo'yiladi. Buning bilan o'q otishga tayyor turiladi. So'ngra avtomat o'qlanadi (oldindan o'q-lanmagan bo'lsa), mabodo, o'q ochish kerak bo'lmasa yoki «O't och» buyrug'i berilmasa, qurol qo'riqlagich qismiga qo'yiladi. O'ng qo'l esa, avtomat dastasida bo'ladi.



127-rasm. Yotib o'q otishdagi ketma-ket bajariladigan harakatlar (a, b).

Otish maqsadlarini amalga oshirish

Otish maqsadlari bajarishlik, mo'ljallagich va o'tkaziluvchi moslamalarini o'rnatish, mo'ljalga olish, avtomatning ishlash jihat va zarba beruvchi tepkini bosish orqali amalga oshirishni buyruq berilgandagina bajarishga kirishiladi. Otuvchining kimga otishi, nishonni mo'ljalga olishi, o't ochishning turi, mo'ljal nuqtasi, masalan, falon joyga, ko'krak shakliga, yakka (bitta-bitta) nishonning pastki qismiga («O't och» kabi) ko'rsatiladi.

Nishon masofasini mo'ljallagichga o'rnatish uchun, avtomatni o'ziga yaqinlashtirib, o'ng qo'lining katta va ko'rsatkich barmoqlari



128-rasm. Avtomatni o't ochishda tirab ushlash:
a—chap qo'l bilan o'qdondan; b—chap qo'l bilan sevyedan.

bilan xomutning surilmasini bosib, xomutni mo'ljallash plan-kasida, uni oldingi kesigi ko'zlangan raqamli tuynugigacha siljatiladi. Agar mo'ljalga olish «П» bo'lsa, uning o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligini tekshirish lozim.

O'tkaziluvchini kerakli o't ochish turiga o'tkazish uchun o'ng qo'ling katta barmog'i bilan o'tkaziluvchining dastakchasini bosib, birinchi teshikcha to'xtovsiz (avtomatik) tarzda o't ochish uchun, ikkinchi teshikcha esa, yakka tarzda o't ochishga qo'yiladi. Avtomatning poya (sevye) qismidan yoki o'qdonni o'ng qo'l bilan ushlab, nishon mo'ljallashni to'xtatmasdan, avtomatni taqash uchun, uning qo'ndog'ini yelkaga mahkam zich tirab, bo'yinni qurolga suyab, o'ng qo'ling ko'rsatkich barmog'i zarba beruvchi tepkiga qo'yiladi.

Bu holatda qo'l tirsaklari yelka tengligida bo'lib, bosh ozgina oldinga egiladi, bo'yin uncha tarang bo'lmay, o'ng yuzni qo'ndoqqa qo'yish kerak. Qo'ndoq bo'yincha yelkaga o'rnashishda zich qadalishi lozim. Qo'ndoq yelkaga qadalganda yuqori burchagi, ya'ni qo'ndoq past bo'lsa, o'q pastga qarab otadi. Agar tayanchdan pastki burchak o'tkir bo'lsa, ya'ni qo'ndoq baland bo'lsa, o'q yuqoriga qarab otiladi. Buni aniqlash uchun o'ng qo'lni chetga o'ng yelka tengligida ko'tariladi, agar qo'ndoq yelkaga noto'g'ri tiralib, unga zichlanmagan bo'lsa, qo'l ko'tarilganda u pastga yoki yuqoriga sirg'aladi.

Nishonni mo'ljalga olish bir ko'zda amalga oshiriladi. Qaysi ko'z yetakchi ko'zligini aniqlash maqsadida, bir parcha qog'ozni olib, diametri 2,5—3 sm doira teshiklari ochamiz, qog'ozni vertikal ushlab, qo'lni uzatgan holatda, boshni qimirlatmasdan, har ikki ko'z bilan teshiklardan nishonga qaraymiz. Nishon o'rnatilgan joy oq rang tusida bo'ladi. Keyin esa, navbat bilan oldin o'ng ko'z, keyin chap ko'z yordamida nishonga qaraymiz. Chap ko'z yumilganda nishon ko'rinsa, o'ng ko'zni yumganda nishon qog'oz orqasiga yashirinsa, bunda otuvchining o'ng ko'zi yetakchi hisoblanadi. Nishonni mo'ljalga olish uchun, mo'ljallagichning kesik joyidan yetakchi ko'z yordamida mushkaga qaraladi.

Mushkaning kesigi o'rtasidagi yuqori chetlarini, mo'ljallagich plankasining qirralari bilan birga tenglashtirib mushkani to'g'ri tutish kerak. Nafas olishni to'xtatib, lozim bo'lsa, gavda va oyoqlarni to'g'rilab, butun vujudini mushka bilan mo'ljallash nuqtasiga qaratish, bir vaqtning o'zida zarba beruvchi tepki ilga-

gini ko'rsatkich barmoq bilan bosadi. Mo'ljallash paytida mo'ljallagich plankasi qirralari gorizontal holatida bo'lishiga e'tibor berish kerak. Avtomat o'ng (chap)ga og'ib turgan bo'lsa, o'qlar ham o'ngga yoki chap tomonlarga ketadi. O'qning nishonga xatosiz tegishi uchun mo'ljallash vaqti uzoq tavsiya etilmaydi. Mabodo, o't ochish qandaydir sabab bilan vaqtincha to'xtatilgan bo'lsa, ko'zni mo'ljallashdan olib, 5—10 soniya dam berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Zarba beruvchi tepkini bosish uchun, avtomatni poyasi (sevye) qismidan yoki o'qdondan chap qo'l yordamida ushlab, o'ng qo'l yordamida esa avtomat dastasidan ushlab, mahkam yelkaga qadab, nafas chiqarishni to'xtatib, tepkini o'q otilganiga qadar bosib turiladi. Tepki bosilmayotganda, mushkaning ozgina tebranishiga e'tibor bermaslik kerak. Mo'ljallangan nuqta bilan mushkaning to'g'ri joylashishini qayta kutish, tepkning qattiq bosilishi natijasida tepkning siltanish holati ro'y beradi va o'q nishonga aniq tegmaydi. Quroldan to'xtovsiz (avtomatik) tarzda o't ochish jarayonida, qo'ndiqni mahkam yelkaga bosib ushlash, tirsaklarning holatini o'zgartirmasdan mo'ljallagich kesigini mushka bilan to'g'ri bir xil tutish lozim.

Har bir to'xtovsiz (avtomatik) tarzda otish amalga oshirilgandan so'ng, mo'ljallanish to'g'riligini tekshirib, yana otishni davom ettirish kerak. Yotib olgan holatda avtomat o'qdonini tuproqqa yoki yerga tirab, o't ochishga ijozat beriladi.

Otish davrida sharoit va vaziyatga qarab, vaqtincha yoki to'liq otishni to'xtatish mumkin. Otishni vaqtinchalik yoki to'liq to'xtatish maqsadida «To'xta» yoki bo'lmasa, «O't ochishni to'xtat» buyrug'i beriladi. Berilgan buyruqqa asosan otuvchi, zarba beruvchi tepkini bosishni to'xtatib, qurol «qo'riqlagich» qismiga o'tkaziladi. O't ochishni to'liq tugatish uchun «To'xta» buyrug'idan tashqari «O'qsizlantirilsin» buyrug'i beriladi. Bu buyruqdan so'ng avtomat «qo'riqlagich» qismiga qo'yiladi. Agar mo'ljallagichga qo'yilgan bo'lsa, mo'ljallagich «П» harfiga o'rnatiladi. Avtomat o'qsizlantiriladi. Avtomatni o'qsizlantirish uchun o'qdon ajratiladi. Zatvor ramasini asta orqaga tortib boriladi.


O'q o'qdondan chiqarilib, zatvor ramasi qo'yib yuboriladi. Zarba beruvchi tepkini bosib, avtomat «qo'riqlagich» qismiga o'tkazilib yerga qo'yiladi. O'qdondan o'qlar chiqarib olinadi. O'qlarni chiqarib olish uchun o'qdonning og'iz tomoni yuqoriga qilinib, chap qo'l

bilan ushlanadi, tayanch qo'ndiqchasi o'ziga qaratilib, o'ng qo'l bilan patron yordamida o'qni bittadan o'zidan ilgariga siljitadi. Keyin esa, avtomatga o'qdon birlashtiriladi va otilmay qolgan o'qlar yig'ishtirib olinadi. Avtomatning poyasi (sevye) va stvol qo'ndiqchasidan o'ng qo'l bilan ushlab, qo'ndiqni yerga tushirib, og'iz qismi chap qo'lining bilagiga qo'yiladi (129-rasm). O'qsizlantirilgandan so'ng, agar zarur bo'lsa, avtomat tekshiriladi.



129-rasm. O'qchining o'q otgandan keyingi holati.

«Qurol tekshirishga» buyrug'iga asosan, yotgan holda avtomatdan o'qdon ajratib olinadi, uni avtomat yoniga og'iz qismini o'zi tomonga qaratib qo'yib, avtomatni «qo'riqlagich»dan chiqarib, zatvor ramasini orqaga olib borib, avtomatni biroz chaproqqa olib, o'rnidan tik turib qurol «tasmaga» olinadi. O't ochish holatida avtomatning poyasi (sevye) ostidan chap qo'l bilan ushlab, o'ng



130-rasm. O'qchining tik turib qurolni tekshirish holati.

qo'l bilan o'qdon ajratib olingach, poyasi (sevye)dan ushlagan chap qo'lga o'tkaziluvchini yuqori tomoniga, o'ziga qarama-qarshi tomonga qaratib, chap qo'l barmoqlari bilan birga ushlanadi. Keyin avtomat «qo'riqlagichdan» chiqarilib, zatvor ramasi orqaga tortilib, avtomat biroz chapga buriladi (130-rasm).

Qurol tekshirilgandan so'ng, komandir (harbiy rahbar, yo'riqchi) patronnik va o'qdonni tekshirgach, zatvor ramasini oldinga qo'yib, jangovar holatidan tepkini bosib, avtomat «qo'riqlagich»ga o'tkaziladi. O'qdon avtomatga birlashtirilib, avtomat «tasmaga» holatiga olinadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Otish jarayoni va uning davrlarini bayon eting.
2. O'qning boshlang'ich tezligini izohlang.
3. Otish davrida qurolning orqaga qaytish tezligini bayon eting.
4. O'qning havoda harakatlanish holatini tushuntirib bering.
5. Trayektoriya deb nimaga aytiladi?
6. O'qning o'ldirish holatini ta'riflang.
7. Nishongacha bo'lgan masofa qanday usulda aniqlanadi?
8. Burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usulini bayon eting.
9. Minglar formulasi va uni qo'llash usuli qanday bo'ladi?

III. HARBIY XIZMAT ASOSLARI

Bu bo'limda xalqaro insonparvarlik huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi, xalqaro insonparvarlik huquqining mohiyati, xalqaro insonparvarlik huquqining asosiy tamoyillari, xalqaro insonparvarlik huquqining manbalari, «kombatant» va «fuqaro shaxs» tushunchalari, alohida himoya qilinuvchi ba'zi zonalar va joylar, qurolli to'qnashuvlar huquqiga muvofiq kombatantning xatti-harakatlari, tashkilotlarning vujudga kelishi, tarkibiy qismlari va vazifalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, yoshlar qurolli to'qnashuvlar huquqiy mazmuni va uning kelib chiqish tarixi, jangovar harakatlarda qatnashuvchining axloq kodeksi, kombatantlar va fuqarolar, harbiy obyektlar o'rtasidagi farqlar, hujumga va mudofaaga o'tish davrida qurol turlarini qo'llash, harbiy harakatlarni olib borish usuli, taqiqlangan qurol turlarini qo'llamaslik, harbiy to'qnashuvlar huquqi buzilganda, ularning javobgarlikka tortilishi, qurolli to'qnashuvlar huquqida ko'rsatilgan farqli belgi va ramzlar haqida tushunchalarga ega bo'lishadi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi va «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy hisobi haqidagi Nizomi, harbiy xizmatdan bo'yin tovlash, sodir etilgan harbiy jinoyatlar uchun, xizmat davomida tartibbuzarliklarga yo'l qo'yilganda intizomiy va jinoiy javobgarlik haqida hamda O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasining asosiy qoidalari, tarbiyaviy ishlar, Qurolli Kuchlar qurilishi, harbiy intizom asoslari va harbiy qadriyat qoidalari, harbiycha salomlashish, askarning saflanish oldidagi va safdagi majburiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

1-bob. QUROLLI TO‘QNASHUVLAR HUQUQI

1.1. Qurolli to‘qnashuvlar huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi

A. Qurolli to‘qnashuvlar huquqi qanday yuzaga keladi?

«Qurolli to‘qnashuvlar huquqi» tushunchasi adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Jumladan, «xalqaro insonparvarlik huquqi», «urush huquqi», «qurolli to‘qnashuvlar paytida qo‘llaniladigan xalqaro insonparvarlik huquqi», «qurolli to‘qnashuvlar xalqaro huquqi» va boshqalar. Jeneva konvensiyalari matnlarida esa «xalqaro gumanitar huquq» tushunchasi ishlatiladi.

Umuman, huquq va qisman xalqaro huquq ko‘p darajada urush huquqi sifatida vujudga keldi. «Xalqaro huquq otasi» G. Grotsiyning 1625-yilda nashr etilgan asari «Urush va tinchlik huquqi haqida uch kitob» (*«De juri belli ac pacis, libri tres»*) nomini olgan. G. Grotsiy va uning izdoshlari oldini olish mumkin bo‘lmagan urushlarni huquq va insoniylik tamoyillariga mos ravishda olib borish kerak, g‘alaba uchun zaruridan ortiqcha kuch ishlatish oqlanishi mumkin emas, deyishgan.

Biroq, ba’zi huquqshunoslar qurolli mojarolarni huquq me’yorlari bilan tartibga solishga urinishlarning o‘zida kelishtirib bo‘lmaydigan ziddiyat bor, deyishadi. Hatto «Qo‘shma Shtatlar armiyasiga jang maydonlarida qo‘mondonlik qilish uchun yo‘l-yo‘riqlar» muallifi F. Liber shunday degan: «Urushlar qanchalik shafqatsiz olib borilsa, insoniyat uchun shuncha yaxshi. Shafqatsiz urushlar uzoq davom etmaydi». M. Odema: «Urush kuch ishlatilishini ko‘zda tutadi, huquq esa, adolat timsoli sifatida uni rad etadi», deydi. T. Meron qurolli mojarolar huquqini «insoniylashtirish» ko‘p jihatdan ziddiyatlidir, masalan, «ortiqcha azob-uqubatlarni atamasining mazmuni shunaqa, deb yozadi. Ammo u «garchi, urush huquqini insoniylashtirish kishilar chekadigan azob-uqubatlarni yengillashtirish va inson qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan ekan, u qanchalik mukammal bo‘lmasin, siyosiy va axloqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanuvchi munosib maqsad uchun xizmat qiladi», deb ham yozgan.

Huquq fanida shu paytgacha xalqaro huquqning qurolli kurash olib borilishini tartibga soluvchi me'yorlari sohasiga ta'rif beruvchi yagona tushuncha yo'q. Olimlar o'rtasida uning mazmuni borasida ham yakdillik mavjud emas. Eng ko'p tarqalgan atamalar quyidagilardir: «urush huquqi» (F. Berber) — «urushuvchi tomonlar zimmasiga xalqaro huquq dushmanni bostirish vositalarini qo'llash borasida yuklaydigan huquqiy cheklovlar» sifatida ta'riflanadi; «xalqaro harbiy huquq» (E. Bart) — «harbiy asirlar, yaradorlar va tinch aholi chekadigan azob-uqubatlarni minimumga» olib keluvchi huquq sifatida; L. Oppengeym aytadigan «urushning qonun va udumlari» «urush olib borishga tegishli xalqaro huquq me'yorlari» sifatida tushuniladi; D. Bindshedler-Roberning fikricha, «ushbu huquqiy me'yorlar tizimini umuman atash uchun to'la asosli ravishda «urush qonunlari» atamasidan foydalanishda davom etaverish mumkin»; I. Starke esa, xuddi shu atama ostida «xalqaro huquq tomonidan o'rnatilgan va dushmanni yengish uchun kuch ishlatish imkoniyatlari doirasini belgilovchi cheklashlar» deb tushunadi¹.

So'nggi yillarda J. Pikte tomonidan taklif etilgan «xalqaro insonparvarlik huquqi» atamasi eng ko'p qo'llanadigan bo'ldi. Bu atama faqat 1949-yildagi to'rtta Jeneva konvensiyasiga mansub bo'lsa-da, hozirgi paytda u umuman qurolli mojarolar huquqini atash uchun keng ishlatilmoqda. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining ta'rifiga ko'ra, «xalqaro insonparvarlik huquqi — bu xalqaro huquqning protokollarda belgilangan yoki udumlarga asoslangan me'yorlaridir. Bu me'yorlar bevosita xalqaro va xalqaro bo'lmagan qurolli mojarolar oqibatida yuzaga keladigan insonparvarlik masalalarini hal etishga maxsus yo'naltirilgan bo'ladi hamda insonparvarlik mulohazalaridan kelib chiqqan holda mojarodagi tomonlarning urush olib borish usul va vositalarini tanlash huquqini cheklaydi yoki mojaro ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan shaxs va mol-mulkni himoya qiladi»².

Xalqaro insonparvarlik huquqi (XIH) xalqaro ommaviy huquqning jamlangan sohasi sifatida XIX asrning 60-yillarida

¹ *И.Н. Арцибасов, С.А. Егоров.* Вооруженный конфликт: право, политика, дипломатия. М., 1989, стр. 6—7.

² *Х.П. Гасцер.* Международное гуманитарное право. Введение. М., МККК, 1999, стр. 26.

yuzaga kelgan bo'lib, urush qilish udumlari va qonun-qoidalarining ko'p asrlar davomida shakllangan va sayqal topgan qonuniy mahsulidir. U insonparvarlik tafakkurining eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassam etgan.

Urush harakatlarini olib borishga ta'sir ko'rsatuvchi insonparvarlik g'oyalari yuzlab yillar davom etgan rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Insonlarning zo'ravonlikni cheklash, mehr-shafqatga shaylik, yarador jangchilarga yordam ko'rsatish, asirlar qismatini yengillashtirish va jangda halok bo'lganlarga nisbatan hurmat bajo keltirishga bo'lgan azaliy intilishlarini tasdiqlovchi dalillar saqlanib qolgan.

Insonparvarlik g'oyalarining vujudga kelishi va xalqaro insonparvarlik huquqi shakllanishining butun murakkabligini tasavvur qilish uchun ba'zi tarixiy misollarga murojaat qilamiz. Xalqaro huquq, shu jumladan, xalqaro insonparvarlik huquqining mohiyatini tushunib yetish, uning imkoniyatlarini aniqlash, samaradorligini oshirish va istiqbolini bilish uchun o'tmishni o'rganish zarur. Xalqaro huquq tarixi jamiyat tarixining ajralmas qismidir.

Insonparvarlik huquqining ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Urush qonunlari urushning o'zi singari qadimiy, urush esa, yerda insonning paydo bo'lishi kabi qadimiydir. Jamiyatning davlatchilik vujudga kelgunicha bo'lgan rivojlanish davridayoq urug'lar va qabilalararo munosabatlar borasida ma'lum darajada tajriba to'plangan¹, bu munosabatlarni tartibga solib turadigan va urf-odatlarda o'z aksini topgan muayyan qoidalar shakllangan edi.

Qabilalararo kurashning maqsadi dushmanni tamomila qirib tashlashdan iborat bo'lmagan hollarda, ko'pincha, tasodifiy bo'lsa-da, zo'ravonlik oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan qoidalar yuzaga kelar edi. Bunday qoidalar hozirgi zamon xalqaro insonparvarlik huquqining ilk nishonalari bo'lib, ularni barcha xalqlar madaniyatida uchratish mumkin. Bunday qoidalar haqidagi ma'lumotlarni doston va afsonalarda (masalan, hind eposi «Mahobxorat»), muqaddas kitoblarda («Avesto», «Qur'oni Karim», «Injil») yoki o'git kitoblari (qadimgi hind nasihatlar to'plami bo'lgan «Manu qonunlari»)da ko'plab topish mumkin. Shu o'rinda Bobil shohi Xammurapining (miloddan avvalgi 1792—1750-yil-

¹ И.И. Лукашук. Международное право. Общая часть. М., «БЕК», 1996, стр. 41.

larda hukmdorlik qilgan) qonunlarini ham eslatib o'tish joiz. Bu qonunlarning aksariyati bevosita urushga taalluqli bo'lgan. Ular quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: «Men bu qonunlarni kuchlilar kuchsizlarni bo'ysundirib olmasliklari uchun o'rnatmoqdaman».

Savdo-sotiqning rivojlanishi, shaharlarning yuzaga kelishi, davlatlarning taraqqiyoti barobarida davlatlar o'rtasidagi aksar hollarda o'zgaruvchan va dushmanona bo'lgan munosabatlarni, umuman olganda, me'yorlar orqali tartibga solish mumkinligi anglab yetildi va bunday munosabatlarni yozma ravishda qayd etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Hozirgi Iroq va Eron hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida xalqaro huquqning shakllanishi haqida ma'lumotlar topishga erishildi. Urush davrida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risida Mesopotamiya shahar-davlatlari Lagash va Umma o'rtasida tuzilgan protokol (miloddan avvalgi 310-yillar atrofida) xalqaro huquqqa oid bugungi kunda ma'lum bo'lgan eng qadimiy hujjat sanaladi.

O'sha davrdagi tamoyillarning shafqatsizligiga qaramay, to'plangan tajriba muhim ahamiyat kasb etdi. Asta-sekin ahdlashuv amaliyoti keng tarqaldi. Miloddan avvalgi 1269-yilda Misr fir'avni va xettlar shohi o'rtasida tuzilgan tinchlik hamda ittifoq to'g'risidagi ahdlashuvda nafaqat tashqi dushman bilan urushda, balki qo'zg'olon qilgan qullarni bostirishda ham yordam ko'rsatish nazarda tutilgan. Qadimgi Hindistonning siyosiy hikmatlar to'plami, yarim afsonaviy Kautilyaning (miloddan avvalgi IV—III asrlar) qalamiga mansub Artxashastrida tinchlik ahdnomalari haqida shunday deyiladi: bu ahdnomalar teng yoki kuchliroq bo'lgan hukmdorlar bilan tuziladi, kuchsizlarga esa, hujum qilish kerak.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba sifatida protokollarning ahamiyati, masalan, zardo'shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da ta'kidlanadi. Shartnomalar ko'p turlarga bo'linadi va turli kafolatlar (garovlar) bilan mustahkamlanadi. Bu esa ularning yetarli darajada yuqori «huquqiy» asosidan dalolat beradi.

«Avesto»da ahdnomalarning maxsus yodga olinishi, chamasi, o'troq chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun o'sha davrdagi turli qabilalar ittifoqlarining tinch-totuv yashashlarini ta'minlash talabi bilan izohlanadi. Zardo'shtiylikda urush xudosi Veretragna (Varxran, Bahrom) bilan bir qatorda sulhlar xudosi

Mitrage ham sajda qilingan. Urush dahshatlarini qoralar ekan, «Avesto» tinch mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarga, ya'ni tinch aholiga nisbatan ma'lum bir darajada insonparvarlikni o'zida aks ettirgan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda Osiyoda budda dini aynan hamdardlik o'zaro yordamga yetaklaydi, deya hisoblagan va uni o'ziga shior sifatida qabul qilgan. Lao-Szi insonning yagona qadriyati odamlarga xizmat qilishda, deb hisoblagan, Konfutsiy esa, hamfikrlik va ilmlarga asoslangan chin altruizmi, ya'ni o'zini emas, o'zgalarni o'ylashni targ'ib qilgan. Mexiti o'zaro foyda manbayi sifatida umuminsoniy muhabbat tushunchasini joriy etgan. Qadimda qudratlilar qonuni hamda «mag'lublar holiga voy» tamoyilidan boshqa hech qanaqa urush qoidalari bo'lmaganligi ehtimoldan xoli emas. Naql qilishlaricha, bu so'zlarni gallar lashkarboshisi Brenn rimliklar ustidan miloddan avvalgi 390-yilda qozonilgan g'alabadan so'ng, o'z shamshirini qadoqtoshlar turgan tarozi pallasiga tashlay turib aytgan. Tarozi esa, rimliklar Brenn lashkari ularning shahrini tashlab chiqib ketishi uchun to'lashlari lozim bo'lgan oltinlarni o'lchash uchun mo'ljallangan edi.

Shunga qaramasdan, Brenn rimliklarning hayoti va erkini saqlab qolib, o'sha davrdagi mezonlarga ko'ra, oliyhimmatlik ko'rsatgan. Chunki qadimda urush, xoh u urug'lar, qabilalar, shaharlar o'rtasida, xoh mamlakatlar o'rtasida bo'lsin, ko'pincha, ommaviy xususiyatga ega bo'lgan. Mag'lub bo'lgan aholi qirg'in qilingan, hech bo'lmaganda, qulga aylantirilgan¹.

Boshqa tarixiy misollarga murojaat qilaylik. Ahamoniylar imperiyasi hukmdorligining boshlang'ich davrida (miloddan avvalgi 558—330-yillar) O'rta Osiyo hududida ko'p urushlar bo'lgan, bunda ming-minglab odamlar qirib tashlangan. Doriy Birinchining mashhur Behistun yozuvlaridagi Bobil matnlarining dalolat berishicha, miloddan avvalgi 522-yilda Marg'iyonadagi qo'zg'olonni bostirishda faqatgina «qo'zg'olonchilar» tomonidan ko'rilgan talafotlar o'ldirilgan 55243 kishi va asirga olingan 6572 kishini tashkil etgan. Bu raqamlar Doriyga qarshi uning bepoyon saltanatining boshqa viloyatlarida oyoqqa turgan «isyonchi»lar ko'rgan talafotlardan ancha kattadir. Marg'iyonada o'ldirilganlar

¹ Ж. Пукте. Развитие и принципы международного гуманитарного права. М., МКСК, 1994, стр. 12.

soni asirga olinganlarga nisbatan juda ko‘pligi ham hayratlanarli. Buni Doriyning satrapi Dadardish o‘z qo‘shinlariga asirga olmaslik haqida buyruq berganligi bilan qisman izohlash mumkin.

Agar Vergiliyning (miloddan avvalgi 70—19-yillar) «Eneida» qahramonlik eposiga ishonadigan bo‘lsak, Troya urushi (taxminan miloddan avvalgi 1260-yil) shahar himoyachilarining qirib tashlanishi va tirik qolgan, biroq qochib qutulmaganlarning qul qilinishi bilan yakunlangan¹.

Ksenofont (taxminan, miloddan avvalgi 430—355-yillar) spartaliklar bilan birga Fors davlatining asoschisi va shohi Kirning yurishida ishtirok etgan va miloddan avvalgi 401-yilda Bobilgacha borgan. Miloddan avvalgi 371-yillar o‘rtasida yozilgan «Kiropediya»da shunday deyiladi: «Dushmandan tortib olingan shahardagi hamma narsa — odamlar ham, mol-mulk ham g‘olibga tegishli bo‘lishi hamma uchun barobar va abadiy qonundir». Platon (miloddan avvalgi 427—347-yillar) o‘zining «Respublika» nomli asarida shunday savol qo‘yadi: «Dushman qo‘liga tiriklayin tushgan odamni bu o‘lja bilan o‘zlari bilganlaricha ish tutishlari uchun asir oluvchilarga tuhfa tariqasida qoldirish kerak emasmikan?».

Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga yurishlari haqida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Kursiyga ko‘ra, Amudaryodan kechib o‘tgach, Aleksandr Makedonskiy bir paytlar Kserks ajdodlarini Milet dan ko‘chirib keltirgan branxidlar yashaydigan kichikkina shaharchaga yetib boradi. Branxidlar yunoncha urfodatlarga rioya qiladilar, biroq ikki tilda so‘zlab, kundalik turmushda ishlatiladigan yunon tilini buzib talaffuz qilganlar. Ular o‘z vatandoshlarini xursandchilik bilan kutib oladilar. Ammo Aleksandr Makedonskiy shaharni tag-tugi bilan buzib, aholisini butunlay qirib tashlashni buyuradi. Kursiy esa shunday xulosa qiladi: «Milet ni hech qachon ko‘rmagan avlodlar o‘z ajdodlarining gunohini shu tarzda yuvdilar...».

O‘zining huquqshunoslari va me’morlari bilan dong taratgan Rim ham insoniylik borasida namuna bo‘lmagan. Dalil sifatida Volski² davlatining to‘liq yo‘q qilib tashlanishi, Regiy, Vakka,

¹ Э. Давид. Принципы права вооруженных конфликтов. М., МККК, 2000, стр. 37.

² Markaziy Italiyadagi qadimiy qabila. Miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida rimliklar tomonidan bo‘ysundirilgan.

Numidiya¹ va boshqa joylar aholisining qirgʻin qilinishi bunga misol boʻla oladi. Axir XII jadval qonuni «gʻanimga nisbatan hamma narsa mumkin», deb eʼlon qilmaganmi? Miloddan avvalgi IV asrda diktator Kamill yaradorlarga nisbatan oliyhimmatlik koʻrsatishga chaqirganda esa, Rim senati uni surgunga hukm qilgan! Oliyjanob sarkarda sifatida nom chiqargan Sezar (miloddan avvalgi 100—44-yillar) behuda urushlardan oʻzini tiygan boʻlsa-da, Avarikni zabt etish vaqtida 40 mingga yaqin kishini (erkaklar, ayollar, qariyalar va bolalarni) qirgʻin qildirgan, hukmronligiga qarshi bosh koʻtargan Uksellodunum himoyachilarining qoʻllarini choptirgan (miloddan avvalgi 52-yil).

Shafqatsizlik avjiga chiqqan paytlarda ham magʻlublarga nisbatan insonparvarlik namoyish etishni yoqlovchi ovozlari, onda-sonda boʻlsa-da, uchrab turgan. Ijtimoiy fikrning rivojlanishi, oʻz odamlari jonini asrash zarurligini, ommaviy qirgʻin qilishning oqilona emasligi, befoydaligi va hatto, iqtisodiy jihatdan zararli ekanligini urush qiluvchi tomonlarning tushunib yetishi, shuningdek, qasosdan qoʻrqish tufayli odamlar asta-sekin magʻlublarga nisbatan munosabatlarini oʻzgartirib bordilar. Albatta, dahshat va talafotlar keltiruvchi urushlar davom etib turdi, biroq barcha narsaning evida boʻlishi va insoniylikni yoqlovchi ovozlari ham yangray boshladi. Shunday qilib, insonparvarlik tafakkuri taraqqiy etib bordi, lekin oʻzgarishlar bir vaqtda va faqat Yevropada kechmadi. Qoʻlga kiritgan gʻalabalari tufayli A. Makedonskiy Yunonistonga qaram oʻlkalarni kengaytirganda, koʻpchilik uchun odamlar bir-biridan hech bir jihati bilan keskin farq qilmasligi aniq-ravshan koʻrinib qoldi.

Yunonistonlik Polibiy (taxminan, miloddan avvalgi 200—120-yillar) urushning maqsadi nohaq kishini jazolash emas, balki huquqni tiklashdir, gʻolib magʻlubga nisbatan sabr-toqatli boʻlishi va har qanday shafqatsizlikdan oʻzini tiyishi lozim, deb yozadi. Qiziqarli bir holat mavjud boʻlgan: jang maydonlarida gʻalaba sharafiga xotira belgilarini tosh yoki bronzadan oʻrnatish taqiqlangan. Faqat yogʻoch haykallarga ruxsat berilgan, chunki bunday haykallar vaqt oʻtishi bilan buzilib ketadi va dushmanlikning abadiy ramzi boʻlib qololmaydi.

¹ Qadimda Shimoliy Afrikadagi viloyat. Miloddan avvalgi 46-yilda Rim muzofotiga aylangan.

Hindistonda Manu qonunlari g'olibdan mag'lubga shafqat qilishni, yarador va taslim bo'lganlarni tirik qoldirishni hamda bo'ysundirilgan xalqlarning alohida qonunlarini hurmat qilishni talab qiladi. Shuningdek, Manu qonunlari majmuyida uchligi zaharlangan yoki yoqiladigan hamda kertik qilingan o'qlardan foydalanish taqiqlanadi. Bu qoidalar urushning qonun va udumlari to'g'risida 1907-yilda qabul qilingan Gaaga nizomi me'yorlarini juda ham eslatadi. Yarador bo'lgan harbiy asirlarni ular sog'ayganlaridan so'ng vatanlariga jo'natish lozim bo'lgan. Bunday ko'rsatmalar Dxarma-shastri, Puranalar, Upanishadlar kabi boshqa diniy, huquqiy va siyosiy matnlar, «Ramayana» (miloddan avvalgi 300-yil) yoki «Mahobxorat» (miloddan avvalgi 200-yil) kabi doston va afsonaviy hikoyatlarda ham mavjud. «Oliyjanob» deb nom olgan Hindiston imperatori Ashoka (miloddan avvalgi 268—232-yillarda hukmdorlik qilgan) dushmanlarga xayrxoh munosabatda bo'lgan. U o'z askarlariga yarador dushmanlar va ularni parvarishlayotgan rohibalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni buyurgan.

Miloddan avvalgi IV asrda yashab o'tgan Xitoy mutafakkiri Se-Ma behuda vayronagarchiliklarni qoralab, fuqarolarni qutqarish haqida g'amxo'rlik qilishga, o'zini himoya qilishga o'z bo'lgan odamlarga hujum qilishdan tiyilishga va yaradorlarga yordam ko'rsatishga chaqirgan. Taxminan o'sha davrlarda yashab o'tgan Xitoy harbiy nazariyotchisi Sun Tzu quyidagi fikrlarni bildirgan: «Urush paytida eng yaxshi siyosat — davlatga ziyon yetkazmasdan zabt etish; faqat hech narsaga yaramaydigan aholisinigina o'ldirish kerak... Dushman qurolini qo'lga kiritish uni yo'q qilib tashlashdan yaxshiroqdir»¹.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida shunday yozilgan: «... asirlarga nisbatan shafqatli bo'lish kerak, chunki asirni o'ldirish maqtagulik emas va hatto, tanbehga loyiq ishdir»².

Mustamlakagacha bo'lgan Afrikada ham ba'zi urf-odatlar doirasida urush harakatlarini olib borish va dushman qo'lga tushib qolgan shaxslar bilan muomala qilish qoidalari qat'iy belgilangan bo'lgan. Masalan, urush harakatlari boshlanishi haqida nog'oralar ovozi, burg'u chalish, yoylardan otish va sabablar ko'rsatilgan

¹ Sun Tzu. L'art de guerre. Paris. 1993, стр. 32—33.

² Кабус-наме. М., 1953, стр. 123—124.

bayonotlar orqali xabar qilish lozim edi. Pyollar, suxraylar va Burkina-Faso xalqlarida xotin-qizlarga, bolalar va dehqonlarga hujum qilish taqiqlangan. Chunki «urushdan soʻng hayot davom etishi kerak, boʻlmasa dalalarga kim ishlov beradi?...».

Keniyada jangchining ayol kishiga qoʻl koʻtarishi sharmandalik hisoblanadi. Gʻarbiy Afrikaning baʼzi xalqlarida uchligi zaharlangan oʻq-yoy va nayzalardan foydalanish taqiqlangan. Ibo elatida qabilalar oʻrtasidagi baʼzi mojarolarda oʻqotar qurollarni qoʻllash man etilgan. Bu taqiqni buzganlik uchun qishloq oqsoqoli jazo berishi mumkin. Sharqiy Afrikada yashovchi bantularda shunday naql bor: «Ur, lekin oʻldirma!». Bunday misollarni davom ettirish mumkin... Albatta, bu oʻgitlarga har doim ham rioya qilinavermagan, biroq, nima boʻlsa ham, ular insonparvarlik taraqqiyo-tidagi maʼlum bosqichni tashkil etgan.

Oʻrta asrlarda qaytadan jonlangan va dahshatli oqibatlariga olib kelgan «adolatli urush» gʻoyasi rimliklar va stoik faylasuflar tomonidan yaratilganligini qayd etish kerak. Shubhasiz, sabablarini huquqiy asoslamasdan urush boshlash mumkin emasligi haqidagi falsafiy qoida yaxshi niyatlarni koʻzlab yaratilgan. Urush harakatlari boshlanishidan oldin ruhoniylar kengashi oʻtkazilgan va bu kengash rejalashtirilayotgan amal muqaddas va qonuniy boʻlajagini tasdiqlamogʻi lozim boʻlgan.

Biroq, inson tabiatini biladigan har bir kishi tushunadiki, adolatli urush — bu biz boshlayotgan urush, adolatsizi esa dushman boshlagani boʻladi. Tabiiyki, haqiqatga mos keladimi-yoʻqmi, tomonlarning har biri uning ishi haq ekanligini taʼkidlaydi. Istilochilar hamisha oʻz bosqinlari va dushmanni qirgʻin qilishlarini diniy va axloqiy sabablar bilan oqlashga urinadilar. Qarshi tomonlar qanday boʻlmasin, oʻzining «haq» ekanligini koʻrsatish niyatida axloq, huquq va dindan isbot qidiradilar va koʻpincha oʻz kuchlarining batamom qirilib bitishiga qadar jangni toʻxtatmaydilar.

Umuman aytish mumkinki, deyarli barcha diniy tizimlarda bir-biriga zid fikrlar mavjud: bir tomondan, ular insoniylikka toʻgʻri kelmaydigan urush harakatlarini qoralaydi; ikkinchi tomondan esa, baʼzan urush olib borishning gʻayriinsoniy vositalari oqlanadi. Masalan, taniqli xristian teologi va cherkov arbobi Avgustin (miloddan avvalgi 354—430-yillar) shunday yozadi: «Agar jang qilayotgan dushman halok boʻlishi lozim ekan, bu hol zarurat

tufayli sodir bo'lsin, biroq, sening ixtiyoring bilan emas... mag'lub bo'lgan yoki asir olingan kishi rahm qilinish huquqiga ega». Shu vaqtning o'zida, xristianlik tarixida, shubhasiz, atoqli bo'lgan bu shaxs «adolatli urush» doktrinasini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shgan.

Musulmon dunyosi ham «adolatli urush» tushunchasi bilan yaxshi tanish. «Navro'z» boshlangan paytda, majburiy yarashuv o'rnatilishi, yilning muqaddas oylarida janglar taqiqlanishi, Payg'ambarning to'lov evaziga asirlarni ozod qilish mumkinligi haqidagi diniy ta'limotlari va musulmon huquqining asirlar musulmonlikni qabul qilishlarini rag'batlantirish haqidagi qoidalar o'ziga xos insonparvarlik ko'rsatmalaridir. Nasroniylar dunyosida Eln (1027) va Montriond soborlari (1041) tomonidan o'rnatilgan «Xudo yo'lida yarashuv» qoidasi diniy bayramlar va ma'lum vaqtlarda — haftaning ba'zi kunlarida urush harakatlarini taqiqlagan.

Ham musulmon, ham nasroniy jamiyatida jang qahri ritsarlik qoidalar bilan cheklangan. Masalan, Sharqda, hatto, urush vaqtida boshpana berish va mehmondo'stlik huquqi mavjud bo'lgan. Yevropada avval harbiy va dunyoviy tartib bo'lib, keyinchalik cherkov o'ziga qaram qilib olgan ritsarlik jasorat, sadoqat va kuchsizlarni himoya qilish amallaridan tashkil topgan axloq qoidalarini targ'ib qilgan. Biroq, shuni hisobga olish kerakki, bu yurish-turish qoidalar faqat aslzoda kishilarga taalluqli bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan cherkov ba'zi qurol turlarini taqiqlay boshladi. Xususan, Lateran sobori (1139) «o'lim keltiruvchi va xudoga yoqmaydigan» qurol sifatida arbaletlardan foydalanishni taqiqlab qo'ydi. Biroq, bu taqiqda arbaletlarni g'ayridinlarga qarshi qo'llash mumkinligi haqida izoh berilgandi. Zaharlar haqida ham xuddi shunday deyilgan edi. O'rtada uzilishlar bilan qariyb ikki asr — 1096-yildan 1270-yilgacha davom etgan salib yurishlari xristianlik va ritsarlik birga qo'shilgan davrni ifoda etadi. Papa Urban II tomonidan «Iisusning qabri»ni qutqarish shiori bilan musulmon dunyosiga qarshi e'lon qilingan «Muqaddas urush» qaroqchilik hujumlari, bosqinchilik, zo'ravonlik va moddiy boyliklarni yakson qilishga aylanib ketdi.

Islom nasroniylik kabi jinoyat, shikast yetkazish va qiynoqlarni qoralab, urush ta'siridan qariyalar, xotin-qizlar, bolalar, musulmon masjidlari va ularning mulkini himoya qilishni o'z maqsadi

qilib qo‘ygan. Urush qonunlarining haqiqiy majmuyi bo‘lgan «Viqoyat» 1200-yilda mavrlar boshqargan Andalusiyada yaratilgan bu himoyani ruhiy kasallar, nogironlar, elchilar va tushunarli sabablarga ko‘ra, buloq va favvoralariga ham tatbiq etdi. Buloq va favvoralarni zaharlash taqiqlangan. To‘g‘ri, Qur‘onning ba‘zi suralari bu insonparvarlik tamoyillari g‘ayridinlarga nisbatan, agar ular o‘z bid‘atlarida turib olsalar, qo‘llanilmasligi haqida xulosa chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Aytgancha, muqaddas urushlar aynan ham islom dini, ham xristianlik uchun boshlangan. Bu urushlar har ikki tomondan mislsiz shafqatsizlik bilan olib borilgan. Ammo oliyhimmatlik namunalari ham bo‘lgan, xususan, 1187-yilda Quddusning qayta bosib olinishi vaqtida Saloh-ad-Din tomonidan. Uning askarlari aholidan hech birini o‘ldirmadi va ularga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lmadi. Saloh-ad-Din xristianlarni himoya qilish maqsadida maxsus jangchilarni tayinladi. Keyinchalik u boy asirlarni to‘lov evaziga ozod qildi, kambag‘al-larini esa, shunday qo‘yib yubordi.

Xalifalar va Sharqiy Rim imperiyasi o‘rtasida tuzilgan protokollarda asirlarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo‘lish va ularni to‘lov evaziga qutqarish mumkinligi ko‘zda tutilgan. Bu iqtisodiy maqsadga muvofiqlikning gumanitar muammolarga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligiga yana bir misoldir.

Tabiiyki, insonparvarlik g‘oyalari muttasil taraqqiy etib borgan, degan xom xayollarga berilmaslik kerak: gap faqat siniq chiziqlar shaklida, yuksalish va qulash bilan asta-sekin rivojlani-sh haqida ketishi mumkin. Bunda eng oliyjanob g‘oyalarni tatbiq etish surbetlarcha berilgan farmoyishlar va jirkanch jaholat bilan o‘rin almashib turgan.

Mana shunday muhitda yuqorida tilga olganimiz kabi onda-sonda bo‘lsa ham, dushmanlarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish zarurligini yoqllovchi chaqiriqlar ommaviy jaholat bag‘rida shunchalik yorqin charaqlaganki, ularning qop-qora osmondagi yulduzlarga o‘xshatilishi bejiz emas. Insonparvarlik g‘oyalarni rivojlantirishga Uyg‘onish davrining ham Sharqdagi, ham G‘arbdagi taniqli arboblari o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shdilar. Shveysariyaning turli kantonlari o‘rtasida tuzilgan Zempax sulhi (1393) xotin-qizlar va yaradorlarga nisbatan talonchilik va tajovuzlarni taqiqlab qo‘ydi. Dyugeklen va Janna d’Ark (1412—1431) o‘z

qo'shinlaridan xotin-qizlar, go'daklar va dehqonlarga hurmatni talab qilishgan.

XVI asrdagi fransuz sarkardalari ham xuddi shu ruhda ish tutishgan. Ular ba'zan makkorlik qilishni (masalan, dushmanni harbiy kiyimidan foydalanishni) taqiqlaganlar va hatto, cherkov mulkini tahqirlash, qo'mondonning ruxsatisiz harbiy bo'lmagan kishilarni talaganlik va ularga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lganlik uchun o'lim jazosini qo'llovchi qoidalarini joriy etganlar. 1553-yilda polshalik huquqshunos J. Pshiluski urush qiluvchi tomonlar san'at asarlarini hurmat qilishlari lozimligi g'oyasini ilgari surdi. Karl V (1500—1558) ham tez-tez maslahatini olib turgan ispaniyalik diniy huquq bo'yicha mutaxassis F. de Vittoria o'zining «*Relectiones Theologicae*» (1557) asarida begunohlar, asirlar va qurolini tashlaganlarni o'ldirishni qoralaydi. Rohiblar jamiyatlari (ordenlari), xususan, Quddusdagi (Iyerusalim) avliyo Ioann kasalxonasi ordeni¹ va 1586-yilda Rimda tuzilgan avliyo Kamill ordeni hech qanday ayirmachiliksiz barcha yarador va bemorlarni to'plash va ularga yordam ko'rsatish bilan shug'ullana boshlaganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining odat va udumlarida ham ko'plab insonparvarlikka oid jihatlarni uchratish mumkin. Ularning deyarli barchasida urush paytida qariyalar, bolalar va ayollarni, ruhiy kasal kishilarni o'ldirish, kishilarning uy-joylarini vayron qilish, daraxtlarni kesish, g'allaga o't qo'yish taqiqlangan. Ular qatorida kishilarga jismoniy shikast yetkazish, asirlarni o'ldirish man qilingan.

Asirlarni o'ldirish taqiqlanganligi o'sha davr uchun ijobiy qadam hisoblanadi, chunki bu tovon to'lash evaziga bo'lsa-da, ularning hayoti saqlab qolinishini anglatar edi. O'rta Osiyo xalqlarida «odamgarchilik» so'zi bor. Bu o'z mazmuniga ko'ra, juda chuqur ma'noni anglatadigan so'zdir. U kishilar orasidagi munosabatlarga taalluqli bo'lib, o'z ta'sir doirasiga dushman tomoniga mansub kishilar, asirlarni ham qamrab oladi. Albatta, dushman tomoniga mansub kishilarga insoniy munosabatda bo'lish haqidagi g'oya singdirilgan odatlar ming yillar mobaynida qaror topganligini esdan chiqarmaslik kerak.

Shu munosabat bilan 700-yillarda yaratilgan «Kitob al-Xaraj» («Yer solig'i haqida kitob») asarida xalifa Umarning o'z lash-

¹ Malta ordeni sifatida ham ma'lum, XI asrda tuzilgan.

karboshisi Abu Ubaydga bergan topshiriqlari aks etgan joylarni eslash joiz. Unda lashkarboshining majburiyatlari sifatida quyidagilar tilga olingan:

- Quddus shahri aholisini haydab ketishga ruxsat berilmagan;
- «zimmiylarga»¹ nisbatan dushmanlik xatti-harakatlari taqiqlangan;
- ularning mol-mulkini olish, zarar yetkazish man qilingan, alohida ruxsat berilgan holatlar bundan mustasno;
- zimmiylar bilan tuzilgan ahdlashuvlarni chin dildan bajarish talab qilingan.

O'rta asrning buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiyning quyidagi fikrlariga e'tibor bering: «Agar hukmdor ba'zi bir odamlar bilan faqat ular yengilishi va unga bo'ysunishi uchun urush olib borsa, ... u holda bu — adolatsiz urushdir, ... agar u o'z qahrini qondirish yoki g'alaba nashidasidan lazzatlanish uchungina urush olib borsa yoki o'ldirsa, u holda bu ham adolatsizlikdir, ... agar uning qahrini keltirgan odamlarning aybi urush yoki o'lim jazosiga loyiq darajada bo'lmasa, bu holda ham urush yoki qotillik beshak adolatsizlikdir. Ko'pincha, qahr-g'azab otiga mingan odamlar, o'z qahrini qotillik orqali qondirishga intilib, o'zlarini g'azablantirganlarni emas, aynan begunoh odamlarni o'ldirishadi»².

Amir Temur davlatida ham urush paytida amal qilish lozim bo'lgan muayyan qoidalar o'rnatilgan edi. Tarixiy manbalar uning urush boshlash qoidalariga qanday munosabatda bo'lganligini bilishimizga imkon beradi. Ularga ko'ra, har qanday urushni boshlashdan ilgari ultimatum e'lon qilingan. Masalan, 1394-yili To'xtamishxonga qarshi Terek daryosi bo'yidagi urush harakatlariidan ilgari Amir Temur qon to'kilishining oldini olish maqsadida unga quyidagi mazmunda xat yuboradi: «Sen tinchlikni xohlaysanmi yoki yo'q? Ulardan birini tanla. Men esa, har ikkisi ga ham tayyorman».

¹ *Zimmiy* — «homiylilik ostidagi shaxs» ma'nosini anglatadi. U musulmonlar hukmronligini tan olgan va muayyan darajada soliq to'lab, ularning homiyligi ostida turuvchi boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan ishlatilgan. Ularga musulmonlar qatori tashqi dushmanlardan himoya va hayoti hamda mol-mulkining daxlsizligi kafolatlangan.

² *Ал Фараби*. Социально-этические трактаты. Алма-ата, «Наука», 1973, стр. 231—232.

Armiyadagi intizom masalasi esa, uning «Tuzuklari»da juda aniq bayon qilingan bo‘lib, unda tinch aholi va asirlarga munosabat qoidalari insonparvarligi bilan ajralib turadi. Armiyada intizom masalalarini nazorat qilib turadigan maxsus qozilar tayinlangan bo‘lib, ularga katta huquqlar berilgan. Shu ma’noda Amir Temurning «Tuzuklari» Jeneva konvensiyalari vujudga kelishidan bir necha yuz yillar ilgari dunyoga kelgan hamda urush olib borishda amal qilinishi lozim bo‘lgan ba’zi qoidalarni, jumladan, harbiy asirlar, raqib davlatining tinch aholisi bilan qanday munosabatda bo‘lish haqida qat’iy qoidalarni o‘rnatgan o‘ziga xos noyob hujjat hisoblanadi.

Jumladan, «Tuzuklar»da quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz: «G‘anim sipohlaridan qaysi biri o‘z davlatining tuzini oqlab, bizga qarshi qilich chopgan, so‘ngra (ya’ni, jangdan keyin) ixtiyoriy ravishda yoki majbur bo‘lib, panohimizga kelsa, bunday askarga ishonib, uni aziz tutsinlar. Men asirlarni o‘ldirishni taqiqlagan edim. Ularga menga qo‘shilish yoki ozod bo‘lishni tanlash imkoniyatini berar edim», deb yozadi u «Tuzuklar»ning boshqa joyida¹.

XVI asrning oxiridan boshlab, urush qiluvchi tomonlar asirlarni ayirboshlash, bemor va yaradorlarni parvarishlash kabi choralarni nazarda tutuvchi turli konvensiyalar («Kartellar», «Tengsiz protokollar» («Kapitulatsiyalar» va «Yarashuvlar») tuzishni amalga kiritgan. 1749-yilda Sh. Monteskye (1689—1755) shunday yozadi: «Zabt etish yakuniga yetgach, g‘olib tomon boshqa qirg‘in qilmasligi lozim, chunki bundan buyon uning o‘z jonini saqlash va himoya qilishdek tabiiy huquqini amalga oshirishiga hojat qolmaydi». 1758-yilda E. de Vattel ushbu fikrni yanada rivojlantiradi. U «urush qonunlarini buzganlarni» jazolashlariga qarshi emas, biroq ommaviy jazolashni rad etadi. Shuningdek, Vattel qurolsiz asirlarni jazolamaslikni tavsiya qiladi va «insoniyat sha’nini ulug‘lovchi binolarni saqlab qolish kerak», deydi. Zaharlangan qurollar qo‘llashni qoralar ekan, u «Dushman safdan chiqarilgach, u olgan yaralaridan, albatta, o‘lishi lozimmi?» savolini o‘rtaga tashlaydi.

Nihoyat, J.J. Russo (1712—1778) 1762-yilda o‘zining «Ijtimoiy protokol» asarida shunday yozadi: «Urush — bu odamlar o‘rtasidagi emas, balki davlatlar o‘rtasidagi munosabatdir.

¹ Temur Tuzuklari. T., G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.

Odamlar bir-birlari bilan tasodifan, odam zoti va hatto, fuqaroligi uchun emas, balki askarligi, ya'ni o'z mamlakatining fuqarosi emas, balki himoyachisi ekanligi uchun dushman bo'lib qoladi... Agar urushdan maqsad dushman davlatini yakson qilish bo'lsa, unda toki o'sha davlatning himoyachilari qo'lida qurol tutib turar ekan, ikkinchi tomon ularni qirishga haqli. Biroq himoyachilar qurolini tashlab, taslim bo'lgan zahotiyoq dushman yoki dushman qo'lidagi vosita bo'lishdan to'xtaydilar va yana oddiy odamga aylanadilar, ularning jonini olishga esa hech kimga ruxsat etilmagan»¹.

Fransiya Konventining 1793-yil 23-avgustdagi «Qurollangan millat to'g'risida»gi dekreti urush ta'sirini ommaga qarab burdi va «to'p yemi» erasini boshlab berdi. Bu dekret qabul qilinishi bilan odamlar va moddiy kuchlar to'liq safarbar etiladigan ommaviy urushlar navbati keldi. Eskicha tartibdagi hech bir general ichkari tomonga saf bo'lib cho'zilgan o'z askarlarini dushmanning o'q yomg'iri ostiga tashlashga botina olmagan. Revolutsiya va Imperiya generallari esa, ayab o'tirishmasdi, chunki ular o'z qo'shiniga kuchni o'lchovsiz olayotgan manba — butun millatdir. General Vestermann bu holni ifodali tarzda qalamga olgan: «Vandeya endi yo'q. U o'zining xotin-qizlari va go'daklari bilan bizning erk keltiruvchi shamshirlarimiz ostida halok bo'ldi. Men uni sizdan olgan buyruqlarga binoan, Savene botqoqlik va o'rmonlarida ko'mib tashladim. Men go'daklarni otlarning tuyoqlari ostida ezdim va hammani qirib tashladim, yo'llar murdalarga to'ldi. Ular shunchalik ko'pki, ba'zi joylarda piramidalar hosil qilgan». Bu satrlar 1793-yilda Vandeyaga qiron keltirgan va inqilobchi qo'shinlarning royalistlar ustidan g'alabasi bilan yakunlangan Fransiya fuqarolar urushi tugashi bilanoq bitilgan.

O'z-o'zidan ma'lumki, bunday holatga jamiyat befarq munosabatda bo'lib qolavermagan. Biroq, unga javoban harakatlar boshlanishiga, nihoyat, XIX asr o'rtasidagina turtki berildi. Urushda insonparvarlik qoidalarini bajarishga qaratilgan haqiqiy urinishlar Qizil Xoch paydo bo'lishi va insonparvarlik huquqi tarixida ilk bor universal xususiyatlarga ega bo'lgan konvensiyalar tuzilishi bilan boshlandi. Bu insonparvarlik tashabbuslarining asosi

¹ Ж. Пукте. Развитие и принципы международного гуманитарного права. М., МКСК, 1994, стр. 32.

endi iqtisod yoki tijorat bilan bogʻliq emas, balki rahm-shafqat, oliyjanoblik va urushning behuda dahshatlarini faol qoralash ruhi bilan sugʻorilgan edi.

1859-yil iyunida Pyemont Fransiya bilan ittifoqchilikda Italiya-ning hali Gabsburglarga qaram boʻlgan qismini Avstriyadan tortib olishga urindi. Qoʻshinlar 24-iyun kuni Solferinoda (Shimoliy Italiya) toʻqnashdi. Qonga belangan va yonayotgan Lombardiyadan oʻtib borayotgan shveysariyalik yosh tijoratchi Jan-Anri Dyunan jang oqibatlarining shohidi boʻlib, qattiq iztirobga tushdi. U minglab yarador askarlar qarovsiz tashlab ketilganligini dahshat bilan koʻrdi. Oʻz holiga tashlangan bu bechoralar aniq oʻlimga mahkum edi. Mana shunday qoʻrqinchli manzara taʼsirida Qizil Xochni tuzish gʻoyasi tugʻildi.

Mahalliy aholi va topilgan tibbiy narsalar yordamida Dyunan yaradorlarga yordam berishni tashkil etdi. Bu yerda koʻrganlari haqida olamni xabardor etishga qaror qilgan Dyunan «Solferino yonidagi jang haqida xotiralar» kitobini chop etdi. Bu kitob butun Yevropani larzaga soldi va hozirgi zamon jurnalistik reportajlari uchun namuna boʻlib qoldi. Ushbu kitobda Dyunan armiya sanitar xizmatlari kamchiliklarining oʻrnini qoplash maqsadida tinchlik davridayoq birinchi yordam koʻrsatish uchun koʻngillilarni tayyorlashni va jang maydonida ularga betaraflik mavqeyini berishni taklif qildi. Birinchi taklif katta yangilik emasdi. Avliyo Ioann rohiblar ordenining Quddusdagi va avliyo Kamill rohiblar ordenining Rimdagi diniy faoliyatlarini yodga olib, yaradorlarga dunyoviy shaklda yordam koʻrsatishning dastlabkilaridan biri yarim urush vaqtida (1854—1856) amalga oshirilganligini taʼkidlamogʻchimiz. Bunda buyuk knyaginya Yelena Pavlovna va mashhur rus jarrohi N. Pirogov yaradorlarga jamoatchilik yordami koʻrsatishga asos solgan edilar. Xuddi shu urush davrida shafqat hamshirasi boʻlgan ingliz ayoli F. Naytingeyl ingliz ekspeditsion qoʻshinidagi tibbiy xizmatning faoliyatini yaxshilash uchun juda katta ishlar qildi.

Dyunanning bir necha tilga tarjima qilingan kitobi butun Yevropaga tarqalib, ijtimoiy ongni uygʻotdi va odamlar fikrida haqiqiy toʻntarish yasadi. Uning jamiyatga taʼsiri miqyosini G. Bicher-Stouning «Tom togʻaning kulbasi» (1852) romanining qulchilik tizimini tugatishga koʻrsatgan taʼsiri bilan qiyoslash

mumkin. Jeneva shahri jamoatchiligining bir qator taniqli vakillari mavjud holatni o'zgartirish zarurligini tushunib yetganliklari eng muhim yutuq bo'ldi. Bu ishga huquqshunos, hukumat a'zosi va «Ijtimoiy manfaatlarni rag'batlantirish Jeneva jamiyati» raisi G. Muanye bel bog'ladi. O'zining tashkilotchilik qobiliyatlari natijasida u Dyunanning g'oyalari haqida hayot bag'ishladi.

Qizil Xoch¹ tashkil etilgan 1863-yilda dahshatli fuqarolar urushi girdobida bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari insonparvarlik xususiyatiga ega bo'lgan «Qo'shma Shtatlar armiyasiga jang maydonlarida qo'mondonlik qilish uchun yo'l-yo'riqlar» majmuyini qabul qildi. Yo'riqnoma loyihasini amerikalik faylasuf va siyosatchi F. Liber dastlabki janglarning shafqatsizligidan iztirobga tushgan prezident Avraam Linkolnning (1809—1865) iltimosiga binoan ishlab chiqqan edi. Keyinchalik «Liber Kodeksi» nomini olgan bu hujjat XVIII asr mutafakkirlarining g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, uning asosida urush uni olib borish usullari muayyan qoidalarga muvofiq kelgandagina qonuniy bo'la oladi, degan fikr yotar edi. Bu hujjat faqat bir mamlakatga xos bo'lsa-da, qurolli mojarolarni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy me'yorlarni ishlab chiqishga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

1864-yilda Shveysariya Federal Kengashi 25 davlatga bir yil avval anjumanda qabul qilingan qarorlarni protokol shaklida tasdiqlash uchun vakil yuborish haqida taklifnoma jo'natdi. 1863-yildagi Konferensiyaning harakatdagi armiyalarda yarador va bemor askarlarning taqdirini yaxshilash to'g'risida 1864-yil 22-avgustdagi Jeneva konvensiyasida tasdiqlangan qarorlariga kiritilgan

¹ Bu belgining tanlanishi tasodifiy bo'lgan: dastlab oq rangdagi bog'ichni tanlash mo'ljallangan, biroq, Anjuman delegatlaridan biri chalkashlik kelib chiqishining oldini olish uchun oq rangda qizil xoch joylashtirishni taklif qilgan, chunki oq rang parlamentyorlar va taslim bo'lish belgisi edi-da. Faqat, 1870-yilda bu belgini bayrog'idagi ranglarning aksincha joylashtirilishi deb, Shveysariyaning xizmatlarini tan olish sifatida «asoslashga» urinish bo'ldi. Qizil yarim oy emblemasi faqat Rossiya—Turkiya urushi davrida paydo bo'ldi (1876—1878-yillar). Usmonli turklar imperiyasi 1864-yildagi Konvensiyaning posboni bo'lgan Shveysariya hukumatiga bundan keyin ham qizil xoch emblemasini hurmat qilishini, biroq o'z lazaretlarini himoya qilish uchun qizil yarim oy emblemasini ishlatishini e'lon qildi. Mazkur timsoldan foydalanishga 1929-yilda rasmiy ruxsat berilgan. 2003-yil yanvariga kelib, bu belgi tan olingan Milliy jamiyatlar faoliyat ko'rsatayotgan 179 mamlakatning musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil qilgan 38 tasida qo'llanilmoqda.

eng muhim qo'shimchalardan biri «qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar», yaradorlarni jang maydonidan olib ketish va yordam ko'rsatish majburiyati mustahkamlanganligi bo'ldi. 1864 va 1907-yillar orasidagi davr mobaynida bu Konvensiya 57 davlat tomonidan e'tirof qilindi. Bu esa, o'sha davr uchun mislsiz ko'rsatkich edi!

Shunday qilib, qurolli mojarolarga oid huquq mustahkam xalqaro asosga ega bo'ldi. Bundan buyon u faqat umumiy xususiyatga ega udumlar va urushuvchi tomonlar o'rtasida, deyarli dala sharoitlarida tuziluvchi ikki taraflama protokollar mahsuli emas, balki har qanday mojaroga nisbatan qo'llash ko'zda tutilgan ko'p tomonlama Konvensiyalarda yaraladigan huquqqa aylandi. Keyinchalik homiylik ostiga olingan shaxslarning alohida toifalarini himoya qilishga, shuningdek, ba'zi qurol turlaridan foydalanishni cheklashga qaratilgan boshqa konvensiyalar ham qabul qilindi.

B. Xalqaro insonparvarlik huquqining mohiyati

Xalqaro insonparvarlik huquqining mohiyati quyidagilardan iborat:

- urush harakatlarida qatnashmayotgan yoki qatnashishni to'xtatgan shaxslarga hujum qilish taqiqlanadi;
- jangchilar va fuqaro shaxslarni bir-biridan ajratmasdan jarohatlaydigan qurollarni, shuningdek kishilarga mislsiz azob-uqubat va/yoki shikast yetkazadigan qurol va urushish usullarini qo'llash taqiqlanadi.

Xalqaro insonparvarlik huquqining bir-biri bilan jips bog'langan, lekin huquqiy va tashkiliy jihatdan nisbatan mustaqil ushbu me'yoriy sohalari tegishli ravishda «Jeneva huquqi» va «Gaaga huquqi» nomini olgan.

Xalqaro insonparvarlik huquqi qo'llaniladigan vaziyatlar. XIX tartibga soladigan narsa o'ziga xos, sifat jihatidan o'zgacha ijtimoiy munosabatlar — urushlar, xalqaro va xalqaro bo'lmagan qurolli mojarolar.

Insonparvarlik huquqi «ikki yoki bir necha Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida e'lon qilingan urush yoki har qanday qurolli mojaro yuz bersa, hatto ulardan biri urush holatini tan olmasa

ham»¹, qo‘llaniladi. Xuddi shu me‘yorlar «Oliy Ahdlashuvchi Tomonning hududi to‘liq yoki qisman bosib olingan har qanday holatda, hatto bu hech qanaqa qurolli qarshilikka uchramagan bo‘lsa ham»², qo‘llaniladi. Ushbu atamalarining huquqiy mazmuni haqida bir-ikki og‘iz so‘z aytish lozim.

Urush. Albatta, davlatlar o‘rtasidagi harbiy kuch ishlatish bilan kechadigan, dushmanona harakatlar sifatida tushuniladigan, atamaning xolisona ma‘nosiga to‘g‘ri keluvchi urush hali uchraydi. «Xalqaro huquq lug‘ati» urushga «davlatlar o‘rtasida, davlatlar va milliy-ozodlik harakatlari o‘rtasida bo‘ladigan, tinchlik munosabatlarining buzilishi bilan kechadigan harbiy harakatlar», deb ta‘rif beradi. Biroq, aynan huquqiy ma‘nodagi, boshlanishi ishtirokchi davlatlar va uchinchi davlatlar uchun huquqiy oqibatlariga olib keluvchi huquqiy hodisa sifatidagi urush mavjud bo‘lib turganligi aniq emas. 1945-yildan buyon jahonda 150 dan ortiq qurolli mojarolar yuz berdi. Shulardan keng miqyosda bo‘lganlari ham oz emas³. Ammo ular urush rasman e‘lon qilinishi bilan kechmagan, faqat ba‘zilarigina urush xususiyatlariga ega bo‘lgan.

Gap «urush» atamasi bugun «modadan chiqayotganligida» emas, balki «urush» atamasi umumiyroq bo‘lgan «qurolli mojaro» iborasi bilan ataylab almashtirildi. J. Pikte aniq ta‘kidlaganidek, «urush» atamasining huquqiy mazmuni haqida deyarli cheksiz bahslashaverish mumkin. Davlat boshqa davlatga nisbatan dushmanona harakat qilayotib, har qanday vaqtda urush olib bormayotganligini, balki politsiya tadbirini o‘tkazishda qatnashayotganligi yoki haqli ravishda o‘zini himoya qilayotganligini da‘vo qilishi mumkin. «Qurolli mojaro» atamasi bunday bahslar bo‘lishini murakkablashtiradi. Davlatlar o‘rtasida kelib chiquvchi va qurolli kuchlar aralashuviga olib keluvchi har qanday kelishmovchilik qurolli mojaro bo‘ladi «...hatto tomonlardan biri urush holatini inkor etsa ham...». Urush konsepsiyasining davri o‘tganligiga qo‘shilmaydigan mualliflar ham uni ma‘nosini

¹ 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari uchun umumiy bo‘lgan 2-modda.

² O‘sha joyda.

³ Ж.Пикте. Развитие и принципы международного гуманитарного права. М., МККК, 1994, стр. 101.

yo'qotayotgan, endi huquqiy ma'noga molik bo'lmagan tushuncha bilan atamoqdalar.

Xalqaro huquq nuqtayi nazaridan, urush (uning mukammal ma'nosida) quyidagi belgilarga ega:

- 1907-yil 5 (18)-oktabrdagi III Gaaga konvensiyasida talab qilinganidek, asoslangan, ravshan ifodalangan yoki qat'iy (ultimatum) shaklda, *oldindan va ikki xil tushunishga yo'l qo'ymaydigan tarzda e'lon qiluvchi rasmiy akt mavjudligi*;

- *diplomatik munosabatlarning uzilishi*. Qoidaga ko'ra, konsullik munosabatlari ham uziladi, urushayotgan davlatning manfaatlarini ikkinchi davlatda ifodalash betaraf davlat yoki substitutga yuklanadi;

- *ikki tomonlama protokollarning, ayniqsa, siyosiy protokollarning bekor qilinishi*. Urushayotgan davlatlar o'rtasida ma'muriy-huquqiy masalalar bo'yicha ko'p tomonlama protokollar amal qilishdan to'xtaydi, savdo protokollari esa, vaqtincha to'xtatiladi. *Urush e'lon qilingan vaqtdan boshlab, urushayotgan davlatlar bog'langan urush huquqi masalalari bo'yicha protokollar qo'llana boshlaydi*.

Xalqaro qurolli mojaro. Huquqiy tushuncha sifatida «xalqaro qurolli mojaro» ilk bor 1949-yildagi Jeneva konvensiyalarining 2-moddasida *urush* tushunchasi bilan bir qatorda tilga olingan. Eng avvalo, xalqaro qurolli mojaroni xalqaro mojaro ta'rifidan farqlash kerak.

Mojaroning umumiy nazariyasi uni ikki qarama-qarshilikning ixtilofi sifatida tushunishdan kelib chiqadi. Xalqaro mojaro, bu — mojaro asosida yotgan va unda qatnashayotganlar o'rtasida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni keskin shaklda ifodalovchi rasmiy, siyosiy munosabatlar¹. Xalqaro mojaro o'z rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Bu bosqichlardan biri qurolli mojaro bo'lishi mumkin. Biroq bu har qanday xalqaro mojaro xalqaro qurolli mojaroga aylanib ketishi kerakligidan dalolat bermaydi. Shu ma'noda, «xalqaro» ishorasi mojaroda qatnashayotgan tomonlarning huquqdorligi va yuridik salohiyatlilik bilan bog'liq, «qurolli» ishorasi esa, ikkinchi tomonga qarshi qurolli kuch ishlatilishini bildiradi. *Qurolli kuch ishlatilishi qurolli mojaroning o'ziga xosligini tashkil etadi*. Mana shu asosiy belgi mavjud bo'lmasa,

¹ Международные конфликты. М., 1972, стр. 27—28.

qurolli mojarolarga oid xalqaro huquq me'yorlarining qo'llanishi to'g'risidagi masala ko'tarilmaydi.

Demak, an'anaviy doktrina xalqaro qurolli mojaro tushunchasini davlatlar o'rtasidagi qurolli qarama-qarshilikka olib kelib taqagan. 1975—1977-yillardagi Diplomatik anjumanda bu konsepsiyaga qarshi chiqildi va milliy ozodlik urushlari ham xalqaro qurolli mojaro, deb tan olindi¹.

Xalqaro bo'lmagan qurolli mojaro. Xalqaro bo'lmagan qurolli mojarolarni (eskirayotgan atamalarda — fuqarolik urushlari) davlatlarning ichki ishi, deb hisoblash an'ana bo'lib qolgan va ular doirasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun xalqaro huquq me'yorlari qo'llanmagan. Bunday qurolli mojarolar davlat hududi ichida uning qurolli kuchlari va ularga qarshi turgan qurollangan guruhlar (yoki faqat shunday guruhlar) o'rtasida bo'lib o'tadi va, demakki, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tahdid soladi. Unda nima uchun davlatlar o'z manfaatlarining shunchalik ta'sirchan sohasiga daxl qiluvchi xalqaro huquqiy me'yorlarni ishlab chiqishgan va ularning tan olinishiga ko'maklashishgan?

Bu me'yorlar ko'p jihatdan *insonparvarlik xususiyatiga ega*. Shu sababli harbiy harakatlar davlat chegaralaridan chiqish-chiqmasligi muhim emas, chunki harbiy zo'rvonlik mohiyati o'zgarmay qoladi. Shubhasiz, har ikki vaziyatda ham insonparvarlik nuqtayi nazaridan, muammolar aynan bir xil bo'ladi. Umumiy 3-modda va Protokol amalda harbiy harakatlarda qatnashayotgan yoki qatnashishni to'xtatgan shaxslarni himoya qilish uchungina ishlab chiqilgan edi. Qurolli mojarolar huquqining oqilona jihati shundaki, insonlarning ba'zi guruhlari, hatto qurolli mojaro vaqtida ham huquqiy himoyadan foydalanadi. Xalqaro xususiyatga ega bo'lmagan qurolli mojarolarda qo'llanadigan keng ma'nodagi insonparvarlik huquqi vazifasiga quyidagilar kiradi:

- hech qanday sharoitda voz kechishga yo'l qo'yilmaydigan insonparvarlik kafolatlarini ta'minlash;

¹ Milliy ozodlik urushlari 1977-yildagi I Qo'shimcha Protokolning 1(4)-moddasida «Xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi uchun kolonial hukmdorlik va chet el istilosiga hamda irqchilik tuzumlariga qarshi kurash olib boradigan qurolli mojarolar» sifatida ta'riflangan.

- huquq va erkinliklarning favqulodda holat sharoitida rioya qilmaslikka yo‘l qo‘yiladigan, huquq va erkinliklarga tegishli bo‘lgan huquqiy andozani belgilash¹;
- harbiy jinoyatlar uchun shaxsan jinoiy javobgarlikni o‘rnatish.

D. Xalqaro insonparvarlik huquqining asosiy tamoyillari

Xalqaro insonparvarlik huquqida ko‘plab toifadagi tamoyillar mavjud. Ular asosiy, umumiy, urushdan jabrlanganlarga taalluqli, ishlatiladigan qurollar va urushish usullariga taalluqli va boshqa tamoyillarga bo‘linadi. Biz hozir faqat asosiy tamoyillarnigina ko‘rib chiqamiz. Bular quyidagilardir:

- harbiy zaruriyat;
- insonparvarlik;
- qurollar va urush olib borish usullarini tanlash erkinligining cheklanganligi;
- mutanosiblik;
- kombatanlar va kombatan bo‘lmaganlarni farqlash.

Umuman olganda, urush huquqining maqsadi — urush keltiradigan azob-uqubatlarni imkon qadar cheklash va yengillashtirish. Qurolli to‘qnashuvlar huquqi jangovar vazifa va vaziyatdan kelib chiquvchi **harbiy zaruriyatni** insonparvarlik talablari bilan kelishtirishga harakat qiladi. Xuddi ana shuni amalga oshirish esa, yuqorida tilga olingan tamoyillarning mazmunini tushunish va ularni amalga oshirish bilan ko‘p darajada bog‘liqdir.

«Harbiy zaruriyat», *birinchidan*, urush huquqi orqali taqiq-lanmagan va, *ikkinchidan*, dushman ustidan ustunlikni ta‘min-lash uchun zarur bo‘lgan, harakatlarni oqlovchi tamoyil hisob-lanadi. Harbiy zaruriyat tamoyilini urush huquqini buzishga imkon beruvchi vosita sifatida kengaytirilgan holda talqin qilish mumkin

¹ Davlat tomonidan favqulodda vaziyat sharoitida ko‘riladigan har qanday choralar uning xalqaro huquq bo‘yicha boshqa majburiyatlariga zid bo‘lishi mumkin emasligi, buning ustiga irq, teri tusi, jins, til, din yoki ijtimoiy kelib chiqishga oid belgilarga ko‘ra, kamsitish bilan kechishi mumkin emasligi sababli, quyidagilarni tan olish kerak: 1) xalqaro majburiyatlar iyerarxiyasi mavjud; 2) favqulodda holat sharoitida huquq va erkinliklarni amalga oshirish chegaralari turlicha; 3) rioya qilmaydigan va man etiladigan insonparvarlik kafolatlarining minimal darajasi mavjud.

emas. Mazkur tamoyildan urush huquqi yo‘l qo‘yadigan doirada va paytdagina foydalanish mumkin. Bunday **doira va payt** nimalarda ifodalanishi mumkin?

Urush huquqi himoya tamoyilidan chekinishga asos bo‘luvchi «qat’iy» yoki shu kabi harbiy zaruriyat vaziyatlariga imkon qol-diradi. Bunday chekinishlar jangovar vazifaning bajarilishi uchun zarur bo‘lgan taqdirda muayyan himoya maqomining cheklanishi mumkinligini, mazkur maqomning to‘xtatilishini yoki uning olib tashlanishini anglatadi.

Harbiy zaruriyat qo‘yilgan jangovar vazifani bajarish uchun yakka-yu yagona mumkin bo‘lgan harakatlarnigina oqlaydi.

«Qat’iy» yoki shu kabi harbiy zaruriyat bilan bog‘liq holda himoya me‘yorlaridan chekinishga olib keluvchi alohida holatlarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:

a) obyektlarni buzish yoki qo‘lga kiritish (bu «qat’iy harbiy zaruriyat» bilan belgilanadi);

b) statsionar sanitar muassasalaridan foydalanish («so‘nggi harbiy zaruriyat»);

d) bosib olingan hududlarni yakson qilish («harbiy harakatlar uchun mutlaq zaruriyat»);

e) umumiy himoya ostida bo‘lgan madaniy qadriyatlarni immunitetdan mahrum qilish («qat’iy harbiy zaruriyat»);

f) maxsus himoya ostida bo‘lgan madaniy qadriyatlarni immu-nitetdan mahrum qilish («ilojsiz harbiy zaruriyat»);

g) tinch aholi yashashi uchun zarur bo‘lgan obyektlarni yakson qilish: faqatgina o‘z hududida va hujumni qaytarish uchun himoya sifatida yo‘l qo‘yiladi («qat’iy harbiy zaruriyat»);

h) fuqaro mudofaasi tashkilotlariga ularga topshirilgan vazi-falarni bajarishni taqiqlash («qat’iy harbiy zaruriyat»).

E. Xalqaro insonparvarlik huquqining manbalari

Xalqaro insonparvarlik huquqiga xalqaro huquqning manbalari haqidagi ta’limot to‘laligicha tatbiq qilinadi. Uning asosida shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘linuvchi quyidagi protokollar turadi:

I. Urush qurbonlarini himoya qilish to‘g‘risidagi pro-tokollar;

II. Ba’zi turdagi qurollarni cheklash va/yoki taqiqlash to‘g‘risidagi protokollar;

III. Ba'zi inshootlarni himoya qilish to'g'risidagi protokollar;

IV. Xalqaro sud qilish huquqi — yurisdiksiya (harbiy jinoyatlar uchun sud qilish) to'g'risidagi protokollar.

Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi protokollar aslida «insonparvarlik» huquqini ifodalaydi. Bu protokollardagi me'yorlar urush harakatlarida bevosita ishtirok etmayotgan (ya'ni, tinch aholi) va/yoki unda bevosita qatnashishni to'xtatgan (ya'ni, quruqlikdagi yoki dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidan bo'lgan yaradorlar va bemorlar, harbiy asirlar) ma'lum toifadagi shaxslarni himoya qilishga qaratilgan. Insonparvarlik huquqining asosiy mazmuni 1949-yildagi Jeneva konvensiyalari va 1977-yildagi unga Qo'shimcha Protokollarda jamlangan. Shu sababli, bu me'yorlar «Jeneva huquqi», deb ataladi. Jeneva huquqining asosiy hujjatlari quyidagilardir:

1949-yilgi Jeneva konvensiyalari

- I Konvensiya — «Harakatdagi armiyalarda yarador va bemorlarning qisimatini yaxshilash to'g'risida»;
- II Konvensiya — «Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidan bo'lgan yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga duchor bo'lgan shaxslarning qisimatini yaxshilash to'g'risida»;
- III Konvensiya— «Harbiy asirlar bilan muomala qilish to'g'risida»;
- IV Konvensiya — «Urush vaqtida tinch aholini himoya qilish to'g'risida».

1949-yilgi Jeneva konvensiyasiga 1977-yildagi Qo'shimcha Protokollar:

- Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli I Qo'shimcha Protokol;
- Xalqaro xususiyatga ega bo'lmagan qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli II Qo'shimcha Protokol.

Shartli ravishda II guruhga kiritilgan va «Gaaga huquqi», deb ataluvchi Protokollar qurol-yarog'larning qo'llaniladigan turlarini,

urush harakatlarini olib borishning vosita va usullarini cheklashga qaratilgan hamda urushuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Insonparvarlik huquqining mazkur yoʻnalishi 1899 va 1907-yillarda Gaagada oʻtkazilgan xalqaro tinchlik anjumanlaridan boshlanadi. Bizning davrimizda «Gaaga huquqi» yanada yangilanishi va rivojlanishi, xuddi shuningdek, qurolli mojarolar huquqi va xalqaro xavfsizlik huquqining bir-biriga singishi yuz bermoqda. Chunki xalqaro xavfsizlik huquqi qurol-yarogʻlarni cheklashga, ularni ishlab chiqarish, toʻplash, birovga berish va hatto, yoʻq qilishgacha boʻlgan jarayon ustidan nazorat qilishga va tartibini belgilashga intiladi.

«Gaaga huquqi»ning baʼzi tanlangan hujjatlari quyidagilardir:

- Portlovchi va yondiruvchi oʻqlarni ishlatishni bekor qilish toʻgʻrisida Sankt-Peterburg deklaratsiyasi (1868);
- Quruqlikdagi urushning qonun va udumlariga taalluqli Gaaga konvensiyasi (1899);
- Urushda boʻgʻuvchi, zaharlovchi yoki boshqa shunga oʻxshash gazli va bakteriologik vositalarni qoʻllashni taqiqlash toʻgʻrisidagi Jeneva Protokoli (1925);
- Bakteriologik (biologik) va zaharli qurollarni yaratish, ishlab chiqarish va zaxiralarini toʻplashni taqiqlash toʻgʻrisidagi Konvensiya (1972).

Oddiy qurollarning haddan tashqari, jarohat yetkazuvchi yoki tanlamasdan taʼsir qiluvchi hisoblanadigan aniq turlarini qoʻllashni taqiqlash yoki cheklash toʻgʻrisidagi Konvensiya (1980) va uning Protokollari:

- «Ilgʻab boʻlmaydigan oskolkalar toʻgʻrisida»gi I Protokol;
- «Minalar, tuzoq minalar va boshqa qurilmalarni ishlatishni taqiqlash yoki cheklash toʻgʻrisida»gi II Protokol;
- «Yondiruvchi qurollarni ishlatishni taqiqlash yoki cheklash toʻgʻrisida»gi III Protokol.
- Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqarish, toʻplash va ishlatishni taqiqlash hamda uni yoʻq qilish toʻgʻrisidagi Konvensiya (1993);
- Koʻzni koʻr qiluvchi lazer quroliga taalluqli Protokol (1995, 1980-yilgi Konvensiyaga IV Protokol hisoblanadi);

- Piyodalarga qarshi minalarni ishlatish, to‘plash, ishlab chiqarish va boshqalarga berishni taqiqlash hamda ularni yo‘q qilish to‘g‘risidagi Konvensiya (1997).

Xalqaro huquqiy hujjatlarning III guruhi madaniyat obyektlari va tabiiy muhitni urush harakatlari oqibatlaridan himoya qilishga qaratilgan. Bular quyidagilardir:

- Qurolli mojaro yuz berganda, madaniy boyliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi Gaaga konvensiyasi va Protokoli (1954);
- Tabiiy muhitga harbiy yoki boshqa har qanday dushmanlarga ta’sir qiluvchi vositalarni ishlatishni taqiqlash to‘g‘risidagi Konvensiya (1976);
- Qurolli mojaro yuz berganda, madaniy boyliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi II Protokol (1999).

Insonparvarlik huquqining IV guruhiga kiritilgan xalqaro protokollar xalqaro sud qilish huquqiga taalluqli, ya’ni harbiy jinoyatlarga chora ko‘rishga qaratilgan.

Xalqaro bitimlardan tashqari, XIXning asosiy me’yorlari xalqaro odatlar shaklida ifodalangan. Quyidagilar aynan shunday me’yorlar qatoriga kiradi: insoniylik qoidasi, kombatantrlarga ortiqcha azob yetkazishni taqiqlash, kombatantrlar va tinch aholini bir-biridan farqlash zarurligi va mutanosiblik tamoyillari.

Umuman huquqning, xususan, xalqaro insonparvarlik huquqining shunday o‘ziga xos xususiyati mavjudligini ta’kidlash kerakki, u deyarli har doim voqelikdan ortda qoladi, uning me’yorlari muayyan hodisalar yuz berganidan so‘ng, shu hodisalarga qandaydir javob tariqasida paydo bo‘ladi. Insonparvarlik huquqining taniqli nazariyotchisi J. Moreyon bu xususiyat haqida o‘z fikrlarini shunday ifodalaydi: «Insonparvarlik huquqi o‘tmishdagi urushlar davrida oldini olib bo‘lmagan dahshatlarni noqonuniy, deb e’lon qiladi. Anri Dyunan Solferino yaqinidagi jang maydonida o‘z holiga tashlab ketilgan yaradorlarni ko‘rdi, buning natijasida harakatdagi armiyalarda yaradorlar va bemorlarning qismatini yaxshilash to‘g‘risida I Jeneva konvensiyasi yuzaga keldi. XQXQ vakillari Birinchi Jahon urushi davrida o‘sha paytda hech qanday himoyaga ega bo‘lmagan harbiy asirlarni borib ko‘rdilar. Shundan so‘ng harbiy asirlarni himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya paydo bo‘ldi. Tinch aholiga kelganda esa, bu aholi Ikkinchi Jahon urushi vaqtida bombalar ostida qoldi, konsen-

tratsion lagerlarga tiqildi. Muayyan hududga majburan joylashtirilgan tinch aholini himoya qiluvchi IV Jeneva konvensiyasi faqat 1949-yilda, tinch aholiga hujum qilishni taqiqlovchi Qo'shimcha Protokollar esa 1977-yildagina qabul qilindi»¹.

O'zbekiston Respublikasi 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va 1977-yilgi ularga Qo'shimcha Protokollarni 1993-yil 3-sentabrda ratifikatsiya qilgan hamda o'ziga ularni bajarish yuzasidan tegishli xalqaro majburiyatlarni olgan.

1.2. Qurolli to'qnashuvlar huquqining ba'zi asosiy tushunchalari. Kombatantning xatti-harakati qoidalari

A. «Kombatant» va «fuqaro shaxs» tushunchalari

Kombatantlar o'z mamlakatlarining milliy qurolli kuchlari tarkibiga kirishadi. Qurolli kuchlar esa, o'z mamlakatlari hukumatiga bo'ysunishadi. Ular mamlakatlarining ichki tartibiga oid qonun-qoidalar tizimiga bo'ysunadilar. Mazkur tizim esa, o'z navbatida, qurolli to'qnashuvlar huquqining bajarilishini ta'minlaydi. Xalqaro bo'lmagan qurolli mojaro vaziyatida esa, hukumatga qarashli bo'lmagan yoki muxolifat kuchlari ham Jeneva konvensiyalariga qo'shimcha II Protokolga muvofiq, «qurolli kuchlar» hisoblanadilar. Bunda ular quyidagi ikki qo'shimcha talabga javob beradigan bo'lishi kerak:

a) mamlakatining biror qismini nazorat qilib turgan bo'lishlari kerak;

b) harbiy harakatlarni uzluksiz va muvofiqlashtirilgan holda olib borishlari kerak.

Qurolli kuchlar safiga 15 yoshga to'lmagan bolalarni jalb qilish taqiqlanadi.

Kombatant tushunchasi (fran. *combattant* — jangchi, askar) qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi va urush harakatlarida bevosita qatnashish huquqiga ega shaxsni anglatadi.

«Kombatant» atamasini faqat xalqaro qurolli mojaro mazmunida ishlatish mumkin. Muntazam qurolli kuchlarning shaxsiy

¹ Ж. Морейон. Укрепление позиций мира и гуманности в двадцать первом столетии. «Международный журнал Красного Креста». 1994, ноябрь—декабрь, стр. 100.

tarkibi (tibbiy va diniy xodimlardan tashqari), shuningdek, ko'ngillilar qo'shini, partizanlar otryadlari shaxsiy tarkibi, agar ular quyidagi talablarga javob bersa, kombatanlar hisoblanadi:

- o'z qo'l ostidagilar uchun mas'uliyatni zimmasiga olgan rahbarga ega bo'lishsa;
- aniq va uzoqdan ko'rinadigan farqlovchi belgiga ega bo'lishsa;
- qurol-yarog'ini ochiq olib yurishsa;
- o'z xatti-harakatlarida urushning qonun-qoidalari va udumlariga amal qilishsa.

Kombatanlar ularni fuqaro shaxslardan ajratib turadigan belgiga, odatda, muayyan bichimda tikilgan kiyim-kechakka ega bo'lishlari shart. Biroq ba'zan harbiy vaziyat bunga imkon bermagan paytda, ular:

- a) har bir jang paytida;
- b) dushman ko'z o'ngida jangovar tartibga o'tish paytida, ya'ni boshqacha aytganda, hujum boshlanadigan pozitsiyalardagi xatti-harakatlarida qurollarini ochiq olib yurishlari bilan kombatan maqomini saqlab qoladilar.

Qurolli to'qnashuv olib borilayotgan paytda hali bosib olinmagan hududning aholisi dushman yaqinlashib kelayotgani tufayli ularning hujumini qaytarish maqsadida **stixiyali va ommaviy tarzda** qo'liga qurol olgan, ammo qarshilik ko'rsatish harakatining tashkiliy tuzilmalariga aylanib ulgurmagan yoki muntazam qurolli kuchlarga qo'shilishga ulgurmagan paytda, ular:

- a) qurollarini ochiq olib yursalar va
- b) qurolli to'qnashuvlar qoidalariga rioya qilsalar kombatanlar, deb hisoblanadilar.

Harbiy nokombatanlar. Qurolli kuchlar shaxsiy tarkibiga kiruvchi ba'zi toifadagi kishilar ham borki, ular kombatan hisoblanmaydilar. Ularga qurolli kuchlardagi tibbiyot xodimlari va diniy xodimlar kiradi. Ular (shuningdek, ularning muassasalari, jihozlari va transport vositalari) Jeneva konvensiyalarining himoyasi ostida turadilar. Ammo ularning homiylik ostidagi shaxs ekanligi maqomidan harbiy operatsiyalarni qalqon qilinishi mumkin emas. Ularni harbiy asirga aylantirish ham mumkin emas. Dushman tasarrufiga tushgan paytlarida ham ularga o'z faoliyatlari bilan shug'ullanishga ruxsat berilishi kerak.

Xuddi shuningdek, harbiy jurnalistlar, ta'minotchilar, ishchi komandalari va maishiy xizmat xodimlari ham kombatant hisoblanmaydilar. Ular o'zlari tegishli bo'lgan harbiy ma'murlardan ularning vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjat va shaxsini tasdiqlovchi guvohnomaga ega bo'lishlari kerak. Bu haqdagi qoida I Qo'shimcha Protokolning 79-moddasi va mazkur Protokolning 2-ilovasida aks ettirilgan.

Fuqaro shaxslar. 1949-yilda qabul qilingan IV Jeneva konvensiyasining 4-moddasi va I Qo'shimcha Protokolning 50-moddasiga muvofiq, *qurolli kuchlar tarkibiga kirmaydigan va ichki sabablar tufayli o'z-o'zidan vujudga keladigan ommaviy qurolli chiqishlarda qatnashmaydigan har qanday kishi fuqaro shaxs sanaladi.*

Fuqaro shaxslar qurolli to'qnashuvlar huquqining himoyasida bo'ladi. Ammo ular jangovar harakatlarda bevosita ishtirok etishsa, mazkur himoyadan mahrum bo'lishadi. Kishining fuqaro shaxsga mansubligiga shubha tug'ilgan taqdirda ham u fuqaro shaxs, deb hisoblab turilishi kerak. Fuqaro shaxslarning yig'indisi fuqaro aholi yoki tinch aholini tashkil etadi. Tinch aholining orasida ayrim kombatantlarning mavjud bo'lishi ularni fuqaro aholiga tegishli bo'lgan himoyadan mahrum qilolmaydi.

B. «Harbiy obyekt» va «fuqaro objekti» tushunchalari

Qurolli to'qnashuvlar huquqiga muvofiq, agarda, obyektlar harbiy hisoblanadigan bo'lsa, ular hujum objekti bo'lishi mumkin. Quyidagi obyektlar *harbiy obyektlar* hisoblanadi:

a) qurolli kuchlarni tashkil etuvchi kishilar va asbob-anjomlar (tibbiyot, diniy xodimlar va ularning jihozlari bundan istisno);

b) qurolli kuchlar yoki ularning jihozlari joylashgan muassasalar, binolar va joylar (masalan, kazarmalar, omborlar, qurolli kuchlar to'planadigan joylar, pozitsiyalar);

d) boshqa obyektlar, agar ular:

— o'zlarining xarakteri, joylashuvi, maqsadi yoki foydalanilishi bilan **harbiy operatsiyalarda muhim rol o'ynasa** va

— ularning qisman yoki to'liq yakson qilinishi, qo'lga kiritilishi yoki neytralizatsiya qilinishi (ya'ni, xolis holga keltirilishi, zararsizlantirilishi) shak-shubhasiz, harbiy ustunlikni ta'minlasa (I Qo'shimcha Protokolning 52(2)-moddasi).

Shunday qilib, armiyaga mo'ljallangan har qanday jihoz, strategik ahamiyatga molik kommunikatsiyalar (aloqani amalga oshiruvchi har qanday yo'llar), oziq-ovqat transporti va fuqaro aholisi ko'chirilgan va kombatanlar tomonidan egallangan fuqaro binolari harbiy obyekt sanaladi.

Harbiy obyektida fuqaro shaxslar mavjud bo'lsa ham u harbiy obyektligicha qolaveradi. Fuqaro shaxslar bunday obyektlarda yoki uning yaqinida bo'lishlari bilan o'zlarini xavf-xatarga qo'yadilar.

Fuqaro obyekt. Qurolli to'qnashuvlar huquqida harbiy obyekt sanalmaydigan har qanday obyekt «fuqaro obyekt» hisoblanadi. Xususan, Jeneva konvensiyalariga I Qo'shimcha Protokolning 52(1)-moddasida yuqorida keltirilgan ta'rif berilgan.

Shuni e'tiborga olish kerakki, odatdagi sharoitlarda fuqaro obyekt bo'lgan obyektlar harbiy holat sharoitlarida harbiy obyektlarga aylanishi mumkin (masalan, yashash joyi hisoblanmish uy yoki ko'priklar ularning himoyachilari tomonidan faol foydalanilsa, ular harbiy hamda hujum obyektiga aylanadilar).

I Qo'shimcha Protokolning 52(1)-moddasiga muvofiq, odatda, fuqaro obyekt hisoblangan obyektning (masalan, sajdagohlar, maktablar, ko'priklar, turar joylar va shu kabilarning) harbiy obyekt ekanligi yoki bunday emasligiga shubha tug'ilgan taqdirda, ularni fuqaro obyekt, deb hisoblash lozim.

D. Alohida himoya qilinadigan ba'zi obyektlar

Qurolli to'qnashuvlar huquqiga muvofiq, ba'zi bir obyektlar alohida himoya qilinuvchi obyektlar sanaladi. Bularga insoniyatning tarixi davomida yaratilgan hamda uning madaniy, diniy, ilmiy dahosining o'ziga xos yodgorliklari hisoblanuvchi va qisqacha «**madaniy qadriyatlar**» so'zi bilan ifodalanuvchi obyektlar kiradi. Bu haqdagi asosiy qoidalar 1954-yil 14-mayda Gaagada qabul qilingan «Qurolli mojaro paytida madaniy qadriyatlarni himoya qilish haqida»gi Konvensiya, Jeneva konvensiyalariga I Qo'shimcha Protokolning 53-moddasi va II Qo'shimcha Protokolning 16-moddasida aks ettirilgan. Bulardan tashqari, 1972-yil 16-noyabrda UNESCO tomonidan qabul qilingan «Jahon madaniyat va tabiat qadriyatlarini himoya qilish haqida»gi Konvensiya ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu hujjatlarga muvofiq, madaniy qadriyatlar tushunchasi quyidagi uch guruhni o'z ichiga oladi:

- *yodgorliklar*: tarixiy, san'at yoki ilmiy nuqtayi nazardan ulkan universal ahamiyatga ega bo'lgan me'morchilik asarlari, monumental haykaltaroshlik va rangtasvir asarlari, arxeologik xarakterdagi element va qismlar, yozuvlar, g'orlar;
- *ansambllar*: tarixiy, san'at yoki ilmiy nuqtayi nazardan ulkan universal ahamiyatga ega bo'lgan alohida yoki birga jamlangan binolar, alohida yoki atrof-muhit bilan uyg'unlashgan arxitektura;
- *diqqatga sazovor joylar*: tarix, estetika, etnologiya yoki antropologiya nuqtayi nazaridan buyuk universal ahamiyatga ega bo'lgan inson mehnatining yoki inson va tabiatning birgalikdagi faoliyati samarasi bo'lgan asarlar, zonalar, xususan, arxeologik diqqatga sazovor joylar.

I Qo'shimcha Protokolning 85(4d)-moddasiga muvofiq, «xalqlarning madaniy yoki ma'naviy merosi hisoblanuvchi tarixiy yodgorliklar, san'at asarlari yoki sajdagohlarni ...hujum obyektiga aylantirish... (XII qoidalarining) jiddiy buzilishi sanaladi».

Madaniy qadriyatlar diniy yoki dunyoviy xarakterda bo'lishidan qat'i nazar, *umumiy* yoki *maxsus himoya* qilinishi mumkin. Umumiy himoya belgisi oq-havo rangli bitta katta qalqon timsoli, alohida himoya belgisi esa, uchta kichikroq ana shunday qalqon timsolidir. Ushbu obyektlarni himoya qiluvchi xodimlar va ularni tashishga mo'ljallangan transport vositalari ham ana shunday himoya ostida bo'ladilar. Bundan tashqari, maxsus himoyadagi qadriyatlarning himoyachilari yengil o't ochar quroli bilan ta'minlanishlari ham mumkin. Bunday obyektlarda ana shunday kishilarning mavjudligi yoki ularni qo'riqlovchi politsiya bo'linmalarining ana shunday obyektlar yaqinida joylashganligi mazkur obyektlarning harbiy obyektlar, deb sanalishi uchun asos bo'lmaydi. Bu qoidalar «Madaniy qadriyatlarni himoya qilish haqida»gi 1954-yilgi Gaaga konvensiyasining 12, 13, 17, 18-moddalarida aks ettirilgan.

Alohida himoyadan foydalanuvchi obyektlar qatoriga *xavfli kuchlarni tutib turuvchi qurilma va inshootlar* kiradi. Mazkur tushuncha to'g'onlar, dambalar (ko'tarmalar), atom elektrostansiyalari, zaharli moddalar ishlab chiqaruvchi zavodlar, shunday

moddalarni tashuvchi transport vositalarini aks ettiradi. Qurolli to'qnashuv paytida ularning hujum natijasida yakson qilinishi xavfli kuchlar va moddalarning chiqib ketishiga va tinch aholi orasida jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin (I Qo'shimcha Protokol, 56-modda).

Mazkur obyektlarni bildiruvchi belgi — gorizontal va qator joylashgan uchta yorqin to'q sariq rangdagi doiralar (I Qo'shimcha Protokol, 56-modda va 1-ilova).

Mazkur obyektlarga, hatto ular harbiy obyektlar bo'lgan taqdirda ham, hujum qilinmasligi kerak. Ammo ularga hujum qilish mazkur obyektlarning harbiy operatsiyalarni bevosita va kuchli darajada qo'llab-quvvatlab turganligi va bunday qo'llab-quvvatlashga chek qo'yish hamda harbiy ustunlikka erishishga amalda boshqa iloj qolmagandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu obyektlarni himoya qiluvchi kishilardagi qurol ularga bo'ladigan hujumni qaytarishga imkon beradigan darajada bo'lishi kerak.

E. Alohida himoya qilinuvchi ba'zi zonalar va joylar

Qurolli to'qnashuvlar huquqiga muvofiq, harbiy harakatlar tufayli odamlarga nisbatan xavf-xatarlar vujudga kelmasligi uchun ba'zi hududlarga alohida himoya qilinadigan zonalar va joylar maqomi berilishi mumkin. Bu haqda I Jeneva konvensiyasining 23-moddasida, IV Jeneva konvensiyasining 14, 15-moddalari va I Qo'shimcha Protokolning 59, 60-moddalarida so'z yuritiladi. Ular sanitar zonalar, xavfsiz zonalar, betaraf zonalar, qurollardan xoli qilingan (demilitarizatsiya qilingan) zonalar va himoya qilinmaydigan joylar bo'lishi mumkin.

Bunday zonalar yuqori hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladi. Hukumat organlari bunday zonalar va joylarga nisbatan qanaqa qoidalar amal qilishi va ularni qanday amalga oshirish kerakligi haqida rasmiy e'lon qiladilar. Umuman olganda, odatiy huquqqa muvofiq, himoya qilinmaydigan joylar bosib olinish uchun ochiq bo'ladi va ularga nisbatan hujum qilinmasligi kerak.

a) *Sanitar, xavfsiz zonalar va joylar.* IV Jeneva konvensiyasining 14-moddasiga muvofiq, sanitar va xavfsiz zonalar harbiy harakatlar boshlanishidan oldin yoki u boshlangandan keyin tashkil qilinishi mumkin. Ular yaradorlar, bemorlar, qariyalar, 15 yoshgacha bo'lgan

bolalar, homilador ayollar va 7 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarning xavfsizligini ta'minlash uchun kasalxonalar va boshpanalarni joylashtirishga mo'ljallangan. Homiy mamlakatlar va XQQQ ana shunday zonalarini tashkil qilish hamda tan olinishiga ko'maklashishga da'vat qilingan.

Vaziyat imkon bergan taqdirda va zaruriy hollarda, bunday zonalar madaniy qadriyatlar sifatida tan olinib, maxsus himoyadan foydalanuvchi joylarda tashkil qilinishi mumkin.

b) *Betaraf zonalar*. IV Jeneva konvensiyasining 15-moddasiga muvofiq, jang bo'layotgan hududlarda nizodagi tomonlarning harbiy qo'mondonligi *shoshilinch chora* sifatida tashkil etgan va:

- harbiy harakatlarda qatnashmaydigan hamda unda qatnashishni to'xtatgan kishilarning barchasini bir-biridan farqlamay, jang xavf-xatarlaridan himoya qilishga mo'ljallangan;
- bu yerda turgan kishilarning harbiy xarakterdagi hech qanday ishni amalga oshirmasliklarini ta'minlaydigan zonaga betaraf zona deyiladi.

Bunday zonalar uni tuzuvchi taraflarning taklifiga ko'ra tashkil etiladi. U manfaatdor tomonlar o'rtasida imzolangan yozma kelishuv shaklida ifodalanadi.

d) *Himoya qilinmaydigan joylar*. I Qo'shimcha Protokolning 59-moddasiga muvofiq, raqib tomonlar qurolli kuchlarining biri-biri bilan o'zaro duch kelgan hududlarda yoki unga tutash joylardagi har qanday aholi yashash punkti, agar u dushman tomonidan bosib olish uchun ochiq bo'lsa, himoya qilinmaydigan joy, deb e'lon qilinishi mumkin. Bunday joylar o'zaro nizodagi tomonlarning biri tarafidan *bir tomonlama e'lon qilinishi va bu haqda xabar tarqatilishi mumkin*. Bunday joy quyidagi talablarga javob berishi, ya'ni:

- barcha kombatantlar va harakatlanuvchi (mobil) qurollar va harakatlanuvchi harbiy anjom-aslahalar evakuatsiya qilingan bo'lishi;

- ko'chmas harbiy qurilmalar va inshootlardan dushmanlik maqsadlarida foydalanmaslik;

- ma'murlar ham, aholi ham dushmanlik harakatlarini amalga oshirmasliklari;

- harbiy operatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi hech qanday sa'y-harakat amalga oshirilmaligi kerak.

Ana shu shartlarning barchasiga amal qilinayotgan bo'lsa, bunday joylarga biron-bir tarzda hujum qilinishi taqiqlanadi. Biroq, nizodagi tomonlar uchun xavfsizlikni kuchaytirish maqsadida, ular o'rtasida *rasmiy kelishuv* tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

e) *Qurollardan xoli (demilitarizatsiya qilingan) zonalar*. I Qo'shimcha Protokolning 60-moddasiga muvofiq, o'zaro nizoda bo'lgan tomonlarning *yozma yoki og'zaki kelishuviga* binoan, qurollardan xoli (demilitarizatsiya qilingan) zona maqomi berilgan hududlarga harbiy operatsiyalarni yoyish taqiqlanadi. Uni tashkil qilish haqidagi kelishuv tinchlik davridayoq, shuningdek, harbiy harakatlar boshlangandan keyin tuzilishi mumkin. Bunday zona barcha nokombatantlar uchun ochiq bo'ladi.

Bunday kelishuvdan maqsad — mazkur zonada ham himoya qilinmaydigan joylardagi kabi talablarni bajarish uchun sharoitlar yaratish.

F. Qurolli to'qnashuvlar huquqiga muvofiq, kombatanntning jangdagi xatti-harakati qoidalari

Mazkur ko'rsatmalardan rota yoki boshqa harbiy bo'linmalarning qurolli to'qnashuvlar huquqi bo'yicha tayyorgarlik ko'rinishida foydalanish mumkin.

Jangdagi xatti-harakat qoidalari:

1. Jang harakatlarini faqat dushman kombatanntlariga qarshi olib bor.
2. Faqat harbiy obyektlarga hujum qil.
3. Fuqaro, aholi va ularning mol-mulkiga shafqat qil.
4. Jangovar vazifa talab qilganidan ortiqcha buzishlarga yo'l qo'yma.

Dushmanning asirga olingan kombatanntlari:

1. Ularga rahm qil.
2. Ularni qurolsizlantir.
3. Ularga nisbatan insonparvar munosabat va himoya bo'lishini ta'minla.
4. Ularni o'z komandiringga olib bor.

Dushmanning yarador kombatantrlari:

1. Ularni yig'ib ol.
2. Ularga zarur bo'lgan yordamni ko'rsat. Ularni himoya qil.
3. Ularni o'z komandiringga olib bor...
4. ... yoki eng yaqin tibbiyot punktiga olib bor.


Fuqaro aholi:

1. Ularga hurmat bilan munosabatda bo'l.
2. Sening hukming ostida bo'lganlarga insoniy muomala qil.
3. Ularni yomon munosabatdan himoya qil. Qasos olish va garovga olish taqiqlanganligini esingdan chiqarma.
4. Ularning mol-mulkini ehtiyot qil; ularga zarar yetkazma va kafando'zlik qilma.


Farqlovchi belgilar




— Harbiy va fuqaroviy tibbiy xizmat va diniy xodimlarni anglatadi




— Fuqaro mudofaasi



— Madaniy qadriyatlar: yodgorliklar, sajdagohlar, muzeylar



— Xavfli kuchlarni tutib turuvchi qurilma va inshootlar: to'g'onlar, dambalar (ko'tarmalar), atom elektrostansiylari, ularning komponentlarini tashuvchi transport vositalari



— Oq bayroq (sulh tuzish yoki taslim bo'lish haqida kelishish uchun yuboriluvchi elchilar, parlamentyorlar bayrog'i)

1. Ana shunday belgilarga ega bo'lgan kishilarga hurmat bilan munosabatda bo'l va shunday belgisi mavjud qurilma hamda jihozlarni ehtiyot qil.

2. Bordi-yu boshqacha buyruq olmagan bo'lsang, bu kishilarning o'z vazifalarini bajarishlariga xalaqit berma.

3. Ushbu binolar, qurilmalar, yodgorliklarga daxl qilma, bordi-yu buyruq olmagan bo'lsang, ularning ichiga kirma.

4. Bunday belgisi bor avtomashinalarning o'z yo'nalishi bo'yicha harakatlanishiga xalaqit berma. Bordi-yu buyruq olmagan bo'lsang, ularning ichiga kirishga harakat qilma.

1.3. Qurolli to'qnashuvlar huquqini buzganlik uchun javobgarlik

A. Harbiy operatsiyalarni o'tkazishning asosiy talablari

Umuman olganda, barcha davlatlar har ehtimolga qarshi qurolli nizolar yuzaga kelganda, qanday faoliyatni amalga oshirishni bilishlari uchun oldindan unga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishlari zarur. Bunday faoliyat, odatda, qurolli kuchlarni tashkil qiluvchi tizimlarda olib boriladi. Odatda, xalqaro qurolli nizolar ilgaridan va ochiq ravishda urush e'lon qilishdan yoki urush boshlash sharti qo'yilgan ultimatumdan keyin amalga oshiriladi.

Xalqaro qurolli nizolarda kuch ishlatish yoki jangovar harakatlar bo'lishi, harbiy tashkiliy faoliyat va hudud ustidan nazoratning muayyan minimumi bo'lishi shart emas. Bunday xarakterdagi nizolar uchun arzimagan jangovar harakatlar yetarli, ba'zan esa ular umuman bo'lmasligi ham mumkin. Xalqaro nizo uchun dushman hududining biror qismiga bostirib kirish, urush e'lon qilinishi yoki urush e'lon qilinsa-yu, jangovar harakatlarning olib borilmasligi yoki qarshilik ko'rsatishga uchramagan bostirib kirishlar yetarlidir.

Xalqaro bo'lmagan qurolli nizolarda quyidagi belgilar mavjud:

a) qo'zg'olonlar, ba'zan kuch ishlatish bilan yuz beradigan hodisalarning muayyan minimumi;

b) harbiy tizim minimumi: mas'ul qo'mondonlik va urush qonunlariga rioya qilish qobiliyati;

d) muayyan hudud ustidan minimal nazorat, bu harbiy operatsiyalarni uzluksiz va muvofiqlashtirib olib borishga imkon berishi lozim.

Ana shunday sharoitlarda harbiy operatsiyalar o‘zaro nizolashayotgan davlatlar milliy hududida hamda ularga tegishli dengiz va havo hududida olib borilishi mumkin. Har qanday harbiy operatsiyalar ularga qo‘mondonlik (ya’ni, rahbarlik) qilishni ko‘zda tutadi. Rahbarlikni amalga oshirish harbiy vaziyatdan kelib chiqib, vazifalar qo‘yilishdan boshlanadi. Qo‘yiladigan vazifalar esa, qurolli to‘qnashuvlar huquqiga mos kelishi kerak. XHning muayyan jihatlari komandir tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda aks etishi lozim.

Yakuniy qaror qabul qilinishi va qo‘yiladigan vazifalar aniqlanishi jarayonining asosiy elementi *razvedka xabarlarini yig‘ish* hisoblanadi. Axborot yig‘ish komandir uchun faol amaliy harakatlarni boshlash oldidan mavjud holatni nazorat qilishning so‘nggi usuli hisoblanadi hamda unga harbiy zaruriyat va insonparvarlik tamoyillariga mos keluvchi taktik qaror qabul qilishga imkon beradi. Qo‘mondonlik qilish va qurolli to‘qnashuvlar huquqi normalariga rioya qilish uchun javobgarlik odatdagi buyruqlardan kelib chiqadi.

Qaror qabul qilish jarayonidan ilgari amalga oshiriluvchi amallar. Bu jarayonda muayyan vazifalarni bajarishga kirishgan komandir bir necha ishlarni amalga oshirishi:

- *birinchidan*, u qo‘yilgan vazifalarni bajarishga yordam beruvchi barcha axborotga ega bo‘lishi;
- *ikkinchidan*, u qurolli to‘qnashuvlar huquqiga mos keluvchi ehtiyot choralari qabul qilinishini ko‘rib chiqishi;
- *uchinchidan*, u ayni vaqtdagi aniq taktik vaziyatni tahlil qilishi kerak.

Razvedka xabarlari. Razvedka xabarlari komandirga hujum qilinishi kerak bo‘lgan dushman qurolli kuchlari va ularning harbiy obyektlari turgan joylarni aniqlashga imkon berishi darkor. Bunday xabarlar komandirga quyidagi imkoniyatlarni berishi lozim:

a) operatsiya o‘tkaziladigan vaziyatni to‘g‘ri va aniq baholash (bu joyda turar joylar bormi yoki yo‘qmi, piyoda yoki mexanizatsiyalashgan bo‘linmalardan foydalanish, asosiy va qo‘shimcha yo‘nalishlarni belgilash va h.k.);

b) himoya ostida bo‘lgan obyekt va qurilmalarni, shuningdek, aholi yashaydigan har qanday joylarni aniqlash.

Razvedka xabarlarini to'plash harbiy kiyim-kechakda yoki kombatantligini yashirmaydigan kiyimda (maskirovkasiz) amalga oshirilishi kerak. Jeneva konvensiyalariga I Qo'shimcha Protokolning 46-moddasiga muvofiq, aldov yo'li bilan yoki yashirin usullar bilan axborot to'plashga «josuslik» sifatida qaraladi va u muayyan jazo qo'llanilishiga va harbiy asir maqomini olish huquqining yo'qolishiga olib keladi.

Ehtiyot choralari. Jeneva konvensiyalariga I Qo'shimcha Protokolning 57 va 58-moddalariga muvofiq, harbiy operatsiyalarni rejalashtirish paytida qabul qilinuvchi ehtiyot choralari fuqaro aholi orasidagi yo'qotishlar va vayronagarchiliklardan qochishga, agar u mumkin bo'lmasa, ularni imkon qadar kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ehtiyot choralari amalga oshiriladigan harbiy operatsiyalar, qurolli kuchlarning ko'chishi va ularning joylashuvi xususiyatlariga mos holda qabul qilinadi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- tinch aholi istiqomat qiladigan hududlardagi harbiy obyektlar ajralib turishi, himoyani rejalashtirish paytida harbiy va fuqaro obyektlari o'rtasida muayyan oraliq masofaning saqlanishi. Hujum paytida ehtimol tutilgan harakat yo'nalishlarini belgilashda (ayniqsa, mexanizatsiyalashgan vositalardan foydalanilsa) tinch aholi to'planishi mumkin bo'lgan joylarni aylanib o'tish mumkin bo'lgan variantning tanlanishi va h.k.

Taktik vaziyatni tahlil qilish. Taktik vaziyatni tahlil qilayotgan komandir ayni paytda amal qilayotgan barcha, shu jumladan, insonparvarlikka oid konkret sharoitlarni, shuningdek, harbiy mulohazalarni ko'rib chiqishi kerak. Bundan tashqari, komandir harbiy harakatlarning fuqaro aholi va fuqaro obyektlari uchun vujudga keltirishi mumkin bo'lgan va vujudga keltirgan xavf-xatarlarning (masalan, kombatantlar va/yoki harbiy vositalarning hujumdan saqlanish vositalariga ega bo'lgan yoki bunday vositalari bo'lmagan aholi punktlarida yoki ularning yaqinida bo'lishi) oldini olishga qaratilgan himoya choralarini ko'rib chiqishi kerak. Harbiy xarakterdagi mulohazalar qo'yilgan vazifaga bog'liq bo'lib, u o'zi amalga oshirayotgan xatti-harakatlarga ham, dushman amalga oshirayotgan xatti-harakatlarga ham tegishlidir (masalan, hujum yoki himoya, foydalanilayotgan vositalar va jangovar harakatlarni amalga oshirishning taktik usullari, urush qoidalariga harbiy

zaruriyatning mosligi yoki mos emasligi). Shu jihatdan, «harbiy zaruriyat» qurolli to'qnashuvlar huquqi normalarini buzishga imkon beruvchi tamoyil bo'lolmaydi. Harbiy zaruriyat mazkur huquq normalari bilan taqiqlanmagan va jangovar vazifani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan me'yorlarnigina oqlaydi.

Qaror qabul qilish jarayoni. Taktik vaziyatni tahlil qilgandan keyin komandir so'nggi qaror qabul qilinishi oldidan, mavjud imkoniyatlarga baho berishi kerak.

U quyidagilarning o'zaro munosabatini aniqlashi kerak:

a) o'z oldiga qo'yilgan vazifadan (ya'ni, harbiy zaruriyatdan) kelib chiquvchi cheklashlar;

b) urush huquqiga muvofiq, ko'rilishi kerak bo'lgan ehtiyot choralar;

d) ko'zda tutilgan operatsiya natijalarining qanday bahoda qo'lga kiritilishi (masalan, o'z qurolli kuchlaridan qanday talafotlar bo'lishi ehtimoli, fuqaro aholi talafotlari ehtimoli, kutilayotgan harbiy ustunlik qanday moddiy yo'qotishlar hisobiga bo'lishi).

Yuqoridagilarning o'zaro taqqoslanishi natijasida komandir yakuniy qaror qabul qiladi. Jeneva konvensiyalariga I Qo'shimcha Protokolning 57-moddasiga muvofiq, qabul qilingan qaror fuqaro aholi va fuqaro obyektlarga nisbatan tug'iladigan xavf-xatarlarni eng kam darajaga tushirishi kerak (masalan, manyovr va yurish-ko'chishlarning ko'p bo'lishi va o't ochishning kam bo'lishi; atrof-muhit, fuqaro obyektlari va tinch aholiga yetkaziladigan zararning kamaytirilishi).

Komandir tomonidan qabul qilingan qaror unga bo'ysunuvchilarga buyruq tarzida yetkaziladi. Bunday buyruqda qo'yilgan vazifalar real va bajariladigan bo'lishi hamda urush huquqi qoidalariga mos bo'lishi kerak. Bunday buyruqda quyi darajadagi komandirlarga qo'yiladigan vazifalar urush huquqiga rioya qilishni ta'minlovchi tafsilotlar (aniqlashlar) bo'lishi kerak (masalan, xabar berish, vaziyatga mos maskirovka turlari).

Zarur bo'lgan hollarda qo'yilgan vazifalarga jang qilish qoidalari yoki urush huquqiga muvofiq, xatti-harakat qilish bo'yicha ko'rsatmalar kiritilishi kerak (masalan, doimiy bo'lmagan yoki muxolifatga tegishli bo'lgan qurolli tuzilmalarga qarshi harakatlar paytidagi). Buyruqdagi bunday vazifalarda quyi darajadagi komandirlarning fuqaro ma'murlar bilan munosabatlar tartibi

to'g'risida ko'rsatmalar bo'lishi kerak (masalan, harbiy qo'mondonlik va fuqaro ma'muriyati darajalari). Bu vazifalarda yuqori qo'mondonlik tomonidan qo'yilgan ko'rsatmalar (masalan, operatsiyalarni amalga oshirishning doimiy qoidalari) bilan bir qatorda qo'shimcha aniqliklar (masalan, muayyan tumanlarning va qatnashishi ko'zda tutilgan bo'linmalarning xususiyatlari) ham aks ettirilishi kerak.

Taktik vaziyat imkon bersa, komandirlar fuqaro ma'muriyatini harbiy operatsiyalarning ehtimol tutilgan rivojlanishi va fuqarolar va fuqaro obyektlarga nisbatan bo'ladigan xavf-xatarlar haqida ogohlantirishlari kerak. Jeneva konvensiyalariga I Qo'shimcha Protokolning 57 (2c)-moddasiga muvofiq, bunday xabarlar ko'pincha muayyan xatti-harakatni amalga oshirish yoki undan o'zini tiyish haqidagi ogohlantirishlar shaklida bo'ladi (masalan, boshpana qidirish yoki muayyan tumanlar va yo'nalishlar chegarasidan tashqarida turish).

Buyruqning bajarilishini nazorat qilish. Buyruqning bajarilishini nazorat qilish qo'mondonlikni amalga oshirishning so'nggi sharti hisoblanadi. Uning maqsadi — komandir niyatlariga mos bo'lgan va vazifalar shaklida ifodalangan buyruqning bajarilishini ta'minlash.

Nazorat tartibni ta'minlashga imkon beradi. U komandirga xatti-harakatlarning yo'nalishiga zaruriy o'zgartirishlar kiritish yoki kerakli choralar qabul qilishga imkon beradi. Komandir nazorat yordamida o'z rahbarligi doirasida uning qo'li ostidagi kishilar urush huquqi qoidalariga rioya qilayotgani yoki uni buzayotganiga amin bo'ladi.

Agar harbiy operatsiyalar paytida jangovar harakatlarni amalga oshirish zudlik bilan talab qilinmasa, imkoni bo'lgan tuzatishlarni amalga oshirish kerak (masalan, ilgari uchramagan shaxslar yoki tibbiyot muassasalari paydo bo'lgan bo'lsa, jangovar pozitsiyalarni yaxshilash, qo'shinlar joylashgan joyni va hujum yo'nalishlarini o'zgartirish).

Qisqacha xulosalar:

1. Harbiy operatsiyalarni amalga oshiruvchi kuchlarga rahbarlik qilinishi shart.
2. Rahbarlikni amalga oshiruvchi komandir qaror qabul qilishi kerak.

Qaror qabul qilish uchun zarur shartlar:

Birinchidan, barcha vaziyatlar haqida razvedka xabarlari mavjud bo'lishi, ular komandirga operatsiya o'tkazish hududi (aholi yashaydigan yoki yashamaydigan tuman, mexanizatsiyalashgan yoki piyoda qo'shinlar uchun yo'l marshrutlari yo'nalishlari) haqida aniq ma'lumotlarni berishi kerak. Aholi zich yashaydigan hududlar va alohida himoyadan foydalanuvchi obyektlar aniqlanishi lozim.

Ikkinchidan, komandir qurolli to'qnashuv huquqiga mos keluvchi ehtiyot tadbirlarini ko'zda tutishi, ya'ni ular fuqaro aholi orasida yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotish va xarobaliklarni imkon darajada eng kam darajaga tushirishga yo'naltirilishi kerak.

Uchinchidan, komandir taktik vaziyatni tahlil qilishi, ya'ni mavjud vaziyatdagi barcha konkret holatlarni insonparvarlik va harbiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqishi, harbiy harakatlar natijasida aholi va fuqaro obyektlari uchun vujudga keluvchi xavf-xatarlarga qarshi qaratilgan himoya tadbirlarini e'tiborga olishi kerak.

1. Qabul qilingan qaror buyruq shaklida ifodalanishi zarur. Unda yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'yilgan vazifani qanday bajarish haqida qo'l ostidagi bo'linmalarga vazifalar belgilab beriladi.

2. Harbiy operatsiyalarni o'tkazish paytida buyruqning aniq bajarilayotgani nazorat qilib turilishi shart. Nazorat qilish — tartib va intizom ta'minlanishini belgilaydi.

3. Harbiy operatsiyalar, faqat harbiy obyektlarga qarshi qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalarini tanlashda, fuqaro aholi orasida tasodifiy yo'qotishlarning oldini olishga va fuqaro obyektlariga tasodifan ziyon yetkazishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tadbirlar qabul qilinishi kerak.

5. Shturm qilish yoki kutilmaganlik harbiy ustunlikka erishishning muhim elementi bo'lgan holatlarni istisno qilganda, hujum uyushtiriladigan tumanlarning mas'ul xodimlari bu hududlar bombardirovka qilinishi haqida imkon qadar xabardor qilinishi lozim.

6. Harbiy operatsiyalarni amalga oshirish paytida quyidagi xatti-harakatlar taqiqlanadi:

a) fuqaro aholi, alohida fuqarolar va fuqaro obyektlariga hujum qilish;

b) raqib tomon fuqarolarini ularning o'z mamlakatlariga qarshi olib borilayotgan harbiy harakatlarda qatnashishga majbur qilish;

d) mudofaa qilinmaydigan shaharlar, qishloqlar, uy-joylar va shu kabi inshootlarga hujum qilish yoki ularga bomba tashlash;

e) shahar yoki qishloqqa hujum qilingan taqdirda ham ularda o'g'riliklarni amalga oshirish;

f) himoya ostidagi shaxslar va ularning mol-mulkiga nisbatan qatag'onlarni amalga oshirish;

g) fuqaro aholi orasida ochlikdan urush olib borish usuli sifatida foydalanish;

h) fuqaro aholini kuch ishlatish bilan yoki kuch ishlatish haqida po'pisa qilish bilan qo'rqitish;

i) hujum obyekti bo'lgan yoki qurshovga olingan dushmanni tamoman yo'qotib yuborish, ya'ni hech kimni tirik qoldirmaslik haqida buyruq berish;

j) oziq-ovqat zaxiralari, ekinzorlar, chorva mollari, ichimlik suvi inshootlari kabi fuqaro aholi yashashi uchun zarur bo'lgan obyektlarga hujum qilish;

k) tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi urush usullaridan foydalanish;

l) dambalar, atom elektrostansiyalariga hujum qilish;

m) tanlamay hujum qilish, masalan, fuqaro obyektlari va harbiy obyektlarni bir-biridan farqlamay, gektarlab bomba yog'dirish;

n) munofiqlikdan foydalanish, ya'ni dushmanning ma'lum himoya timsollariga, ba'zi bir holatlarga ishonchini suiiste'mol qilish. Masalan, Qizil Xoch yoki Qizil Yarim oy, oq bayroq, madaniy obyektlar va boshqa belgilardan yolg'ondan foydalanish, hujum qilish maqsadida o'zini yolg'ondan yarador qilib ko'rsatish va hokazolar.

7. Harbiy operatsiyalarni o'tkazishda harbiy zaruriyat bo'lmasa, dushmanga tegishli bo'lgan mol-mulkni yo'qotish yoki olib qo'yish taqiqlanadi.

8. Harbiy operatsiyalarni o'tkazishda imkon qadar urf-odatlar, san'at, ilmiy maqsadlarga mo'ljallangan binolar, tarixiy yodgorliklar, katta ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlari, kasalxonalarga zarar yetkazmaslik choralari ko'rilishi kerak.

*B. Qurolli to'qnashuvlar huquqini buzganlik uchun
milliy darajada javobgarlikka tortish*

Qurolli to'qnashuvlar sohasida huquq buzilishlari bo'yicha javobgarlikka tortish masalasi davlatlar qonunchiligiga kiritilgan taqdirda ahamiyat kasb etadi. Javobgarlikka tortish masalasi barcha Jeneva konvensiyalari uchun umumiy bo'lgan 1-moddadan kelib chiqadi: «Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar har qanday holatda, mazkur Konvensiyaga amal qilish va amal qilishga majburlash majburiyatini o'z zimmasiga oladilar».

Jeneva konvensiyasiga qo'shilgan davlatlar xalqaro huquqning milliy huquq tizimidan ustunligi tamoyili asosida o'z milliy qonunchiligiga urush qonunlariga oid holatlarni kiritish majburiyatini oladilar. Bu narsa Jeneva konvensiyalarida o'zining aniq ifodasini topgan. Jumladan, I Jeneva konvensiyasining 49, II Jeneva konvensiyasining 50, III Jeneva konvensiyasining 129, IV Jeneva konvensiyasining 146-moddalarida umumiy bo'lgan qoida aks ettirilgan: «Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar mazkur Konvensiyaning keyingi moddasida ko'rsatilgan jiddiy buzishlarni u yoki bu tarzda amalga oshirgan yoki bu haqda buyruq bergan kishilarni samarali jinoiy jazoga tortish uchun zarur bo'lgan qonunchilikni amalga kiritish haqida o'zlariga majburiyat oladilar».

Jeneva konvensiyalariga imzo chekish bilan uning me'yorlari birdaniga milliy qonunchilikka o'tib qolmaydi. Hozirgi paytda mavjud holatni, umuman olganda, quyidagicha ifodalash mumkin. Mamlakatlar shartli ravishda o'ziga olgan majburiyatlarni bajaramayotgan va bu majburiyatlarni formal bajarayotgan guruhlariga bo'linadi¹.

A) Majburiyatlarini bajarmayotgan mamlakatlar buni, asosan, ikki xil sabablarga ko'ra izohlaydilar.

Ba'zi davlatlar o'z majburiyatlarini amalga oshirishni zaruriy, deb hisoblamaydilar. Ular o'zlarida mavjud bo'lgan umumjinoiy va harbiy huquqlar jiddiy huquqbuzarliklarga jinoiy jazo berish uchun yetarli, demak, olingan majburiyat bajarildi, deb hisob-

¹ Bu haqda to'liq ma'lumot Xose Luis Fernandes Floresning «Пресечение нарушений права войны, совершаемых отдельными лицами» maqolasida aks ettirilgan. *Qarang:* Пресечение нарушений международного гуманитарного права. М., МККК, 1998, стр. 5—73.

laydilar. Bu fikr xatodir, chunki urush huquqini buzish qonunni boshqacha buzishlardan farq qiladi va umumjinoiy qonunshunoslikda ularning oldini olishga yetarli kafolatlar yo'q. Bunday davlatlar, odatda, I Qo'shimcha Protokolni ratifikatsiya qilishmaydi. Bunday davlatlar qatoriga Fransiya, Portugaliya, AQSH, Yaponiya, Iroq, JAR kiradi.

B) Majburiyatlarini formal bajarayotgan mamlakatlar buni bir necha usullarda amalga oshirishadi.

Birinchidan, ular orasida o'z qonunchiligiga alohida qonunlar kiritgan yoki mavjud qonunlariga urush huquqi doirasidagi umumiy xarakterdagi huquqbuzarliklar haqida qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritgan davlatlar mavjud. Umuman olganda, ular o'zlariga olgan majburiyatlarni bajarganlar, chunki ular Jeneva konvensiyalari va I Qo'shimcha Protokolda ko'rsatilgan jiddiy huquqbuzarliklar uchun jazo belgilashning turli usullarini ko'zda tutishgan. Bunday davlatlar ko'pchilikni tashkil qiladi, jumladan, Ispaniya, Shveysariya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Irlandiya, Hindiston, Tojikiston, Yangi Zelandiya, Uganda, Malayziya, Keniya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Efiopiya va boshqalar.

Ikkinchidan, ba'zi mamlakatlar borki, ular o'z majburiyatlarini qisman bajarishgan. Bu davlatlar Konvensiyalarda ko'rsatilgan huquqbuzarliklarning hammasini emas, ba'zilarini o'zlarining qonunchiligi tizimiga kiritganlar. Bunday davlatlar qatoriga sobiq SSSR, Vengriya, sobiq Chexoslovakiya kiradi. O'zbekiston ham ana shunday davlatlar guruhida turibdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida urush qonunlarining ba'zi buzilishlari uchun muayyan jazo belgilangan.

152-modda. Urushning qonun va udumlarini buzish.

Urush qonunlari va udumlarining fuqaro aholi yoki harbiy asirlarni qiynash, jismoniy yo'qotish, fuqaro aholini majburiy ishlashga yoki boshqa maqsadlar uchun haydab ketish, xalqaro huquqda taqiqlangan urush olib borish vositalarini qo'llash, shaharlar va aholi yashash joylarini bema'nilarcha xarobaga aylantirish, mulkni talon-taroj qilish, shuningdek, bunday xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun buyruq berishda ifodalangan urush qonunlari va udumlarini buzish — *o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.*

153-modda. Genotsid.

Genotsid, ya'ni milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhga mansub bo'lgan kishilarning to'liq yoki qisman qirilib ketishiga mo'ljallangan hayot sharoitlarini qasddan yaratish, ularni to'liq yoki qisman jismoniy qirish, ularda bolalar tug'ilishini qisqartirish yoki bir guruhdagi bolalarni zo'rlab boshqa guruhga berish, shuningdek, ana shunday xatti-harakatlarni amalga oshirish haqida buyruq berish — *o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.*

Gumanitar huquqni buzganlik uchun jazolash tizimini yaratish uchun davlatlar, eng avvalo, preventiv (oldini oluvchi) tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur. Preventiv tadbirlarning eng asosiysi Bilimlar tarqatish hisoblanadi. Bu majburiyat davlatlarning Jeneva konvensiyalariga qo'shilishlari bilan vujudga keladi. Chunki I Jeneva konvensiyasining 47, II Jeneva konvensiyasining 48, III Jeneva konvensiyasining 127, IV Jeneva konvensiyasining 144-moddasiga asosan, «Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar tinchlik...vaqtida ham mazkur Konvensiya matnini o'z mamlakatlari ichida imkon qadar kengroq tarqatish, xususan, uni o'rganish uchun harbiy, mumkin bo'lsa, fuqaroviy ta'lim sohasining o'quv dasturlariga kiritish majburiyatini zimmalariga oladilar, toki uning prinsiplari bilan butun aholi... xabardor bo'lsin».

Preventiv tadbirlardan yana biri davlatlarning ushbu huquqbuzarliklar uchun o'z qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritishidir. Bu haqda yuqorida gapirildi. Yuqorida eslatib o'tilgan I Jeneva konvensiyasining 49, II Jeneva konvensiyasining 50, III Jeneva konvensiyasining 129, IV Jeneva konvensiyasining 146-moddalari davomida shunday deyiladi: «Oliy Ahdlashuvchi Tomonlarning har biri qoidalarining... jiddiy buzilishini sodir etganlikda yoxud bu haqda buyruq berganlikda ayblanayotgan shaxslarni qidirib topish va qaysi mamlakat fuqarosi ekanidan qat'i nazar, ularni o'z sudiga topshirishni zimmalariga oladilar. Tegishli tomon agar xohlasa, o'z qonunchiligiga muvofiq, ularni sud qilish uchun boshqa manfaatdor Oliy Ahdlashuvchi Tomon ixtiyoriga berishi ham mumkin. Buning uchun ushbu manfaatdor Oliy Ahdlashuvchi Tomon ana shu shaxslarni ayblash uchun asos bo'la oladigan dalillarga ega bo'lishi kerak».

Shuni unutmaslik kerakki, odatda, davlatlar ana shunday huquqbuzarlikka yo'l qo'yan o'z fuqarolariga ko'pincha panja orasidan qarashadi, ba'zan esa, ular «milliy qahramon» darajasiga ko'tarilishi ham mumkin. Ana shunday paytda, ya'ni mamlakat milliy qonunchiligi XIX buzilishini «sezmayotgan» paytda, boshqa davlatlarning talabi asosida ushbu huquqbuzarlar xalqaro sud tomonidan javobgarlikka tortilishi mumkin.

*D. Qurolli to'qnashuvlar huquqini buzganlik uchun
xalqaro darajada javobgarlikka tortish*

Umuman olganda, urush huquqi qoidalarini buzganlik uchun jazolash, azaldan an'anaviy ravishda davlatlarning ichki ishi sifatida qarab kelingan. Faqat XIX asrdan boshlab, davlatlarning ichki qonunchilik tizimlari asosida xalqaro tizim shakllana boshladi. Ammo bu xalqaro insonparvarlik huquqi buzilishida qo'llaniladigan sanksiyalarning xalqaro hujjatlarga kiritilishiga olib kelmadi. Masalan, 1863-yil 23-aprelda qabul qilingan F. Liberning AQSH qurolli kuchlariga Instruksiyasida urush huquqini buzishda aybdor askarlar ularning AQSH qurolli kuchlariga tegishli yoki asirga tushgan dushman bo'lishidan qat'i nazar, sud orqali jazoga tortilishi kerak, deyilgan.

Ular birinchi marta 1899-yilgi Gaaga konvensiyalarida tartibga keltirildi va mustahkamlandi. 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi esa, ularni yanada rivojlantirishga hissa qo'shdi. Ana shu murakkab vaziyatni yechish, shuningdek, davlatni sudga tortib bo'lmasligidan kelib chiqib, alohida jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasida qat'iy qadamlar qo'yish zarurligi anglana boshlandi. Bunday amaliy faoliyat Birinchi Jahon urushidan keyin yo'lga qo'yildi. 1918-yil 11-noyabrda Millatlar Ligasi tashabbusi bilan «harbiy jinoyatchilar»ning javobgarligini aniqlovchi Ittifoqchilar komissiyasi tashkil qilindi. Ushbu komissiya jismoniy shaxslarning urush boshlagani va uni olib borgan uchun xalqaro javobgarligi masalasini o'rganib chiqib, dushman davlatiga tegishli bo'lgan har qanday shaxs yuqori mansabni, shu jumladan, davlat boshlig'i lavozimini egallab turganiga qaramay, ana shunday xatti-harakatni sodir etgan bo'lsa, urush qonunlari va odatlari yoki insonparvarlik qonunlarini buzishda aybdordir, shuning uchun ular jinoiy javobgarlikka tortiladilar, xulosasiga keldi (1919-yilgi Versal Protokolining 227-moddasi).

Versal tinchlik Protokoliga ko'ra, kayzer Vilgelm II ni va Germaniyaning jinoyatchilikda ayblanayotgan boshqa fuqarolarini javobgarlikka tortish, shuningdek, barcha turdagi harbiy jinoyatchilarning ishlarini ko'rib chiqadigan milliy va xalqaro sudlarni tuzish ko'zda tutilgan edi. Ammo bu taklif amalga oshirilmay qoldi, chunki bu paytda kayzer Niderlandiyaga qochib qolgandi. Niderlandiya uni berishdan bosh tortdi, ishlari harbiy jinoyatchi sifatida sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan, ba'zi bir kishilar esa oqlandi yoki ramziy, nomigagina jazo oldilar.

Urush huquqini jiddiy buzish uchun jazolovchi xalqaro tizim Ikkinchi Jahon urushining oxiridan boshlab faoliyat ko'rsata boshladi. Dastlabki hujjat 1942-yil 13-yanvarda Germaniya tomonidan bosib olingan ittifoqchi davlatlarning harbiy jinoyatchilarni jazolash haqidagi Sent-Djems deklaratsiyasi hisoblanadi. 1943-yil 1-noyabrda esa, antifashist koalitsiyaga kirgan davlatlarning ana shu masalaga bag'ishlangan Moskva deklaratsiyasi e'lon qilindi. Bunday intilishlarning natijasi sifatida, 1945-yil 8-avgustdagi London kelishuvi tuzildi. Uning asosiy xulosasi Nyurnbergda tribunal tuzish haqidagi qarordir.

Xuddi shunday harbiy tribunal 1946-yil 19-yanvarda Uzoq Sharq uchun tashkil etildi. U Yevropa uchun tuzilgan nizomning ozgina o'zgartirilgan sudlov tartibini yapon harbiy jinoyatchilarini jazolashga tatbiq etdi.

Nyurnberg tribunali «Xalqaro harbiy tribunal» nomini olgan. U o'z faoliyatini 1946-yil 1-oktabrda, Tokio tribunali esa 1948-yil 12-noyabrda sud qarorini chiqarish bilan tugatdi.

Bu yo'nalishda keyinchalik tuzilgan protokollarga ko'ra, quyidagilar amalga oshirildi:

- 1948-yil. Genotsid jinoyatlarining oldini olish va uning uchun jazolash haqida Konvensiya qabul qilindi.

- 1993-yil. Sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro jinoiy tribunal Nizomi qabul qilindi (BMT Xavfsizlik Kengashining 1993-yilgi 808 va 827-rezolutsiyalariga ilovalar).

- 1994-yil. Ruanda bo'yicha Xalqaro jinoiy tribunal Nizomi qabul qilindi (BMT Xavfsizlik Kengashining 1994-yilgi 995-rezolutsiyasiga ilova).

- 1998-yil. Doimiy xalqaro jinoiy sud statusi qabul qilindi (Rim). 2003-yil 10-martda uning sudyalari qasamyod qabul qilishdi.

Xalqaro jinoiy sud protokol ishtirokchilari bo'lgan davlatlar fuqarolarini yoki ishtirokchi davlatlar hududida jinoyat sodir etgan fuqarolarnigina sud qilishi mumkin. Agar XJS ayblanuvchilarni gunohkor deb topsa, ular ko'pi bilan umrbod qamoq jazosiga hukm etiladi. XJS faqat o'zi ta'sis etilgandan keyin sodir etilgan jinoyatlarnigina sud qilishi mumkin. Vakolatiga ko'ra, XJS quyidagi jinoyatlarni ko'rib chiqadi:

Genotsid — biron-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'liq yoki qisman yo'qotish maqsadida amalga oshirilgan quyidagi har qanday xatti-harakatlar:

- a) ana shunday guruh a'zolarini o'ldirish;
- b) ana shunday guruh a'zolariga jiddiy tan jarohati yetkazish yoki ularning aqliy faoliyatini izdan chiqarish;
- d) qasddan u yoki bu guruhni qisman yoki butunlay yo'qotishga mo'ljallangan sharoitlarni yaratish;
- e) ana shunday guruhlar ichida bolalar tug'ilishiga chek qo'yishni mo'ljallovchi choralar;
- f) ana shunday guruhlariga qarashli bolalarni boshqa guruhga majburan berish.

Insoniylikka qarshi jinoyatlar — har qanday fuqaro shaxsga qarshi qaratilgan sistemali va keng ko'lamdagi quyidagi jinoiy harakatlar:

- a) qotillik, qiynash, qirib yuborish, qaramlikka olish (qulga aylantirish);
- b) deportatsiya yoki aholini zo'rlik bilan ko'chirish;
- d) qamoqda saqlash yoki xalqaro huquqning asosiy normalariga zid ravishda jismoniy erkinlikni boshqa tarzda qo'pol cheklash;
- e) zo'rlash, seksual qulga aylantirish, fohishabozlikka majbur qilish, homilador bo'lishga majburlash, majburan bepusht qilish (sterilizatsiya) yoki ana shunday og'ir shakllardagi seksual zo'ravonlikning har qanday boshqa shakllari;
- f) kishilarni zo'rlik bilan yo'qotib yuborish;
- g) aparteid (irqiy ayirmachilik) jinoyatlari.

Harbiy jinoyatlar — 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va 1977-yilgi ularga qo'shimcha protokollarda eslatib o'tilgan xalqaro insonparvarlik huquqi qoidalarini jiddiy buzishlarni, jumladan, quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- a) qasddan o'ldirish;
- b) qiynash va noinsoniy munosabatda bo'lish (shu jumladan, biologik tajribalar o'tkazish);
- d) qasddan kuchli azoblanishga mahkum qilish yoki jiddiy tan jarohati yetkazish;
- e) harbiy zarurati bo'lmasa ham davlat yoki xususiy mol-mulkni egallab olish yoki ularni vayron qilish;
- f) harbiy asirni yoki homiylik ostidagi boshqa shaxsni dushman mamlakati qurolli kuchlarida xizmat qilishga majbur qilish;
- g) harbiy asir yoki homiylik ostidagi boshqa shaxsni uning ishi adolatli va normal sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqidan qasddan mahrum qilish;
- h) noqonuniy deportatsiya yoki ko'chirish yoxud ozodlikdan noqonuniy mahrum qilish;
- i) kishilarni garovga olish;
- j) urush olib borishning taqiqlangan usullari va vositalaridan foydalanish;
- k) Qizil Xoch, Qizil Yarim oy va boshqa himoya timsollaridan munofiqlik bilan foydalanish;
- l) tinch aholiga qarshi hujum qilish.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida harbiy jinoyatlar, tinchlik va insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun jismoniy shaxslarning jazolanishi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi. Jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslar ikki guruhga ajratiladi:

1-guruh — o'z jinoiy qilmishlari uchun ham, ularning jinoyatkorona buyruqlarining ijrochilari amalga oshirgan xatti-harakatlar uchun ham javobgar bo'lgan asosiy harbiy jinoyatchilar. Bu guruhga davlat arboblari, qo'mondonlar, diplomatlar, moliyachilar va boshqalar kiradi.

2-guruh — o'z shaxsiy tashabbuslari bilan harbiy jinoyatlarning bevosita ishtirokchilari bo'lgan yoki boshqalar tomonidan bu jinoyatkorona ishlarga aralashtirilgan va shu jinoyatlarning ishtirokchilari hisoblangan shaxslar.

Hozirgacha turli mamlakatlar milliy sudlarida natsistlar va yapon jinoyatchilari ustidan sudlar davom etmoqda, chunki bunday jinoyatlar uchun da'vo muddati o'tib ketganligi haqidagi qoida amal qilmaydi va ular uchun jazo muqarrardir.

Qurolli to'qnashuvlar huquqining jiddiy buzilishlari¹

1. 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining barchasida ko'rsatilgan jiddiy huquqbuzarliklar:

- qasddan o'ldirish;
- qiynash yoki noinsoniy munosabatda bo'lish, shu jumladan, biologik eksperimentlar;
- qasddan og'ir qiynoqqa duchor qilish yoki jiddiy jarohat yetkazish, sog'lig'iga zarar yetkazish.

2. I, II va III Jeneva konvensiyalarida ko'rsatilgan jiddiy huquqbuzarliklar:

- noqonuniy, o'zboshimchalik bilan va katta miqyosda amalga oshirilgan vayronagarchiliklar va harbiy zaruriyati bo'lmasa-da, mol-mulkning o'zlashtirib olinishi.

3. III va IV Jeneva konvensiyalarida ko'rsatilgan jiddiy huquqbuzarliklar:

- harbiy asirni yoki homiylik ostidagi shaxsni dushman qurolli kuchlarida xizmat qilishga majbur qilish;
- harbiy asirni yoki homiylik ostidagi shaxsni, konvensiyalarda ko'zda tutilgandek, uning ishi xolis va normal sudda ko'rib chiqilishi huquqidan mahrum qilish.

4. IV Jeneva konvensiyasida ko'rsatilgan jiddiy huquqbuzarliklar:

- noqonuniy deportatsiya qilish, ko'chirish;
- noqonuniy qamash;
- garovga olish.

Jiddiy bo'lmagan, kichik huquqbuzarliklar:

- insonparvarlik huquqi nuqtayi nazaricha, yaxshi hisoblanuvchi xatti-harakatlarga zid bo'lgan, ammo jiddiy huquqbuzarlik hisoblanmaydigan xatti-harakatlar.

¹ Bu haqda to'liq ma'lumot Xose Luis Fernandes Floresning «Пресечение нарушений права войны, совершаемых отдельными лицами» maqolasida aks ettirilgan. *Qarang:* Пресечение нарушений международного гуманитарного права. М., МККК, 1998, стр. 5—73.

• jiddiy huquqbuzarlik deb e'tirof etish uchun yetarli darajada og'ir bo'lmagan, muayyan qoidalarda maxsus eslatib o'tilgan, qabul qilinishi kerak bo'lgan, ammo qabul qilinmagan tadbirlar.

1.4. Qurolli to'qnashuvlar huquqini farqlovchi timsol va belgilar. Qizil Xoch va Qizil Yarim oy xalqaro harakati

A. Qurolli to'qnashuvlar huquqida ko'zda tutilgan farqlovchi timsol va belgilar. Qizil Xoch va Qizil Yarim oy timsoli — tibbiy va diniy xodimlarni himoya qiluvchi timsol

Dala gospitallari va kasalxonalarini alohida farqlovchi belgilar bilan belgilash o'z tarixiga ega. Ammo XIX asr o'rtalarigacha turli mamlakatlar buning uchun har xil rangdagi bayroqlardan foydalanishgan. Masalan, Avstriyada — oq, Fransiya — qizil, Ispaniya va Amerika Qo'shma Shtatlarida — sariq rangdagi bayroqlar ishlatilgan. Ammo ularning ma'nosi barchaga ma'lum emas edi, shuning uchun ularni hamma ham hurmat qilishavermagan. Artileristlar ko'pincha ularni o'qqa tutishgan, dala gospitallari va ularning aravalari o't ochish nishoni bo'lgan. Ular yaradorlarni tashishga mo'ljallangani, demakki, insonparvarlik missiyasi bajarishini bildiradigan va hammaga ma'lum bo'lgan belgi bo'lmagan.

Bundan tashqari, ana shunday belgilarni o'zaro tan olish haqidagi protokollarning ham bo'lmaganligi, bunday hodisalarni muvofiqlashtirish yo'nalishida oqsashlarni vujudga keltirgan. Dala gospitaliga hujum qilish, umuman olganda, qayg'uli hodisa bo'lgan, ammo bu narsa urush huquqini buzish hisoblanmagan. Shuning uchun dala gospitallarini, odatda, front liniyasidan ancha ichkariga, dushmanning o'qi yetib bormaydigan masofalarga joylashtirilardi. Ammo bu yarador va kasallar uchun ancha noqulay bo'lib, ular notekis yo'llarda aravada qiynalib borishar, bunda yaralarga infeksiya tushishi ehtimoli ko'p bo'lardi.

Tibbiy xizmatlar o'z ishlarini bajara olmas, chunki ularning resurslari sochilib ketgan edi. Masalan, 1859-yil 24-iyundagi Solferino jangidan keyin fransuz-sardiniya armiyasining kvartir-meysterlariga barcha yaradorlarni yig'ib olish uchun olti kun kerak bo'lgan. Ana shu vaqt mobaynida yaradorlarning chanqoqlik, pashshalar va turli azoblardan qanchalik qiynalganini ko'z oldingizga keltiring.

Gangrena boshlangani sababli, yagona usul — qo‘l yoki oyoqni kesishdan boshqa usul qolmagan edi. Urushdan qaytayotganlar qatoriga uzundan uzoq cho‘loqlar kolonnasi ham qo‘shildi.

Dyunan tomonidan olg‘a surilgan g‘oya ham ana shu azoblarga chek qo‘yishga qaratilganligi bilan omma orasida katta reaksiyani vujudga keltirdi. Unda qo‘yilgan ikki g‘oyani yana bir bor eslatamiz:

a) har bir mamlakatda yaradorlarga yordam ko‘rsatuvchi qo‘mitalar tuzish; ular doimiy bo‘lishi va urush yuz bergan holda kechikmasdan faoliyat ko‘rsatishi kerak;

b) davlatlar tomonidan dala gospitallari va tibbiyot xodimlarini doimo hurmat qilish majburiyatini aks ettirgan protokolni tuzish.

Bu g‘oyalar shu paytgacha amalda bo‘lgan xayriya qo‘mitalarining g‘oyalariidan keskin farq qiluvchi yangi g‘oyalar edi. Ular ba‘zan ikki tomonlama, jang paytida yoki undan keyin tuziladigan sanitar xodimlar va dala gospitallariga betaraflik maqomi berish haqidagi qisqa muddatli protokollar o‘rniga boshqacha, tinchlik davrida tuziladigan, ko‘p tomonlama, rasmiy va doimo amal qiluvchi protokol tuzish zarurligi haqidagi g‘oya edi. Chunki urush sharoitida va qisqa vaqtda tuzilgan protokollarni doimo yangilash zaruriyati mavjud.

Ana shu g‘oyalarning hayotga tatbiq etilishi o‘laroq, Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasi va har bir mamlakatdagi Qizil Xoch yoki Qizil Yarim oy milliy jamiyatlari (1-g‘oyaning natijasi) hamda Jeneva konvensiyalari (2-g‘oyaning natijasi) vujudga keldi.

Birinchi mavzudan bizga ma‘lumki, 1863-yilda keyinchalik Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasiga aylangan ilk tashkilot — «Yarador askarlarga yordam ko‘rsatuvchi Xalqaro doimiy qo‘mita» vujudga keldi. 1863-yil 17-fevralda ushbu tashkilotning majlisida turli davlatlarda ana shunday jamiyatlar tuzish taklifi loyihasi ishlab chiqildi. Bu taklif loyihaning 9-moddasida, jumladan, shunday so‘zlar bor edi: «Barcha mamlakatlardagi ko‘ngilli sanitarlar bir xil bo‘lgan farqlovchi kiyim yoki belgiga ega bo‘lishadi. Ular daxlsizdir va harbiy komandirlar ularni himoya bilan ta‘minlaydi». Ammo bu taklifning hech qanday huquqiy ahamiyati bo‘lmagan. Chunki u Jenevaning marhamatli 5 fuqarosi tuzgan va hech qanday huquqiy kafolatlarga ega bo‘lmagan jamoat tashkiloti tomonidan bildirilayotgan edi.

1863-yil oktabrda Jenevada «Yarador askarlarga yordam koʻrsatuvchi Xalqaro doimiy qoʻmita»ning taklifiga koʻra, yigʻilgan Xalqaro konferensiya (bu konferensiya ham jamoatchilik konferensiyasi edi) oʻz ishida boshqa masalalar qatori (masalan, barcha davlatlarda yarador askarlarga yordam koʻrsatish jamiyatlarini — boʻljak Qizil Xoch milliy jamiyatlarini tuzish haqida qaror qabul qildi) yuqorida keltirilgan taklif loyihasini ham koʻrib chiqdi. Unda qabul qilingan 8-rezolutsiyada koʻngilli-sanitarlarni ajratib turuvchi belgi haqida shunday soʻzlar yozildi: *«Barcha mamlakatlarda ular yagona farqlovchi belgi sifatida qizil xoch timsoli tushirilgan oq bogʻich bogʻlamlari kerak»*. Soʻng konferensiya barcha mamlakatlar sanitar transporti va armiya tibbiy xizmatini ifodalash uchun ham ushbu yagona belgini qabul qilish haqidagi taklif bilan chiqdi.

Nihoyat, 1864-yil 8—22-avgustida Shveysariya Konfederatsiyasi Davlat Kengashining taklifi bilan chaqirilgan Diplomatik konferensiyada «Quruqlikdagi urushlar paytida yarador jangchilar qismatini yengillashtirish haqida» Jeneva konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu konvensiyaning 7-moddasi harbiy-tibbiy xizmatlar uchun yagona belgi haqida edi:

«Gospitallar, sanitar karvonlari va evakopunktlar uchun yagona farqlovchi bayroq qabul qilinishi kerak. U bilan yonma-yon doimo milliy bayroq turishi kerak.

Betaraflik maqomiga ega boʻlgan kishilar qoʻllariga bogʻich bogʻlab olishlari mumkin, ammo bu masalani koʻrib chiqish harbiy maʼmurlar ixtiyorida qoldirildi.

Bayroqda ham, bogʻichda ham oq fondagi qizil xoch aks ettirilishi kerak».

Shunday qilib, yagona farqlovchi belgining qabul qilinishi tibbiy xizmatlar, sanitar transporti va koʻngilli-sanitarlarning daxlsizligini taʼminlagan asoslardan biri boʻlib qoldi.

Asrlar mobaynida oq bayroq muzokaralar olib borish istagini yoki asirga tushishga qaror qilinganligini bildirish timsoli boʻlib kelgan. Ana shunday bayroqni chin dildan koʻtarganlarga qarata oʻq otish taqiqlangan. Qizil xoch belgisining qoʻshilishi bilan uning ahamiyati yanada ortdi va yaradorlar hamda ularga yordam beruvchilarning barchasiga hurmat bajo keltirishni talab qilishga imkon berildi. Buning ustiga bu belgi oddiy boʻlib, anchagina masofadan ham oson bilib olinardi.

Nima bo'lganda ham 1863-yil oktabr konferensiyasi qatnashchilari tibbiy xizmatni boshqalardan farqlovchi mazkur belgini qabul qilishayotganlarida, ushbu belgining diniy mazmuni bor ekanligiga o'rin qoldirishmagan. Chunki Qizil Xoch asoschilarining bosh maqsadi milliy yoki diniy chegaralarni bilmaydigan tashkilotni tuzish edi. XIX asr Yevropasi o'zini dunyoning markazi deb sezardi, shuning uchun ushbu timsolni yaratuvchilar Qizil Xoch Yevropa chegaralaridan chiqishi bilan uning kimlargadir xush kelmasligini bilmas edilar. Bu esa, juda tezda o'zini ko'rsatdi.

1876—1878-yillardagi urushning boshlanishidayoq, Usmonli turk imperiyasi 1864-yil 22-avgustdagi Jeneva konvensiyasiga hech bir e'tirozlarsiz qo'shilganiga qaramay, dushmanning qizil xoch timsoli bilan belgilangan sanitar karvonlarini hurmat qilishini, ammo o'z sanitar karvonlarini qizil yarim oy timsoli bilan belgilashini e'lon qildi. Buyuk Porta Konvensiyada qabul qilingan timsol *«shu paytgacha Turkiyaga Konvensiyada belgilangan o'z huquqlaridan foydalanishga imkon bermaganligini, chunki u musulmon askarlarining izzat-nafsini haqorat qilishini»* ma'lum qildi. Shunday qilib, Usmonli turk imperiyasi qizil yarim oy belgisidan o'z tibbiy xizmatlarini belgilash uchun foydalana boshladi.

1906-yilgi Diplomatik konferensiya belgining yagona ekanligi haqidagi qarorga o'zgartirish kiritmagan holda Fors davlati va Usmonli turk imperiyasiga keyingi konferensiyaga o'z takliflarini kiritishni taklif qildi. 1929-yilgi Diplomatik konferensiya Turkiya va Misr foydalanayotgan qizil yarim oy va Fors davlati ishlayotgan qizil sher hamda quyosh belgilarini tan oldi. Ammo kelajakda shunga o'xshash voqealar yuz berishining oldini olish uchun konferensiyada bundan buyon boshqa yangi belgilar qabul qilinmasligini e'lon qildi.

1949-yilgi Diplomatiya konferensiyasi Ikkinchi Jahon urushidan keyin ilgari Jeneva konvensiyalarini qayta ko'rib chiqdi va yangi IV konvensiyani qabul qildi. Bunda I Jeneva konvensiyasining 38-moddasi quyidagi ko'rinishda qabul qilindi:

«Shveysariyaga hurmat bildirish ma'nosida, federal ranglarning o'zaro o'rin almashishi natijasida olingan oq rangli asosga tushirilgan qizil xochning geraldik belgisi qurolli kuchlar sanitar

xizmatlarining emblemasi va farqlovchi belgisi sifatida saqlab qolinadi.

Ammo, hozir oq rangli asosdagi qizil xoch o'rniga qizil yarim oy yoki qizil sher va quyosh tasvirini ishlatayotgan mamlakatlarga nisbatan, ushbu emblemlar teng asoslarda mazkur Konvensiya mazmunida e'tirof etiladi».

1929-yilgi Konvensiyaga e'tirozlarsiz qo'shilgan Isroil davlati 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarini quyidagi eslatma (izoh) bilan ratifikatsiya qildi:

«Konvensiyaning farqlovchi timsol va belgilarini hurmat qilib, Isroil o'zining qurolli kuchlari tibbiy xizmatlari uchun farqlovchi timsol va belgi sifatida Davidning qizil qalqonini ishlatadi, deb eslatadi».

1980-yil 4-sentabrda Eron Islom Respublikasi o'z qurolli kuchlarining farqlovchi belgisi sifatida qizil sher va quyosh timsoli o'rniga qizil yarim oydan foydalanishini e'lon qildi. Shunday qilib, hozirgi paytda qizil xoch va qizil yarim oy belgilari dunyoning turli mamlakatlari milliy jamiyatlari tomonidan bir-biriga baravar huquqda ishlatib kelinmoqda.

I Jeneva konvensiyasining 44-moddasida ushbu timsollar himoya qilish va tanitishdek ikki maqsadda ishlatilishi aniq ko'rsatilgan. Himoya qilish funksiyasi ushbu timsollarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki u urush paytida «Konvensiyaning ko'rinuvchi belgisi» sifatida konvensiyalar tomonidan ba'zi kishilar va predmetlar (tibbiy va diniy xodimlar, sanitar qismlar, ularga tegishli transport va jihozlar)ga nisbatan o'rnatilgan himoyaga egalikni aks ettiradi.

Umuman olganda, mazkur timsollar haqiqiy himoya bilan ta'minlanmaydi, balki himoyaning tarkibiy qismi hisoblaniladi. Haqiqatan ham, sanitar qismning qizil xoch (yarim oy) belgisi bilan ochiq belgilanmaganligi uni himoyadan mahrum qilmaydi. Chunki u haqida boshqa yo'llar bilan xabardor bo'lgan dushman uni sanitar qism bo'lganligi uchun hurmat qilishi kerak. Biroq, agar sanitar qismi himoya belgisidan foydalanmasa, unda u xavfsizlikda turibdi, deyishga asos bo'lmaydi.

Mohiyatan olganda, himoya timsoli davlatga, ular armiyalarining tibbiy xizmatiga tegishlidir. O'zlarining himoya qiluvchilik funksiyasini to'liq bajarish uchun ular yaxshi ko'rinib turishlari

kerak. Ushbu timsol o'zining shakli belgilangan obyektga (masalan, gospital tomiga, gospital kemasi palubasiga, samolyot borti va qanotlariga, qo'lga bog'lanadigan bog'ichga, sanitarlar ustki yengsiz kiyimining ko'krak va orqa tomonlariga chizilgan belgi) mos ravishda katta hajmda ega bo'lishi kerak.

Quyidagilar ushbu timsolning himoyasida turadilar:

- armiyalarga, shuningdek, yordam ko'rsatish jamiyatlariga tegishli bo'lgan harakatdagi sanitar qismlar va ko'chmas (statsionar) tibbiy muassasalar (I Jeneva konvensiyasining 19, 42-moddalari);

- o'zaro urushayotgan tomonlardan biriga yordam ko'rsatayotgan betaraf mamlakatning sanitar qismlari va tibbiy xodimlar (I Jeneva konvensiyasining 27 va 43-moddalari);

- armiya va yordam ko'rsatish jamiyatlarining doimiy tibbiy va diniy xodimlari, shu jumladan, ma'muriyat xodimlari (I Jeneva konvensiyasining 24, 26 va 40-moddalari);

- armiyada vaqtincha ishlayotgan va o'z ishini bajarish paytidagina maxsus bog'ichlarni taqishga haqli bo'lgan tibbiy xodimlar (I Jeneva konvensiyasining 25 va 41-moddalari);

- armiya va yordam jamiyatlarining tibbiy mol-mulki (I Jeneva konvensiyasining 33, 34 va 39-moddalari), sanitar transport vositalari, shuningdek, sanitar uchish apparatlari (I Jeneva konvensiyasining 35, 36 va 39-moddalari).

Quyida urush paytida himoya timsolidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan muassasalar ko'rsatilgan:

a) armiyalarning tibbiy xizmatlari;

b) 26-moddaga muvofiq, urush paytida armiyaga o'z tibbiy xizmatini ko'rsatuvchi yordam jamiyatlari (jumladan, Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Milliy jamiyatlari). Milliy jamiyatlar himoya belgisidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan yagona muassasalar emas. Hukumatlar Qudduslik Avliyo Ioan Jamiyati (Ordeni), Malta Jamiyati (Ordeni) kabi yordam jamiyatlariga ushbu timsoldan foydalanishga ruxsat berishlari mumkin.

d) Qizil Xochga tegishli xalqaro tashkilotlar va ularning xodimlari ushbu timsoldan hamma vaqt foydalanish huquqiga ega.

Ushbu timsolning tanituvchilik vazifasi biror kishi, obyektning Qizil Xoch yoki Qizil Yarim oy tashkilotlari bilan aloqadorligini, ammo ular Jeneva konvensiyalari homiyligiga haqli

emasligini ko'rsatishdan iborat. Tushunmovchiliklar bo'lishining oldini olish uchun, odatda, bunday vaziyatda timsolning hajmi katta bo'lmaydi va shuning uchun ham har ikki funksiyaning birlashtirilishiga imkon qoldirilmaydi. Masalan, bunda uni bog'ich sifatida ishlatib yoki tomga o'rnatib bo'lmaydi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, ushbu timsollardan boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi. Xalqaro hamjamiyat tan olgan ushbu belgilardan dushmanni aldash maqsadida foydalanish esa munofiqlik (вероломство) sifatida qoralanadi hamda u konvensiyalar va protokollarni jiddiy buzish sanaladi.

B. Qizil Xoch va Qizil Yarim oy xalqaro harakatining tarkibiy qismlari, vazifalari

Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, Qizil Xoch va Qizil Yarim oy milliy jamiyatlari hamda Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Jamiyatlari Xalqaro Federatsiyasi xatti-harakatlarining birlashishi natijasida yangi tuzilma — Qizil Xoch va Qizil Yarim oy xalqaro harakati yuzaga keldi. Harakatning asoschisi Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasidir. «Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy xalqaro harakati» nomi 1986-yilda qabul qilindi. Bu vaqtgacha «Xalqaro Qizil Xoch» nomi qo'llanilgan edi.

Qizil Xoch va Qizil Yarim oy xalqaro harakatining tarkibiy qismlari:

Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi (XQXQ) — xususiy huquq asosida tashkil etilgan va Shveysariya qonunchiligiga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi uyushma. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining oliy organi — Qo'mita faqat Shveysariya fuqarolaridan iborat bo'ladi. Tajriba bunday bir xil tarkib qo'mitaning tez, qat'iy va samarali faoliyat olib borishiga yordam berishini ko'rsatmoqda.

Qo'mita tarkibiga bitta mamlakat fuqarolari kirsa-da, XQXQ faoliyati xalqaro xususiyatga ega. Uning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar xalqarodir. Boshqa tomondan, qo'mitaning bitta millatga mansub tarkibi Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi xodimlarining butun shtati faqat shveysariyaliklardan iborat degani emas. XQXQning Jenevadagi shtab-kvartirasida ham, chet ellardagi delegatsiyalarda ham turli kasbdagi kishilar — har xil davlatlarning fuqarolari ishlaydi.

XQQQ ikki xil xususiyatga ega: Shveysariya Fuqarolik kodeksiga muvofiq, xususiy huquq subyekti bo'la turib, XQQQ bir vaqtning o'zida faoliyatini xalqaro insonparvarlik huquqi doirasida olib borish yoki shunday xalqaro faoliyat olib borish tashabbusi bilan chiqish huquqlariga ega. XQQQ hukumatlararo tashkilot emas; ayni vaqtda unga «nohukumat tashkilot» atamasi to'g'ri kelmaydi. To'g'rirog'i, *XQQQ xalqaro huquqning o'ziga xos subyekti bo'lib, xalqaro huquqiy xususiyatga ega bo'lgan maxsus vazifalarni bajaradi*. Bu vazifalar davlatlar, BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan juda keng miqyosda tan olingan. Bunday huquqiy mavqe XQQQ davlat ichkarisidagi qurolli mojarolar va tartibsizliklar sharoitida o'z tashabbusi bilan yoki 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularga Qo'shimcha Protokollar asosida betaraf vositachi bo'lishiga imkon beradi.

XQQQ huquqiy mavqeyining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. XQQQ davlatlar bilan bitimlar tuzish huquqiga ega. Bu bitimlar xalqaro protokol xususiyatiga ega bo'lib, ko'pincha milliy qonunchilikdan ustun turadi. Ular XQQQ delegatsiyalariga diplomatik vakolatxonalar va hukumatlararo muassasalar vakolatxonolari mavqeyini beradi, ayniqsa, ushbu bitimlarda ko'rsatilgan (masalan, sud qilish, ko'rsatma berish va boshqa) imtiyozlar va immunitetlar ma'nosida;

2. XQQQ faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning delegatlari ko'rsatma berish uchun xalqaro sud idoralariga (shu jumladan, Xalqaro jinoyat sudiga) chaqirilishlari mumkin emas;

3. XQQQ BMT Bosh Assambleyasi va boshqa ko'pgina xalqaro tashkilotlarda (masalan, Amerika Davlatlari Tashkilotida) kuza-tuvchi mavqeyidan foydalanadi. BMT rezolutsiyalarida XQQQ nohukumat tashkilotlari (NHT) bilan tenglashtirilmaydi, balki hukumatlararo tashkilotlar ro'yxatiga kiradi;

4. XQQQ xalqaro huquq asosida (1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularga Qo'shimcha Protokollar) harbiy, fuqaro mahbuslarni borib ko'radi va xuddi shu asosda o'z xizmatini taklif etadi;

5. XQQQ xalqaro anjuman va yig'inlarda hukumatlararo tashkilotlar uchun yaratiladigan asoslarga teng sharoitlarda qat-nashadi.

Nohukumat tashkilotlar yuqorida sanab o‘tilgan barcha imkoniyatlar majmuyiga ega emas. Xolis, betaraf va mustaqil tashkilot sifatida XQQQning maqsad va vazifalari faqat insonparvarlikka qaratilgan bo‘lib, urush va mamlakatlar ichkarisidagi zo‘ravonlik vaziyatlari qurbonlarining hayoti va sha’nini himoya qilish hamda ularga yordam ko‘rsatishdan iborat. XQQQ mojaro vaziyatida harakat tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro insonparvarlik yordamiga rahbarlik qiladi va uni muvofiqlashtiradi. Insonparvarlik huquqini va universal insonparvarlik tamoyillarini targ‘ib qilib va mustahkamlab, odamlarning azob chekishlariga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi.

XQQQ faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

1. Qurolli mojarolar va mamlakat ichkarisidagi zo‘ravonlik vaziyatlari qurbonlarining huquqlariga amal qilishni ta‘minlash. Buning uchun XQQQ vakillari (delegatlari) erkinligi cheklangan shaxslarni (masalan, harbiy asirlarni, muayyan hududga majburan joylashtirilgan tinch aholini) faqat ular bilan g‘ayriinsoniy munosabatda bo‘lishning oldini olish va zarurat tug‘ilsa, ularni tutib turish sharoitlarining yaxshilanishiga erishish maqsadida borib ko‘radi.

2. Mojaro natijasida bedarak yo‘qolgan shaxslarni qidirish va bir-biridan ajratilgan oilalarni birlashtirish. Buning uchun XQQQ qoshida Markaziy qidiruv agentligi (uni Markaziy ma‘lumot agentligi deb ham atashadi) faoliyat ko‘rsatadi. Bu Agentlik:

- yordam ko‘rsatish uchun qurbonlar haqida ma‘lumot to‘playdi (masalan, hibsdan bo‘lgan shaxslarning tutib turilgan joyini aniqlash; ularning taqdiri haqida ma‘lumotlarni yaqinlariga yetkazish);
- mojaro natijasida bir-biridan ajratib qo‘yilgan shaxslar o‘rtasida aloqani tiklaydi va bog‘lab turadi;
- bir-biridan ajratilgan oilalarni birlashtirish faoliyatini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi yoki ularning birlashishiga ko‘maklashadi;
- bedarak yo‘qolgan shaxslarning taqdirini aniqlash uchun ularning yaqinlari nomidan hokimiyat idoralariga murojaat qiladi;

- shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lmagan shaxslarga yo‘lovchi hujjatlari beradi. Bu ularga qochib borayotgan mamlakatiga borish yoki vataniga qaytish imkonini beradi;
- qurbonlardan, shu jumladan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslardan har birining keyingi taqdirini kuzatib boradi.

3. Odamlarning hayotini va sog‘lig‘ini himoya qilish maqsadida qurolli mojarolar va mamlakat ichkarisidagi zo‘ravonlik vaziyatlari qurbonlariga oziq-ovqat va boshqa moddiy yordam ko‘rsatish (masalan, vaqtinchalik turar joy qurish, kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak taqsimlash, qishloq xo‘jaligini tiklash va h.k.).

4. Sog‘liqni saqlash sohasida yordam ko‘rsatish (yaradorlarga birinchi yordam, evakuatsiya, tibbiy va jarrohlik yordami, dori-darmonlar va tibbiy jihozlar berish, sanitariya-gigiyena tadbirlarini o‘tkazish, tibbiy xodimlar tayyorlash, ortopedik jihozlar tayyorlash va boshq.).

5. Xalqaro insonparvarlik huquqini rivojlantirish va u haqidagi bilimlarni tarqatish. Bu turdagi faoliyatdan maqsad — xalqaro insonparvarlik huquqi buzilishining oldini olish va unga samarali amal qilishni ta‘minlash.

Bundan tashqari, XQQQ har bir yangi tuzilgan Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Milliy jamiyatining tan olinishi uchun javob beradi.

So‘nggi o‘n yil ichida XQQQ 60 dan ortiq davlat, shu jumladan, Shveysariya bilan XQQQning mavqeyi haqida bitim tuzdi. Hozirgi vaqtda turli mamlakatlarda XQQQning 74 ta delegatsiyasi va missiyasi ishlamoqda, uning xodimlari soni esa, qariyb 12 ming kishiga teng.

Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Milliy jamiyatlari. Jahonning ko‘pchilik mamlakatlarida tinchlik davrida ham, urush davrida ham Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Milliy jamiyatlari faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakatda faqat bitta Milliy jamiyat bo‘lishi mumkin. U o‘z mamlakati hokimiyatiga insonparvarlik sohasida yordam beradi va halokatlar paytida qutqaruv ishlarini olib borishdan tortib, tibbiy va ijtimoiy yordam berishgacha bo‘lgan har xil turdagi xizmatlarni ko‘rsatadi. Urush davrida Milliy jamiyat mojaro natijasida jabr chekkan tinch aholiga yordam beradi va, zarurat tug‘ilsa, o‘z mamlakatining harbiy-tibbiy xizmatiga ko‘maklashadi. Milliy jamiyatlar faoliyatining aniq turlari haqidagi ma‘lumotni viloyat bo‘limlari va markaziy kengashlaridan olish mumkin.

Bu jamiyatlar insonparvarlik sohasida hokimiyatga ko‘maklashuvchi ko‘ngilli yordam jamiyatlari sifatida rasman tan olingan.

Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatlarining umumiy maqsadi — mutlaqo xolisona ish olib borib, millati, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy yoki siyosiy e‘tiqodi jihatidan hech qanday ayirmachilik qilmagan holda odamlar chekadigan azob-uqubatlarning oldini olish va ularni yengillashtirishdir.

Ushbu vazifani bajarish uchun milliy jamiyatlar quyidagilarni bajarishlari lozim:

1) Jeneva konvensiyalarida ko‘zda tutilgan barcha sohalarda ham tinch aholi, ham harbiy xizmatchilar orasidan bo‘lgan urush qurbonlarining manfaatlarini ko‘zlab, bunday faoliyatga tinchlik davrida tayyorlanish;

2) milliy va mahalliy ehtiyojlarni e‘tiborga olgan holda ta‘lim dasturlari va jamiyatga foydali faoliyatni amalga oshirish yo‘li bilan odamlarning sog‘lig‘ini yaxshilashga, kasalliklarning oldini olishga va odamlar chekadigan azob-uqubatlarni yengillashtirishga qaratilgan ishlarda ishtirok etish;

3) amaldagi milliy reja doirasida har qanday turdagi falokatlarda jabr ko‘rganlarga shoshilinch yordam ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar tashkil etish;

4) o‘z oldida turgan vazifalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan xodimlarni topish, o‘qitish va ishga jo‘natish;

5) jamiyatning faoliyatida bolalar va yoshlarni ishtirok etishga rag‘batlantirish;

6) harakat va xalqaro insonparvarlik huquqining asosiy tamoyillarini aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlar o‘rtasida, ularga barcha insonlar va xalqlar o‘rtasidagi tinchlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlikning yuksak timsollarini singdirish maqsadida targ‘ib qilish.

Tinchlik davrida ularning faoliyati aholi sog‘lig‘ini saqlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan bo‘ladi. Ular kasalxonalar qurilishida, tez yordam xizmatlarini tashkil etishda, ijtimoiy tibbiyot sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashda, keksa yoshdagi va nogiron kishilarga yordam ko‘rsatishda, yalpi emlash ishlarida, qon yig‘ish dasturlarini amalga oshirishda, aholini chaqaloqlarga qarash va ijtimoiy gigiyena sohalarida o‘qitishda, favqulodda vaziyatlar paytida qutqaruv tadbirlarida ishtirok etadilar.

Qurolli to'qnashuv sharoitida milliy jamiyatlar qurolli kuchlarning tibbiy xizmatlariga ko'maklashadi, yaradorlarga, bemorlarga, tinch aholiga yordam ko'rsatadi.

Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatlari Xalqaro Federatsiyasi milliy jamiyatlarni har tomonlama, shu jumladan, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va ijtimoiy jihatdan eng kam ta'minlangan aholi tabaqalarining ahvolini yaxshilashga qaratilgan barcha turdagi faoliyatlarini amalga oshirishlarida ularga ko'maklashadi. Federatsiya milliy jamiyatlar o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishiga yordam beradi va yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar sharoitiga tayyorlanish, shuningdek, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam ko'rsatish sohalarida ularning imkoniyatlarini mustahkamlashga ko'maklashadi. Sanitariya-epidemiologiya holatining keskinlashuvi natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda, harakatning faoliyatiga rahbarlik qiladi, tabiiy ofat qurbonlariga xalqaro yordam ko'rsatish borasida harakatni muvofiqlashtiradi.

Federatsiyaning umumiy maqsadi — muttasil ravishda milliy jamiyatlarning barcha turdagi insonparvarlik faoliyatlarini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va yengillashtirish hamda ularga odamlar chekadigan azob-uqubatlarning oldini olishda va yengillashtirishda har tomonlama yordam ko'rsatish, shu yo'l bilan jahonda tinchlikni asrash va mustahkamlash ishiga hissa qo'shish.

Bu maqsadga erishish uchun Federatsiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Milliy jamiyatlar uchun doimiy aloqa, muvofiqlashtirish va ta'lim organi sifatida ishlaydi va ular so'ragan zarur yordamni beradi.

- Har bir mamlakatda mustaqil va tegishli tarzda tan olingan Milliy jamiyat tuzishga va rivojlantirishga yordam beradi.

- Ofat va halokatlardan jabr ko'rgan barcha shaxslarga bor imkoniyatlar bilan yordam beradi.

- Milliy jamiyatlarga bo'lishi ehtimol tutilgan ofatlarda yordam ko'rsatish uchun tayyorlanishda, yordam ko'rsatish bo'yicha ularning faoliyatini tashkil etishda va bevosita yordam ko'rsatish tadbirlari o'tkazishda ko'mak beradi.

- Qizil Xoch va Qizil Yarim oy tomonidan tabiiy ofatlar va falokatlar vaqtida yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlar o'tkazish

tamoyillari va qoidalariga muvofiq ravishda, xalqaro yordam tadbirlarini tashkil qiladi, muvofiqlashtiradi va boshqaradi.

- Milliy jamiyatlar tegishli milliy hokimiyat idoralari bilan hamkorlikda aholining sog'lig'ini saqlash va ijtimoiy ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan faoliyatda qatnashishlarini rag'batlantiradi va muvofiqlashtiradi.

- Bolalar va o'smirlarni insoniylik ruhida tarbiyalash hamda hamma mamlakatlar yoshlari o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish masalalari bo'yicha milliy jamiyatlar orasidagi fikr almashuvni rag'batlantiradi va muvofiqlashtiradi.

- Milliy jamiyatlarga o'z saflariga yangi a'zolari jalb etish va ularga harakat tamoyil va ideallarini singdirishda yordam beradi.

- XQXQ bilan tuzilgan bitimlarga muvofiq ravishda, qurolli mojarolardan jabr ko'rgan shaxslarga yordam ko'rsatadi.

- Xalqaro insonparvarlik huquqini rivojlantirish va mustahkamlash ishida XQXQga yordam beradi hamda milliy jamiyatlar orasida ushbu huquq va asosiy tamoyillar to'g'risidagi bilimlarni tarqatishda u bilan hamkorlik qiladi.

Bugun harakatning o'n millionlab a'zolari bor. Harakatning faoliyati, asosan, amaliy ish bo'lib, uni olib borishda tez-tez tayyorgarliksiz ish tutishga to'g'ri keladi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qarashlarni muvofiqlashtirish hamda muttasil va samarali faoliyat olib borish uchun harakat umumiy mo'ljallarga ega bo'lishi, asosiy ish yo'nalishlarini ishlab chiqishi va g'oyaviy birlikka erishishi lozim. Boshqacha aytganda, harakatga Asosiy tamoyillar zarur.

XQXQ tomonidan asrab-avaylanadigan bu tamoyillar Qizil Xochning 1965-yilda Venada bo'lib o'tgan XX Xalqaro anjumanida e'lon qilindi:

Insonparvarlik. Jang maydonida barcha yaradorlarga birdek, hech qanday istisnosiz va hech birini afzal ko'rishsiz yordam berishga intilish natijasi o'laroq vujudga kelgan Qizil Xoch va Qizil Yarim oy xalqaro harakati qanday vaziyatda bo'lmasin, ham xalqaro, ham milliy darajada inson azob-uqubatlarining oldini olishga yoki uni yengillashtirishga harakat qiladi. Harakatning maqsadi kishilar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish hamda insonga hurmatni ta'minlashdir. U xalqlar o'rtasida hamjihatlik, do'stlik, hamkorlik va mustahkam tinchlik o'rnatilishiga ko'maklashadi.

Beg‘arazlik. Harakat milliy, irqiy, diniy, sinfiy yoki siyosiy e‘tiqod alomatlari bo‘yicha kamsitish yo‘lini tutmaydi. U faqatgina odamlarning, birinchi navbatda, bunga eng muhtoj bo‘lganlarning azob-uqubatlari yengillashtirishga intiladi.

Betaraflik. Ommaning ishonchini saqlab qolish uchun harakat qurolli mojarolarda biron-bir tomonda bo‘lishi va siyosiy, irqiy, diniy yoki g‘oyaviy xususiyatga ega bahslarga aralashishi mumkin emas.

Mustaqillik. Harakat mustaqildir. Milliy jamiyatlar o‘z hukumatlariga ularning insonparvarlik faoliyatida yordam beradi va o‘z mamlakatlari qonunlariga bo‘ysunadi. Shunday bo‘lsa-da, ular Qizil Xoch tamoyillariga muvofiq ish olib borish uchun o‘z mustaqilliklarini hamisha saqlab qolishi lozim.

Ko‘ngillilik. Harakat o‘zining ko‘ngilli yordam ko‘rsatish faoliyatida foyda olishga aslo intilmaydi.

Birlik. Mamlakatda faqat bitta Qizil Xoch yoki Qizil Yarim oy milliy jamiyati bo‘lishi mumkin. U hamma uchun ochiq bo‘lishi va o‘z insonparvarlik faoliyatini mamlakatning butun hududida amalga oshirishi lozim.

Universallik. Harakat umumjahon miqyosiga ega. Hamma milliy jamiyatlar teng huquqqa ega va bir-biriga yordam ko‘rsatishga majbur.

Insonparvarlik tamoyili harakatning asl mohiyatini ifodalaydi. J. Moreyonning so‘ziga ko‘ra, uni harakatlantiruvchi kuchga, ya’ni avtomobilning motoriga o‘xshatish mumkin: «Motorsiz mashina joyidan qimirlamaydi... Ammo motordan tashqari, ko‘zlangan manzilga yetish uchun rul ham kerak. Rul — bu hech qanday nobop farqlashlarsiz va qurbonlarning ehtiyojiga mutanosib ravishda faol yordam ko‘rsatish va himoya etishni e‘lon qiluvchi beg‘arazlik tamoyili. Yechintirilgan va operatsiyaga tayyor ikki yarador askarni jarroh oldiga olib kelishganda, jarroh ulardan qaysi biri o‘ziniki, qaysi biri dushman ekanligini ajrata olmaydi. U o‘ziniki yoki begona bo‘lishidan qat’i nazar, beg‘arazlik bilan, eng avvalo, jarohati og‘irroq va uning yordamiga ko‘proq muhtoj bo‘lgan askarga qaraydi. Aynan mana shu beg‘arazlik tamoyili yordamimizga muhtojlar tomon bizga yo‘l ko‘rsatadi. Bu bizning rulimizdir.

Undan so‘ng *betaraflik* tamoyili keladi... u o‘ziga muayyan majburiyatlarni olishga yo‘l qo‘ymaydi. Biz Qizil Xochga qiyoslayotgan avtomobil uchun nafaqat motor va rul chambaragi, balki

tormoz ham kerak. Bo'lmasa u bironta ham qayrilishdan o'ta olmaydi. Motor — bu insonparvarlik, rul — beg'arazlik, tormoz esa betaraflik bo'lib, sof insonparvarlik vazifalaridan chetga chiqishga yo'l bermaydi. Qonunga rioya qilinishini ta'minlash qiyin bo'lgan alg'ov-dalg'ovlar paytida aynan shu tamoyillar bizning yo'ldan adashishimizga qo'ymaydi».



NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro gumanitar huquq va qurolli to'qnashuvlar huquqi orasida qanday farq bor?
2. Qurolli to'qnashuvlar huquqining asosiy tamoyillarini bayon eting.
3. XIH yoki QTHning mohiyati nimada?
4. Qurolli to'qnashuvlar qurbonlariga taalluqli bo'lgan protokollarni izohlang.
5. «Solferino jangi to'g'risida xotiralar» kitobining muallifi kim va u qanday g'oyalarni ilgari surgan?
6. 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularga I Qo'shimcha Protokolga muvofiq nimalar taqiqlanadi?
7. Jeneva konvensiyasi Protokollarida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
8. Tarixiy yodgorlik, san'at asarlarini himoya ostiga olishda nimalar qilish kerakligi ko'rsatilgan?
9. Yollanma askarlar deb kimlarga aytiladi?
10. Kombatantlar deb kimlar aytiladi?
11. Kombatant bo'lmaganlar kimlar?
12. Jangda xulq-atvor qoidalarini bayon eting.
13. Hujum vaqtida ehtiyot choralarini izohlang.
14. Yuridik maslahatchilar deb kimlarga aytiladi?
15. Faktlarni aniqlash bo'yicha xalqaro komissiyaning faoliyati qanday?
16. Farqlovchi emblemalar va belgilarni ta'riflab bering.

2-bob. HARBIY XIZMATNING HUQUQIY ASOSLARI

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish Respublika Qurolli Kuchlarida ham muhim o'zgarishlar qilishga sabab bo'ldi. Chunonchi, 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunni ko'rish mumkin. Unga binoan, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo'ladi hamda O'zbekiston Res-

publikasi Qurolli Kuchlari safini to'ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi.

Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi tajovuz bo'lgan taqdirda, aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

«Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari, xususan:

- harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar — *chaqiriluvchilar*;
- haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar — *harbiy xizmatchilar*;
- Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar — *harbiy xizmatga majburlar*;
- turli sabablarga ko'ra, harbiy ro'yxatga olinmagan yoki harbiy ro'yxatdan chiqarilgan, shu jumladan, iste'fodagi shaxslar — *harbiy xizmatga majbur bo'lmagan shaxslar*, deb ataladi.

Umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi. Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo'yicha) kirgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi xalqi va Prezidentiga sodiqlik to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qiladilar.

Muqaddam harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majburlar yig'inlarga jalb etilganlarida yoki safarbarlik bo'yicha chaqirilganlarida, harbiy qasamyod qabul qiladilar. Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunga binoan, harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etilgan:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

— O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra, Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi. Muddatli harbiy xizmatda chaqirilishi yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muqaddam harbiy xizmatni o‘tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatdir.

Muddatli harbiy xizmat muddatlari kalendar hisobida:

- muddatli harbiy xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o‘tayotgan harbiy xizmatchilar uchun — *o‘n ikki oy* (oliy ma’lumotli shaxslar uchun — *to‘qqiz oy*);
- muddatli harbiy xizmatni chaqiruv bo‘yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida o‘tayotgan ofitserlar uchun to‘qqiz oy qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002-yil 12-dekabrda yangi qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunga asosan, fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, yiliga ikki marta: aprel-may va oktabr-noyabr oylarida o‘tkazilib kelingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 20-noyabrdagi «Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini yanada takomillashtirish maqsadida yiliga bir marta — fevral-mart oylarida chaqirilish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori chaqiruv boshlanishiga kamida bir oy qolganida, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinadi. Prezidentning qarori e‘lon qilingandan keyin chaqiriluvchilar, jumladan, vaqtincha ro‘yxatda turgan chaqiriluvchilar chaqiruv qog‘ozida ko‘rsatilgan muddatda chaqiruv punktida hozir bo‘lishi shart. Muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tamagan va harbiy ro‘yxatda turmagan chaqirilish yoshidagi fuqarolar, shuningdek, doimiy turar joyidan vaqtinchalik boshqa joyga jo‘nab ketgan va

o'sha yerda harbiy ro'yxatda turmagan chaqiriluvchilar mudofaa ishlari organlarida hozir bo'lishi shart.

O'n sakkiz yoshga to'lgan va yoshi o'n sakkizdan oshgan chaqiriluvchilarning harbiy ro'yxatdan turish joyini o'zgartirishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi chaqiruv to'g'risidagi qarori e'lon qilingunga qadar yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e'lon qilingandan keyin chaqiriluvchilar harbiy ro'yxatda turish joyini, faqat quyidagi hollarda o'zgartirishi mumkin:

- boshqa ishga o'tkaziladigan bo'lsa;
- yangi turar joyiga ko'chib o'tgan bo'lsa;
- ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan va ta'lim olishni davom ettirish uchun ketayotgan bo'lsa.

Ushbu ko'rsatilgan asoslarning mavjudligi mudofaa ishlari organiga taqdim etiladigan hujjatlarda tasdiqlanishi lozim.

Fuqarolar mudofaa ishlari organlari tomonidan belgilangan muddatlarda chaqiruv uchastkalarida hozir bo'lmaganda, quyidagilar uzrli sabab hisoblanadi:

- fuqaroning chaqiruv uchastkasiga kelishiga imkon bermagan kasalligi;
- yaqin qarindoshining (otasi, onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, xotini, bolasi) vafot etganligi yoki og'ir kasalligi;
- fuqaroga bog'liq bo'lmagan holda uning chaqiruv uchastkasiga kelishiga imkon bermagan tabiiy ofat yoki boshqa holatlar.

Hozir bo'lmaganlik sabablari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Tinchlik davrida quyidagi fuqarolar muddatli harbiy xizmatga chaqirilmaydi:

1) chaqiriluvchining ota-onasi mehnatga qobiliyatsiz bo'lib, ularni boqish shart bo'lgan mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o'g'li bo'lmasa;

2) chaqiriluvchining mehnatga qobiliyatli yolg'iz onasi yoki otasi bo'lib, ularning qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq farzandi bo'lgani holda mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o'g'li bo'lmasa;

3) chaqiruv kunida chaqiriluvchining tug'ishgan aka-ukalaridan biri muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lsa;

4) chaqiriluvchining onasiz tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan bir farzandi bo'lsa;

5) chaqiriluvchining birinchi yoki ikkinchi guruh nogiron xotini va voyaga yetmagan ikki va undan ortiq farzandi bo'lsa;

6) ishi yuzasidan surishtiruv yoki dastlabki tergov olib borilayotgan yoki jinoyat ishi sudda ko'rilayotgan shaxslar.

Chaqiriluvchini uning ota-onasi vafot etganligi, ular uzoq muddat betobligi munosabati bilan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, kamida besh yildan buyon o'z qaramog'ida saqlayotgan shaxslar uning ota-onasiga tenglashtiriladi.

Umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi o'qishda tahsil olayotgan talabalar o'qishni davom ettirishlari uchun ularning chaqirilish muddati o'qishni tamomlagunlariga qadar kechiktiriladi. Ta'lim muassasalaridan o'qishdan chiqarilgan shaxslar chaqirilish muddatini kechiktirish huquqidan mahrum bo'ladilar.

Chaqirilish muddatini kechiktirish asoslarini yo'qotgan chaqiriluvchilar, shuningdek, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga yoxud chaqirilishdan ozod etish uchun asoslarga ega bo'lmagan va turli sabablarga ko'ra, muddatli harbiy xizmatga yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chiqarilmagan shaxslar chaqirilish kuni yigirma yetti yoshga to'lgunga qadar, Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi chaqiruv paytida chaqiriladilar.

Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishdan quyidagilar ozod etiladi:

1) salomatligiga ko'ra, harbiy xizmatga yaroqsiz deb, topilgan chaqiriluvchilar;

2) yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o'tash vaqtida halok bo'lgan yoki vafot etgan chaqiriluvchilar;

3) ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlardan birida rutba egasi bo'lgan chaqiriluvchilar.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslar o'z roziliklari bilan harbiy xizmatga chaqirilishlari mumkin. Jinoiy javobgarlikka tortilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar harbiy xizmatga chaqirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat talablariga javob beruvchi quyidagi fuqarolar ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo'yicha):

- o'ttiz yoshgacha bo'lgan, harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha tegishli kasbiy tayyorgarlik ko'rmagan harbiy xizmatga majburlar va ayollar—oddiy askarlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;
- muqaddam kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan oddiy askarlar va serjantlar tarkibidagi qirq yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan va harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar — oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;
- o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majbur ayollar — oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;
- o'n yetti yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan fuqarolar, shu jumladan, o'qishga qabul qilingan yili o'n yetti yoshga to'ladigan fuqarolar, shuningdek, harbiy ta'lim muassasalarida o'qish istagini bildirgan, ofitserlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo'lmagan, o'n sakkiz yoshdan yigirma besh yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar — harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari tariqasida harbiy xizmatga;
- qirq yoshgacha bo'lgan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar — ofitserlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga kiradilar.

Fuqarolar harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik, Davlat qo'mitasi va idora bilan harbiy xizmatni o'tash to'g'risida kontrakt tuzadilar.

HARBIY XIZMATNI O'TASH

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun bilan, harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi:

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askarlar (matroslar), serjantlar (starshinalar) uchun — qirq besh yosh;

- kichik ofitserlar — qirq uch yosh;
- katta ofitserlar uchun — qirq besh yosh, polkovniklar (birinchi darajadagi kapitanlar) uchun — ellik yosh;
- general-mayor, general-leytenant harbiy unvonidagi ofitserlar uchun — ellik besh yosh; general-polkovnik harbiy unvonidagi ofitserlar uchun — oltmish yosh etib belgilanadi.
- ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, shuningdek, yuksak kasbiy tayyorgarligi, egallab turgan lavozimida katta amaliy ish tajribasi bo'lgan, salomatligiga ko'ra, harbiy xizmatni o'tashga yaroqli harbiy xizmatchilarning xizmat muddati harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralar rahbarlari tomonidan harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasidan besh yilgacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Harbiy xizmatda bo'lishning boshlanishi deb:

- harbiy xizmatga chaqirilgan chaqiriluvchilar hamda zaxiradagi ofitserlar uchun—harbiy qismga jo'nash maqsadida mudofaa ishlari organida hozir bo'lgan kun;

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirganlar uchun harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi kontrakt kuchga kirgan kun;

- harbiy-ta'lim muassasalariga, shuningdek, vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralarning o'qish harbiy xizmatga tenglashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan chaqiriluvchilar, harbiy xizmatga majburlar uchun — tegishli ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan kun hisoblanadi.

Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilishi yoki iste'foga chiqarilishi munosabati bilan harbiy qism tarkib ro'yxatidan chiqarilgan kun harbiy xizmatchi uchun harbiy xizmatda bo'lishining tugashi hisoblanadi.

Quyidagi hollar bundan mustasno, agar harbiy xizmatchi:

- statsionar davolanishda bo'lsa;
- homiladorlik va tug'ish ta'tilida (harbiy xizmatchi ayollar) yoki bolani parvarishlash ta'tilida bo'lsa;
- asirda bo'lsa, garovda ushlab turilgan bo'lsa;
- bedarak yo'qolgan bo'lsa, qonunda belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan, deb topilguniga yoki vafot etgan, deb e'lon qilinguniga qadar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaro-

larining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizomda belgilangan boshqa hollarda.

Harbiy xizmatchini haqiqiy harbiy xizmatdan bo'shatish quyidagi asoslarga ko'ra, amalga oshiriladi:

1) harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatda bo'lishi belgilangan yosh chegarasiga yetganida;

2) muddatli harbiy xizmat muddati tugaganda;

3) kontrakt muddati tugaganda;

4) shtatlar qisqarganda yoki boshqa tashkiliy-shtat tadbir-choralari munosabati bilan harbiy xizmatchidan xizmatda foydalanish imkoniyati bo'lmay qolganda;

5) salomatligiga ko'ra, uni harbiy-tibbiy komissiya harbiy xizmatga yaroqsiz, deb topganligi munosabati bilan;

6) qonun hujjatlariga muvofiq, taraflardan birining tashabbusiga ko'ra, kontrakt muddatidan oldin bekor qilinganligi munosabati bilan;

7) harbiy ta'lim muassasasidan o'qishdan chiqarilganligi munosabati bilan;

8) xizmat vazifasiga noloyiq bo'lib qolganda;

9) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum bo'lishi munosabati bilan;

10) harbiy xizmatchi harbiy unvonidan mahrum etilishi munosabati bilan;

11) sud hukmi qonuniy kuchga kirganda.

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmatdan rezervga bo'shatiladi, harbiy xizmatdan bo'shatilishi paytida rezervda bo'lish yoshining chegarasiga yetgan yoki harbiy xizmatga yaroqsiz, deb topilgan harbiy xizmatchilar esa, iste'foga chiqarilib, harbiy ro'yxatdan chiqariladi.

REZERVDAGI XIZMAT

2003-yilning aprelida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi-ning «Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida»gi Qonuni 3-moddasida rezervdagi xizmat to'g'risida quyidagicha tushuncha berib o'tiladi: «Haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo'lgan harbiy xizmatga majburlar uchun

Qurolli Kuchlarning qo‘shilmalari, qismlari va bo‘linmalari safini urush davrida, taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek, urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek, urush davrida taqozo etiladigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan fuqarolarning harbiy xizmati».

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlar yoshiga qarab, ikki darajaga bo‘linadi:

Harbiy xizmatchilar	1-daraja	2-daraja
Oddiy askarlar va serjantlar	35 yoshgacha	45 yoshgacha
Kichik ofitserlar	35 yoshgacha	45 yoshgacha
Katta ofitserlar	45 yoshgacha	55 yoshgacha
Generallar	50 yoshgacha	60 yoshgacha

Ikkinchi daraja rezervida bo‘lish yoshning chegarasi rezervdagi harbiy xizmatda bo‘lish yoshining chegarasi hisoblanadi. Rezervda bo‘lish yoshining chegarasiga yetganda yoki salomatligiga ko‘ra, belgilangan tartibda urush davridagi harbiy xizmatga yaroqsiz, deb topilgan harbiy xizmatga majburlar mudofaa ishlari organlari tomonidan iste’foga chiqarilib, harbiy ro‘yxatdan chiqariladi.

Qurolli Kuchlar rezervidagi harbiy xizmatga majburlar birinchi va ikkinchi toifaga bo‘linadi. Birinchi toifali rezerv Qurolli Kuchlarning jangovar qo‘shilmalari va qismlari, jangovar ta’minot bo‘linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish uchun mo‘ljallangan.

Birinchi toifali rezerv xizmatining o‘zi ham birinchi va ikkinchi navbatga bo‘linadi. Birinchi navbatdagi rezerv safi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tegishli qismlari, qo‘shilma va bo‘linmalariga biriktirib qo‘yiladigan, eng yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan rezervchilar orasidan «Qurolli Kuchlar safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasigacha to‘ldirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, jangovar maqsadlarda qo‘llanishi rejalashtiriladi. Ikkinchi navbatdagi rezerv safi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidagi qismlar, qo‘shinlar va h.k.lar-ni jangovar ta’minot bo‘linmalariga biriktirib qo‘yilmagan rezervchilar orasidan to‘ldiriladi, zarurat paydo bo‘lganda, birinchi navbatdagi rezervchilar orasidan to‘ldiriladi, zarurat paydo

bo'lganda birinchi navbatdagi rezervchilar safini to'ldirib turish uchun rejalashtirilgan bo'ladi. Ya'ni, lozim topilganda bu ikkinchi navbatdagi rezerv safidan birinchi navbatdagi rezerv xizmati safiga o'tkaziladi.

Ikkinchi toifa rezerv Qurolli Kuchlarning qismlari hamda ichki va texnik ta'minot bo'linmalarining urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to'ldirish uchun, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz yuzaga kelgan taqdirda, urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish uchun mo'ljallangan.

Harbiy xizmatni o'tagan va rezervda turgan harbiy xizmatga majburlar — *rezervchilar*, deb ataladi. Rezervchilar mudofaa ishlari organlari tomonidan harbiy ro'yxatga olinadi. Shu bilan birga, rezervchilar va ularning toifalarga mansubligi mudofaa ishlari organlari tomonidan tanlanadi. Rezervchilarni tanlashda va hisobga olishda ularning ixtisosligi, oilaviy sharoiti, harbiy tayyorgarlik darajasi, intellektual salohiyati hamda jismoniy ko'rsatkichlari inobatga olingan holda hududiy prinsip asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini urush davrida taqozo etiladigan darajada to'ldirish va kuchaytirish uchun zarur bo'ladigan rezervdagi ofitserlar yetishmay qolsa, ular oliy ta'lim muassasalarining harbiy kafedralari va fakultetlarini tugatgan, ofitserlar tayyorlash dasturini to'la o'tgan, zaxiradagi ofitserlar orasidan tanlab olinadi.

Rezerv xizmatiga tanlab olingan rezervchilarni tayyorlash jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Birlashgan shtabi umumiy rahbarlik qiladi. Rezervchilarni tayyorlash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- rezervchilarni safarbarlik davrida belgilab qo'yilgan shtat lavozimlariga tayyorlash;

- safarbarlik rejasiga ko'ra, zarur ixtisosliklar bo'yicha qayta tayyorlash;

- urush davrida shtatlar darajasida jangovar tartibga solish;

- belgilangan ayrim chora-tadbirlarni bajarishi muqarrarligini tekshirish uchun;

- qurol-yarog'larni o'rganish, undan foydalana olish, saqlash, qurol-yarog'larning yangi turlarini o'zlashtirish.

Rezervchilar harbiy yig'inlarga jalb etilgan paytda, O'zbekiston Respublikasi amaldagi Qonunlariga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilangan miqdorda pul va boshqa turdagi ta'minot oladi, harbiy yig'in davrida ularning ish joyi, lavozimi, o'rtacha ish haqi saqlanadi;

— ish beruvchi harbiy yig'inga chaqirilgan rezervchini yig'in davrida bo'shatishi, mehnat shartnomasini bekor qilishi mumkin emas. Korxona yoki muassasaning tugatilish hollari bundan mustasno.

Harbiy yig'in davrida rezervchi kasal bo'lib qolsa va kasallik yig'in tugagandan keyin ham davom etsa, ish joyi saqlanib qoladi, yig'in tugagan kundan boshlab unga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lanadi.

Rezervchilar yig'in joyiga avtomobil (taksidan tashqari), temir yo'l transportlari orqali tekin yurishlari;

— xatlarni bepul yuborishlari;

— harbiy tibbiy muassasalarida bepul muolaja olishlari mumkin.

Ularning hayotlari harbiy yig'inlar davrida davlat tomonidan majburiy sug'urta qilinadi. Harbiy yig'inlarda qatnashish davrida rezervchilar muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun belgilangan boshqa huquq va imtiyozlardan ham foydalanadilar.

Harbiy xizmatga majbur rezervda bo'lish vaqtida safarbarlik tadbir-choralari bo'yicha harbiy yig'inlarga jalb etiladi. Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarga mo'ljallangan harbiy yig'inlarning muddati har yili birinchi toifali rezervdagilar uchun o'ttiz kunga qadar, ikkinchi toifali rezervdagilar uchun o'n besh kunga qadar bo'lishi mumkin.

Rezervdagi va zaxiradagi harbiy xizmatga majburlar O'zbekiston Respublikasining normal hayotiy faoliyatiga tahdid solayotgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun Vazirlar Mahkamasining qarori asosida ikki oyga qadar muddatga harbiy yig'inlarga jalb etilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning qurol saqlashi, taqib yurishi va uni qo'llashi

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etish chog'ida, zarur bo'lgan hollarda esa, xizmatdan tashqari vaqtda ham qurol saqlash, taqib yurish, qo'llash va foydalanish huquqiga egadirlar. Harbiy xizmatchilarning qurol saqlash qoidalari va

qo'llash tartibi Qurolli Kuchlar umumiy harbiy Nizomi bilan belgilanadi. Unga ko'ra, harbiy xizmatchilar:

— agar boshqa yo'llar va vosita bilan muhofaza qilish mumkin bo'lmasa, qo'riqlanadigan harbiy va davlat inshootlariga, shuningdek, harbiy qism imoratlariga va inshootlariga, harbiy eshelonga, mashinalar kolonnalariga, yakka transport vositalariga va qorovulga to'da bo'lib yoxud qurolli hujumni qaytarish uchun;

— agar boshqacha yo'llar va vositalar bilan muhofaza qilish mumkin bo'lmasa, qurol va harbiy texnikani zo'ravonlik bilan egallab olishga urinishlarning oldini olish uchun;

— agar boshqacha yo'llar va vositalar bilan muhofaza qilishning iloji bo'lmasa, harbiy xizmatchilar, fuqarolarning hayotiga va sog'lig'iga tajovuz qiladigan hujumlardan muhofaza qilish uchun;

— agar boshqacha yo'llar va vositalar bilan qarshilikni bostirish, jinoyatchilarni ushlash yoxud qurolni tortib olishning iloji bo'lmasa, jinoyat sodir qilgan yoxud og'ir va xavfli jinoyat qilish ustida qo'lga tushganda, qurolli qarshilik ko'rsatgan shaxsni, shuningdek, qurolni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishdan bo'yin tovlagan qurollangan shaxsni ushlash uchun, eng so'nggi chora sifatida qurolni shaxsan yoxud bo'linma tarkibida qo'llash huquqiga egadir.

Qorovul tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi qurolni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilangan hollarda va tartibda qo'llash huquqiga egadir. Komandir (boshliq), bundan tashqari, bo'ysunuvchilarning bo'yin tovlash, Vatanga xiyonat qilishga yoxud jangovar sharoitlarda jangovar topshiriqlar bajarilishini barbod etishga qaratilgan ochiq-oydin xatti-harakatlari namoyon bo'lganda intizom va tartibni tiklash uchun qurol ishlatish yoxud qurol ishlatishga buyruq berish huquqiga egadir.

Qurol ishlatishdan oldin uni ishlatish to'g'risida ogohlantirish lozim. Qurol to'satdan qurolli hujum chog'ida, jangovar texnika, transport vositalari, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalanilganda hujum chog'ida, qamoqdan qurol bilan yoxud transport vositalaridan foydalanib qochish paytida, shuningdek, transport vositalaridan ularning harakatlanishi chog'ida, tunda yoxud ko'rinish cheklangan boshqa sharoitlarda

tashlab qochish paytida ogohlantirishsiz ishlatilishi mumkin. Harbiy xizmatchilar trevoga yoxud yordam chaqirig'i signali berish, shuningdek, odamlar hayotiga yoxud sog'lig'iga tajovuz qiluvchi hayvonlarga qarshi qurol ishlatish huquqiga ega. Qurol ishlatish va foydalanish chog'ida harbiy xizmatchi atrofdagi fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash uchun iloji bo'lgan barcha choralarni ko'rishga, zarur hollarda esa, jabrlanuvchilarga tez tibbiy yordam ko'rsatishga majburdir.

Ayollar va balog'at yoshiga yetmaganlarga nisbatan, agar boshqa yo'llar va vositalar bilan bunday hujum yoxud qarshilikni qaytarishning iloji bo'lmasa, ularni harbiy xizmatchi va boshqa fuqarolarning hayotiga xavf soluvchi qurolli hujumlar, qurolli qarshilikni ko'rsatishi yoxud to'da bo'lib hujum qilish hollari bundan istisno, ya'ni qurol ishlatishi mumkin emas.

Harbiy xizmatchilar har bir qurol ishlatilishi yoxud foydalanishi to'g'risida komandirga (boshliqqa) bildirish beradi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilar, xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladilar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalarining faoliyati bilan aloqador bo'lmasliklari lozim.

Harbiy xizmatchi quyidagilarga so'zsiz itoat etishi, ya'ni u:

- Harbiy qasamyodga sodiq qolishga, o'z xalqiga fidoyilarcha xizmat qilishga, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va hududiy butunligini matonat, mahorat bilan, so'nggi tomchi qoni qolguncha va hatto hayotini ayamasdan himoya qilishga, harbiy burchni bajarishga;

- Davlat Konstitutsiyasiga va qonunlariga qat'iy rioya qilishga, harbiy nizomlarning talablarini bajarishga;

- O'zbekiston Respublikasini himoya qilish bo'yicha vazifalarni bajarish bilan bog'liq, harbiy xizmat mashaqqatlariga sabot bilan chidashga;

- harbiy kasb bilimlarini muntazam egallash, o'z o'quv va askariy mahoratini takomillashtirishga;

- o'ziga ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikani bilishi va ishlatishga, doimiy shaylikda saqlashga, harbiy mulkni asrashga;

- halol, intizomli, jasur bo'lishga, harbiy burchni ijro etish chog'ida oqilona tashabbuslar ko'rsatishga;

— komandirlarga (boshliqlarga) soʻzsiz boʻysunish va ularni jangda himoya qilishga, harbiy qism Jangovar Bayrogʻini qoʻriqlashga;

— askariy birodarlikni eʼzozlashga, oʻz hayotini ayamadan oʻrtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, ularga soʻz va ish bilan yordam berishga, har birining or-nomusi va qadr-qimmatini hurmat qilishga, oʻziga va boshqa xizmatchilarga nisbatan qoʻpollik va tahqirlashlarga yoʻl qoʻymaslikka, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolishga;

— harbiy xizmatchi Oʻzbekiston Respublikasi himoyachisi, degan oliy unvonini sharaf bilan oqlashga, Qurolli Kuchlarning, oʻz harbiy qismini or-nomusi va jangovar shon-shuhratini va oʻz harbiy unvonining obroʻsini eʼzozlashga majburdir.

Harbiy xizmatchi majburiyatlarini ijro etishga taʼsir koʻrsatgan barcha sodir boʻlgan voqealar toʻgʻrisida va unga berilgan tanbehlar haqida oʻzining boshligʻiga bildiruv berishga majburdir. Harbiy xizmatchilar oʻrtasida oʻzaro munosabatlarning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalari buzilganda, oʻzining bevosita boshligʻiga bildiruv berishga majburdir.

Harbiy xizmatchi harbiy xizmat xavfsizligi talablariga, kasallanish, jarohat orttirish va kuyishdan ogohlantirish tadbirlariga rioya qilishi, har kuni jismoniy chiniqishi, zararli odatlardan (chekish va ichkilik ichishdan) tiyilishi lozim. Xizmat masalalari yuzasidan harbiy xizmatchi oʻzining bevosita boshligʻiga va uning ijozati bilan maqomi boʻyicha navbatdagi boshliqqa murojaat qilishi lozim. Shaxsiy masalalar yuzasidan ham harbiy xizmatchi oʻzining bevosita boshligʻiga, oʻta zarur hollarda esa, katta boshliqqa murojaat qilishi kerak. Taklif, ariza kiritayotganda va shikoyat bera-yotganda harbiy xizmatchi Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi qoidalariga amal qiladi.

Harbiy xizmatchi harbiy harakatlar yuritishi, yaradorlar, bemorlar, kema halokatiga uchragan shaxslar va harakatlar mintaqasidagi aholi, shuningdek, harbiy asirlar bilan muomala qilishning xalqaro qoidalarini bilishga majburdir. Harbiy xizmatchi jangovar harakatlar paytida, hatto oʻz harbiy qismidan (boʻlinmasidan) yiroq va toʻla qurshovda qolgan boʻlsa ham asirga tushishdan qutulmoq uchun dushmanga ashaddiy qarshilik koʻrsatishga

majburdir. U jangda askarlik burchini oxirigacha bajarishga majburdir.

Agar harbiy xizmatchi, qarshilik ko'rsatishning barcha vositalari va yo'llarini batamom ishga solib yoxud qarshilik ko'rsatishga imkoniyat bo'lmay qolib asirga olingan bo'lsa, o'zini va o'z o'rtoqlarini asirdan ozod qilish va o'z qo'shin safiga qaytishning har qanday imkoniyatini izlashi va foydalanishi lozim. Dushman tomonidan asirga tushirilgan harbiy xizmatchi so'roq paytida faqat o'z familiyasi, ismi, otasining ismi, harbiy unvoni, tug'ilgan sanasi va shaxsiy raqaminigina bildirish huquqiga egadir. U jangda ornominusini saqlab qolishga, harbiy va davlat sirini muqaddas tutishga, sabr va matonat ko'rsatishga, asirlikka tushgan boshqa harbiy xizmatchilarga yordam berishga, ularni dushman bilan hamkorlik qilishdan to'xtatib qolishga, dushmanning harbiy xizmatchidan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga zarar yetkazishdan foydalanishga urinishlarini rad etishga majburdir.

Asir tushgan, shuningdek, uchinchi betaraf mamlakatda qurolsiz ushlab turilgan harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatchi maqomi saqlanadi. Harbiy qo'mondonlik va davlatning vakil qilingan boshqa organlari xalqaro huquqiy me'yorlarga muvofiq ravishda, zikr etib o'tilgan harbiy xizmatchilarning huquqlari muhofazasi va ularni Vatanga qaytarish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishga majburlarlar.

MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILARGA BERILADIGAN IMTIYOZLAR

Harbiy xizmatchining huquqlari va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi. Biron-bir kishi harbiy xizmatchining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan huquqlaridan cheklash huquqiga ega emas. Harbiy xizmatchilarning o'z huquqlaridan foydalanishi jamiyatning, davlatning huquqlariga va qonuniy manfaatlariga, harbiy xizmatga, boshqa harbiy xizmatchilar va turli fuqarolarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim.

Davlat harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va huquqiy muhofazasini kafolatlaydi, ularga yetarli va munosib turmush darajasini yaratish, xizmat va maishiy sharoitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Harbiy xizmatchilarning huquqlarini

ta'minlash va qo'riqlash davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarining, sudlarning, huquqni muhofaza qilish organlarining harbiy boshqaruv organlari va komandirlar (boshliqlar)ning zimmasiga yuklatiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tayotganlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonunlar, harbiy nizomlarda ko'rsatilgan imtiyozlardan to'liq foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatni o'tayotgan askar-matrosalar, serjant-starshinalar, ofitserlar o'tkaziladigan Oliy Majlisga, mahalliy saylovlar, referendumlarda ishtirok etish va boshqa huquqlardan foydalanadilar.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilar qo'shinlarga jo'natish va zaxiraga bo'shatilganda, doimiy yashash manzillariga borishda yo'l xarajatlari, kunlik oziq-ovqat bilan davlat tomonidan ta'minlanadi. Harbiy xizmatni o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yordagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish hamda oylik maoshlarini olish imtiyozidan foydalanadilar.

Harbiy xizmatchi, xizmatga chaqirilgunga qadar biron-bir tashkilotda ishlayotgan bo'lsa, o'sha ish joyidagi ish o'rni saqlanib, xizmat qilgan muddatlari umumiy uzluksiz ish staji hisobiga o'tadi. Muddatli harbiy xizmatga qadar yashash joyidagi egallagan uyi, xonadoni saqlanib turiladi. Chaqirilgunga qadar o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan harbiy xizmatchilar, zaxiraga bo'shatilganda o'sha o'quv yurtidagi kursi bo'yicha o'qishga tiklanish imtiyoziga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-oktabrdagi qarori bilan muddatli harbiy xizmatchilarning bir oylik harbiy xizmatlari ikki oylik mehnat stajiga tenglashtiriladi. Bu — muddatli harbiy xizmatdagi askar va serjantning bir yarim yillik harbiy xizmati uch yillik mehnat stajiga tenglashtiriladi deganidir. Mazkur qaror bo'yicha muddatli harbiy xizmatchining xizmat muddati tugagach, oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga harbiy qismdan tavsifnoma berilganda, kirish sinovlarida to'plagan umumiy test ballariga 10 % qo'shib berilishi ko'zda tutildi.

2003-yil 22-mayda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oddiy askarlari va serjantlari tarkibida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga qo‘shimcha imtiyozlar berish to‘g‘risida»gi qarori bilan bu imtiyoz 20 % ga ko‘tarildi. Harbiy qism qo‘mondonligi tomonidan beriladigan oliy o‘quv yurtiga yo‘llanmalar uch yil davomida o‘z kuchiga ega bo‘ladi. Bu, o‘z o‘rnida, harbiy xizmatni o‘tayotgan yigitlarga oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishdagi imkoniyatlarini yanada oshirdi.

Ushbu qaror asosida, muddatli harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari ikki baravar, harbiy xizmatdan bo‘shatilganda beriladigan pul miqdori — eng kam oylik ish haqining sakkiz baravarigacha yoki 20 baravarigacha oshirildi. Davlatimiz muddatli harbiy xizmatchilarning oila a‘zolariga ham imtiyozlar berdi. Farzandlarining muddatli harbiy xizmatlari davrida oila a‘zolari yer solig‘idan ozod etiladilar. Shuni alohida qayd etish lozimki, aholining 60 % dan ko‘prog‘i qishloq joylarda yashaydigan, dehqonchilikka asoslangan va shaxsiy tomorqa xo‘jaligiga ega bo‘lgan mamlakatimiz sharoitida bu harbiy xizmatchilar oilalari uchun sezilarli yengillik tug‘dirishi tabiiydir.

Barcha toifadagi harbiy xizmatchilar xizmatlari davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi 498-sonli qarori asosida, davlat tomonidan sug‘urta qilinadilar. Qarorga muvofiq, harbiy xizmatchiga xizmat bilan bog‘liq holda tan jarohati olib, 1-guruh nogironi bo‘lib qolgan taqdirda, respublikamizda o‘rnatilgan eng kam oylik ish haqining 7 yillik hisobi 75 %, 2-guruh nogironi bo‘lib qolgan taqdirda 50 %, 3-guruh nogironi bo‘lib qolgan taqdirda 30 %, og‘ir turdagi jarohati olganda 20 %, yengil jarohat olganda esa 10 % miqdorida tovon puli to‘lanadi. Xizmat vazifasini bajarayotganda halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a‘zolariga 7 yillik hisobida tovon puli to‘lanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari, muassasa, tashkilot va o‘quv yurtlari rahbarlari zaxiraga bo‘shatilganda, harbiy xizmatchilar ishga tushishlarini bildirib, murojaat etganlarida bir oylik muddatdan kechiktirmasdan ish o‘rinlari bilan ta‘minlanishlari lozim. Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlar, matroslar, serjantlar,

starshinalarga harbiy qismlardan xat yuborish, shuningdek, ular harbiy xizmatni o'tayotgan manzillarga xat bepul jo'natiladi. Bundan tashqari, harbiy xizmatni o'tash davrida ular tibbiyot muassasalari xizmatidan, dori-darmonlardan bepul foydalanish imtiyoziga ega bo'ladilar.

HARBIY NIZOMLAR TO'G'RISIDA TUSHUNCHA. HARBIY NIZOMLARNING ASOSIY QOIDALARI BILAN TANISHISH

Tarixdan ma'lumki, buyuk sarkardalar o'z qo'shinlarini idora etishda muayyan qonun-qoidalarni joriy etishgan. Bunga asos qilib, Amir Temurning tuzuklarini keltirishimiz mumkin. U o'z tuzuklarining ikkinchi qismida sipohiylarni ushlab turish, ularni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergan. Amir Temurning davlat va armiyani boshqarishdagi tajribalari dunyo mamlakatlarida keng miqyosda foydalanilgan. Tuzuklar 1628-yilda Hindistonda, 1783-yil Angliyada, 1868-yili Eronda, 1894-yili Rossiyada chop etilishi buning yorqin dalilidir. Shuningdek, ko'plab mamlakatlarning armiyalari Nizomlariga oz bo'lsa-da, asos solgan.

Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarning hayotini, kundalik turmush faoliyatini, shaxsiy shart-sharoitlarini tashkil etish, axloq normalari va harbiy intizomni mustahkamlash hamda harbiy xizmatni tashkil etish va o'tash yo'l-yo'riqlarini izga soluvchi, shuningdek, qism va bo'linmalar jangovar harakatlari asosini belgilab beruvchi rasmiy me'yoriy-huquqiy hujjat — bu harbiy Nizomlar.

Harbiy nizomlar jangovar Qurolli Kuchlar qism va bo'linmalari turlarining jangovar tayyorgarlik asoslari hamda jangovar harakatlarini olib borishini belgilab beradi. Umumharbiy nizomlar harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlari, ularning umumiy va lavozimiga oid majburiyatlari va huquqlari, ichki garnizon va qorovullik xizmatlarini o'tash tartiblari va boshqalarni belgilovchi Qurolli Kuchlarning hamma turlari uchun umumiy qoidalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni Farmoniga binoan, 1996-yil 9-oktabrda quyidagi asosiy umumiy harbiy Nizomlar tasdiqlandi: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi, O'zbe-

kiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmati Nizomi, 1996-yil 14-oktabrda esa, Mudofaa vazirining buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi amalga kiritildi.

Har bir nizom harbiy hayotning bir yo'nalishini tartibga solib turadi. Masalan, Ichki xizmat Nizomida harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari va ular orasidagi munosabatlar, ichki tartib qoidalari, mansabdor shaxslarning majburiyatlari, kundalik hayot va maishiy sharoitlar, harbiy xizmatchilarni joylashtirish, ular tomonidan ichki xizmatni olib borish masalalari aks ettirilgan.

Qurolli Kuchlarning Intizom Nizomi harbiy intizomning mohiyatini, harbiy xizmatchilarning unga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarini, rag'batlantirish va intizomiy ta'sirlarning ko'rinishlarini, komandirlar (boshliqlar)ning ularni qo'llash bo'yicha huquqlarini, shuningdek, taklif, ariza hamda shikoyatlar berish, ularni ko'rib chiqish tartiblarini aniqlab beradi.

Umumiy harbiy Nizomlar ichida Garnizon va qorovullik xizmati Nizomi alohida o'rin tutadi. U qorovullik xizmatini jangovar vazifani o'tash deb belgilab, xizmatni tashkil qilish va o'tash, mansabdor shaxslar hamda harbiy xizmatchilarning majburiyatlari, qo'shin ishtirokida tadbirlarni o'tkazish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Saf Nizomi safda turish va yurish usullari, qurol bilan hamda qurolsiz harakat qilish, kichik bo'linma va harbiy qismlarning piyoda va mashinalarda saf tortishi, harbiy salom-alikni bajarish, saf ko'rigini o'tkazish tartibi, harbiy xizmatchilarning safga turish oldidagi, safga turishdagi majburiyatlari, ularni safda turish va yurishga o'rgatish talablari, shuningdek, harbiy xizmatchilarning jang maydonida harakatlanish usullari va dushman qo'qqisidan hujum qilgan vaqtidagi xatti-harakatlarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan bormoqda. Qurolli Kuchlarda barcha huquqiy va axloqiy normalar umumiy harbiy nizomlarda mujassamlashganligi uchun har bir harbiy xizmatchi uni yaxshi o'rganishi va rioya qilishi hamda mas'uliyat bilan bajarishi lozim. Nizom harbiy yutuqlar garovi hisoblanadi. Harbiylar orasida gap bor: «Nizom bo'yicha xizmat qilsang, hurmat-e'tibor qozonasan!».



NAZORAT SAVOLLARI

1. «Mudofaa to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
2. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun bilan tanishmisiz?
3. Tinchlik davrida kimlar harbiy xizmatga chaqiriladi?
4. Kimlar harbiy xizmatdan ozod qilinishi mumkin?
5. Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi bormi?
6. Rezervdagi xizmat haqida nima bilasiz?
7. Harbiy xizmatchilarning majburiyatlari va burchlari.

3-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI — DAVLAT HARBIY TASHKILOTI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFASINING ASOSI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Hozirgi davrimizning asosiy vazifasi — mamlakatni jahon xo'jaligi tizimida va jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashi uchun O'zbekistonning davlat mustaqilligini ta'minlashdan iborat», deb ta'kidlagan edi. Ushbu masalani mamlakat mudofaa qudrati, uning milliy xavfsizligi ishonchli ta'minlangan sharoitdagina hal qilish mumkin bo'lib, unga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va harbiy xarakterdagi tadbirlar tizimining yagona davlat siyosatini yurgizish orqali erishiladi.

Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo'lmog'i, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning o'zaro uyg'un va mukammal tizimi bo'lmog'i shart, deb ta'kidlagan edi Islom Karimov o'zining «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida.

Ushbu tadbirlarni o'zida jamlagan hujjat 1995-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Harbiy doktrina hisoblanadi. Bu hujjat davlatimizning harbiy siyosati asosida harbiy faoliyat hamda qurilishining yo'nalishi va tamoyillarini belgilaydi. U davlat tashkilotlari harbiy kadrlar uchun majburiy hisoblangan harbiy nazariya va amaliyotning asosiy, rasman qabul qilingan qarashlari va qoidalarini aks ettirdi, hozirgi strategik vazifalarni, harbiy qurilish tamoyillarini va Qurolli

Kuchlarni qo'llash shartlari, Qurolli Kuchlar, xalq hamda mamlakatni mudofaaga tayyorlash masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

O'zbekiston Respublikasi mintaqasidagi harbiy siyosiy vaziyatdan, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlardan hamda mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatidan kelib chiqqan holda 2000-yilda davlatimizda mudofaa doktrinasi ishlab chiqildi. Mudofaa doktrinasi milliy xavfsizlik umumdavlat konsepsiyasining tarkibiy qismi bo'lib, tashqi siyosat, davlatlararo munosabatlar masalalariga, urush va tinchlik muammolariga mutlaqo yangicha yondashuvlarga asoslanadi.

Xalqaro munosabatlardagi tarkibiy o'zgarishlar, keskinlik, mojarolarning yangi o'choqlari paydo bo'lishi, ekstremizm va terrorchilikning turli ko'rinishlari faollanishi bilan mudofaa qobiliyati va xavfsizlikni mustahkamlash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan mudofaa doktrinasida suveren davlat va xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida o'zining tashqi va mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish, yalpi tinchlikka, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka va qurolsizlanishga erishish maqsadlariga qaratilishni ta'kidlab o'tadi.

Ayni vaqtda fuqarolarning hayoti va tinchligini himoya qilish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustaviga muvofiq, o'zini o'zi mudofaa qilishdan iborat ajralmas huquqini amalga oshiradi, davlatning zarur darajada harbiy qudratga va mudofaa qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi zamon urushlariga xos xarakter va oqibatlarini inobatga olib, doktrinada bosh harbiy strategik vazifa urush va harbiy tajovuzni bartaraf etish, deb belgilanadi va:

- *tinchlik davrida* — davlatning mudofaa qobiliyatini respublika daxlsizligi ta'minlanishni kafolatlashga kifoya qiladigan darajada saqlab turishdan, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga qarshi qilinishi mumkin bo'lgan ig'vogarliklar va tajovuzlarning oldini olishdan, Qurolli Kuchlarning hujumlarni ham mustaqil tarzda, ham Umumiy xavfsizlik to'g'risidagi Shartnoma qatnashchisi bo'lgan davlatlarning qurolli kuchlari bilan o'zaro hamkorlikda bartaraf etish uchun har taraflama doimiy ravishda tayyor turishini ta'minlashdan;

• *urush davrida* — tajovuzning kafolatli tarzda qaytarilishi, oʻz kuchlari bilan bir qatorda Oʻzbekiston Respublikasi bilan muvofiq, protokolga asosan, boshqa davlatlarning harbiy kuch-qudrati hamkorligida bosqinchiga qaqshatqich zarba berish, deb koʻrsatildi.

Harbiy xavf, hozirgi zamon urushi va mintaqamizdagi geografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilishi va strategik qoʻllanilishi ishlab chiqildi. Qurolli Kuchlar strategik jihatdan qoʻllashda ularning tezkorligini oshirish maqsadida Respublika hududida harbiy okruglar tashkil etilishini belgilab berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda besh harbiy okrug tashkil etilgan. Bular: *Toshkent harbiy okrugi, Markaziy harbiy okrugi, Sharqiy harbiy okrugi, Shimoliy-Gʻarbiy harbiy okrugi va Janubiy-Gʻarbiy maxsus harbiy okruglardir.*

Doktrina Qurolli Kuchlar tushunchasiga aniqlik kiritdi. Barcha kuch tizimlari Qurolli Kuchlar tizimiga ularning tutgan oʻrni va vazifalariga aniqlik kiritildi. Mudofaani tashkil etish va Qurolli Kuchlar ustidan rahbarlikni amalga oshirishda Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi va Qurolli Kuchlari Birlashgan Bosh shtabining tutgan oʻrni belgilab berildi. Doktrina harbiy islohotlarning asosiy yoʻnalishlarini, harbiy-texnik taʼminot, mamlakat safarbarligi masalalarini nazariy va ilmiy jihatdan asoslab berdi. Oʻzbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasini amalga kiritar ekan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan, Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjatdan, Stokgolm konferensiyasi hujjatidan, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligiga kirgan mamlakatlar bilan tuzilgan ikki tomonlama va koʻp tomonlama protokollar va bitimlardan hamda xalqaro huquqiy hujjatlarning umumeʼtirof etgan normalaridan kelib chiquvchi barcha xalqaro majburiyatlarga qatʼiy rioya etilishini kafolatladi.

**QUROLLI KUCHLARNING TINCHLIK SHAROITI VA URUSH
PAYTIDA ASOSIY HARBIY-STRATEGIK VAZIFALARI. QUROLLI
KUCHLARGA RAHBARLIK. HARBIY BOSHQARUVNING
ASOSIY ORGANLARI**

«Mudofaa toʻgʻrisida»gi Qonunning kirish qismida mamlakatimizning oʻz Qurolli Kuchlarini tuzishdan koʻzlangan maqsadi aniq-ravshan bayon etildi va unda «Barcha davlatlar bilan tinch-totuv yashash siyosatini oʻtkaza borib, oʻz mudofaa qudratini

qurolli tajovuzidan himoyalash uchun yetarli darajada saqlab turadi», deb ko'rsatildi. Qonun davlat mudofaasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy tadbirlar majmuyidan iboratligini nazarga olgan holda mudofaa masalasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Respublika Prezidentining, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, vazirliklar, idoralar, davlat hokimiyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini belgilab berdi.

«Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Prezident Respublika mudofaa qobiliyatini ta'minlash, davlat manfaatlariga qurolli tajovuz bo'lgan hollarda uning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish yuzasidan zarur choratadbirlar qabul qiladi; Qurolli Kuchlarning tuzilishi, ularning strategik rejasini tasdiqlaydi; Qurolli Kuchlarga jangovar harakatlarni olib borish to'g'risida favqulodda hollarda ulardan foydalanish haqida buyruq beradi.

Prezident vakolatlariga umumiy yoki qisman safarbarlikni, respublikaga qurolli hujum qilingan taqdirda urush holatini e'lon qilish, urush davrida me'yoriy aktlarni joriy etish va ular faoliyatini to'xtatish; mudofaa sohasidagi davlat organlari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish; harbiy masalalar bo'yicha muzokaralar olib borish va xalqaro protokollarni imzolash; harbiy lavozimlarga yuqori unvonli ofitserlar tarkibidan shaxslarni tayinlash; ularga harbiy va maxsus unvonlar berish kiradi.

Qonunchilikda Oliy Majlis harbiy sohadagi vakolatlari doirasiga mudofaa konsepsiyasini, Harbiy qasamyodni, Prezident tavsiyasiga binoan, Mudofaa vazirini tasdiqlash, harbiy qurilish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish masalalariga doir qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolarni harbiy xizmatga safarbar qilish va harbiy xizmatdan bo'shatish, harbiy holatni joriy etish, qurolli tajovuz qilingan taqdirda urush holatini e'lon qilish, harbiy harakatlar to'xtatilganda tinchlik bitimini tuzish, tinchlik, xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro protokollarga doir majburiyatlarni bajarish, zarur bo'lib qolganda, Qurolli Kuchlarni qo'llash to'g'risidagi Farmonlarni tasdiqlash, harbiy masalalar bo'yicha Respublika xalqaro protokollarini ratifikatsiyalash yoki ular o'z

kuchini yo'qotgan, deb e'lon qilish, Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoniga oliy harbiy unvon berish kabilar kiritildi. Vazirlar Mahkamasi vakolatlariga mudofaani ta'minlash bo'yicha o'ziga bo'ysunadigan barcha tuzilmalar faoliyatiga rahbarlik qilish, Qurolli Kuchlarni qurollar, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalar bilan ta'minlash; Mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyoji uchun moddiy-texnika resurslari, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa buyumlar hajmini, harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan respublika fuqarolarining soni hamda harbiy va muqobil xizmatga chaqiriluvchilarning harbiy hisobini olib borish; harbiy xizmatga chaqirish va haqiqiy muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarni zaxiraga chiqarish, safarbarlik va harbiy xizmatdan bo'shatish to'g'risida qarorlar qabul qilish kabilar kiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat va safarbarlik zaxiralarining moddiy boyliklarini to'plash rejalarini tasdiqlaydi; xalq xo'jaligini safarbarlikka tayyorlash, safarbarlikni kuchaytirish va uni urush holati sharoitidagi ish tartibiga o'tkazishga rahbarlik qiladi; harbiy xizmatchilar, iste'fodagi harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini, shuningdek, xizmat burchini o'tayotganda halok bo'lgan, vafot etgan, bedarak yo'qolgan yoki asirlikka tushib qolgan harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-huquqiy kafolatlari, moddiy, maishiy va nafaqa ta'minoti masalalarini hal etadi; harbiy-hunar ta'limiga ixtisoslashgan oliy va o'rta harbiy o'quv yurtlarini tuzadi va ularni tugatadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi Qonuni vazirliklar, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv idoralari vakolatlari doirasiga harbiy buyurtmalarni bajarayotgan vazirliklar va idoralar boshqaruvining topshirilgan tarmoqlarida mudofaa ehtiyojlariga mo'ljallangan zarur mahsulotlarning yetkazib berilishi uchun, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun javobgar bo'ladi, tarmoq harbiy davrda safarbarlik tayyorgarligi rejasiga muvofiq, barqaror ishlashini ta'minlashga doir tadbirlarni amalga oshiradi.

Hokimiyatlar va mahalliy boshqaruv idoralari xalq xo'jaligining safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash sohasidagi qonunlarning bajarilishi uchun mas'ul bo'ladilar; harbiy qismlarga va muassasalarga zarur mahalliy mahsulotlar yetkazib berilishi hamda

suv, issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlanishini amalga oshiradilar, aloqa vositalarini beradilar, kommunal-maishiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadilar; mudofaa manfaatlarini ko'zlab qonunlarga muvofiq, yer ajratib beradilar va ulardan foydalanishni nazorat qilib boradilar; qonunlarda belgilangan tartibda harbiy qismlarga, Qurolli Kuchlarning muassasalariga, harbiy o'quv yurtlari, korxona va tashkilotlarga xizmat binolari va turar joylar ajratib beradilar, harbiy obyektlarga, harbiy xizmatchilarga, ular oilalariga nisbatan qonunga zid xatti-harakatlar qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan chora-tadbirlar ko'radilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI

QURUQLIKDAGI QO'SHINLAR

Quruqlikdagi qo'shinlar — Qurolli Kuchlarning eng ko'p sonli xillaridan biri bo'lib, boshqa qo'shin xillari va turlari bilan o'zaro harakatda O'zbekistonga nisbatan qilingan, qayerdan bo'lishidan qat'i nazar, tajovuzni qaytarishga oid vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga motoo'qchi, tank va artilleriya qismlari, havo hujumidan mudofaa bo'linmalari, tezkor harakat qiluvchi (desant) kuchlar qismlari, ta'minot qism va bo'linmalari kiradi.

Motoo'qchi qismlar — quruqlikdagi qo'shinlarning asosi, jangovar tarkibining negizi hisoblanadi. Ular yerdagi va havodagi nishonlarni yakson qilish uchun qudratli qurol-aslahalar, tanklar, to'plar va minomyotlar, tankka qarshi boshqariluvchi rake-talar, zenit komplekslari va qurilmalari, razvedka va boshqaruvning samarali vositalari bilan ta'minlangan.

Tank qismlari — quruqlikda qo'shinlarning zamonaviy jang olib borish sharoitlarida muhim vazifalarni bajarishga qaratilgan bosh zarba beruvchi kuchi va qurolli jangning qudratli vositasi. O'zbekistonlik jangchilar boshqarayotgan zamonaviy tanklar yuksak jangovarlik xususiyatlariga, ishonchli zirhli himoyaga ega bo'lib, tog'-adirlik, notekis, yo'lsiz hudud, sharoitlarida ham olis masofalarni bosib o'tishga qodirdir. Ular hatto, yadro quroli qo'l-lanilgan sharoitlarda ham jang olib borishga moslashgan.

Artilleriya qismlari — jangovar vazifalarni bajarishda bosh (olovli) kuch hamda muhim tezkor-taktik vosita. Ular arsenalida mavjud zamonaviy to'plar, reaktiv qurilmalar, gaubitsalar, minomyotlar, artilleriya qismlarining o't ochish imkoniyatlari, jangovar harakatlar samaradorligini yanada oshiradi.

Tezkor harakat qiluvchi (desant) kuchlar qismlarning roli — hozirgi kunda sezilarli darajada ortgan. Desantchilar jangovar mashinalari, o'ziyurar artilleriya qurilmalari, tanklar, zirhli transportyorlar, yuksak samarali tankka qarshi va zenit vositalari, stvolli va reaktiv artilleriya, kuchli avtomatik qurollar, aloqa va boshqaruvning zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan. Mamlakatimiz desantchilari armiyaning yuqori darajada tayyorlangan va tezkor (mobil) qismidir. Zamonaviy harbiy transport aviatsiyasining yordamida ular dushman istehkomlarining yaqin va juda ichkari marralarida mustaqil ravishda, shuningdek, boshqa qism va bo'linmalar bilan o'zaro harakatlar orqali oldilariga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajara oladilar.

HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA QO'SHINLARI VA HARBIY HAVO KUCHLARI

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari — O'zbekiston Respublikasiga havodan turib qilingan har qanday hujumni bartaraf etish borasida zudlik bilan harakat qilishga doimiy shay turuvchi va mamlakatimiz havo sarhadlarini radiolokatsion razvedkasini ta'minlovchi qo'shin turi.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari respublikaning ma'muriy-siyosiy, sanoat iqtisodiy markazlari va hududlarini, qo'shinlar guruhlarini, harbiy va boshqa muhim obyektlarni dushmanning havo hujumidan himoya qilishga mo'ljallangan.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari ularga yuklatilgan barcha vazifalar majmuyini hal qilishga qodir bo'lgan yuqori malakali shaxsiy tarkibga, yuksak samaradorligi bilan ajralib turadigan kichik, o'rta, katta olisliklarga mo'ljallangan zamonaviy zenit raketali komplekslarga va har xil ko'zdan yashiradigan yoki shovqinlarni bartaraf etadigan to'siqlar qo'llangan holda ham havodagi nishonlarni, avtomatik boshqaruv va nishonlarni yakson etuvchi

vositalarni barcha baland diapazonlarida aniqlashga qodir bo'lgan radiolokatsion stansiyalariga egadir.

Harbiy havo kuchlari — havodan turib dushmanni aviatsiya, quruqlikdagi qo'shinlari guruhlariga, davlat va harbiy boshqaruv tizimi obyektlariga frontorti va harbiy-iqtisodiy salohiyatiga, transport kommunikatsiyalariga talafot yetkazish, havo razvedkasini amalga oshirish, shuningdek, quruqlik qo'shinlarini aviatsiya yordamida qo'llab-quvvatlash, havo desantchilarini tashlash, qo'shin va moddiy vositalarini havo orqali tashish va boshqa vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Harbiy havo kuchlari samarali qurol-aslahalar, navigatsiya vositalari, radioelektron qurilmalar bilan ta'minlangan zamonaviy samolyotlar, vertolyotlar, uchuvchisiz boshqariladigan uchish apparatlariga ega bo'lib, ular ob-havoning har qanday sharoitlarida, kunduzi yoki tunda bo'lsin, har qanday balandlikda jangovar vazifalarni bajarishga qodirdirlar.

MUHANDISLIK-QURUVCHILIK QO'SHINLARI

Muhandislik-quruvchilik qo'shinlari — tinchlik davrida Qurolli Kuchlar infratizimi taraqqiyotini ta'minlash va davlatning strategik iqtisodiy dasturini bajarishga, urush paytida mudofaa binolarini, kommunikatsiya qurilishlari va qutqaruv-avariya ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

Harbiy shaharchalar va askar kazarmalari, ofitserlar tarkibi muddatidan tashqari shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun turar joylar, askar klublari, oshxona va choyxonalar, harbiy xizmatchilarning bolalari uchun maktab, bog'cha binolari, gospital va tibbiy punktlar, jangovar texnika va qurol-yarog'lar uchun park, ombor va garajlar qurish — bularning barchasi qurilish qismlari va bo'linmalari vazifalari.

CHEGARA QO'SHINLARI

Milliy xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari — chegaraga doir siyosatni amalga oshiradi, Davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashni tashkil etadi.

Milliy xavfsizlik xizmati:

- chegara qo‘shinlari faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi;
- joylardagi davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlarning Davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi;
- chegara qo‘shinlari bugungi kunda qo‘shinning mustaqil turi bo‘lib, Davlat chegaralari himoyasining birinchi eshelonini tashkil etadi.

Davlat chegarasi chizig‘ining joylarda g‘ayriqonuniy tarzda o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, Davlat chegarasida harbiy va boshqa fitnalarning oldini olish, Davlat chegarasining noqonuniy ravishda kesib o‘tilishiga yo‘l qo‘ymaslik, Davlat chegarasini buzuvchilarni aniqlash va ushlash, Davlat chegarasi rejimiga chegara oldi rejimiga va Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejimga rioya qilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, shaxslar, transport vositalari, tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarning Davlat chegarasi orqali belgilangan tartibda o‘tkazilishini amalga oshirish, Davlat chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni, shuningdek, transport vositalarini aniqlash va belgilangan tartibda ushlab qolish. Davlat chegarasi rejimini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olish, chegara oldi qidiruvlari va operatsiyalarini o‘tkazish chegara qo‘shinlarining majburiyatlariga kiradi.

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGINING ICHKI QO‘SHINLARI

Ichki qo‘shinlar — Ichki ishlar vazirligi tarkibida tashkil qilingan bo‘lib, uning asosiy vazifalari militsiya organlari bilan hamkorlikda, aholi yashaydigan joylarda toifalangan xalq xo‘jaligi korxonalari va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tashkilotlar, idoralar, muassasalarni jinoyatchilikdan va boshqa jamiyatga qarshi harakatlardan muhofaza qilishdan iboratdir.

Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar, tashkilotlar hamda harbiy tuzilmalarning asosiy vazifasi milliy xavfsizlikni ta‘minlashning o‘ziga xos vaziri-

falarini bajarish, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish va inson hayotini ta'minlovchi xalq xo'jaligi korxona va muassasalarini qo'riqlash hisoblanadi.

KOMANDIRLAR, BOSHLIQLAR VA ULARNING SHAXSIY TARKIBNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Komandir nafaqat harbiy rahbar, balki o'z qo'l ostidagilarning tarbiyachisi hamdir. Boshliqning bu xususiyati Qurolli Kuchlar nizomlarida, avvalo, Ichki Nizomida mujassamlashgan. Mana shuning uchun ham respublikamiz rahbariyati, shaxsan Prezidentimiz milliy harbiy kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Komandirlar va boshliqlar harbiy-siyosiy jihatdan har tomonlama tayyorlangan, zamonaviy jang sir-asrorlarini, yangi qurol va jangovar texnikani chuqur biladigan, o'zida ma'naviy-axloqiy sifatlarini mujassamlashtirgan, harbiy ilmning, pedagogik va psixologiyaning zamonaviy yutuqlariga tayanadigan murabbiy va tarbiyachilardir.

Komandirlar va boshliqlar tarbiyachi sifatida mustaqillik g'oyalariga qat'iy ishonch, yuksak huquqiy va ma'naviy madaniyat, Vatanga, xalqiga va Prezidentiga sodiqlik kabi sifatarni tarbiyalash uchun qo'l ostidagilar o'rtasida faol tarbiyaviy ishlarni olib bormoqda. Shaxsiy tarkibga bor bilimlari, omilkorligi, kishilarni ishonтира olish, yuqori axloqiy sifatlar, namunali xulqini va shaxsiy ibratlarini singdirish, xalqimizning mentaliteti, urf-odatlarini va an'analari, diniy e'tiqodi, ajdodlar an'analari sodiqlik, ajdodlarimiz tarixiy tajribalarini to'g'ridan to'g'ri hisobga olgan holda ishlarini tashkil etishgan.

Bugungi kunda dunyodagi, shu jumladan, mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, turli joylarda terrorchi va ekstremistik guruhlarining paydo bo'lishi mamlakat mudofaa qudratini yanada mustahkamlash, armiyada doimiy jangovar shaylikni oshirish, shaxsiy tarkibning harbiy saboq va san'atini, texnikani puxta o'rganishni, ma'naviy-ruhiy jihatdan har tomonlama tayyorlangan bo'lishini talab etmoqda.

Armiyada mavjud qurol-aslahani takomillashtirish, uni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, professional armiyani vujudga keltirish yo'lida samarali ishlar amalga oshirildi.

Jangovar tayyorgarlik har bir armiyaning birinchi darajali vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ham jangovar tayyorgarlik bosh vazifalardan hisoblanadi. U vaqtincha va mavsumiy xarakterga ega va bir joyda to'xtab qolmaydi. Davlatimiz va Qurolli Kuchlar rahbariyati jangovar tayyorgarlikning doimiy takomillashuvi hamda sifat jihatidan o'sib borishga har tomonlama ahamiyat berib kelishmoqda. Bu talablarni bajarish uchun armiya moddiy-texnik tomondan doimiy ravishda ta'minlanmoqda, qism va bo'linmalar puxta bilimga ega bo'lgan shaxsiy tarkib bilan to'ldirilmoqda, uning siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy, vatanparvarlik tarbiyasiga e'tibor berib kelinyapti.

Hozirda jangovar tayyorgarlikni yuqori darajaga ko'tarish zamon talabiga aylanmoqda. Jangovar tayyorgarlikni tashkil etish barcha komandirlar, shtab qo'mondonlik tarkibi va tarbiyaviy ishlar bo'limlarining birinchi darajali vazifasi hisoblanadi va u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni ko'rsatmalari va Mudofaa vaziri buyrug'i bilan belgilangan reja asosida amalga oshiriladi.

Qo'shilma, qism va bo'linmalardagi jangovar tayyorgarlik bevosita komandir rahbarligi ostida tashkil etiladi, u har qanday mashg'ulotni yuksak darajada o'tkazishni tashkil qila bilishi lozim. Har qanday toifadagi komandir mahorati faqat o'z qurolini qanday mohirona ishlata olish bilan emas, uni qo'l ostidagilarga o'rgata olishi bilan ham o'lchanadi.

Jangovar tayyorgarlik armiya hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Ular bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Jangovar shaylikni ta'minlashga jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikning barcha yo'nalishlari, xizmatni tashkil etish, ichki va garnizon qorovul xizmati, jangovar navbatchilikka yo'naltirilgan. Jangovar tayyorgarlikning asosiy elementlaridan biri sergaklikdir. Sergaklik doim dushman tajovuzini qaytarishda bosh rolni o'ynagan. Mana shundan kelib chiqqan holda har bir yosh askar Qurolli Kuchlar safiga kirayotganida, avvalo, sergak jangchi bo'lishga tantanali ravishda qasamyod qiladi.

Mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyatning murakkablashuvi harbiy xizmatchilar tayyorgarligida komandirlar oldiga alohida

mas'uliyat qo'yadi. Ularning g'oyaviy jihatdan chiniqqan, milliy mustaqillik g'oyalariga, xalq va Prezidentiga sodiq, sergak askarlar bo'lib yetishishlariga alohida e'tibor beriladi.

HARBIY OLIY O'QUV YURTLARI

Kelajakda ofitser bo'lish istagidagi harbiylarimizga muddatli xizmat paytidayoq, shunday imkoniyatlar yaratib beriladi. Mabodo, ular sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishsa, o'qishni davom ettirishadi va o'qish davri ham harbiy xizmat muddatiga kiradi.

Respublikamizda ofitser kadrlar tayyorlash oliy harbiy o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonligi bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti va nihoyat Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Mudofaa vazirligining aloqachi ofitserlar tayyorlovchi maxsus fakulteti. Toshkent, Chirchiq va Samarqanddagi oliy harbiy bilim yurtlari uzoq tarix va boy tajribaga ega bo'lsa, Jizzax aviatsiya bilim yurti va maxsus fakultet hali yosh, ular mustaqillik yillarida tashkil etildi. Harbiy mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun harbiy bilim yurtlarimizda tayyorlanayotgan mutaxassislar tarkibi ham kengaytirilgan.

Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti

Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti 1918-yil 12-iyulda tashkil topgan. O'rta Osiyo mintaqasidagi eng keksa va mashhur harbiy bilim yurti quyidagi yo'nalishdagi mutaxassislilar bo'yicha ofitserlar tayyorlaydi:

- motoo'qchi va chegara qo'shinlari bo'linmalari komandirlari;
- razvedkachi bo'linmalar komandirlari;
- motoo'qchi va chegara qo'shinlari bo'linmalari komandirlarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari.

Bilim yurti manzili: Toshkent shahri, Parkent ko'chasi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti

1918-yil 16-noyabrda tashkil topgan.

Zamonaviy o'quv-moddiy baza, texnika va qurol-aslaha, poligonlar, tankodromlarga ega.

Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha harbiy mutaxassislar tayyorlaydi:

- tank qo'shinlari komandiri;
- tank qo'shinlari muhandislik ishlari ofitser-mutaxassislari;
- havo-desant qo'shinlari komandirlari;
- havo hujumidan mudofaa qo'shinlari komandirlari;
- havo hujumidan mudofaa qo'shinlari muhandislik ishlari ofitser-mutaxassislari.

Bilim yurti manzili: Chirchiq shahri.

Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti

Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti 1969-yil 23-sentabrda dastlab tank bilim yurti, 1972-yil may oyidan boshlab, turli yo'nalishlardagi harbiy mutaxassislarni tayyorlaydi:

- avtomobil bo'linmalari komandirlari;
- sapyor-muhandislik bo'linmalari komandirlari;
- kimyoviy bo'linmalar komandirlari;
- artilleriya bo'linmalari komandirlari;
- front orti ta'minoti bo'yicha ofitser-mutaxassislar;
- raketa-artilleriya qurollari bo'yicha ofitser-mutaxassislar.

Bilim yurti manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi.

Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti

Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-martidagi qaroriga binoan tashkil topgan. O'rta Osiyo mamlakatlarida ushbu yo'nalishdagi yagona bilim yurti. Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi:

- samolyot va vertolyotlarning uchuvchi-muhandislari;
- uchish apparatlari va dvigatellaridan foydalanish;
- uchish apparatining aviatsion va radioelektron jihozlaridan foydalanish;
- uchish apparatlarining aviatsion qurollaridan foydalanish.

1997-yilda ilk ofitser-uchuvchilar bilim yurtini bitirib chiqishdi.

Bilim yurti manzili: Jizzax shahri, H. Nosirov ko'chasi.

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi
Mudofaa vazirligining maxsus fakulteti*

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Mudofaa vazirligining maxsus fakulteti 1993-yil 13-mayda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan.

O'qish muddati 4 yil-u 10 oy. Dastlabki ikki yilda fakultetga qabul qilinganlar student hisoblanadilar, stipendiya va yotoqxon bilan ta'minlanadilar. Uchinchi kursdan boshlab qasamyod qabul qilishgach, ularga maxsus fakultet tinglovchisi maqomi berilib, kursantlarga berilishi lozim bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlanadi. Maxsus aloqa fakulteti bitiruvchilari uch yillik harbiy stajga ega bo'lishadi.

Bitiruvchilarga leytenant unvoni, ko'krak nishoni va quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha muhandis malakasi beriladi:

- radio va koinot aloqasi muhandisi;
- simli radiorele va transfera aloqasi muhandisi;
- elektr simli aloqa vositalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi muhandislari;
- radio va radiotexnika razvedkachilari va radioelektron kurash muhandislari;
- zenit-raketa qo'shinlari bo'linmalari ofitserlari;
- radiotexnik qo'shinlari bo'linmalari ofitserlari;
- axborot xavfsizligi xizmati ofitserlari.

Maxsus aloqa fakulteti manzili: Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi.

OLIY HARBIY O'QUV YURLARIGA KURSANTLARNI QABUL QILISH TARTIBI VA QOIDALARI

Oliy harbiy o'quv yurtiga tugallangan o'rta ma'lumotli, qabul shartlari hamda kasbga layoqatlilik tanlovining barcha talablariga javob beradigan yuksak axloqli va ishchan sifatlariga ega O'zbekiston Respublikasining fuqarolari qabul qilinadi.

Kasbiy mutaxassisligi va xizmat muddatidan qat'i nazar, xizmatdagi harbiy xizmatchilar va zaxiraga bo'shatilgan harbiy xizmatga majbur shaxslar 23 yoshgacha, fuqaro yoshlar, harbiy kasbga yo'naltiruvchi o'quv maskanlarining bitiruvchilari o'qishga kirayotgan yili 1-sentabrgacha 17 yoshga to'ladigan, boshqa o'quv maskanlarining o'quvchilari 21 yoshgacha harbiy bilim yurtiga qabul qilinadi.

Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar o'qishga kirish yilining 1-apreligacha qoida bo'yicha komandiri nomiga yozma raport topshiradilar. Fuqaro yoshlar esa, o'qishga kirish yilining 1-mayigacha yashash joyidagi tuman yoki shahar mudofaa ishlari bo'limlariga ariza beradilar. Mudofaa vazirligi oliy o'quv harbiy yurtlariga o'qishga kirish yilning 10-iyunigacha hujjatlar qabul qilinadi.

Kasbga layoqatlilik tanlovi uchun nomzodlarning kelish vaqti va joyini bilim yurti boshlig'i mudofaa ishlari boshqarmalari hamda qism komandirlari orqali xabar qiladi. Ular esa, o'z navbatida, nomzodlarni bepul yo'lkira hujjatlari bilan ta'minlaydilar. Bilim yurtiga kelgan abituriyentlar bepul oziq-ovqat va yotoqxona bilan ta'minlanadilar.

Kirish imtihonlari boshlangunga qadar, nomzodlar bilim yurtida tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Sog'lig'ida kamchiligi borligi tufayli tibbiy ko'rikdan o'tolmagan abituriyentlar imtihonlarga qo'yilmaydi. Barcha abituriyentlar umumjimoniy tayyorgarliklar bo'yicha kuchlilik, chidamlilik va chaqqonlik (turnikda tortilish, 3 km.ga kross va 100 m.ga yugurish) hamda kasbiy-ruhiy maxsus tanlov usuli bo'yicha malaka imtihonlari topshiradilar. Bo'lg'usi harbiy kasb talablariga javob bermaydigan abituriyentlar umumta'lim fanlari bo'yicha imtihonlarga qo'yilmaydi va nomzodlar ro'yxatidan o'chiriladi.

Barcha oliy o'quv maskanlari abituriyentlari kabi kursantlikka nomzodlar ham test tarzidagi matematika, fizika, ona tili va adabiyot fanlaridan kirish imtihonlari topshiradilar. Test sinovlari uch tilda — o'zbek, rus va qoraqalpoq tilida o'tkaziladi.

Muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar va xizmatni o'tab bo'lishgan harbiy qismlar tavsiyanomasiga ega bo'lgan abituriyentlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»gi qaroriga asosan, ular to'plagan ballar soniga o'tish bali eng ko'p miqdorining 20 % ni qo'shish tarzida imtiyoz beriladi.

Harbiy kasbga yo'naltiruvchi litseylar bitiruvchilariga ham ular to'plagan ballar soniga o'tish bali eng ko'p miqdorining 10 % ni qo'shish tarzida imtiyoz beriladi. Bilim yurtiga qabul qilinganlar to'liq davlat ta'minotiga ega harbiy xizmatda bo'ladilar. O'quv sessiyalarining natijalariga ko'ra, a'lochilarga oylik pullik to'lovning 50 %, yaxshi baholarga o'zlashtirganlarga esa, pullik to'lovning 25 % miqdorida qo'shimcha pul beriladi.

O'qish davri mobaynida kursantlarga qishda ikki haftalik ta'til, o'quv yili tugagach esa, bir oylik ta'til va uni o'tkazish joyigacha bepul yo'l hujjati beriladi. Bilim yurtidagi o'qish muddati to'rt yil va u yillar Qurolli Kuchlar safida kadr tarkibidagi xizmat yillari stajiga kiritiladi. Bilim yurtini tamomlaganlarga «leytenant» harbiy unvoni beriladi va sohasiga muvofiq, davlat namunasidagi diplom va ko'krak nishoni topshiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING JANGOVAR AN'ANALARI

Jangovar an'analar — bu armiya va harbiy flotda tarixdan yosh avlodga o'tuvchi jang qilish va harbiy xizmatni bajarish axloq-odob qoidasi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xalqimizning milliy tarzi, an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlar qayta tiklanayotgan bir paytda, Qurolli Kuchlarimiz jangovarlik an'analariga ega bir olamga — mardlik va sheryuraklikka undaydi. Onadek, nondek aziz Vatan tushunchasiga oshno etadi, uning posboni bo'lish naqadar sharaflilik ekanligini uqtiradi. Jangovar an'analar O'zbekiston Respublikasi Vatan, Istiqlol, Hurriyat, Davlat bayrog'i, Madhiyasi, Respublika Prezidenti Oliy Bosh Qo'mondoni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Harbiy qasamyod kabi mustaqillik tufayli vujudga kelgan muqaddas atamalar qalbimizni g'ururga to'ldiradi.

Jangovar an'analar — er kishini o'z Vatanining sarhadlarini munosib himoya qilishni, ota-ona oromini, uy-joyini ko'z qora-

chigʻidek asrash, posboni, egasi bor yurt eli tinch boʻlishiga, bepoyon dalalarda rizq-u roʻz undirilishiga, tandirlari toʻla non yopiladigan, yigit-qizlari alyor aytadigan, momolari beshik tebratib bola allalaydigan, dono bobolari yoshlarni yurtning yetuk farzandlari etib tarbiyalaydigan, ulkan davlatni jon-jahdi bilan qoʻriqlashga va himoya qilishga daʼvat etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining anʼanalari Milliy istiqlol gʻoyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etdi. Shu maʼnoda, bu gʻoya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin hamda farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil taʼlimotdir. U aynan nazariya ijtimoiy voqelikning ifodasi tarzida namoyon boʻlib, oʻziga xos shakllanishi qonuniyatlari va xususiyatlariga ega boʻlgan umummilliy hodisa hisoblanadi. Milliy istiqlol gʻoyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruhi, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. Oʻzbekiston xalqining, mustaqillikni mustahkamlash yoʻlidan borayotgan jamiyatimizning umumiy gʻoyasidir.

Milliy davlatchilik anʼanalarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari yaxlitligi hamda xavfsizligini taʼminlash, fuqarolarimizda yot gʻoyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yoʻlida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi ishiga safarbar etish — bu gʻoyaning asosiy maqsadi.

Mustaqilligimizni iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustahkamlayotgan xalqimiz tinch va bunyodkorlik mehnatining himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining eng oliy burchidir. Bu mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash, uni zamon talablaridan kelib chiqqan holda professional asosda tashkil etish, jangovarlik qobiliyatini yuksak darajada koʻtarishni ilgari suradi.

Vatan ravnaqi farzandlar kamoliga bogʻliq. Bu esa, har bir yurtdoshimizni oʻzining maʼnaviy kamoloti uchun yuksak masʼuliyatni his etishga, oʻz manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uygʻunlashtirib yashashga daʼvat etadi.

Yurt tinchligi — Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bogʻliq. Birovga qaram boʻlgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillikni va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doim tayyor turish har bir harbiy xizmatchining bosh gʻoyasidir.

HARBIY QASAMYOD VA UNING QO‘SHINLAR HAYOTI, O‘QISHI HAMDA JANGOVAR FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. HARBIY QASAMYOD VA UNI QABUL QILISH TARTIBI

HARBIY QASAMYOD

Men (familiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lishga tantanali ravishda qasamyod qilaman.

Men O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va Qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga, harbiy intizomga qat‘iy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi bo‘lishga qasamyod qilaman.

So‘nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo‘lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun uning davlat manfaatlari va mustaqilligining himoyachisi bo‘lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga muhtalo bo‘lay.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi marta harbiy xizmatga qabul qilingan yoxud harbiy xizmatni o‘tamagan va birinchi marta harbiy yig‘inlarga chaqirilgan fuqarosi harbiy qismning jangovar bayrog‘i oldida harbiy qasamyod qabul qiladi.

Harbiy qasamyodni:

— madadga kelgan, safarbarlik chaqiruv rezerviga kelgan askarlar va matroslar ular tegishli dasturlarni o‘taganlaridan, askar va matroslarning asosiy majburiyatlarini, harbiy qasamyodning harbiy qism jangovar bayrog‘i va harbiy intizomning ahamiyatini o‘zlashtirgandan so‘ng harbiy qismga yetib kelgan kundan boshlab, ikki oydan kechiktirmasdan;

— harbiy bilim yurtlarining avval qasamyod qabul qilmagan kursantlar va tinglovchilari aynan o'sha muddat davomida qabul qilinadilar.

Harbiy qasamyod qiladiganlar bilan, harbiy qasamyodning ahamiyati va qonunlarining Vatan himoyasi bo'yicha talablari to'g'risida bo'linmalarda tushuntirish ishlari o'tkaziladi. Harbiy qasamyod qabul qilishni tarixiy, jangovar va mehnat shuhrati joylarida, shuningdek, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda shahid bo'lgan jangchilarning qardoshlik mozarlarida o'tkazish mumkin. Harbiy qasamyod qabul qilish kuni ushbu qism uchun ish qilinmaydigan kun sanaladi va bayram kuni sifatida nishonlanadi. Harbiy qasamyod matni 1992-yil 3-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan tasdiqlangan.

Qasamyod qabul qiluvchi O'zbekiston xalqiga, Prezidentiga sodiq bo'lishni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarini muqaddas bilishini, ularga rioya etishni, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so'zsiz bajarishga, harbiy intizomga qat'iy rioya qilishni, halol, jasur va sergak jangchi bo'lishga, so'nggi nafasi qolguncha ona-Vatanining sadoqatli farzandi bo'lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlari ruhi oldida qasamyod qiladi.

Harbiy qasamyod — Qurolli Kuchlarimizning har bir jangchisining butun hayoti davomida or-nomusi qonuni. Qasamyodni buzish — Vatan oldidagi og'ir jinoyat. Qasamyod qabul qiluvchi, O'zbekiston Respublikasining butun xalqiga murojaat etib, «*Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga muhtalo bo'lay*», deb ont ichadi.

Qasamyodga sodiq bo'lmaslik sharmandali va nafratli vatan xoinligidir. Armiya hayotida yana bir muhim hujjat — harbiy qasamyod bo'lib, u Qurolli Kuchlarga taalluqli barcha qonunchilik hujjatlari orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy qasamyod jangchining ona-Vatanga, xalqi va Prezidentiga bergan ontidir. «So'nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo'lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga qasamyod qilaman».

Qasamyod jangchiga ona yurti, uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligi uchun, shu yurt tinchligi, xalqning bunyodkorona meh-

nati, nuroniy otaxonlar va onaxonlar farog'ati-yu, bolalarning beg'ubor kulgisi va nurli kelajagi uchun mas'ul ekanligini eslatib turadi. Harbiy qasamyod ahamiyati va mazmun-mohiyatiga ko'ra, jangchining ma'naviy jangovar kodeksi, kundalik harakatining asl qonunidir. Harbiy qasamyod milliy-ma'naviy an'analirimizni ham o'zida jamlaydi. U har bir harbiy xizmatchini halol bo'lishga, millatimizga xos eng yaxshi axloqiy fazilatlarni o'zida jam qilishga, sofdil va intizomli bo'lishga undaydi.

Harbiy qasamyod davlat nuqtayi nazaridan Vatanimizni munosib himoya qilish bo'yicha harbiy xizmatchiga qo'yiladigan asosiy talablarni mujassam etgan huquqiy akt. Bu — mustaqil Vatanimiz, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha haqiqiy jangovar harakatlar jarayoni yoki tinchlik davridagi jangovar o'quvlarning turli sharoitlarida jangchi xulq-atvori me'yorlarining o'ziga xos jamlangan ifodasidir.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan u jangchilarni Vatanga fidokorona xizmat qilishga, harbiy burchga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi va o'zida xalqimizning eng oliy fazilatlarini va yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari, buyuk ajdodlar an'analari hamda vasiyatlariga sodiqligini mujassam etadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilari ajdodlarimiz jasoratlariga sodiq qolmoqdalar va ularni davom ettirmoqdalar. 1999—2000-yillarda mamlakatimiz hududlariga bir guruh tajovuzkor kuchlar bostirib kirganda, jangchilarimiz o'z Harbiy qasamyodlariga sodiq holda Vatanimizni dushmandan himoya qilishdi.

... 5-avgust kuni erta tongda razvedkachilar bergan ma'lumot bo'yicha dushman joylashgan yer aviatsiya bo'linmasi tomonidan ko'zdan kechirilib, ko'rsatilgan nuqtalarga zarba berildi. Alohida guruh tomonidan maydonni tozalash ishlari boshlandi. Yashirib qolib jon talvasasida bo'lgan dushman to'satdan otishmalarni boshladi. Guruh zudlik bilan qulay pozitsiyaga o'tib, dushmanga qarshi jangga kirdi. Dushman kuchi ziyod bo'lganligi sababli, jangchilar qurshovda qoldilar.

Ayniqsa, g'or ichiga berkinib, zarba berishga intilayotgan dushman bilan jang qiyin kechardi. Katta serjant Ma'rufjon Rajabov qulay pozitsiyani egallab, dushmanga zarba berayotganligiga qaramay, dushman o'qi uni yaraladi, lekin u jangni davom ettirdi. Bo'linma feldsheri Qahramon Madolimov unga yordamga otildi. O'z jonini tahlikaga qo'yib bo'lsa-da, yaralangan jangchining hayotini saqlab qolishga oshiqdi.

O‘z insoniylilik, kasbiy va xizmat burchini o‘qlar yomg‘iri ostida bajarishga kirishgan Qahramon qisqa muddatda yarador oldiga keldi va uning yarasini bog‘ladi. Lekin dushman o‘q-yomg‘iri uni ham chetlab o‘tmadi. Qahramon yaralanib yotgan safdoshi haqida o‘ylar edi. Nima bo‘lsa ham uning hayotini saqlab qolish kerak. U bor kuchini yig‘ib, yaradorni ko‘tardi-da, harakatga tushdi.

Dushman istehkomi joylashgan yerga ayovsiz zarba berayotgan shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchi serjant Ulug‘bek Barnoyev qisqa muddatli sukunatdan foydalanib, Qahramon Madolimov va Ma‘rufjon Rajabovga yordam berish uchun o‘zini jang maydoniga otdi. Mazkur jang shartnoma asosida harbiy xizmatchilar — Qahramon Madolimov, Ma‘rufjon Rajabov va Ulug‘bek Barnoyevlar uchun oxirgi jang bo‘ldi. Mard jangchilar oxirgi damgacha askariy burch, harbiy do‘stlik, mardlik, insoniylilik, Vatan va xalq oldidagi o‘z Harbiy qasamyodlariga sodiq qoldilar.

So‘nggi nafasi qolguncha Vatani, xalqni, muqaddas o‘zbek zaminining sadoqatli farzandi bo‘lishiga, buyuk ajdodlarimiz — Shiroq, To‘maris, Spitamen, Muqanna, Mahmud Tarobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, chorizmning bosqinchilik siyosatiga qarshi mardonavor kurashgan ozodlik qurbonlari, XX asrning 20—30-yillarida milliy mustaqilligimiz uchun jon fido etgan o‘zbek xalqining asl farzandlari, Ikkinchi Jahon urushi yillarida dunyoni fashizm asoratidan xalos etish yo‘lida shahid ketgan hamyurtlarimiz; 1999—2000-yillarda Vatanimiz sarhadlariga suqilib kirishga harakat qilgan terrorchilarga qarshi harakatlarda jon fido etgan Sayyor Sadinov, Alisher Salimov, Boburjon G‘aniyev, Yunusjon Oxunov, Mahmudjon Jalilov singari jangchilar ruhi oldida qasamyod qiladi. Shu sababli ham Qasamyod harbiy xizmatchi uchun muqaddas hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish kerakki, harbiy Qasamyod tarixi uzoq o‘tmishimizga borib taqaladi. Masalan, Sohibqiron Amir Temur qo‘shinlarida shunday odat bo‘lgan: har bir qo‘shin harbiy qo‘mondoni qoidaga binoan, qo‘shinlar ko‘rigidan oldin hukmdorga o‘z bo‘linmalarini tanishtirgan va unga sodiq qolishga ont ichganlar. Jaloliddin Manguberdi, Shoh Bobur qo‘shinlarida ham shunga o‘xshash ont ichishga amal qilingan. Har bir davrda askar: «Ushbu qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga muhtalo bo‘lay», deya ont ichgan va unga sodiq qolgan.

**HARBIY QISMNING JANGOVAR BAYROG'I —
HARBIY QADRIYAT, QAHRAMONLIK VA
SHON-SHARAF RAMZI**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismining jangovar bayrog'i — harbiy sharaf, matonat va shon-shuhratining ramzi. U O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining har bir harbiy xizmatchisiga uning Vatanga fidoyilarcha xizmat qilishi, uni matonat va mahorat bilan muhofaza etish, o'zining so'nggi tomchi qoni va hatto hayotini ayamadan jonajon tuproqning har bir qarichini sabot bilan mudofaa qilishdek muqaddas burchi to'g'ri-sidagi eslatma sanaladi.

Jangovar bayroq harbiy qismga u tuzilishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan Mudofaa vazirligi vakillari tomonidan topshiriladi. Jangovar Bayroq qismning nomlanishi va raqamlanishi o'zgarishidan qat'i nazar, hamma davrlarda harbiy qismning ixtiyorida saqlanadi. Harbiy qism nomlanishi va raqamlanishidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jangovar bayroq topshirish chog'ida beriladigan Yorlig'ida qayd etib o'tilgan.

Jangovar bayroq har doim o'z harbiy qismi bilan, jang maydonida esa, qism jangovar harakatlari hududida bo'ladi. Qismning butun shaxsiy tarkibi jangda Jangovar Bayroqni jon-jahdi va matonat bilan himoya qilishga, uning dushman tomonidan egallanishiga yo'l qo'ymaslikka majburdir. Jangovar Bayroq yo'qotilganda, harbiy qism komandiri va bunday sharmandalikka bevosita aybdor bo'lgan harbiy xizmatchilar harbiy sud oldida javobgar bo'ladilar, harbiy qism esa, tugatilishi kerak.

Tarixdan ma'lumki, urush harakatlari olib borilayotgan janglarda harbiy qismning jangovar bayrog'i dushman qo'lga tushib qolmasligi uchun, butun jangchilar yuksak qahramonlik namunalarini ko'rsatib, harbiy qismi jangovar bayroqlarini saqlab qolishda o'z jonlarini fido qilganlar. Hozirgi kunlarda Qurolli Kuchlarimiz jangchilari tinchlik hukm surgan davrda o'z qismlarining Jangovar Bayroqlarini ishonch bilan qo'riqlab, jangovar siyosiy tayyorgarlikdagi muvaffaqiyatlarga erishishga yetaklamoqda. Jangovar Bayroqni qo'riqlashda, soqchi posti qo'yilmoqda, bu eng mas'uliyatli postlardan hisoblanib, a'lochi askarlarga ishonib topshiriladi. Yoyilgan Jangovar Bayroq ostida askar-matrosalar, serjant-starshinalarni faxriy rag'batlantirish bilan fotosuratga olinmoqda.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi mudofaasining asosini bayon eting.
2. Qurolli kuchlarning asosiy harbiy-strategik vazifalari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qo'shin turlarini birma-bir keltiring.
4. O'zbekistonda qanday harbiy oliy o'quv yurtlari bor?
5. Qurolli Kuchlarning jangovar an'analarini sanab o'ting.
6. Harbiy qasamyod qabul qilish tartibi qanday?

4-bob. HARBIY XIZMATCHILAR VA ULAR ORASIDAGI MUNOSABATLAR. HARBIY INTIZOM

Harbiy xizmatchi — haqiqiy harbiy xizmatni bajaruvchi shaxs hisoblanadi. U Vatanning, Mustaqil O'zbekiston Respublikasining himoyachisi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilar askar va matroslar, serjantlar va ofitserlar (kichik, katta, oliy) tarkibiga bo'linadi.

HARBIY XIZMATCHINING UMUMIY MAJBURIYATLARI

Harbiy xizmatchi o'z Vatanini himoya qilish jarayonida shaxsiy javobgarlikka egadir. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladilar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalarining faoliyati bilan aloqador bo'lmashliklari lozim.

Harbiy xizmatchi quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasining «Himoyachisi» oliy unvonini sharaf bilan oqlashga, Qurolli Kuchlarning, o'z harbiy qismining or-nomusi va jangovar shuhratini, o'z harbiy unvonining obro'sini e'zozlashga, harbiy qasamyodga sodiq qolishga, xalqiga fidoyilarcha xizmat qilishga O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va hududiy butunligini matonat, mahorat bilan, so'nggi tomchi qoni qolguncha, hatto hayotini ayamadan himoya qilishga, harbiy burchni bajarishga; mamlakat Konstitutsiyasiga, harbiy nizomlarning talablarini bajarishga; O'zbekiston Respublikasini

himoya qilish vazifalarini bajarish bilan bog‘liq harbiy xizmat mashaqqatlariga sabot bilan chidashga; harbiy kasb bilimlarini muntazam egallashga, o‘z o‘quv askariy mahoratini takomillashtirishga; o‘ziga ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikani bilishi, ishlatishda doimiy shaylikda saqlashga, harbiy mulkni asrashga; halol, intizomli, jasur bo‘lishga, harbiy burchni ijro etish chog‘ida oqilona tashabbuslar ko‘rsatishga; komandirlarga (boshliqlarga) so‘zsiz bo‘ysunish va ularni jangda himoya qilishga, harbiy qism jangovar bayroqni qo‘riqlashga; askariy yurish-turish odobi qoidalariga rioya qilishga va harbiycha salom berishni bajarishga, har doim rusum bo‘yicha, ozoda va saranjom kiyinishga, vatanparvarlik ko‘rsatishga, xalqlarning baynalmilal do‘stligini qadrlashga, millatlar va elatlar o‘rtasida birodarlikni mustahkamlashga imkon yaratishga majburdir.

Harbiy xizmatchi Vatanga xizmat qilish jarayonida oson yo‘lini axtarmasligi, o‘z vijdoni, boshliqlar va o‘rtoqlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga zid bo‘lgan aldamchilik, yolg‘onchi yo‘llarni qo‘llashi jiddiy xatarlarni olib kelishi mumkin. Xalqning «Hayotda eng asosiysi — Vatanga halol xizmat qilish», «Vatanga xizmat qilish — muqaddas burch» kabi dono iboralarga amal qilish lozim.

Askarlarning o‘z komandirlarini qadrlashi, harbiy birodarlikning eng oliy fazilati hisoblanadi. Har qanday falokat yuz berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda komandir hayotini saqlash va xatardan qutqarishga doim shay turish kerak. Jang maydonida komandirni himoya qilish qurolli kuchlardagi askarlarning ajoyib an‘analaridan biridir. «O‘zingni demay komandirni qutqar», «Komandirni himoya qil jangda, o‘zingni saqlaganday hayotda» iboralari askarlar orasida bekorga jaranglamaydi.

Harbiy xizmatchi birodarlikni e‘zozlashga, o‘z hayotini ayamadan o‘rtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, har birining ornomusi va qadr-qimmatini hurmat qilishga, o‘ziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘pollik va tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslikka, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolishga majburdir. Xalq tomonidan quyidagi so‘zlar bejiz aytilmagan: «Do‘st orttirsang — g‘alabaga erishasan», «Jangda do‘stingni quvvatlasang — o‘zingdan xatarni quvgan bo‘lasan», «O‘rtoqlaringga yordaming — vzvod obro‘sini oshirishing». Harbiy xizmatchi harbiy xizmat xavfsizligi talablariga, kasallanish, jarohat orttirish va kuyishdan ogohlantirish tadbirlariga rioya qilishi, har kuni jismoniy chini-

qishi, mashqda ko‘rganlarini o‘stirishi, zararli odatlardan (chekish va ichkilikdan) tiyilishi lozim.

Harbiy xizmatchi jangovar harakatlar paytida, hatto o‘z harbiy qismidan (bo‘linmasidan) yiroq va to‘la qurshovda qolgan bo‘lsa ham, asirga tushishdan qutulmoq uchun dushmanga ashaddiy qarshilik ko‘rsatishga, u jangda askarlik burchini oxirigacha bajarishga majbur.

HARBIY UNVONLAR VA FARQLI BELGILAR

Harbiy unvonlar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shin turlariga oid harbiy maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslarga, xizmat mavqeyida o‘shish davrlarini hisobga olib, xizmat nizomlari asosida beriladi. Harbiy unvonlar askarlarga, matroslarga, serjantlarga, starshinalarga, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yo‘riqnoma asosida amalga oshiriladi. Kichik va katta ofitserlar tarkibiga harbiy unvonlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan tartib asosida beriladi.

Qurolli Kuchlardagi Oliy harbiy unvon — Armiya generali bo‘lib, bu unvon urush davrida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoniga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga beriladi.

Yuridik, tibbiy yoxud veterinariya harbiy-hisob ixtisosiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilarning harbiy unvonlariga mos ravishda «Adliya», «Tibbiy xizmat» yoxud «Veterinariya xizmati» so‘zlari qo‘yiladi. Masalan, tibbiy xizmat leytenanti, veterinariya xizmati kapitani, tibbiy xizmat general-mayori, adliya general-polkovnigi.

Rezervdagi, zaxiradagi yoki iste‘fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga tegishli «rezervdagi», «zaxiradagi» yoki «iste‘foda»gi so‘zlari qo‘shiladi.

Serjant (starshina)lar harbiy unvoniga qo‘shin yoxud xizmat turlarining nomlanishi qo‘shilmaydi.

Harbiy bilim yurtida tahsil olayotgan harbiy xizmatchilar, ofitserlar harbiy unvonga ega bo‘lmaganlar — kursantlar, harbiy unvonga ega bo‘lganlar esa, tinglovchilar, deb nomlanadi.

Harbiy bilim yurtiga kirgunga qadar, harbiy unvonga ega bo‘lmagan yoxud askar, matros harbiy unvoniga ega bo‘lgan fuqarolarga o‘qishga qabul qilish vaqtida «Kursant» harbiy unvoni

beriladi. Harbiy bilim yurtiga kirgunga qadar berilgan harbiy unvonlar saqlanib qoladi.

Harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim-kechak va farqlovchi nishonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiy yig‘inlarga jalb etilgan harbiy xizmatga majburlar harbiy unvoni va qo‘shin turini farqlovchi nishonlari bo‘lgan harbiy kiyim-kechakda yuradilar. Harbiy kiyim-kechakda yurish qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi. Harbiy kiyimda yurish huquqiga ega bo‘lmagan fuqarolar harbiy xizmatchilarning kiyim-kechaklarini kiyib va farqlovchi nishonlarni taqib yurishi taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari kiyim formalari bo‘lib, ushbu formalarida shaxsiy harbiy unvonlarni farqlay oladigan belgilaridan iborat bo‘ladi. Bu belgilar pogonlar, petlitsalar, ko‘krak nishonlari, qo‘l yengi belgilar, bosh kiyimdagil belgilari, shim kiyimidagi belgilardan iborat bo‘ladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy
xizmatchilarining harbiy unvonlari**

Qo‘shinga oid	Kemaga oid
Askarlar tarkibi	
Oddiy askar (kursant)	Matros (kursant)
Serjantlar tarkibi	
Kichik serjant Serjant Katta serjant	2-darajali starshina 1-darajali starshina Bosh starshina
Kichik ofitserlar tarkibi	
Leytenant Katta leytenant Kapitan	Leytenant Katta leytenant Kapitan-leytenant
Katta ofitserlar tarkibi	
Mayor Podpolkovnik Polkovnik	3-darajali kapitan 2-darajali kapitan 1-darajali kapitan
Generallar tarkibi	
General-mayor General-leytenant General-polkovnik Armiya generali	

BOSHLIQLAR VA BO'YSUNUVCHILAR. KATTALAR VA KICHIKLAR. TO'G'RIDAN TO'G'RI VA BEVOSITA BOSHLIQLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

O'z xizmati maqomi va harbiy unvoniga ko'ra, ayrim harbiy xizmatchilar boshqalarga nisbatan boshliq yoxud bo'ysunuvchi bo'lishi mumkin. Boshliq vaziyatni har tomonlama baholashdan kelib chiqqan holda yolg'iz o'zi qaror qabul qilish, qonun va harbiy nizomlarning talablariga qat'iy muvofiq ravishda buyruqlar berishi va ularning bajarilishini talab qilish huquqiga egadir. Buyruqlarning muhokama etilishiga yo'l qo'yilmaydi, bo'ysunmaslik yoki buyruqni bajarmaslik harbiy jinoyat hisoblanadi. Bo'ysunuvchi boshliqning buyruqlarini so'zsiz bajarishga majburdir. Agar u o'ziga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lgan deb hisoblasa, buyruqni bajarib, keyin shikoyat qilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar xizmat yuzasidan, hatto vaqtincha bo'lsa ham bo'ysundirilgan boshliqlar bevosita boshliqlar hisoblanadi. Bo'ysunuvchiga yaqinroq bo'lgan to'g'ridan to'g'ri boshliq bevosita boshliq, deb ataladi. Masalan, askar uchun bevosita boshliq seksiya (raschet, tank) komandiri bo'ladi. Xizmat tartibiga asosan, to'g'ridan to'g'ri bevosita boshliqlar, askar va matroslar uchun, haqiqiy harbiy xizmatda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi generalari, katta va kichik tarkibdagi ofitserlar, shuningdek, serjantlar va starshinalar esa, ular bir qismdagilar hisoblanadi. Bir-biriga bo'ysunuvchi bo'lmagan harbiy xizmatchilar majburiyatlarni birgalikda bajaradigan hollarda, ularning o'zaro xizmat munosabatlari boshliq tomonidan belgilab qo'yilmagan bo'lsa, ulardan lavozimiga ko'ra kattasi, teng mansablarda esa, harbiy unvoni bo'yicha kattasi boshliq sanaladi.

O'z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko'ra, boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ularning boshlig'i yoki bo'ysunuvchisi sanalmagan harbiy xizmatchilar katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Kattalik harbiy xizmatchilarning harbiy unvoniga qarab belgilanadi. Harbiy unvoni bo'yicha kattalar, kichik harbiy intizomning, jamoat tartibini, axloq, harbiy kiyim-kechak kiyish va askarchasiga salomlashishni bajarish qoidalarini buzgan hollarda, ulardan bu buzilishlarni bartaraf etishlarini talab qilishlari; unvoni bo'yicha kichiklar kattalarning bunday talablarini so'zsiz bajarishga majburdirlar.

BUYRUQ BERISH VA UNI BAJARISH TARTIBI

Buyruq — boshliqning bo'ysunuvchilarga qaratilgan yozma va og'zaki farmoyishi. Komandir (boshliq)ning buyrug'i bo'ysunuvchilar uchun qonundir. «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom Nizomi»da ko'rsatilganidek, buyruq e'tirofsiz, aniq muddatda bajarilishi darkor. Buyruq berilgan bo'lsa, uni e'tirofsiz aniq, o'z muddatida, qanday vaziyat bo'lishidan qat'i nazar, bajarilishi shart. Jang davrida boshliq tomonidan berilgan buyruqni e'tirofsiz, aniq va o'z muddatida bajarishlik dushman ustidan g'alabaga va muvaffaqiyatlarga erishish garovidir.

Qo'shinni va qismlar komandirlarining o'z kundalik faoliyatlari jarayonidagi alohida masalalar bo'yicha topshiriqlari buyruq ohangida bo'ysunuvchiga yetkaziladi. Qo'shinning va qism komandirlarining buyruq va farmoyishlari og'zaki tarzda, tartib-qoidaga asosan, bo'ysunuvchilarga beriladi. Ba'zi bir vaqtlarda katta boshliq, bo'ysunuvchining bevosita boshlig'ini chetlab o'tgan holatda buyruq va farmoyishlar berishi ham mumkin. Qachonki, boshliq og'zaki buyruq yoki farmoyish berayotgan, bo'ysunuvchi «Rostlan» holatini qo'llab, buyruq yoki farmoyishni olib bo'lgach, «Xo'p bo'ladi», deb javob beradi va shundan keyin uni bajaradi. Boshliq o'zi bergan buyruqning to'g'ri tushunilganiga ishonch hosil qilishi zarurati bo'lsa, uni qisqacha takrorlashni talab etishi mumkin.

Harbiy xizmatchi berilgan buyruqning bajarilishi to'g'risida buyruqni bergan boshliqqa va o'zining bevosita boshlig'iga bildiruv berishga majburdir. Agar buyruqni bajarayotgan harbiy xizmatchi xizmat maqomiga ko'ra, boshqa katta boshliqdan birinchisini bajarishga xalaqit beradigan yangi buyruq olsa, bu haqida ikkinchi buyruqni bergan boshliqqa bildiruv beradi. Va tasdiqlangan taqdirdagina oxirgisini bajaradi. Yangi buyruqni beruvchi bu haqda birinchi buyruqni bergan boshliqqa xabar qiladi.

HARBIYCHA SALOM BERISH

Harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilarning birodarlarcha jipsligining ifodasi, o'zaro hurmat va mushtarak madaniyatning namoyon bo'lishi belgisi sanaladi. Barcha harbiy xizmatchilar bir-biriga duch kelganda (quvib o'tishda) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi bilan belgilangan qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda bir-biriga salom berishga majburdir.

Harbiy unvonga ko'ra, bo'ysunuvchilar va kichiklar birinchi bo'lib salom beradilar. Maqomlari teng bo'lgan paytda esa, kim o'zini ko'proq xushmuomala, tarbiya ko'rgan, deb hisoblasa, o'sha birinchi bo'lib salom beradi. Harbiy xizmatchilar bundan tashqari, noma'lum askar qabriga; Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda shahid bo'lgan jangchilarning birodarlik qabristoniga; harbiy qismning Jangovar Bayrog'iga, shuningdek, harbiy kemaga kelganda va undan jo'nab ketayotganda Harbiy Dengiz bayrog'iga; harbiy bo'linmalar kuzatib borayotgan dafn marosimlariga salom berishga majburlirlar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi ijro etilayotganda, safda turgan askarlar komanda berilmasdan «Rostlan» holatiga o'tadilar. Vzvod komandiri va undan yuqori bo'lganlar bundan tashqari, qo'llarini bosh kiyimlariga qadaydilar. Safdan tashqari bo'lgan harbiy xizmatchi Davlat Madhiyasi ijro etilayotgan paytda «Rostlan» holatiga kiradi, agar bosh kiyimi bo'lsa, qo'lini unga qadaydi.

HARBIY QADRIYAT QOIDASI VA HARBIY XIZMATCHILARNING XUSHMUOMALALIGI

Harbiy xizmatchilar bir-birlariga murojaat qilishlarida doimo og'ir, vazmin va xushmuomalada bo'lishga majburlirlar. Xizmat masalalari yuzasidan bir-biriga «Siz», deb murojaat etishlari lozim. Shaxsiy muomala chog'ida harbiy unvon qo'shin yoki xizmat turini ko'rsatmasdan aytadi.

Boshliq yoki kattaning bergan savollariga tasdiq javobi bo'lsa, harbiy xizmatchi «Xuddi shunday», agar tasdiqsiz «Yo'q edi» iboralarini aytadi. Safdan tashqari paytlarda bir-birlariga murojaat etishda, harbiy xizmatchi «Rostlan» holatiga o'tadi, bosh kiyimiga qo'lini qadaydi.

Jamoat joylarida, shuningdek, tramvayda, trolleybusda, avtobusda, metro va shaharoldi poyezdlarining vagonlarida bo'sh turgan o'rinlar bo'lmagan paytda harbiy xizmatchi boshliqqa (kattaga) o'z o'rnini taklif etadi. Agar boshliqqa (kattaga) duch kelganda, bemalol o'tib ketish mumkin bo'lmasa, undan bo'ysunuvchi (kichik) unga yo'l berishi va salom berganicha o'tkazib yuborishi, boshliq (katta)ning yonidan o'tib ketish zarur bo'lib qolganda bo'ysunuvchi (kichik) bunga undan ijozat so'rashi lozim.

Harbiy xizmatchilar noharbiy aholiga nisbatan odob qoidalariga rioya qilishlari, yoshi o'tgan kishilar, ayollar va bolalarga alohida e'tibor ko'rsatishlari, fuqarolar or-nomusi va qadr-qimmatini muhofaza qilishga yordam berishlari, shuningdek, baxtsiz hodisalar, yong'inlar va tabiiy ofatlar chog'ida ularga madad ko'rsatishlari lozim. Harbiy xizmatchi qo'lini kiyim-kechak cho'ntaklariga tiqib yurishi, boshliq (katta)ning ishtirokida uning ruxsatisiz o'tirishi yoki chekishi, shuningdek, ko'chada yurib kelayotganda va bu maqsad uchun ajratilmagan joylarda chekishi man etiladi.

KOMANDIRLAR VA BOSHQA TO'G'RIDAN TO'G'RI BOSHLIQLARGA MUROJAAT ETISH QOIDALARI

Bo'ysunuvchi va kichiklar boshliq (katta)larga murojaat etish chog'ida, ularning harbiy unvoni oldiga «o'rtoq» so'zini qo'shib aytadilar. Masalan, «O'rtoq mayor, murojaat etishga ruxsat bering». Boshliq (katta) oldida turgan harbiy xizmatchiga murojaat etish uchun boshliq (katta)dan ruxsat so'raladi. Masalan, «O'rtoq katta serjant, oddiy askar Normatovga murojaat qilishga ruxsat bering».

Boshliqlar va kattalar xizmat taqozosi bo'yicha bo'ysunuvchilar (kichiklar)ga murojaat qilganda, ularning unvoni va familiyasini yoki faqat unvoni oldiga «o'rtoq» so'zini qo'shib aytadi. Masalan, «Oddiy askar To'ychiyev», «O'rtoq oddiy askar».

HARBIY INTIZOM, UNING MOHIYATI VA QUROLLI KUCHLAR UCHUN AHAMIYATI

Harbiy intizom — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarlik va jangovarlik qobiliyatining asoslaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning jihatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlarda mujassamlashgan.

Harbiy intizom — bu barcha xizmatchilarning qonun, harbiy nizomlar tomonidan, komandirlar (boshliqlar) buyruqlari bilan belgilangan tartib qoidalariga qat'iy va aniq rioya etilishi. Harbiy intizom har bir xizmatchining O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga bo'lgan harbiy burch va shaxsiy mas'uliyati, o'z xalqiga mislsiz sadoqatini his qilishga asoslanadi.

Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchidan:

- harbiy qasamyodga sodiq bo'lishni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga qat'iy bo'ysunishni;

- o'z harbiy burchini mohirlik va jasorat bilan bajarishni, harbiy ishni sidqidildan o'rganishni, harbiy va davlat mulkini asrashni;

- harbiy xizmat qiyinchiliklarini mardonavor yengishni, harbiy burchni bajarish uchun o'z jonini ham ayamasklikni;

- sergak bo'lishni, harbiy va davlat sirlarini qat'iy saqlashni;

- harbiy xizmatchilar o'rtasidagi harbiy nizomlarda ko'rsatib berilgan o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashni, jangovar birodarlikni mustahkamlashni;

- komandir (boshliq)larga va bir-biriga hurmat ko'rsatish, harbiycha salom-alik va xushfe'llik qoidalariga rioya qilishni;

- jamoat joylarida o'zini munosib tutishni, nomunosib xatti-harakatlardan o'zini va boshqalarni tiyib qolishni va fuqarolarning ornomusini himoya qilishni talab etadi. Harbiy intizomni vujudga keltirish, uni yuqori darajaga ko'tarish har bir harbiy xizmatchidan, avvalo, o'zida insoniylik, to'g'riso'zlik, halollik, shaxsiy mas'uliyat, Harbiy Qasamyodga sadoqat, harbiy burchga sharaf, deb qarash kabi xislatlarni vujudga keltirishni talab qiladi. Yuqorida sanab o'tilgan xislatlarni shakllantirishda, avvalo, har bir harbiy xizmatchi mazkur xislatlarni o'zida qaror toptira olishga intilishi kerak.

Armiyada mustahkam intizom bo'lmasa, uning tanazzulga uchrashi muqarrar. Intizom g'alabaning asosi sanaladi. Buyuk sarkarda ajdodlarimiz — To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, general Sobir Rahimov o'z qo'shinlaridagi yuksak intizom tufayli doimo g'alabaga erishganlar.

Yuksak harbiy intizomga ushbu jihatlar orqali erishiladi:

- harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarini tarbiyalash, komandir (boshliq)larga so'zsiz bo'ysunish;

- har bir harbiy xizmatchining o'z majburiyatlari va harbiy nizomlar talablarini bajarishga shaxsiy mas'uliyati;

- harbiy qism (bo'linma)da ichki tartibga bo'ysunish, barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kun tartibiga qat'iy rioya qilish;

- jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish va u barcha shaxsiy tarkibni qamrab olishi;

— komandir (boshliq)larning o‘z qo‘l ostidagilarga talabchanligi va ularning ijrochiligini nazorat qilish, harbiy xizmatchilarning sha‘nini hurmat qilish va bu haqida doimiy qayg‘urish, ishon tirish, jamoatchilik ta’siri kabi omillarni to‘g‘ri uyg‘unlash tirish va o‘rnida qo‘llash;

— harbiy qism (bo‘linma)larda zarur moddiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

— harbiy intizomni mustahkamlashda, xizmatga mas’uliyat hissini oshirish, tarbiya sifatini yuqori darajaga ko‘tarishda harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish alohida ahamiyatga ega. Har bir insonning o‘zi qilgan mehnati samarasini ko‘rishi, uni yangi-yangi yutuqlar sari yetaklaydi. Shularni inobatga olgan holda Intizom Nizomida harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish masalasiga alohida e’tibor berilgan.

VAQTNING TAQSIMLANISHI VA KUNDALIK TARTIB

Harbiy qismda vaqtning taqsimlanishi uning doimiy jangovar shayligi ta’minlanadigan va shaxsiy tarkib jangovar o‘quvini uyushgan holda o‘tkazish sharoitlari yaratiladigan, tartib, harbiy xizmatchilarning harbiy intizomi va tarbiyasi saqlanadigan, ularning madaniyati darajasi oshiriladigan, har tomonlama maishiy xizmat ko‘rsatiladigan, o‘z vaqtida hordiq va ovqat beriladigan darajada amalga oshiriladi.

Harbiy qism yoxud qo‘shilma komandiri kun tartibini Qurolli Kuchlar xili va qo‘shinlar turi, harbiy qism oldida turgan vazifalar, yil fasli, mahalliy va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda belgilaydi.

Kun tartibida tonggi jismoniy mashq, ertalabki va kechki yuvinish, ertalabki ko‘rik, o‘quv mashg‘ulotlari va ularga tayyorlanish, maxsus (ishchi) kiyimini almashtirish, ovqat yeyishdan oldin poyabzal tozalash va qo‘l yuvish, ovqat yeyish, qurol-aslaha va harbiy texnikaga qarov va xizmat ko‘rsatish, tarbiyaviy va ommaviy sport mashg‘ulotlari, shaxsiy tarkibga axborot berish, radio tinglash va teledasturlarni tomosha qilish, xastalarni tibbiyot punktida qabul qilish, harbiy xizmatchilarning shaxsiy ehtiyojlari (kamida 1 soat), kechki sayr, yo‘qlama va 8 soatlik uyqu uchun vaqt ko‘zda tutilgan bo‘lishi lozim.

Ovqat tanovullari o'rtasidagi oraliq 7 soatdan oshmasligi kerak. Tushlikdan so'ng yarim soat (30 minut) mobaynida mashg'ulotlar yoxud ishlar o'tkazilmasligi lozim.

Har hafta qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarga xizmat ko'rsatish, parklar va o'quv-moddiy inshootlarni jihozlash va obodonlashtirish, harbiy shaharchani tartibga keltirish va boshqa ishlarni bajarish maqsadida xo'jalik kuni o'tkaziladi. Ayni shu kuni, odatda, barcha xonalarni yalpi yig'ishtirish, shuningdek, shaxsiy tarkibni hammomda cho'miltirish o'tkaziladi.

ASKAR VA MATROSLARGA QO'LLANILADIGAN RAG'BATLANTIRISHLAR

Rag'batlantirish harbiy xizmatchilarni tarbiyalashning va harbiy intizomni mustahkamlashning muhim vositasidir. Har bir komandir (boshliq) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomida berilgan huquqlar doirasida o'z qo'li ostidagi harbiy xizmatchilarni ko'rsatgan jasorati, foydali tashabbusi, tirishqoqligi va a'lo xizmati uchun rag'batlantirishi lozim.

Askarlar, matroslar, serjantlar va starshinalarga qo'llaniladigan rag'batlantirish ko'rinishlari quyidagilardir: oldindan berilgan intizomiy ta'sir choralari bekor qilish; minnatdorchilik e'lon qilinishi; harbiy xizmatchining yurtiga yoki xizmatgacha bo'lgan o'quv joyi (ish joyi)ga u harbiy burchini namunali bajarayotganligi va rag'batlantirish olganligi to'g'risida xabar berish; Faxriy yorliq; qimmatbaho sovg'a yoki pul bilan mukofotlash; harbiy xizmatchini harbiy qism Jangovar Bayrog'i yonida suratga olish bilan taqdirlash; serjantlar (starshinalar)ga ular shtat bo'yicha egallab turgan lavozimida harbiy unvonida bir pog'ona yuqori harbiy unvon berish, a'lochilik ko'krak nishoni bilan taqdirlash; askar, matros, serjant, starshinalarga yo'lga ketgan vaqtdan tashqari 10 sutkagacha ta'til berish.

A'lochi ko'krak nishoni bilan faqat askarlar, matroslar, serjantlar va starshinalar hamda o'quv yili davomidagi a'lo ko'rsatkichlarga erishganlar taqdirlanadi. Harbiy qism (kema)ning hurmat kitobiga yozish esa, askarlar, matroslar, shuningdek,

serjantlar va starshinalar oxirgi xizmati davrida a'lo ko'rsatkichlarga erishganliklari uchun zaxiraga bo'shatishlari oldidan qo'llaniladi.

Qisqa muddatli ta'til rag'batlantirish tartibiga asosan, muddatli xizmat davomida askarlar, matroslar, shuningdek, serjantlar va starshinalarga bir yilda bir marta, matros va starshinalarga bir yarim yillik muddatli xizmatlari davomida ikki marta beriladi. Rag'batlantirishlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflarida shartnoma asosida xizmat o'tayotgan askarlar, matroslar, serjant va starshinalarga ham qo'llaniladi.

HARBIY XIZMATCHILARGA QO'LLANILADIGAN INTIZOMIY TA'ZIRLAR

Askarlar va matroslarga qo'llaniladigan intizomiy ta'zir ham, shuningdek, rag'batlantirish singari harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, harbiy intizomni mustahkamlashdagi asosiy turlaridan rag'batlantirish bilan birga intizomiy ta'zirlar ham qo'llaniladi. Intizomiy ta'zirni qo'llashdan asosiy maqsad boshqa harbiy xizmatchilar tomonidan bunday kamchilik-nuqsonlarga yo'l qo'ymaslik.

Harbiy intizomni buzgan va ma'muriy qonunbuzarlik uchun harbiy xizmatchi shaxsan javobgardir.

Askar, matros, serjant va starshinalarga beriladigan intizomiy ta'zirlar; hayfsan; qattiq hayfsan; askar va matrosni navbatdagi javob berishdan yoki kemadan sohilga chiqarishdan mahrum qilish; muddatli xizmatdagi askar va matroslarni besh naryadgacha navbatdan tashqari naryadga tayinlash; 10 sutkagacha gaupvtvaxtaga band qilish, harbiy xizmatni o'tayotgan serjant va starshinalarga ulardan tashqari lavozimidan pasaytirish; harbiy unvonidan bir pog'ona pasaytirish; harbiy unvonidan bir pog'ona pasaytirib, past lavozimga o'tkazish; quyi lavozimga o'tkazib, serjant (starshina) unvonidan mahrum qilishlar qo'llaniladi. Harbiy xizmatni shartnoma asosida o'tayotgan askar, matros, serjant va starshinalarga, ulardan tashqari, zaxiraga muddatidan oldin bo'shatish, muddatidan oldin zaxiraga bo'shatib, serjant (starshina) unvonidan mahrum qilish belgilangan.

Intizomiy ta'zir chorasi va aybi aniqlanganda, quyidagilar e'tiborga olinadi: xatti-harakatlarining tavsifi, u sodir etilgan holat,

uning aybdorlari, aybdorning oldingi xulqi, shuningdek, tartibini bilish darajasi. Intizomiy ta'zirning qattiqligi, agar voqea jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) va boshqa xizmat vazifalarini bajarishda, mast holatda yoki tartibni jiddiy buzishga olib kelsa kuchayadi.

Intizomiy ta'zirlar qoidaga ko'ra, zudlik bilan ijro etiladi va favqulodda holatlarda bir oy ichida ijro etiladi. Bir oylik muddat tugagach, ta'zir ijro etilmaydi, lekin u haqdagi qayd xizmat varaqasida saqlanadi. Rag'batlantirish va intizomiy ta'zir choralari to'g'ridan to'g'ri boshliqlar, ayrim hollarda garnizon boshliqlari, dengiz kattalari va garnizon harbiy komendantlari tomonidan belgilanishi mumkin.

HARBIY XIZMATCHILARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

O'ziga ishonib topshirilgan qurollarni va harbiy texnikalarni saqlash tartibini buzgan, belgilangan vazifa hamda majburiyatlarni bajarmagan harbiy xizmatchilar intizomiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Intizomiy javobgarlik askarga jamoat tartibini va harbiy intizomni buzgan holatlarda qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik bo'yicha qonunbuzarliklar quyidagilar:

- bo'ysunmaslik, boshliqqa qarshilik ko'rsatib yoki uning xizmat vazifalarini bajarish vaqtida buzilishga olib kelish; boshliqqa nisbatan kuch ishlatib qo'rqitish; harbiy xizmatchini haqorat qilish; harbiy xizmatdan bosh tortish; harbiy sirlarni oshkor qilish; topshirilgan qurol va harbiy texnikalarni buzish va yo'qotish; mashinalarni haydash qoidasini buzish; jangovar navbatchilik, qorovul va ichki xizmat tartibini buzish holatlaridir.

Harbiy xizmatchining xatti-harakatida jinoyat tarkibi borligi aniqlansa, komandir (boshliq) harbiy prokurorni xabardor qiladi, zarurat taqozosidan jinoiy ish qo'zg'ab, tergov boshlaydi. Xizmat majburiyatlarini bajarish paytida noto'g'ri harakat tufayli keltirilgan zarar uchun moddiy javobgarlikka tortiladi va intizomiy tartibda jazolanish moddiy javobgarlikdan saqlab qolmaydi. Muddatli harbiy xizmatchilar shaxsiy foydalanishida bo'lgan kiyim-kechaklarni sovurib yuborsa, hisobsiz badalidan tashqari bahosini to'liq to'laydilar.

HARBIY JINOYATLARNING TURLARI VA ULAR UCHUN JAVOBGARLIK

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tayotgan askar-matrosalar, serjant-starshinalar va ofitserlar sodir etgan nojo'ya harakatlari, qilmishlari uchun O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan asosda jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bo'ysunmaslik, ya'ni buyruqni bajarishdan ochiqdan ochiq bosh tortish, shuningdek, buyruqni boshqa tarzda qasddan bajarmaslik — 279-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish bilan jazolanadi. O'sha qilmish bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa — 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 5 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum etilish bilan jazolanadi.

Buyruqni ehtiyotsizlik tufayli bajarmaslik ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa — 280-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat yuzasidan cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish bilan jazolanadi. O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Boshliqqa, shuningdek, harbiy xizmat yuzasidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarayotgan boshqa shaxsga qarshilik ko'rsatish yoki uni mazkur vazifalarni buzishga majbur etish — 281-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoxud bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakatlar bir guruh shaxslar tomonidan, qurol ishlatib sodir etilgan bo'lsa, og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakatlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 5 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jangovar vaziyatda boshliqni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, bunday harakat amalga oshirilishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa — 282-moddaga asosan, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Boshliqni do'pposlash, uning badaniga yengil yoki o'rtacha, og'ir shikast yetkazish u harbiy xizmat yuzasidan o'z vazifalarini bajarganligi munosabati bilan yoki bajarayotgan vaqtda sodir etilgan bo'lsa — 283-moddaga asosan, uch yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Badanga og'ir shikast yetkazish, shuningdek, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar bir guruh shaxslar tomonidan, qurol ishlatib sodir etilgan bo'lsa — 3 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakatlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 7 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini, shuningdek, boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi shunday harakatlar uchun intizomiy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa — 284-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki 3 oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid Nizom qoidalarini buzish, ya'ni muntazam xo'rlash, azob berish, sog'liqning buzilishiga sabab bo'lgan badanga yengil shikast yetkazish yoki o'rtacha, og'ir shikast yetkazish, qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish — 285-moddaga asosan, 6 oyga qamoq yoxud bir yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Marodiyorlik, ya'ni halok bo'lganlarning yoki yaradorlarning buyumlarini jangovar vaziyatda egallash — 286-moddaga asosan, 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Muddatli xizmat harbiy xizmatchining harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, harbiy qismdan qisqa muddatga ruxsat berilganda, boshqa xizmatga tayinlanganda yoki boshqa xizmat joyiga o'tkazilganda, xizmat safaridan, ta'tildan yoki davolash muassasasidan uzrli sabablarsiz bir kecha-kunduzdan ortiq, lekin o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyida hozir bo'lmasligi, shunday qilmishlar uchun intizomiy jazo chorasi qo'llanilmaganidan keyin sodir etilgan bo'lsa — 287-moddaga asosan, 6 oygacha qamoq yoki 1 yilgacha intizomiy qismga yuborish bilan jazolanadi.

Muddatli xizmat harbiy xizmatchisi, ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt

(shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchining qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, uzrli sabablarsiz belgilangan muddatdan o'n kecha-kunduzdan ortiq, lekin bir oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyiga yetib kelmasligi — 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, xizmatga belgilangan muddatda uzrli sabablarsiz bir oydan ortiq vaqt ichida yetib kelmaslik ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa — 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddada nazarda tutilgan qilmishlar jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa, muddatidan qat'i nazar — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Dezirtirlik, ya'ni harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslik — 288-moddaga asosan, 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha qilmish ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchi tomonidan sodir etilgan bo'lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin.

Halok bo'layotgan harbiy kemani o'z xizmat vazifalarini oxirigacha bajarmagan komandir tomonidan, shuningdek, komandirning tegishli farmoyishi bo'lmasdan kema jamoasi tarkibidagi shaxs tomonidan tashlab ketilishi — 289-moddaga asosan, 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zining biron a'zosini mayib qilish, ya'ni harbiy xizmatchining o'z badaniga biron shikast yetkazish yo'li bilan, shuningdek, o'zini yolg'ondan kasallikka solib, hujjatlarni qalbaki-lashtirish yoki boshqacha aldash yo'li bilan harbiy xizmat vazifalarini bajarishdan bo'yin tovlashi yoki bu vazifalarni bajarishdan bosh tortishi — 290-moddaga asosan, 6 oygacha qamoq yoki 1 yilgacha intizomiy qismga yuborish yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakat jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qorovul (soqchilik) xizmati Nizom qoidalarini qorovul tarkibiga kirgan shaxs tomonidan zararli oqibatlar keltirib chiqaradigan tarzda buzish, basharti, mazkur qorovul bunday oqibatlarning oldini olish uchun tayinlangan bo'lsa — 291-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoxud 3 oygacha qamoq yoki 1 yilgacha intizomiy qismga yuborish bilan jazolanadi. O'sha qilmish badanga og'ir shikast yetkazishiga, odam o'limiga, boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha qilmish jangovar vaziyatda sodir etilgan bo'lsa — 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ichki xizmat Nizomi qoidalarini, shuningdek, garnizonda patrullik qilish qoidalarini zararli oqibatlar keltirib chiqaradigan tarzda buzish, tegishli xizmat bunday oqibatlarning oldini olish uchun tayinlangan bo'lsa — 292-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki 6 oygacha qamoq yoxud 1 yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jangovar navbatchilikni o'tash (jangovar xizmat) qoidalarini buzish qo'riqlanayotgan obyektlarga zarar yetkazilishiga yoki jangovar topshiriq bajarilmay qolishiga sabab bo'lsa — 293-moddaga asosan, 2 yilgacha xizmat bo'yicha cheklash yoki 6 oygacha qamoq yoxud 1 yilgacha intizomiy qismga yuborish yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha qilmish O'zbekiston Respublikasiga to'satdan qilingan hujumni o'z vaqtida payqamaganlik yoki daf etmaganlikda ifodalansa, shuningdek, og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Harbiy xizmatchining umumiy majburiyatlari nimalardan iborat?
2. Harbiy unvonlar va farqli belgilar haqida nima bilasiz?
3. Buyruq berish va uni bajarish tartibini bayon eting.
4. Harbiy intizomning qonun-qoidalarini bilasizmi?
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida harbiy tartibni buzganlik uchun qanday javobgarlik choralari ko'zda tutilgan?

5-bob. KUNDALIK NARYAD, VZVOD BO'YICHA POSBONNING VAZIFALARI

Kundalik naryad harbiy qismning ichki tartib-intizomini saqlash, shaxsiy tarkibni qurol-aslahasi, harbiy texnikasi, o'q-dorilari, inshootlari va mulkini qo'riqlash bo'linmalarida ishlarning holatini nazorat qilish hamda huquqbuzarliklardan ogohlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida qabul qilishi, shuningdek, ichki xizmat bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarish uchun belgilanadi. Vzvodning kundalik naryadiga navbatchi va posbonlar tayinlanadilar. Posbonlarning almashinishi va ularning soni brigada komandiri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Kundalik naryadning shaxsiy tarkibi kun tartibida ko'rsatilgan soatda xizmat o'rnini egallaydigan, 3 soat oldin qorovul o'rnini egallaganda esa, kamida 4 soat oldin xizmatni o'tashga tayyorgarlik ko'rishi, shu jumladan, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish kamida 1 soatdan dam olish (uxlash) uchun berilishi shart. Navbatchi va posbonlar nayza-pichoq bilan qurollanadi. Navbatchi serjantlardan, istisno tarzida hammadan ko'ra, yaxshi tayyorlangan askarlar orasidan tayinlanadi. U vzvodda kun tartibining aniq bajarilishi va ichki tartib rioya qilinishi, qurollar, o'q-dorili qutilar, vzvod mulki, askar va serjantlarning shaxsiy buyumlari saqlanishi va posbonlar xizmatni to'g'ri o'tashi uchun javob beradi.

Navbatchi brigada bo'yicha navbatchiga, uning yordamchisiga, vzvoddagi ichki xizmat yo'sinida esa, vzvod komandiriga, vzvod starshinasiga bo'ysunadi. Navbatchida metallardan tayyorlangan ko'krak nishoni yoki chap qo'lida nimqattiq matodan yengbog'ich bo'lib, unda «Vzvod bo'yicha navbatchi» yozuvi bo'lishi kerak.

VZVOD BO'YICHA POSBONNING MAJBURIYATLARI

Vzvod bo'yicha posbon askarlardan tayinlanadi. Uning muhofazasida bo'lgan qurollar, to'plangan javonlar (qutilar), o'q-dori qutilari, vzvod mulki, askar va serjantlarning shaxsiy buyumlarini saqlanishi uchun javob beradi. Vzvod bo'yicha navbatchiga bo'ysunadi.

Navbatchilikdagi vzvod posboni quyidagilarni bajarishga majbur: vzvod bo'yicha navbatchining ruxsatisiz vzvod xonasidan hech qayoqqa jilmaslikka, qurol saqlash xonasini doimiy kuzatib



131-rasm. Vzvod bo'yicha posbon.

turishga, begona kishilarni xonaga o'tkazmaslik, shuningdek, kazarmadan vzvod bo'yicha navbatchini olib chiqib ketilishiga yo'l qo'ymaslikka, vzvoddagi barcha ko'ngilsiz hodisalar, vzvod askarlari yoxud serjantlari o'rtasida o'zaro munosabatlarining nizomlarda belgilangan qoidalari buzilishlari to'g'risida vzvod bo'yicha navbatchiga zudlik bilan bildirish; ularni bartaraf etish uchun choralar ko'rish; shaxsiy tarkibni umumiy uyg'otish paytida, shuningdek, trevoga paytida yoxud yong'in bo'lganda uyg'otish; kun tartibiga muvofiq, komandalarni o'z vaqtida berishga; xonalarda ozodalik va tartibni nazorat qilib turish, xizmatchilardan ularga rioya qilishni talab etish, harbiy xizmatchilar faqat ajratilgan xonalar yoxud joylarda chekishlariga, poyabzal va kiyimni tozalashlariga ko'z-quloq bo'lib turishga, vzvod komandiri va undan yuqori, to'g'ridan to'g'ri boshliqlar va brigada bo'yicha navbatchi kelganda, «Rostlan» komandasini berish; vzvodning boshqa ofitserlari, shuningdek, vzvod starshinasi va o'z vzvodidan bo'lmagan harbiy xizmatchilar vzvodga kelishi bilan navbatchini chaqirishga majbur.

Masalan, navbatdagi posbonga o'tirish, qurol-aslahalarini yechish hamda kiyimining tugmasini yechish man etiladi. Bo'sh turgan smena posbonni vzvod xonalarida ozodalik va tartibni saqlashga hamda vzvod bo'yicha navbatchining ruxsatisiz hech qayoqqa jilmaslikka, vzvod askarlari yoxud serjantlari o'rtasidagi o'zaro munosabatning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalari buzilgan hollarda bo'sh posbon tartib o'rnatishga yordam berish; vzvod bo'yicha navbatchi o'rnida qolganda, uning majburiyatlarini bajarishga majburdir (131-rasm).

NAVBATDAGI POSBON O'Z VAZIFALARINI BAJARADIGAN JOY VA UNING JIHOZLANISHI

Vzvod bo'yicha navbatdagi posbon kazarma xonasi ichkarisida kirish eshigi oldida, qurol saqlash uchun xona yaqinida xizmatni o'taydi. Xizmat burchini o'tash uchun alohida joy jihozlanadi. Jihozlanishga quyidagilar kiradi:

- vzvod bo'yicha navbatchining hujjatlar stendi;
- yog'ochdan tayyorlangan tumbochka, telefon;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Nizomlari va o't o'chirish anjomlari.

Navbatchining hujjatlarida quyidagilar yoritilishi kerak:

- vzvod bo'yicha navbatchi va posbonlarning yo'riqnomalari;
- trevoga sodir bo'lganda yoki yig'in e'lon qilinganda yoki yong'in chiqqanida ko'riladigan tadbirlar yo'riqnomasi, kun tartibi;
- vzvod harbiy xizmatchilarining, kazarmadan tashqarida yashovchilarning ro'yxati, uy manzili, telefonda chaqirish turlari;
- vzvodga biriktirilgan hudud o'ramini tozalash sxemasi;
- ertalabki badantarbiya o'tkazishda askarlar kiyimi namunalari;
- navbatchilikni qayd qilish kitobi, qurol-yarog', o'q-dorilar berishni ro'yxatga olish kitobi;
- vzvod bo'yicha kasallarni yozish daftari;
- harbiy qism bo'yicha navbatchi va o't o'chirish komandasining telefon raqamlari bo'lishi shart.

TREVOGA E'LOK QILINGANDA, YONG'IN PAYTIDA, TO'G'RIDAN TO'G'RI BOSHLIQLAR, BOSHQA VZVODDAGI HARBIY XIZMATCHILAR KELGANDA, VZVOD KOMANDIRINI CHAQIRISHDA POSBONNING XATTI-HARAKATLARI

Bu o'quvchilar bilan amaliy bajariladi. Vzvodda trevoga e'lon qilinganda, posbon namunali komanda bo'yicha «Vzvod, trevoga», deb harbiy xizmatchilarni chaqiradi.

Agar yong'in sodir bo'lsa, «Vzvod, yong'in» komandasi berish bilan ogohlantiriladi. Vzvoddagi shaxsiy tarkib uyquga yotish oldidan esa «Vzvod, uyquga» komandasini, tong saharda uyqudan uyg'otish uchun esa, «Vzvod, uyg'onsin» komandalari beriladi. Vzvodga to'g'ridan to'g'ri boshliqlar kelsa, «Rostlan. Vzvod navbatchisi eshikka» komandalari beriladi. Bu komandalar vzvod komandiri kelganda ham xuddi shunday beriladi. Vzvod shaxsiy tarkibi uyquga ketgan vaqtda, to'g'ridan to'g'ri boshliqlar kelib qolganda «Rostlan» komandasi berilmasdan, vzvod bo'yicha navbatchi chaqiriladi. Vzvod komandiri biron-bir harbiy xizmatchini yo'qlaganda, posbon chaqiruv komandasini beradi. Masalan, «Oddiy askar Soliyev, vzvod komandirining oldiga».

Vzvodga uch nafargacha posbonlar tayinlanib, dam olayotgan posbonlar esa, kazarma xonalarini ozoda, sarishta holatga keltirib boradilar. Vzvoddagi navbatchi kunduzi dam olayotgan vaqtida, uning vazifasini vaqtincha vzvod posbonlaridan biri bajarib turadi.



1. Kundalik naryad qanday maqsadda tuziladi?
2. Vzvod bo'yicha posbonlar tarkibi necha kishidan iborat bo'ladi?
3. Boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar tashrif buyurganda, posbon qanday harakatlar qiladi?
4. Vzvod bo'yicha naryad tarkibi qanday qurollanadi?

6-bob. QOROVUL XIZMATI

6.1. Qorovul xizmati va uning tashkil etilishi

Qorovullik xizmatini o'tash jangovar vazifani bajarish hisoblanib, shaxsiy tarkibdan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovul xizmati Nizomining barcha qoidalariga to'liq rioya qilinishini, yuksak hushyorlik, bukilmas matonat va tashabbuskorlikni talab etadi. Qorovullik xizmati talablarini buzgan aybdorlar axloq tuzatish yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi Nizomda ko'rsatilgan.

Harbiy qismlarda qorovullik xizmatini amalga oshirish uchun qorovullar tayinlanadi. Qism Jangovar bayrog'ini, harbiy va davlat obyektlarini qo'riqlash ularni himoya qilish bilan birga jangovar vazifani bajarayotgan, shuningdek, gauptvaxta va axloq tuzatish batalyonlarida saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlayotgan qurollangan bo'linma qorovul deb ataladi. Qorovullar ikki turga: *garnizon qorovuli* va *ichki qorovulga* bo'linadi.

Garnizon qorovuli zimmasiga korpus va markaziy obyektlarni qo'riqlash, ularni himoya qilish, o'zining qo'riqlash bo'linmasiga ega bo'lmagan umumgarnizon ahamiyatiga molik bo'lgan obyektlarni hamda bir-biriga yaqin joylashgan harbiy qismlar va bo'linmalar obyektlarini, shuningdek, garnizon gauptvaxtasida saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlash xizmatlari kiradi.

Ichki qorovullar zimmasiga esa, har bir harbiy qism obyektlarini qo'riqlash va himoya qilish topshiriladi. Harbiy qismlardagi samolyotlar, vertolyotlar, aerodromdagi aviatsiya qismining boshqa obyektlarini qo'riqlash va ularni himoya qilishni harbiy qism tomonidan tashkil etilgan ichki qorovul amalga oshiradi.

Doimiy qorovullar qorovullar jadvalida bo'lib, vaqtinchalik qorovullar esa jadvalga yozilmaydi, ular ortilayotgan va tushirila-

yotgan yoki vaqtincha omborda turgan harbiy mollarni qoʻriqlash va himoya qilish, turli transport vositalarida tashilayotganda harbiy mulklarni kuzatish, shuningdek, bandilar va mahbuslarni qoʻriqlash uchun garnizon boshligʻi yoki harbiy qism boshligʻining buyrugʻi bilan tayinlanadi.

Garnizon qorovuli garnizon boshligʻiga, garnizon harbiy kome-dantiga, garnizon boʻyicha navbatchi va uning yordamchisiga, gauptvaxta boshligʻiga ham boʻysunadi. Ichki qorovul esa harbiy qism komandiriga, harbiy qism boʻyicha navbatchiga va harbiy qism boʻyicha navbatchi yordamchisi, agarda ofitser boʻlsa boʻysunadi. Harbiy qism boʻlinmalarida alohida joylashgan batalyon (divizion) obyektlarini qoʻriqlayotgan ichki qorovul yuqoridagilardan tashqari oʻsha batalyon (divizion) komandiriga va harbiy unvoni jihatidan teng yoki katta boʻlsa, oʻsha batalyon (divizion) boʻyicha navbatchiga boʻysunadi.

Serjantlardan tayinlangan harbiy qism boʻyicha navbatchi yordamchisiga boshliqlari ofitser boʻlmagan qorovullar boʻysunadi. Tarqatish paytida garnizon (harbiy qism) boʻyicha navbatchini qarshi olish uchun, «Qaddingni rostla» komandasi berilgandan boshlab, qorovullar yuqoridagi shaxslar ixtiyoriga oʻtadi. Alma-shinuvdan soʻng oʻz harbiy qismiga (boʻlinmasiga) yoʻlga chiqish uchun qorovul boshligʻining «Qadam bos» komandasi berilgandan boshlab ularning ixtiyoridan chiqadi.

6.2. Qorovul va uning tarkibi. Soqchi va uning majburiyatlari

Jangovar vazifani oʻtayotgan qorovul tarkibi quyidagilardan iborat boʻladi: qorovul boshligʻi, post va almashuvi soni boʻyicha qorovullar, tarqatuvchi, zarurat tugʻilsa, qorovul boshligʻi yordamchisi, qorovul boshligʻining texnika vositalar bilan qoʻriqlash boʻyicha yordamchisi (operator) yoki operatorlar smenasi (uch, toʻrt kishi, ulardan bittasini qorovul boshligʻining texnika vositalar bilan qoʻriqlash boʻyicha yordamchisi etib tayinlash mumkin, qorovul boshligʻining qoʻriqchi itlar xizmati boʻyicha yordamchisi va transport vositalari haydovchilari).

Birlashmalar, undan yuqori shtab va boshqarma punktlarini, shuningdek, muassasalarni qoʻriqlash boʻyicha qorovullar safida yuqorida sanalgan shaxslardan tashqari, nazorat oʻtkazish postlari qorovullari, gauptvaxtadagi qorovul safida esa tashqariga chiqaruvchi boʻladi.

Obyektlarni bevosita qo‘riqlash va himoya qilish uchun qorovullar safidan soqchilar chiqariladi. O‘ziga topshirilgan postni qo‘riqlash va himoya qilish bo‘yicha jangovar vazifani bajaruvchi qurollangan qorovul *soqchi* deb ataladi. Qo‘riqlash va himoya qilish uchun soqchiga topshirilgan barcha narsa, shuningdek, u o‘z vazifasini bajarayotgan joy yoki yer uchastkasi *post* deb ataladi, texnik himoya vositalari yordamida qorovul qo‘riqlayotgan obyektlar va bu himoya vositalari o‘rnatilgan yer uchastkasi ham postga qaraydi.

Soqchi obyektlar himoyasini obyekt atrofida ichki va tashqi devor o‘rtasida, agar obyekt bitta devor bilan o‘ralgan bo‘lsa, devorning ichki tomoni bo‘ylab patrullik qilish yo‘li bilan amalga oshiradi. Shuningdek, soqchilikni minoradan turib amalga oshirsa ham bo‘ladi. Ayrim postlarni soqchilar joyida turib qo‘riqlashlari mumkin. Muhim ahamiyatga molik davlat va harbiy obyektlar qo‘riqlanayotganda soqchilar o‘z vazifasini kuzatuv minorasidan turib amalga oshiradilar. Bunday hollarda ular uzoqligi 500 metrgacha bo‘lgan obyektlarni qo‘riqlashi va himoya qilishi mumkin.

Obyektlarni patrullik yo‘li bilan qo‘riqlashni tashkil etishda, ularni o‘ralishi va yerning shart-sharoitlariga qarab qo‘riqlash va himoya qilish uchun soqchiga quyidagicha qo‘shimcha uchastkalari beriladi: kunduzi — 1000 metrgacha, kechasi — 500 metrgacha, texnik himoya vositalari bilan jihozlangan obyektlarda esa kunduzi — 2 kilometrgacha, kechasi — 1 kilometrgacha. Noqulay ob-havo (qalin tuman, yomg‘ir, qor yoqqanida) obyektlar himoyasini kuza-tish uchun, qo‘shimcha qorovul yoki transport vositasida patrul tayinlanishi mumkin.

Obyektni mustahkam qo‘riqlashni ta‘minlash uchun harakat yo‘nalishi bo‘yicha zudlik bilan yurib ketayotgan soqchi atrofni va devorlarni kuzatish uchun, shuningdek, xizmatning borishi haqida aloqa vositasi orqali qorovul boshlig‘iga xabar berish uchun to‘xtab oladi. Atrof yaxshi ko‘rinishda bo‘lib, joy sharoiti shunga yo‘l qo‘ysa, soqchi xizmatini kuzatuv minorasi orqali amalga oshiradi.

Soqchiga yordam berish zarurati tug‘ilganda, har bir qorovul-xonada sergaklardan va dam olayotganlardan zaxira guruhi tuziladi. Ular qorovulning «Qurollan» degan chaqirig‘ini eshitishi bilan qorovul boshlig‘i, uning yordamchisi yoki tarqatuvchi rahbarligida tartib buzilgan joyga yetib boradi hamda vaziyatga qarab ish ko‘radi. Bunday guruhlarini tartib buzilgan joyga zudlik bilan yetkazish zarur bo‘lgan paytlarda ular transport vositasi bilan, ayrim hollarda esa zirhli transportyor (jangovar mashina)lar bilan ta‘minlanadilar.

Qorovul shaxsiy tarkibi qorovul kiyimida (1-ilova) bo'lishi lozim. Ular otishga yaroqli nayza-pichoqli avtomat yoki nayzali karabin bilan, qorovul boshlig'i va uning yordamchilari shtatlar bo'yicha qurollanadilar. Qorovul xizmatini o'tayotganlar jangovar patronlar bilan ta'minlanadilar: har bir to'pponcha va avtomatga — ikkitadan to'ldirilgan o'qdon; har bir karabinga — o'ttizta patron solingan bitta oboyma. Garnizon boshliqlari yoki harbiy qism komandirlarining buyrug'i bilan qorovullarning har biri pulemyot, uchta to'ldirilgan o'qdoni bilan va har bir qorovulga ikkitadan granata berilishi mumkin.

Qorovul shaxsiy tarkibiga o'q-dorilar, to'pponcha bilan qurollanganlardan tashqari, qorovullik o'quv maydonchasidagi amaliy mashg'ulotdan so'ng beriladi.

1-ilova

QOROVULNING KIYIM-KECHAGI

1. Qorovulning kiyim-kechagi (pochapo'stin, issiq dala kamzulidan) toza va yaroqli kundalik dala kiyim-kechagi to'plamidan, poyabzal, bosh kiyimi, bel kamari va o'qdon (o'q joylashgan ramka) xaltasidan iborat bo'ladi.

Jangovar bayroqda postda turgan harbiy qism qorovullari bayramona kiyim-kechakda bo'lishlari mumkin.

Post kiyim-kechagi sifatida: qish vaqti uchun po'stin va kigiz etik, yoz vaqti uchun qalpoqli plash yoki plash-chodir va ho'l bo'lmaydigan poyabzal qo'llanishi mumkin.

Post kiyim-kechagi, po'stindan tashqari, har bir postga ikki to'plamdan iborat bo'lib, ulardan biri qorovulxonada, boshqasi postda turadi. Bundan tashqari, qorovulxonada plash yoki plash-chodir va qorovul boshlig'i, uning yordamchisi, tarqatuvchilari va tashqariga olib chiquvchilar uchun maxsus ho'l bo'lmaydigan etik bo'lishi kerak.

Alohida hollarda garnizon boshlig'ining buyrug'i bilan soqchilar o'q o'tkazmaydigan zirhli kiyim va po'lat qalpoq kiyishlari mumkin.

2. Qorovullar postlarga tayinlanish joyiga shinelda (pochapo'stin, issiq dala kamzulda) kelishi kerak, havo issiq paytlar garnizon harbiy komendantining (harbiy qism shtab boshlig'ining) buyrug'i bilan qorovul postlarga tayinlanish joyiga shinelsiz (pochapo'stinsiz, issiq dala kamzulsiz) kelishi mumkin.

Shinelni (pochapo'stinni, issiq dala kamzulini) kiyib yurish tartibi: postlarga tayinlash payti qorovullar bo'yicha (harbiy qism bo'yicha) navbatchi uchun, tayinlashdan keyin qorovul boshlig'i uchun o'zgartirilishi mumkin.

3. Yoz kunlari sovuq shamol va yomg'ir payti smena, postlarga shinellarda (issiq dala kamzullarida) jo'nash mumkin. Havo harorati soyada 15°C dan yuqori bo'lganda smenalarga shinellarni (issiq dala kamzullarini) qorovulxonada ilgichda qoldirishga ruxsat beriladi.

4. Yomg'irli havoda smena postlarga qorovul plash (plash-chodir) va suv o'tmaydigan poyabzalda jo'naydi. Plashlarni (plash-chodirni) soqchilar zarurat tug'ilganda yechishadi (kiyishadi).

5. Post po'stini postda smena almashingan chog'da kiyiladi. Kigiz etik qorovulxonada kiyiladi. Po'stin va kigiz etikni harorati —5°C darajada va izg'irinli sovuq shamolda kiyishga ruxsat etiladi.

Po'stin shinelning (issiq dala kamzuli) ustidan kiyiladi. Yechilgan po'stin va plash (plash-chodir) post boshpanasiga yoki kuzatish minorasiga ilib qo'yiladi. Plash (plash-chodir) va kigiz etik postdan kelganda yechiladi va quritiladi.

6. Ichi isitiladigan binolardagi soqchilar harorat 18°C dan past bo'lmagan darajada doim shinelsiz (pochapo'stinsiz, issiq dala kamzulisiz) bo'lishlari kerak.


6.3. Qorovullarni tayyorlash

Qorovullar tayinlangan harbiy qism komandirlari qorovul shaxsiy tarkibining tayinlanishiga va uni xizmatga tayyorlashga, qurollar va o'q-dorilarning ishlatishga yaroqli holatiga va qorovullarning o'z vaqtida tarqatish tadbiriga yetib kelishiga javob beradi.

Harbiy qasamyod qabul qilmagan, yangi xizmatga kelgan, lekin hali ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lmagan, jinoyat qilgan, jinoyat qilishda shubhalanib ustidan tergov ishlari olib borilayotgan, o'zi-ning axloqiy-ruhiy jihatidan shu paytda qorovullik xizmatini o'tashga tayyor bo'lmagan, kasal va boshqa harbiy xizmatchilarni, shuningdek, axloq tuzatish jazo muddatini o'tayotganlarni qorovullikka qo'yish taqiqlanadi.

Naryadga kiradigan tunda qorovullikka tayinlangan harbiy xizmatchilar hech qanday xizmatga, mashg'ulotga yoki ishga jalb etilmasligi kerak. Naryadga kirayotgan kun qorovul shaxsiy tarkibiga kun tartibida belgilangan soatlarda xizmatni o'tashga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida 3 soat vaqt berilishi lozim. Qorovullikka turgandan so'ng bir kun o'tgach esa 4 soat, jumladan, 1 soat uxlashga vaqt beriladi.

Vzvoddan (batareyadan) tayinlangan qorovul shaxsiy tarkibini tayyorlash shaxsan vzvod (batareya) komandiri tomonidan amalga oshiriladi.



132-rasm. Shaxsiy tarkibni xizmatni o'tashga tayyorlash uchun qorovul shaharchasini jihozlash:

O'quv-mashq joylari:

A—qorovulni nazariy o'qitish sinfi; B—qurolni o'qlash va o'qsizlashni mashq qilish; D—postni qabul qilish va topshirish; E—yong'in chiqqanda soqchi harakati; F—turli shart-sharoit paytida soqchining postdagi harakati; G—qo'l jangi usullari mashqi; H—Jangovar Bayroq postida soqchining harakati; I—soqchini harbiy yuk (harbiy qism, shunday ishga ajratiladigan qorovul uchun) ortilgan transportni qo'riqlashga tayyorlash.

Jihozlar:

1—yoritish plafoni; 2—plakatlar (o'zlashtiriladigan o'quv-mashq mavzulari) uchun lavha; 3—o'to'chirgichlar; 4—aloqa vositalari; 5—taqiqlangan chegara (begona kishilarga yaqin kelishi taqiqlangan masofa); 6—qo'riqlashning texnik vositalari, nazorat-o'tish yo'lagi va soqchining hamda transport vositalarining yurishi uchun so'qmoq (yo'l) bilan jihozlangan postlar perimetri belgilari; 7—post boshpanasi; 8—boshqarish pulti; 9—qo'l jangi usullarini mashq qiladigan joy; 10—qorovul saflanadigan maydoncha; 11—plakat (postdagi soqchining qo'lidagi qurol holati); 12—soqchi uchun o'ralgan to'siq; 13—plakat (qorovulda turadiganlar majburiyatlari va harbiy yuk ortilgan transportni qo'riqlash chog'idagi xavfsizlik talablari); 14—qorovul shaxsiy tarkibi bilan mashg'ulot o'tkazish rejasi; 15—pul solinadigan quti; 16—o'qdonlarga (o'q joylaydigan ramkalarga) o'q solinadigan joy; 17—poyabzal tozalaydigan joy.

Qorovullik xizmatini o'tashga tayyorgarlik uch bosqichda olib boriladi:

- birinchi, naryadga kirishdan ikki-uch kun oldin postlar raqami bo'yicha qorovul shaxsiy tarkibi tayinlanadi va bo'linadi;

- ikkinchi, naryadga kirishdan bir kun oldin kun tartibida ko‘rsatilgan soatlarda qorovul shaxsiy tarkibi bilan harbiy nizom qoidalarini, qo‘riqlanadigan obyektlar maketiga post raqamini qo‘ygan holda postdagi soqchining asosiy majburiyatlari va harakat turlarini o‘rganish, xavfsizlik talablarini bajarish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;

- uchinchi, qorovullikka kiradigan kun postdagi soqchining vazifasi haqida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Nizom qoidalari va soqchining asosiy vazifalarini o‘rganish mashg‘ulotlari qorovullar tayyorlash sinfida, garnizon qorovullari bilan amaliy mashg‘ulot — harbiy komendatura qorovullik shaharchasida, ichki qorovullar bilan mashg‘ulot esa — harbiy qism qorovullik shaharchasida o‘tkaziladi (132-rasm).

6.4. Soqchi va uning majburiyatlari

Soqchi daxlsiz shaxsdir. Uning daxlsizligi quyidagilardan iborat:

- uning huquqlari va insoniy qadr-qimmati qonun bilan himoya qilinishida;

- uning qat‘iy ma‘lum shaxslarga — qorovul boshlig‘iga, uning yordamchisiga va o‘zining tarqatuvchisiga bo‘ysunishida;

- xizmati bo‘yicha barcha shaxslar uning talablarini so‘zsiz bajarishlarida;

- Nizomda ko‘rsatilgan hollarda qurol ishlatish huquqi berilishida.

Faqat qorovul boshlig‘i, qorovul boshlig‘i yordamchisi va soqchi bo‘ysunadigan tarqatuvchi soqchini postdan almashtirish va olish huquqiga ega. Qorovul boshlig‘i va uning yordamchisi va tarqatuvchi vafot etsa yoki jismoniy jihatdan o‘z vazifasini bajara olmay qolsa, qorovullarni postdan olish va almashtirishni garnizon (harbiy qism) bo‘yicha navbatchi o‘z vzvodi (batareya) yoki batalyoni (divizioni) komandiri ishtirokida amalga oshiriladi.

Qorovul postni qabul qilib olishdan oldin tarqatuvchi (qorovul boshlig‘i yoki uning yordamchisi) va navbatchi topshirayotgan soqchi bilan shaxsiy tabel raqami bo‘yicha qo‘riqlashga qabul qilinayotgan barcha narsaning mavjudligini tekshirishi; bandilarni qo‘riqlashi uchun — postda turayotgan paytda esa qulflar, panja-

ralarning holatini va kameralarda saqlanayotgan bandilarning sonini tekshirishi kerak.

Soqchi quyidagilarga majburdir:

- o'z postini sergaklik bilan qo'riqlashga va tik turgancha himoya qilishga;

- sergak himoya qilishga, hech narsaga chalg'imaslikka, qurolini qo'ldan qo'ymaslikka va hech kimga, hatto o'zi bo'ysunadigan shaxslarga ham bermaslikka;

- ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha harakat qilib yoki kuzatuv minorasida turib, postga keladigan yo'llarni, to'siqlarni diqqat bilan kuzatishga va post raqamida ko'rsatilgan vaqtlarda xizmatning borishi haqida aloqa vositalari orqali xabar qilib turishga;

- navbat almashmasa yoki uni postdan olishmasa, hayotiga xavf tug'ilgan paytda ham postni tashlab ketmaslikka (postni o'zbo-shimchalik bilan tashlab ketish harbiy jinoyat hisoblanadi);

- postda doimo o'qlangan qurol olib turishga va doimo hamma narsaga tayyor bo'lib turishga;

- post raqamida ko'rsatilgan va maxfiy chegara ko'rsatkichlari bilan ajratilgan joydan ichkariga, post yaqiniga qorovul boshlig'i, uning yordamchisi va o'zining tarqatuvchisi va ular boshlab kelgan shaxslardan boshqa hech kimni qo'ymaslikka;


- qorovul transporti vositalari harakat yo'nalishini va tanishish, shuningdek, uning tanitish belgi va signallarini bilishga;

- postda o't o'chirish vositasini ishlata olishi;


- obyekt (post) to'siqlarida biror buzilgan joy, o'z posti yaqinida yoki qo'shni postda tartib buzilganini sezsa, qorovul boshlig'ini chaqirishga;

- qo'riqchi itning hurganini eshitgan zahoti, bu haqida qorovulxonaga xabar beradi.


Soqchi postda nayza ulangan qurol bilan turishi kerak. Buklanadigan qo'ndoqli avtomat nayzasiz bo'ladi (uning pichoq nayzasi kamardagi qinda turadi); tunda tik turib otishga tayyor turgan holda; kunduzi — «tasma yelkaga» yoki tik turib otishga turgan holda ichki postlarda va harbiy qism Jangovar Bayroq qo'riqlanayotgan postda yog'och qo'ndoqli avtomat «tasma-yelkaga», buklanadigan qo'ndoqli avtomat «ko'krakka», karabin «oyoqqa» holatida ushlanishi lozim; o'q to'ldirilgan o'qdon (oboyma) solingan sumka tugmalangan bo'lishi lozim. Yong'inni o'chirish yoki tabiiy ofat oqibatlarini tugatish paytida soqchiga qurolni «qurol orqaga» holatida olib yurishga ruxsat etiladi (133-rasm).



Ichki postlar va Jangovar Bayroq yonidagi postda.



Tashqi postlarda: kunduzi — «kamarga» holatida yoxud qurolni tik turib o‘q uzishga tayyorlash holatida; kechasi — qurolni tik turib o‘q uzishga tayyorlash holatida.



O‘t o‘chirish holatida.

Plash-chodir kiygan holda.

133-rasm. Postdagi soqchi qo‘lidagi qurol holati.


Soqchiga quyidagilar taqiqlanadi: uxlash, o‘tirish, biror narsaga enkayish, yozish, o‘qish, kuylash, gaplashish, yeyish, ichish, chekish, tabiiy ehtiyojlarga borish, kimligidan qat’i nazar, birovga biror narsa berish va birovdan biror narsa olish, keraksiz paytda patronnikka patronni jo‘natish. Soqchi faqat qorovul boshlig‘ining, uning yordamchisining, o‘z tarqatuvchisining va tekshirish uchun kelgan shaxsning savollariga javob berishi kerak.

6.5. Post va uning jihozlanishi. Soqchining postdagi harakatlari

Qo‘riqlanayotgan obyektlar joylashgan hudud devor (taxta, sim va h.k.) bilan o‘rab olinishi kerak.

Korpusga, markazga bo‘ysunadigan obyektlarda qo‘riqlanadigan portlovchi moddalar, o‘q-dorilar, yoqilg‘i mollari va boshqalar saqlanadigan omborlar joylashgan hududlardagi devor balandligi 2 metrdan kam bo‘lmagan, sim to‘siqlari orasi 15 sm.dan kam bo‘lmagan ichki va tashqi to‘siqlarga ega bo‘lishi shart. Ichki va tashqi to‘siqlar orasi mahalliy joy shart-sharoitidan kelib chiqib aniqlanadi, balki 10 metr va undan ortiq bo‘lishi mumkin. To‘siqlar orasida soqchining yurishi uchun yo‘lak, eni 5 metrli to‘siqning tashqi tomoniga yondashib turuvchi kuzatuv-nazorat chizig‘i hosil qilinadi.

Qo‘riqlanayotgan obyekt yon-atrofining kuzatishga qulay bo‘lishi uchun to‘siqlar oralig‘ida (tashqi to‘siq ustida) aloqa vositalari, chaqirish vositalari, chiroqlar va yashinqaytargich qurilmalari bilan jihozlangan kuzatish minorasi qurish lozim (134-rasm).



134-rasm. Kuzatish minorasi.

Soqchi minorasi tomining rejasi

O'ta muhim obyektlarda, muvofiq mansabdor shaxslar buyrug'iga ko'ra, qurollar va kuzatish asboblari o'rnatilgan muhandislik inshootlari yoki o'q o'tmaydigan to'siqli kuzatuv minoralari qurilishi mumkin. Qo'riqlanayotgan obyektga yaqin joyga, zarurat bo'lsa, kunduzi va tunda yaxshi ko'rinadigan quyidagi mazmundagi: «O'tish man etiladi (yo'l yo'q)» yozuvli ko'rsatkich o'rnatiladi. Aylanib o'tiladigan yo'l ko'rsatkich bilan ko'rsatib qo'yiladi. Bu ko'rsatkichlar kunning ma'lum bir vaqtida qo'yilishi lozim.

Harbiy qism hududidan chetda joylashgan obyektlar atrofida o'tish taqiqlangan joy va o'rinlar davlat hokimiyatining mahalliy tashkilotlari va boshqarmalari bilan kelishilgan holda qonunga mos tarzda aniqlanadi. O'tish taqiqlangan joy (o'rni) chegarasi o'zbek va rus tillarida: «O'tish taqiqlangan joy», «O'tish man etiladi (berk)» deb yozilgan va yaxshi ko'rinadigan joyda ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Taqiqlangan joy (o'rni) chegara o'rnatilgani to'g'risida garnizon boshlig'i (harbiy qism komandiri, qo'riqlanayotgan obyekt boshlig'i) davlat hokimiyatining mahalliy tashkilotlari orqali o'z vaqtida yaqin atrofda yashaydigan aholini xabardor qilishga majbur. Taqiqlangan joy (o'rni) chegarasi ichiga umumiy foydalaniladigan yo'llar, turar joy binolari, dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari va boshqalar kirmasligi kerak.

Post hududida mahalliy joy sharoitiga muvofiq, soqchi kengroq kuzatishi va o'q uzish joyi (kamida 50 m) bilan ta'minlanadi. Shu bois post atrofi o't-o'lanlardan tozalangan, daraxtlar kallaklangan, pastki shoxlari 2,5 metrcha balandlikda qirqilgan, maysalar o'rilgan, ortiqcha narsalar olingan, begona kishilarning postga yaqinlashishlarini man etadigan masofani taqiqlovchi chegara, soqchiga kunduz kuni, tunda va ko'rish qiyin bo'lgan sharoitlarda ham ko'rinib turadigan ko'rsatkichlar belgilanadi.

Bir necha postlarga ega obyektlar hududida har bir post chegarasi joyiga taxta bilan «№ 2 post chegarasi» deb yozilgan ko'rsatkich qo'yiladi. Shaharchalardan chetdagi muhim obyektlar va qorovulxonalarni himoyalash uchun postga (qorovulxonaga) yaqin joylarga, o'q uzish uchun qulay bo'lishini ta'minlab, xandaqlar qazib jihozlanadi hamda imkoniyatga qarab qo'shni postlar bilan aloqa ta'minlanadi.

Tunda post va qo'riqlanadigan obyekt atrofi yoritilishi shart. Yoritishni shunday mo'ljallab o'rnatish lozimki, soqchi postda

turganda va post hududini aylanib yurganda, hamisha soyada bo'lishi lozim.

Post aloqa vositasi bilan jihozlanib, bu vositalar soqchiga kamida ikki joyda, obyektni patrullash orqali qo'riqlaganda (har 250 metr yurilganda) zudlik bilan qorovul boshlig'ini, uning yordamchisi va tarqatuvchisini chaqirishni ta'minlash shartdir. Ichki postlar, ayniqsa Harbiy qismning Jangovar Bayrog'i oldidagi post 70 sm.dan 1 metr balandlikda o'raladi va yoritiladi. Nazorat o'tkazish punktlarida esa soqchilarga kutilmaganda hujum bo'lishidan to'sadigan to'siqlar o'rnatiladi.

Har bir tashqi (zarur hollarda ichki) postlarda qo'riqlanayotgan ombor, omborxona va boshqalarda bevosita yong'inni o'chirish vositalari: yong'in o'chirgichlar, qum to'latilgan qutilar, suv to'latilgan bochkalar, chelak va asbob-anjomlar (belkuraklar, boltalar, misranglar, changaklar) bo'lishi ta'minlanadi. Tashqi postlarda post kiyimini saqlash uchun maxsus jihozlangan post boshpanasi turishi, ichki postlarda — shnel uchun shkaf yoki ilgich bo'lishi kerak. Post boshpanasi qo'riqlanayotgan obyekt yoki tevarak-atrof rangiga mos rangga bo'yaladi.

Qorovullik xizmatini bajarish jarayonida qorovulxonada: qorovulning shaxsiy tarkibi uchun umumiy xona; qorovul boshlig'i va uning yordamchisi uchun, qorovul shaxsiy tarkibining umumiy xonasiga oynali eshik bilan bog'langan xona; qorovulning dam oladigan smenasi uchun, qorovul shaxsiy tarkibining umumiy xonasi eshik bilan bog'langan xona.

Bulardan tashqari, qorovulxona ichida: ovqat isitadigan jihozlarga ega oshxona, yuvinadigan, chekiladigan joy, qurol va poyabzal tozalaydigan joy (xona), quritish xonasi, maishiy xizmat burchagi, hojatxona, yoqilg'i quyiladigan omborcha bo'lishi lozim. Kam sonli qorovullarning qorovulxonasida oshxona bo'lmاسligi mumkin. Bu holda qozon-tovoqlarni, oziq-ovqatlarni saqlaydigan va ovqat isitiladigan joy hozirlanadi.

Obyektlarni qo'riqlashning texnik vositalari bilan jihozlangan qorovulning qorovulxonasida qorovul boshlig'ining (operatorning) qo'riqlash texnika vositalari bo'yicha yordamchisi uchun pult asboblari xonasi ham tashkil etiladi. Shu bilan birga, qo'riqlashning texnik vositalari signallarini qabul qiladigan pult asboblari qorovul boshlig'ining xonasidan ko'rinadigan bo'lishi rejalashtiriladi.

Qorovul shaxsiy tarkibi uchun umumiy xonada; harbiy qasamyod matni yozilgan plakat; post tabeli; nizomlar; gazeta va jurnallar; qorovul xizmati qoidalari tasvirlangan, qorovul shaxsiy tarkibining qorovul xizmatini o'tashda ko'rsatgan jasorati tasvirlangan yoki yozilgan plakatlar va suratlar; qorovulning uyg'oq smenasini uchdan ikki qismi radioeshittirishlarini tinglash uchun quloqqa taqib eshitadigan telefonlar (naushniklar); shaxmat-shashkalar; soatlar; tarqatuvchilarning soni bo'yicha fonarlar; ichkari va tashqari uchun termometrlar; tibbiy dori-darmon qutisi; qorovulning butun shaxsiy tarkibi uchun yara bog'laydigan individual paket; qorovul tarkibining shaxsiy naryad va yuvinish-taranish anjomlarini qo'yish uchun javon; nurtovush signal chiqaradigan va bu signalni qorovul boshlig'i xonasiga yetkazadigan qilib signallashtirib jihozlangan qurollar uchun javon; uyg'oq smena uchun stol va stul; qorovulning butun tarkibi hisobiga ustki kiyimlar uchun kiyimilgich va post kiyim-boshining ikkinchi to'plami; axlat qutilar; shkaf va ilgichlar qorovulxonaning joylashganiga qarab boshqa xonalarga (dahlizga) o'rnatishga ruxsat etiladi.

Qorovulning dam oladigan smenasi xonasida bir paytda qorovulning bir smenasi va dam olish huquqiga ega boshqa shaxslarning yotib dam olishlari uchun bosh tomoni jildli (qo'l sochiqli) yog'och karavotlar qo'yiladi.

Qorovulxona oshxonasida quyidagilarning bo'lishi lozim: qorovulning uchdan ikki qismi soniga mo'ljallangan stol va stullar (kursilar); idish-tovoq va oziq-ovqat mahsulotlari uchun shkaf; ovqat olib kelish va ovqatlanish uchun shaxsiy tarkibning hammasiga yetarli idish-tovoq va oshxona anjomlari; ichish uchun jo'mrak qo'yilgan, qulflanadigan katta suv solingan idish yoki umumiy suv tarmog'idan ulangan jo'mrak; ovqatni isitish uchun gaz yoki elektr plita; qaynatgich yoki suv qaynatadigan choynak; idish-tovoq yuvadigan chanoq bo'ladi.

Qorovulxonada chekish, qurol va poyabzal tozalash xonalari (joylari), qurol tozalash uchun stol, lattalar uchun temir quti, o'rindiq, suv to'latilgan axlat qutisi, poyabzal tozalash anjomlari qo'yiladi. Qorovulxona xonalarining soni bo'yicha yoritishning elektr (zaxira) manbalari bilan, o't o'chirish vositalari: o't o'chirgichlar, qum to'latilgan qutilar, suv solingan idish, chelak va asbob-anjomlar (belkurak, boltalar, misranglar, changaklar) bilan ta'minlanadi.

Qorovulxona harbiy shaharchadan chetda joylashganda, deraza ichkaridan bekiladigan darpardalar bilan jihozlanadi. Qorovulxonaga kirish joyi dahliz shaklida jihozlangan bo‘lib, qo‘riqlanayotgan obyektlarni ochish (berkitish) uchun kelgan shaxslarning ichkariga kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qorovulxonaga tegishli bo‘lgan yer maydoni atrofi 2 metr balandlikda to‘silgan bo‘lishi bilan birga, qorovulxonaga kirish joyida poyabzalni loydan tozalash uchun qulaylik (yog‘och yoki temir panjara yoki temirtutqichlar) yaratilib, qorovulxona yaqiniga qopqog‘i bekiladigan axlat qutisi qo‘yiladi. Zarur yoqilg‘i, yoritish vositalari (sham, chiroq, fonarlar) zaxiralari, supurib-sidirish anjomlari omborchada saqlanadi. Qorovulxona oldida qorovulning saflanishi uchun va o‘qni to‘sadigan, tunda yoritiladigan qurolni o‘qlash maydonchalari, almashayotgan qorovul shaxsiy tarkibi joylanishi uchun qurol saqlanadigan javonli joy (xona) jihozlanadi. Transport vositalariga ega qorovul uchun qo‘yadigan joy hozirlanadi.

6.6. Soqchi qo‘lidagi qurol bilan harakatlanishi va qurolni qo‘llash usullari

Soqchi o‘ziga yoki qo‘riqlanayotgan obyektga aniq hujum bo‘lgan hollarda ogohlantirishsiz qurol ishlatishga majbur. U qorovul boshlig‘i, qorovul boshlig‘i yordamchisi, o‘zining tarqatuvchisi va ular kuzatuvida kelgan shaxslardan boshqa postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashgan barchani baqirib «To‘xta, orqaga» yoki «To‘xta, o‘ngdan (chapdan) aylanib o‘t» deb to‘xtatishga haqli.

Agar postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashayotgan tartibbuzar uning talabini bajarmasa, soqchi uni «To‘xta, otaman» deb ogohlantiradi va zudlik bilan qorovul boshlig‘ini yoki tarqatuvchini chaqiradi. Agar tartibbuzar shunda ham post va taqiqlangan chegaraga yaqinlashishda davom etsa, soqchi patronnikka patron yuboradi, osmonga qarab ogohlantiruvchi o‘q uzadi. Tartibbuzar shunda ham uning talabini bajarmasa va postga kirishga (taqiqlangan chegarani kesib o‘tishga) harakat qilsa yoki qochishga urinsa, soqchi unga nisbatan qurol ishlatadi.

Ko‘rinishi yomon bo‘lgan post raqamida ko‘rsatilgan masofadan postga va taqiqlangan chegaraga yaqinlashganlar ko‘rinmay qolganda, soqchi ularni «To‘xta, kim kelyapti?» deb baqirib to‘xtatadi. Agar

javob bo'lmasa, soqchi uni «To'xta, otaman» deb ogohlantiradi va ushlaydi. Ushlangan tartibbuzar haqida qorovulxonaga xabar beradi, uning o'zini tutishini kuzatadi, shu bilan birga, diqqatini bo'lmay, o'ziga biriktirilgan postni qo'riqlashda davom etadi.

Soqchi baqirganda «Qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) kelyapti» degan javob bo'lsa, soqchi quyidagicha buyruq beradi:

«Qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) mening oldimga, qolganlar joyida qolsin». Zarurat bo'lsa, soqchi o'ziga yaqinlashgan shaxsdan yuzini yoritishni talab qiladi. Soqchi yaqinlashayotgan shaxs haqiqatan ham qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) ekanligiga ishonch hosil qilgach, qolganlarni ham oldiga qo'yadi.

Agar o'zini qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'i yordamchisi, tarqatuvchi) deb tanishtirgan shaxs boshqa kishi bo'lsa va u bilan birga kelganlar soqchining «Qolganlar joyida qolsin» degan talabini bajarmasa, soqchi baqirib «To'xta, otaman» deya ogohlantiradi. Tartibbuzarlar soqchining bu talabini bajarmasa, ularga nisbatan qurol ishlatadi. Qo'riqlanayotgan obyekttni va o'zini himoya qilish uchun qo'l jangiga kirishga to'g'ri kelsa, soqchi qo'ndiq va nayza bilan bemalol harakat qilishi kerak.

Postda yong'in chiqqanida soqchi bu haqda zudlik bilan qorovulxonaga xabar beradi va o'zi qo'riqlayotgan obyektlarni davom etgan holda yong'inni o'chirish choralari ko'radi. Qo'riqlanayotgan obyektning texnik hududida yoki ichki va tashqi devorlar bilan o'ralgan obyektlarda, shuningdek, post yaqinida yong'in bo'lsa, u bu haqda qorovulxonaga xabar beradi va postdagi xizmatini davom ettiradi.

Soqchi birdan kasal bo'lib qolsa (jarohatlansa), soqchi o'z xizmatini davom ettirgan holda tarqatuvchi yoki qorovul boshlig'ini chaqiradi. Chidab bo'lmaydigan so'nggi holatlarda yoki aloqa vositalari ishlaymay qolgan paytlarda soqchi osmonga o'q otish bilan qorovul boshlig'ini chaqirishi mumkin.

Jangovar harbiy burchini bajarayotgan soqchi o'zi bo'ysundirilgan boshliqlariga va ular bilan birga postga kelgan boshliqlarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining saf nizomida ko'rsatilgan holatda salom beradi. Bunday paytda avtomat otishga shay holatdan «tasma yelkaga» holatiga olinadi, karabin esa «oyoqqa» olinadi.

va tartib-intizom saqlanishi kerak. Musiqa asboblarini chalish va o'ynash taqiqlanadi. Radioeshittirishlarni quloqqa qo'yib eshitadigan telefonlar (naushniklar) orqali tinglash, o'qish, yozish, shaxmat va shashka o'ynashga ruxsat etiladi. Faqat maxsus belgilangan joyda chekish va poyabzal tozalashga ruxsat beriladi.

Kichik qo'riqllovchi bo'linma shtatidan tayinlanadigan, xususi tarkibi bir-ikki kecha soqchilikda turadigan qorovullarning qorovulxonasida televizor o'rnatishga va teledasturni qorovul boshlig'ining ko'rsatmasi bilan belgilangan vaqtda, qorovul xizmatining bajarilishiga va uxlab dam olayotgan bo'linmaga xalal bermay, tomosha qilishga ruxsat etiladi.

Avtomat va pulemyotlar javonga o'qdotsiz, qurollarning qulflari esa bo'sh qo'yilgan holatda, karabinlar esa javonga tepkilar tushirilgan holda qo'yiladi. Qorovulxonadagi javonlar qulflanmaydi. Avtomatlarning o'qdonlari solingan yon xaltalar (karabinlar uchun o'q joylangan ramkalar) va nayzali pichoqlar belkamarga boylangan pichoqlar yechilmaydi. Pulemyotlarning o'qdonlari qulflanadigan maxsus qutilarga solinib, javonda saqlanadi, kalitlar qorovul boshlig'ida bo'ladi.

Nazorat postlari qorovullarining to'pponchalari o'qlangan holatda qini bilan qulflangan temir qutilarda (seyfda) saqlanadi, qutilarning kaliti qorovul boshlig'ida bo'ladi, uning qorovulxonada yo'q payti va dam olish chog'ida esa kalitlar qorovul boshlig'ining yordamchisiga beriladi. Qorovullarga to'pponchalar postga turish oldidan maxsus guvohnoma bo'yicha beriladi.

Javondan qurol faqat qorovul boshlig'i yoki uning yordamchisi ruxsati bilan beriladi. Qurolni tozalash, uni qismlarga ajratmasdan qorovul boshlig'i yoki uning yordamchisi rahbarligida amalga oshiriladi.

Qorovulning shaxsiy tarkibiga, qorovulxonada bosh yalang, shinelsiz (nimpo'stinsiz, qalin dala kurtkasisiz), biroq, aslah-anjomda yurishga ruxsat etiladi. Yechilgan shinellar (nimpo'stinlar, qalin dala kurtkalari) va bosh kiyimlari maxsus kiyim ilgichda bo'lishi kerak. Qorovulning shaxsiy tarkibiga, qorovul boshlig'i va uning yordamchisidan tashqari, qorovulxonaga kelgan kishi bilan gaplashish taqiqlanadi; faqat qorovulni tekshirish uchun kelgan shaxsning savollariga javob berishga ruxsat etiladi.

Quyidagilarga oyoq kiyimsiz, asbob-anjomlarni yechmay va yechinmay, faqat yoqa tugmasini yechib hamda bel kamarini

bo'shashtirib cho'zilishga (uxlashga) ruxsat etiladi: qorovulning bir bo'linmasi tarkibiga — postga turishdan oldin, postni boshqa qorovul bo'linmasiga almashtirib, qorovulxonaga qaytganida va qorovulga harbiy topshiriq berilganidan so'ng; faqat tunda joylarni qo'riqlaydigan qorovul bo'linmasiga, qorovulxonaga qaytib kelganidan toki qayta postga jo'nab ketguncha; nazorat-qo'riqlash guruhi qorovullariga navbat bilan, qorovul boshlig'ining ruxsati bilan 4 soatdan.

«Qurollan» degan chaqiriq bo'lishi bilan qorovulxonadagi qorovulning shaxsiy tarkibi, dam olayotgan bo'linma bosh kiyimlarini kiyadi, o'z qurollarini oladi va o'zlarining raqamlari tartibi bilan qorovulxona ichida saflanadi. Shinellar (nimpo'stinlar, qalin dala kurtkalari) qorovul boshlig'ining alohida buyrug'i bilan kiyiladi. Qorovul qorovulxonadan chiqarilgan (yong'in yoki tabiiy ofatdan boshqa) har qanday sharoitda qorovul boshlig'ining yordamchisi yoki tarqatuvchilardan biri ichkarida qoladi, ular bo'lmagan taqdirda qorovul bo'linmalarida esa qorovullardan biri qoladi.

Harbiy qism turar joyida chetda bo'lganda garnizon qorovullariga oziq-ovqat yetkazish kichik harbiy bo'linmalar tomonidan tayinlangan komandirlar yoki harbiy qism navbatchilari tomonidan tashkil etiladi. Harbiy qism qarorgohidagi qorovul shaxsiy tarkibiga oziq-ovqat boshlig'ining buyrug'i bilan qorovulning uyg'oq bo'linmasi qorovullari orqali yetkaziladi.

Qorovulxonani va uning tevaragini toza-ozoda va tartibli saqlash, pechkalarni qizdirish qorovul tarkibiga yuklanadi. Bu majburiyatlarning bajarilishi, asbob-uskunalar, kiyim-kechak va qurol-aslahalarning bus-butunligini ta'minlash qorovul boshlig'ining yordamchisiga, bunday yordamchi tayinlanmagan qorovullarda esa qorovul boshlig'i zimmasiga yuklanadi. Har kungi supurib-sidirishdan tashqari, garnizon komendanti (harbiy qism shtab boshlig'i) tomonidan belgilab qo'yilgan haftaning muayyan kunida garnizon (harbiy qism) tibbiyot xizmati boshlig'ining buyrug'i bilan qorovulxonada profilaktik dezinfeksiya o'tkaziladi.

Yilning qish faslida qorovulxona bir kecha-kunduzda to'rt marta shamollatiladi. Havo iliq paytlar binoning bir tarafidagi tokcha yoki derazalar ochib qo'yiladi. Qishda qorovulxona ichidagi harorat 18°C dan past bo'lmash kerak. Pechkalarni qizdirish garnizon boshlig'i belgilagan vaqtdan kechikmay to'xtatiladi. Qorovul tarkibiga

ovqatni isitish uchun plitalarni va quritish xonasidagi pechlarni qizdirishni qorovul boshlig'i, ehtiyojdan kelib chiqib hal etadi. Qaynoq choy doimo bo'lishi lozim.

Qorong'i tushishi bilan qorovulxona, dahliz va hojatxonalar to'la-to'kis yoritilgan, uxlab dam oluvchilar xonasi xira yoritilgan bo'ladi.

Harbiy shaharchadan tashqarida bo'lgan qorovulxonaning derazalari tunda ichkaridan yorug'lik o'tkazmaydigan narsa bilan bekutiladi. Qorovulxonani qo'riqlash uchun harbiy shaharchadan chetdagi va o'z tarkibida bitta uch smenalidan kam bo'lmagan postlari bo'lgan qorovul bo'linmasi qorovulxonaga kirish joyiga qorovullarning uyg'oq qismidan soqchi tayinlaydi.

O'ta muhim joylarni qo'riqlayotgan va o'z tarkibida beshta uch smenadan kam posti bo'lgan qorovul bo'linmasi qorovulxonani qo'riqlash uchun qo'shimcha ravishda qorovul tayinlashi mumkin. Qorovulxona ichiga soqchi qo'yilmagan sharoitda qorovulxonaga kiriladigan eshikka kuzatish tokchasi o'rnatiladi va eshik doimo ichkaridan tanbalangan bo'lishi lozim.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Harbiy qismlarda qorovul xizmati qanday maqsadlarni nazarda tutib tashkil etiladi?
2. Qorovul xizmati nima uchun tashqi va ichki qorovulga bo'linadi?
3. Qorovul tarkibi qanday tuziladi?
4. Postda turgan soqchining majburiyatlarini aytib bering.
5. Qorovul xizmatini bajarishda qorovul va soqchining qanday farqi bor?
6. Soqchining ko'rsatmalarini bajarmagan tartibbuzarga nisbatan soqchi qanday harakat usullarini qo'llaydi?
7. Qanday harbiy xizmatchilar qorovul xizmatini bajarishlikka qo'yilmaydi?
8. Soqchi qo'riqlayotgan post obyektida yong'in chiqqanida soqchining harakat qilish holatlarini aytib bering.

7-bob. QUROLSIZ BAJARILADIGAN SAF AMALLARI VA HARAKATLARI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomida safda turish, qurol va quROLSIZ harakat qilish; kichik bo'linma va harbiy qismlarning piyoda va mashinalarda saf tortishi, harbiy

salom-alikni bajarish, saflar ko'rigini o'tkazish tartibi; harbiy qism jangovar bayrog'ining safdagi holati, uni olib chiqish va olib ketish tartibi; harbiy xizmatchilarning safga tizilish oldidagi, safga turishdagi majburiyatlari, ularni safda turish va yurishga o'rgatish talablari, shuningdek, harbiy xizmatchilarning jang maydonida harakatlanish usullari va dushman qo'qqisidan hujum qilgan vaqtdagi xatti-harakatlarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining barcha harbiy qismlari, shtablari, boshqarmalari, muassasalari, korxonalari, tashkilotlari va harbiy bilim yurtlarining Saf Nizomidan qo'llanma sifatida foydalanishi majburiydir. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1996-yil 14-oktabrdagi 238-buyrug'iga binoan, joriy etilgan.

1. Saf va uning elementlari

SAF — harbiy xizmatchilar, kichik bo'limlar va qismlarning nizomiga ko'ra, piyoda va mashinalarda birgalikda harakat qilish uchun joylashuvi.

SHERENGA (yonma-yon qator) — harbiy xizmatchilarning belgilangan oraliq masofani saqlagan holda bir chiziqqa yonma-yon saf tortishi. Mashinalarning bir chiziqqa yonma-yon saf tortishi.


QANOT — safning o'ng (chap) chekkasi. Saf bir tomondan ikkinchi tomonga burilgan vaqtda qanotlar nomi o'zgarmaydi.

OLD — safning harbiy xizmatchilar yuzlanib turgan (mashinalarning old) tomoni.


MASOFA — safda yonma-yon turgan harbiy xizmatchilar (mashinalar), bo'linmalar va qismlar o'rtasidagi oraliq masofa.

ORQA — oldiga qarama-qarshi tomon.

DISTANSIYA — safda oldinma-keyin turgan harbiy xizmatchilar (mashinalar), bo'linmalar va qismlar o'rtasidagi oraliq masofa.



135-rasm. Bir qator (sherenga)li saflanish.



136-rasm. Ikki sherengali saf.


SAFNING ENI — qanotlar oʻrtasidagi masofa.

SAFNING BOʻYI — birinchi sherenga (oldinda turgan harbiy xizmatchi)dan soʻnggi sherenga (oxirida turgan harbiy xizmatchi) orasidagi, mashinalar bilan turganda esa, birinchi chiziqda (oldinda) turgan mashinalar bilan soʻnggi (orqada) chiziqda turgan mashinalar oʻrtasidagi masofa.

2. Askarning saflanishdan avval va safdagi majburiyati

Har bir askar saflanishi oldidan oʻzining majburiyatlarini oʻta uquvchanligi bilan koʻngildagidek aniq bajarishi lozim.

Saflanish oldidan askar: quroli, oʻziga biriktirilgan qurol-aslaha va harbiy texnika, oʻq-dori, shaxsiy himoya vositalari, qazuv quroli, kiyim-kechak va anjomlari sozligini tekshirishi, kiyimini toʻgʻrilashi, anjomlarini oʻziga moslashtirishi va toʻgʻri taqishi, oʻrtogʻiga kamchiliklarini tuzatishda yordam berishi, safdagi oʻz oʻrnini bilishi, unga tez va boʻshashmasdan borib turishi, harakat vaqtida toʻgʻri, oldi-orqa va yon tomonlaridagi oraliq masofani saqlagan holda yurishi, xavfsizlik talablariga rioya etishi, ruxsatsiz saf (mashina)dan chiqmasligi, safda turgan vaqtida gapirmasligi va chekmasligi, komandirning komanda va buyruqlariga diqqat bilan quloq solishi, ularni boshqalarga xalaqit bermay tez va soz bajarishi, buyruq va komandalarni boshqalarga oʻzgartirmay baland ovozda va aniq yetkazishi lozim.




137-rasm. Bir (a) va ikki qatorli (b) saflanish.

3. Dastlabki bajariluvchi komandalar: «Saflan», «Tekislan», «Rostlan», «Erkin», «To'g'rilansin», «Bekor qilinsin»

«Saflan» yoki «Rostlan» komandalari berilganda, qad rostlab turiladi. Bunday komanda berilganda, to'g'ri turiladi, tovonlar bir joyga qo'yiladi, oyoqlar uchi oldidagi chiziqqa to'g'rilanadi, ular

bilan tovonlar kengligi bir xil bo'ladi, tizzalar bukilmaydi, lekin zo'riqtirilmaydi, ko'krak keriladi, gavda biroz oldinga chiqadi, qorin ichiga tortiladi, yelkalar yozi-ladi, qo'llar tushiriladi, unda kaftlar gav-daga qaratilib, yon tarafdan sonlarining o'rtasida tutiladi, barmoqlar yarim buki-lib, oyoqlarga tegib turadi, bosh, iyakni oldinga chiqarmasdan, baland va to'g'ri tutiladi, to'g'ri oldga qarab turiladi, darhol harakat qilishga tayyor turish kerak bo'ladi (138-rasm).



138-rasm. «Rostlan» holati:

a — yon tomondan ko'rinish; *b* — olddan ko'rinish.

Quyidagi hollarda komanda berilmagan taqdirda ham qad rostlab turiladi: buyruq berilgan va olingan, bildiruv berilgan, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi yangragan, harbiy salom-alik

qilingan, shuningdek, komanda berilgan vaqtda, «Erkin» komandasi berilganda oʻzini erkin qoʻyib, oʻng yoki chap tizzasini xiyol bukib, joyidan qimirlamasdan, xotirani jam qilib va gaplashmasdan turiladi. «Toʻgʻrilansin» komandasi berilganda, safdagi joyidan jilmasdan qurol, kiyim-kechak va anjomlar toʻgʻrilanadi, zarur hollarda safdan chiqiladi, ruxsat uchun bevosita boshliqqa murojaat qilinadi.

«Toʻgʻrilansin» komandasi oldidan «Erkin» komandasi beriladi.

Bosh kiyimni yechish uchun — «Bosh kiyimlar yechilsin», kiyinish uchun esa, «Bosh kiyimlar kiyilsin» komandasi beriladi. Zarur hollarda bir oʻzi boʻlgan harbiy xizmatchi bosh kiyimini komandasiz yechib kiyadi.

4. Safda turganda salomga javob berish

Boshliq yoki unvoni yuqori komandirning «Salom, oʻrtoqlar» deganiga, barcha harbiy xizmatchilar safda yoki safda turmagan paytda «Assalom», deb javob salomini berishadi. Boshliq yoki unvoni yuqori komandir bilan xayrlashish paytda «Xayr, oʻrtoqlar» soʻziga harbiy xizmatchilar «Xayr», deb javob qaytaradilar. Javob oxirida «oʻrtoq» va «harbiy unvoni» qoʻshib aytiladi. Masalan, «Assalom, oʻrtoq mayor», «Xayr, oʻrtoq general-mayor».

Boshliqlar bilan salomlashishda harbiy xizmatchilar aniq, qattiq ovozda salomini aytishadi.

5. Safda turish. Joyida turib burilish

Joyida turib burilishlar «Oʻngga», «Chapga», «Ortga» komandalari bilan bajariladi.

Chapga va orqaga burilishlar chap qoʻl tarafga chap oyoqning tovonini va oʻng oyoqning uchida, oʻngga burilish esa, oʻng qoʻl tarafga oʻng oyoqning tovonini va chap oyoqning uchida bajariladi.

Burilishlar ikki bosqichda bajariladi:

- *birinchi bosqich* — gavgani toʻgʻri tutgan holda burilish va tizzalarni bukmasdan gavganing ogʻirligini oldinda turgan oyoqqa oʻtkazish;

- *ikkinchi bosqich* — eng qisqa yoʻl bilan ikkinchi oyoqni birinchisining yoniga qoʻyish.

6. Saf qadami bilan harakatlanish

Harakat paytida burilish. Harakat qadam tashlash yoki yugurish bilan bajariladi. Qadam tashlash harakati daqiqasiga 110—120 qadam tezligida bo'ladi. Qadamning uzunligi 70—80 sm.

Yugurish harakati daqiqasiga 165—180 qadam tezligida bo'ladi. Qadamning uzunligi 85—90 sm.

Ikki xil: shaxdam qadam va oddiy qadam qo'yadi.

Shaxdam qadam — bo'linmalar tantanali marsh bilan harakat qilayotgan vaqtda, salomlashganda, harbiy xizmatchi boshliq oldiga borganda va uning oldidan ketayotganda, safdan chiqish va unga qaytishda, shuningdek, safda turish va yurish mashg'ulotlari o'tkazilganda qo'llaniladi.

Oddiy qadam barcha hollarda qo'llaniladi.


«Shaxdam qadam tashla» komandasi berilganda, shaxdam qadam bilan, «Qadam tashla» komandasi berilganda esa, oddiy qadam bilan harakat qilinadi.

Dastlabki komanda berilganda — gavda sal oldinga chiqarilib, turg'unlikni saqlagan holda turiladi, darhol bajariladigan komanda berilganda esa, harakatni chap oyoqdan to'liq odim bilan boshlash kerak. Shaxdam qadam bilan harakat qilinganda, uchi oldinga cho'zilgan oyoqni yerdan 15—20 sm ko'tarish va uning tagini baravar bosish lozim.

Qo'llarni yelkadan boshlab harakatlantirish — bunda qo'llar oldinga silkiganda tirsakdan bukilib, kaft kengligida kamar to'qasidan baland ko'tarilishi va shuncha masofada gavdadan uzoq, tirsak esa, qo'lning undan quyi qismi balandligida bo'lishi, qo'l, yelka bo'g'inidan iloji boricha orqaga silkinishi kerak. Panjalar yarim bukilgan holatda bo'lishi, boshni to'g'ri tutish va to'g'ri oldinga qarash lozim.

Oddiy qadam bilan yurilganda, oyoq uchini cho'zmasdan erkin ko'tarib bosish, qo'llarni esa erkin harakatlantirish kerak. Oddiy qadam bilan yurayotganda «Rostlan» komandasi berilsa, shaxdam qadam tashlashga o'tiladi. Shaxdam qadam bilan yurilayotgan paytda «Erkin» komandasi berilsa, oddiy qadam bilan yurishga o'tiladi. «Yugur» komandasi berilganda, yugurib harakat qilish boshlanadi.


Dastlabki komanda bo'yicha joyidan qo'zg'alganda, gavgani sal oldinga berib, qo'llarni yarim bukib, tirsaklar biroz orqaga oli-



139-rasm. *a*—shaxdam qadam tashlash; *b*—shaxdam qadam tashlashning to'g'ridan ko'rinishi; *d*—joyida qadam tashlash.

naqi, chap oyoqni yerga qo'yish bilan darhol bajariladigan komanda beriladi, komanda berilgach, o'ng oyoq bilan oldinga bir qadam qo'yilib, chap oyoq bilan boshlab yugurib ketiladi. Yugurish chog'ida qo'llar erkin va unga mos harakatlantiriladi.

Yurishdan yugurishga o'tish uchun dastlabki komanda bo'yicha qo'llar yarim bukiladi, tirsaklar biroz orqaga olinadi. Darhol bajariladigan komanda chap oyoq yerga qo'yilishi bilan beriladi. Ushbu komandaga ko'ra, o'ng oyoq oldinga qo'yilib, chap oyoqda yugurib harakat qilish boshlanadi. Yugurishdan yurishga o'tish uchun «Qadam tashla» komandasi beriladi. O'ng oyoq yerga qo'yilishi bilan bir vaqtda darhol bajariladigan komanda beriladi. Komanda berilgach, yugurganicha yana ikki qadam tashlanadi va



140-rasm. Bosh kiyim yechilgan holatda:

a — furajkada; *b* — beretkada;
d — telpakda.

chap oyoqdan yurib, harakat qilish boshlanadi. Turgan joyda yurish «Joyingda qadam tashla» komandasiga binoan amalga oshiriladi.

Ushbu komanda berilganda, oyoqlar yerdan 15—20 sm ko'tariladi va tovonning uchi yerga tekis qaytib tushiriladi, qo'llar qadamga mos harakatlantiriladi. Chap oyoq yerga qo'yilishi bilan «To'g'riga» komandasi berilganda, o'ng oyoq bilan bir qadam tashlanadi va chap oyoq bilan harakat boshlanadi hamda to'la odim tashlanadi. Unda dastlab uch qadam shaxdam bo'ladi.

Harakatni to'xtatish uchun «Oddiy askar Ibrohimov, to'xta» komandasi beriladi. Chap yoki o'ng oyoqni yerga qo'yish bilan darhol bajariladigan komanda berilganda, yana bir qadam tashlanadi. So'ngra oyoqlar bir joyga qo'yilib, qad rostlab turiladi.

Yakka turgan harbiy xizmatchilar bir necha qadam nariga yurish uchun «Oddiy askar Ibrohimov, o'ng (chap)ga qadam tashla» komandasi beriladi. Bunday komanda berilgandan keyin harbiy xizmatchi har bir qadam tashlagandan so'ng ikkinchi oyog'ini birinchi oyog'i oldiga qo'yib, ikki qadam o'ng (chap)ga yuradi.

Oldinga yoki orqaga bir necha qadam yurish uchun «Oldin (orqa)ga ikki qadam tashla» komandasi beriladi. Komanda berilgach, ikki qadam oldin (orqa)ga bosiladi va oyoqlar juftlanadi. O'ngga, chapga va orqaga qadam bosganda, qo'llar harakatlantirilmaydi. Harakat vaqtida burilishlar «O'ngga», «Chapga», «Ortga yur» komandalariga ko'ra bajariladi.


O'ng (chap)ga burilish uchun darhol bajariladigan komanda o'ng (chap) oyoqni yerga qo'yish bilan bir vaqtda beriladi. Komanda berilgach, o'ng (chap) oyoq bilan oldinga bir qadam tashlanadi, o'ng (chap) oyoq uchida buriladi, burilish bilan bir vaqtda o'ng (chap) oyoq oldinga cho'ziladi va yangi yo'nalish bo'yicha harakat boshlanadi.

Orqaga burilish uchun darhol bajariladigan komanda o'ng oyoq yerga qo'yilishi bilan bir vaqtda beriladi. Komanda bo'yicha (bir deb sanalganda) chap oyoq bilan yana bir qadam tashlanadi, o'ng oyoq yarim qadam oldinga chiqarilib, ozroq chapga olinadi, ikki oyoqning uchida zudlik bilan (ikki deb sanalganda) chap tomon burilib, yangi yo'nalish bo'yicha chap oyoq bilan harakat (uch deb sanalganda) davom ettiriladi. Burilishlar vaqtida qo'llar oyoqlarga mos harakatlantiriladi.


7. To‘xtab turganda, harakatda bosh kiyim bilan va bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish. Harakat paytida salomga javob berish

Barcha harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan qarama-qarshi kelgan paytda yoki bir-birlarini quvib o‘tishda harbiycha salomlashishga majburdir. Bo‘ysunuvchi yoki harbiy unvoni kichik bo‘lganlar birinchi bo‘lib salom beradi. Bu borada salomlashish «Rostlan»gan holatda yoki harakatlanayotganda, aniq va ziyraklik bilan bajariladi. Salomlashish bosh kiyim bilan yoki bosh kiyimsiz amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchi safdan tashqari paytda bosh kiyimsiz 5—6 qadam oldin boshliq tomonga burilib, «Rostlan» holatida boshliqning yuz qismi tomoniga qarab salom beradi. Agarda, bosh kiyim kiyilgan bo‘lsa, bundan tashqari o‘ng qo‘l barmoqlarini to‘g‘rilab, bosh kiyimining chekkasiga qo‘lini qo‘yadi. Boshliqni quvib o‘tishda, boshni boshliq tomonga burib o‘tiladi, qo‘l esa, o‘z holatida bo‘ladi. Boshliq salomga alik olsa, bosh qismini to‘g‘rilab va bu holatda qo‘l tushiriladi. Harakat vaqtida, safdan tashqari paytda bosh kiyimsiz holatda boshliqdan 5—6 qadam oldin harbiy xizmatchi oyoqlarni yerga qadab, qo‘lning harakati to‘xtatiladi, boshni boshliq tomonga burib, harakatlanishni davom ettirib,



141-rasm. Joyida turib, harbiycha salom berish.



142-rasm. Harakat paytida harbiycha salom berish.

boshliq yuz qismiga qarab o'tiladi. Boshliq yonidan o'tib olgach, boshini to'g'riga qaratib, qo'l harakati davom ettiriladi.

Agar bosh kiyim kiygan paytda yerga qadam qo'yish bilan bosh tomonni boshliqqa qaratib, o'ng qo'lni bosh kiyim tomonga yo'naltirib, chap qo'lni son qismiga qo'yib harakatlanish to'xtatiladi. Boshliqdan o'tib bo'lganda, bir holatda chap oyoqni yerga to'g'ri qo'yish bilan o'ng qo'l tushiriladi.

Boshliqni quvib o'tishdagi birinchi qadam bosishda boshliqqa salom beriladi, ikkinchi qadam bosishda esa, boshni to'g'riga qaratib, o'ng qo'l tushiriladi. Agar harbiy xizmatchining qo'li bo'sh bo'lmasa, salomlashishda bosh qismni boshliq tomonga qaratib salomlashiladi.

8. Safdan chiqish. Boshliq oldiga borish va safga turish

Harbiy xizmatchi safdan chiqish uchun «Oddiy askar To'rayev, safdan falon qadam oldinga chiq» yoki «Oddiy askar Karimov, oldinga kel (oldinga yugurib kel)» komandasi beriladi. O'z familiyasini eshitgan xizmatchi «Men», safdan chiqish to'g'risida komanda berilganda «Xo'p bo'ladi», deb javob beradi. Birinchi komanda berilganda, harbiy xizmatchi shaxdam qadam bilan aytilgan masofaga chiqadi, bunda o'z qadamini birinchi sherengadan boshlab sanaydi, to'xtab, saf tomonga buriladi. Ikkinchi komanda bo'yicha harbiy xizmatchi birinchi sherengadan to'g'ri bir qadam yurib, ketayotgan joydan boshliq tomonga buriladi, eng qisqa yo'l orqali shaxdam qadam bilan (yugurib) uning oldiga boradi, unga ikki, uch qadam qolganda to'xtab, yetib kelgani to'g'risida ma'lum qiladi. Masalan, «O'rtoq leytenant, oddiy askar Xolmatov buyrug'ingizga binoan yetib keldi».

Harbiy xizmatchi ikkinchi sherengadan chiqmoqchi bo'lsa, chap qo'lini sekin o'zidan oldingi qatorda turgan harbiy xizmatchining yelkasiga qo'yadi, oldinda turgan harbiy xizmatchi oldinga chap oyog'i bilan bir qadam tashlab, o'ng oyog'ini chap oyog'i yoniga qo'ymasdan o'ng tomonga yana bir qadam tashlaydi, orqasidagi harbiy xizmatchini o'tkazib yuborib, yana o'z joyiga qaytib turadi. Birinchi sherengada turgan harbiy xizmatchi safdan chiqqan vaqtda uning o'rnini orqasida, ya'ni ikkinchi sherengada

turgan harbiy xizmatchi egallaydi. Harbiy xizmatchi ikki, uch (to‘rt) nafar kolonnadan dastlab o‘ng (chap)ga bir qadam qo‘yib, eng yaqin qanotga chiqadi. Agar uning yonida boshqa bir harbiy xizmatchi turgan bo‘lsa, u o‘ng (chap) oyog‘i bilan bir qadam yonga tashlab, o‘ng (chap) oyog‘ini chap (o‘ng) oyog‘i yoniga qo‘ymay, u bilan orqaga bir qadam tashlaydi va safdan chiqayotgan harbiy xizmatchini o‘tkazib yuboradi.

Harbiy xizmatchi safga qaytish uchun «Oddiy askar To‘rayev, safga tur» yoki faqat «Safga tur» komandasi beriladi. «Oddiy askar To‘rayev» komandasi berilgach, safga yuzlanib turgan harbiy xizmatchi o‘z familiyasini eshitishi bilan, «Men», deb javob beradi, «Safga tur» komandasi berilganda esa, agar u qurolsiz yoki «Orqaga» holatidagi quroli bilan bo‘lsa, o‘ng qo‘lini bosh kiyimiga taqab «Xo‘p bo‘ladi», deb javob beradi, so‘ngra harakat qilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishga burilib, bir qadam yurish bilan qo‘lini tushiradi, eng yaqin yo‘ldan safdagi o‘z joyiga borib turadi. Agar, «Safga tur» komandasi berilsa, harbiy xizmatchi oldindan boshlig‘i tomon burilmay, safga qaytadi.

Harbiy xizmatchi safga turmagan vaqtda, boshliqning yoniga borayotib, 5—6 qadam qolganda, shaxdam qadam tashlay boshlaydi, ikki, uch qadam berida to‘xtaydi, shu vaqtning o‘zida o‘ng qo‘lini bosh kiyimiga taqab, yetib kelganini ma‘lum qiladi. Ma‘lum qilgach, qo‘lini tushiradi.

Boshliqning yonidan ketishda harbiy xizmatchi ruxsat olgach, o‘ng qo‘lini bosh kiyimiga taqab, «Xo‘p bo‘ladi» deydi, harakat qilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishga burilib, bir qadam bosishi bilan qo‘lini tushiradi va uch-to‘rt shaxdam qadam tashlagandan so‘ng oddiy qadam bilan yurib ketadi. Boshliq harbiy xizmatchiga safga turish uchun komanda, ketish uchun ruxsat berayotib, qo‘lini bosh kiyimga qadaydi va tushiradi.

9. Bo‘linma safi, bo‘linmaning yurish safi va yoyiq safga saflash

Seksiyaning qaynoq safi bir sherengali yoki ikki sherengali bo‘lishi mumkin. Seksiyaning bir (ikki) sherengaga tizilishi «Seksiya bir (ikki) sherengaga saflan» komandasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Seksiya komandiri qad rostlab turib, komanda bergach,

saf qarab turgan tomonga yuzlanadi. Seksiya komandirining chap yonida, shtatga asosan, saf tortadi. Safga tizilish boshlanishi bilan seksiya komandiri safga chiqadi va seksiyaning qanday safga tizilishini nazorat qiladi.

Soni to‘rt va undan kam bo‘lgan seksiya hamisha bir sherengaga tiziladi. Zarur hollarda seksiyalardagilar tekislanish uchun «Tekislan», «Chapga qarab tekislan» komandalari beriladi. «Tekislan» komandasi berilganda, o‘ng tomonda turgan harbiy xizmatchidan boshqa hamma boshini o‘ng tomonga buradi (o‘ng quloq chap quloqdan balandroq, iyak biroz ko‘tarilgan bo‘ladi). Tekislanish paytida harbiy xizmatchilar biroz oldinga, orqaga yoki yonlariga siljishi mumkin. Tekislanib bo‘lgach, «Rostlan» komandasi beriladi, unga ko‘ra, barcha harbiy xizmatchilar boshini to‘g‘ri tutadi. Seksiya tekislanib orqaga burilgach, komanda berishda qaysi tomonga qarab tekislanish ta’kidlanadi, «Chap (o‘ng)ga qarab tekislan».

«Erkin» va «Kiyim-bosh to‘g‘rilansin» komandalari berilganda, harbiy xizmatchilar turgan joyida o‘ng yoki chap tizzani xiyol bukib, joyidan qimirlamasdan, xotirani jam qilib va gaplashmasdan turiladi. «Seksiya, tarqal» komandasi berilganda, harbiy xizmatchilar safdan chiqishadi. Seksiyani yig‘ish uchun «Seksiya, oldinga kel» komandasi beriladi. Buyruqni eshitgan harbiy xizmatchilar yugurib komandirining oldiga kelishadi va uning qo‘shimcha komandasi bilan safga tizilishadi.

To‘rt nafar va undan kam bo‘lgan seksiya bir qator kolonnaga saflanadi. Seksiyaning yoyiq safdan kolonnaga o‘tishi seksiyaning «Seksiya, o‘ngga buril» komandasi bo‘yicha o‘ngga burilish bilan amalga oshiriladi. Ikki sherengali saf o‘ngga yarim qadam tashlaydi. Seksiya kolonnadan yoyiq safga «Seksiya, safga buril» komandasi bilan qayta tuziladi. Seksiya ikki qatorli kolonnada turgan vaqtida buriladigan bo‘lsa, seksiya komandiri oldinga yarim qadam tashlaydi. Seksiya bir kolonnadan ikki kolonnaga «Seksiya, ikki kolonna bo‘lib qadam tashla» (yurib ketayotgan ikki kolonna bo‘lib yur) komandasi bilan tiziladi. Darhol bajariladigan komanda berilganda, seksiya komandiri (yetakchi) yarim qadam yuradi, ikkinchi raqamlilar o‘ngga chiqib qadamlarini boshqalarga mos tashlab kolonnadagi joylarni egallaydi; «Seksiya, to‘g‘riga yur» yoki

«Seksiya, to'xta» komandasi berilgunga qadar, mayda qadam bilan yurib boraveradi.

Seksiya ikki kolonnadan bir nafardan kolonnaga «Seksiya, bir kolonna bo'lib qadam tashla» (yurib ketayotganda bir kolonna bo'lib yur) komandasiga ko'ra, qayta tiziladi. Darhol bajariladigan komandaga ko'ra, seksiya komandiri (yetakchi) to'liq qadam bilan, qolganlari esa mayda qadam bilan yuradi: joy bo'shashi bilan ikkinchi raqamlilar boshqalarning qadam bosishiga mos ravishda yurib turib, birinchi raqamlilarning orasiga o'tadi va to'liq qadam tashlay boshlaydi.

Kolonnaning harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun quyidagi komandalar beriladi: «Seksiya, o'ng (chap) yelkani burib olg'a tashla» komandasiga ko'ra, yetakchi «To'g'riga yur» komandasi berilgunga qadar yurib ketayotib chap (o'ng) tarafga burilaveradi, qolganlari esa, ularga ergashishadi: «Seksiya, orqamdan yur (yugur)» komandasiga ko'ra, seksiya komandirining orqasidan ergashadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Saf nima?
2. «Saflan», «Rostlan» komandasi berilganda, qanday amallarni bajarasiz?
3. Bosh kiyimlarni kiyish va yechish usullarini bayon eting.
4. Harakat vaqtida burilish usullarini bajaring.
5. Joyida turganda, harbiycha salom berish usulini ko'rsating.
6. Safdan chiqib, boshliq oldiga kelish usulini bajaring.

IV. AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIK

1-bob. HARBIY XIZMATGA CHAQIRILUVCHILARNING YUQORI DARAJADAGI JISMONIY TAYYORGARLIGI ZARURIY SHARTI

Mustaqillik yillari ichida O'zbekistonda fan, madaniyat, sog'liqni saqlash va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi jismoniy madaniyat va sport ham shakllandi, u ma'lum darajada o'ziga xos ravishda rivoj topdi. Aholining turmush sharoiti, madaniy saviyasining oshishi, jismoniy jihatdan kamolotga erishuvida faqat qurilgan sport inshootlari, tayyorlangan mutaxassis xodimlar va o'tkazilgan turli ommaviy sport tadbirlarigina emas, balki jismoniy madaniyat va sport harakatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan ta'lim, uning mazmuni, yo'nalishi, amaliyoti uchun keltirgan samalarini tahlil qilish joizdir.

Ma'lumki, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan ajdod-avlodlarimiz turli harakatli o'yinlar, ot o'yinlari, kurash, dorboz, otda poyga, yuk (tosh) ko'tarish va boshqa ko'pgina faoliyatlar bilan to'ylar, bayramlar, milliy marosimlarda qatnashib kelgan. Maxsus maktab yoki o'rgatadigan uyushmalar bo'lmasa-da, ular xalq orasida qo'llanilib kelindi. Aholini, ayniqsa, yosh avlodni jismoniy tarbiyalash, ularni mehnat va mudofaaga qurbi yetadigan darajada kamolotga erishtirish o'tgan davrlardan amalga oshirilgan. Oilada bolalarni jismoniy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, to'g'ri tarbiyalashga jiddiy e'tibor berish o'zbek xalqining qadimgi ajdodlariga borib taqaladi. «Go'ro'g'li» turkumidagi o'nlab dostonlar, «Alpomish», «Qirq qiz» kabi dostonlardagi qahramonlar buning guvohidir. Shuningdek, buyuk sarkarda Amir Temur yozdirgan «Tuzuklar» va Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari bebaho ilmiy va badiiy manbalarda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, kurash, otda poyga va boshqa murakkab harbiy amaliy kuch sinash mashqlarini bajarish har bir inson uchun zarurligi ifodalangan.

Amir Temur ta'rificha, «Ishbilarmon lashkarboshi o'zini va to'qqiz sipohiy favji (askari)ni bir tandek ko'rib, ularni qo'l-oyog'i, bosh, ko'kragi va boshqa a'zolarini ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin». Bu, o'z navbatida, jangovarlik va chiniqish ilmini o'rgatishdan iboratdir.

Jismoniy tayyorgarlik jangovar tayyorgarlikning asosiy predmetlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibining harbiy ta'lim berishdagi zaruriy ajralmas qismidir. Jismoniy tayyorgarlikning maqsadi — harbiy xizmatchilarning jangovarlik faoliyatlarida jismoniy tayyorgarlikni ta'minlash, shuningdek, ularning ta'lim olishi va tarbiyalanishidagi boshqa vazifalarning yechimiga imkon beradi.

Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi umumiy vazifasi quyidagilardan iborat:

— bardoshlik, kuchlilik, chaqqonlik va epcillik xislatlarini doimiy rivojlantirish va takomillashtirish, yalanglik hududlarda piyoda tartibda harakatlanishni, to'siqlardan o'tish, qo'l jangi va harbiy amaliy suzish mahoratlarini egallash.

Jismoniy tayyorgarlik faoliyatida nazariy va tashkiliy-uslubiy bilimlar shakllanadi. Jismoniy tayyorgarlik shaxsiy tarkibning g'oyaviy-ruhiy sifatlari va harbiy bo'linmalarning jangovarlik shuhratini takomillashtiradi. Jismoniy tayyorgarlikning asosiy turlari jismoniy mashqlar hisoblanadi. Bular tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan faol foydalanish, gigiyena talablariga amal qilingan holda majburiy bajariladi.

Jismoniy tayyorgarlik quyidagi asoslarda o'tkaziladi: o'quv mashg'ulotlarda, ertalabki badantarbiyada, o'quv jangovar tayyorgarlikni oshirish jarayonidagi jismoniy mashg'ulotlarda, ommaviy sport ishlarida. Jismoniy tayyorgarlik Qurolli Kuchlarning turli qo'shinlari va maxsus qo'shinlarda jangovarlikni qo'llash fazilatlarini hisobga olib takomillashtirilgan holatda o'tkaziladi hamda maxsus yo'nalishlarga ega bo'lishlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999-yil 27-mayda «O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish to'g'risida»gi 271-sonli qarori hamda Oliy Kengashning 1992-yil 14-yanvardagi sessiyasida «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Jismoniy tarbiya va sportni yanada

rivojlantirish maqsadida bu Qonunga Oliy Majlisning 2000-yil 26-maydagi sessiyasida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekistonlik sportchilar 1952-yildan sobiq Ittifoq jamoasi tarkibida Olimpiada o'yinlarida qatnasha boshladi. Respublikamiz vakillari Olimpiadada muvaffaqiyatli qatnashishlariga qaramay, ularni xalqaro musobaqalarga taklif etishga kam e'tibor berilardi. Ayniqsa, o'zbek millatiga mansub sportchilar dunyoning eng nufuzli musobaqasiga borishlari uchun Olimpiada talablarini bajarishdan tashqari, sobiq tuzum qo'yan sun'iy g'ovlarni yengib o'tishi kerak edi. Shunga qaramay, o'zbekning mard o'g'lonlari Olimp cho'qqisiga yaqinlashishdi. 1976-yilgi Monreal Olimpiadasida mashhur bokschimiz Rufat Risqiyevning, 1980-yilgi Moskva Olimpiadasida taniqli qilichbozimiz Sobir Ro'ziyevning kumush medalni qo'lga kiritgani fikrimizning dalilidir.

Darhaqiqat, Olimp cho'qqisiga ko'tarilish oson emas. 1992-yilgi Barselona Olimpiadasida 17 nafar sportchimizdan birontasi shaxsiy musobaqada g'olib chiqsa, uning sharafiga Mustaqil O'zbekistoni-miz bayrog'i ko'tarilardi. Afsuski, bunday sharafiga hech bir sportchimiz erisha olmadi. 1996-yilgi Atlanta Olimpiadasiga 76 nafar sportchimiz yo'lga chiqdi. Ularning hech biriga Olimp cho'qqisiga ko'tarilish nasib etmadi. Ammo bu bizning Olimp cho'qqisi tomon qo'yan dadil qadamimiz bo'ldi. 2000-yilda Sidneyda bo'lib o'tgan Yozgi Olimpiadada vatandoshimiz Muhammadqodir Abdullayev boks bo'yicha g'oliblik shohsupasiga ko'tarilib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Undan so'ng Afinada (2004) bo'lib o'tgan Olimpiadada kurashchilarimiz O'zbekiston bayrog'ini jahon sahnasida yuqori pog'onaga ko'tarishdi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi, respublika yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati, O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi, «Nuroni» jamg'armasi, mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorlikda «Shunqorlar» harbiy sport o'yinlari o'tkazib kelishmoqda. «Shunqorlar» musobaqasi-ning asosiy maqsadlari yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga va harbiy bilim yurtlariga o'qishga kirishga tayyorlash, ularda mardlik, qat'iyatlilik, kuch-g'ayratni takomillashtirish, umuman olganda, sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan «Shunqorlar» musobaqalarida

o'rta maktab, gimnaziya, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari-ning 19 yoshdan oshmagan, «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fanini o'tagan o'quvchilar ishtirok etadi.

Har bir jamoada 12 nafar ishtirokchi bo'lib, musobaqa tuman, viloyat va respublika bosqichlarida o'tkaziladi. Hozirda «Shunqorlar» harbiy sport o'yini o'z ramzi, madhiyasi va bayrog'iga ega. Jamoalar, asosan, umumiy siyosiy tayyorgarlik, merganlik, saf ko'rigi, harbiy varaqalar tanlovi, fuqarolar himoyasi va tezkor tibbiy yordam ko'rsatish, kross, yozgi biatlon bo'yicha bellashadilar. Musobaqaning yakuniy respublika bosqichi har yilning may oyida o'tkaziladi.

Prezidentimiz Sohibqiron Amir Temurning chuqur ma'no-mazmunli iborasini qo'llab: «Kimki bizning kuch-qudratimizni bilmoqchi bo'lsa, o'zbek pahlavonlarining jahon sport maydonlarida erishgan yutuq-zafarlariga e'tibor bersin, anglab olsun, deb bugun baralla aytishimiz mumkin», degan edi.

2-bob. UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK

Muddatli harbiy xizmatchilar xizmat davomida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jismoniy tayyorgarlik bo'yicha 1997-yilda ishlab chiqilgan qo'llanma asosida qabul qilingan mashqlarni egallaydilar. Jismoniy tayyorgarlikdagi vazifalarni qo'llashda, ularni tegishli harbiy-amaliy harakatlantiruvchi ko'nikmalarni, jismoniy sifatlarini unumli yechishga yo'naltirilgan.

Jismoniy sifat — harbiy xizmatchilarning organizm xususiyatlarini, amaliy faoliyatini ta'minlash. Harbiy xizmatchi ko'nikmalarini egallashga qaratilgan.

Chidamlilik — harbiy xizmatchining harbiy kasbiy faoliyati jarayonida toliqmaslikka, bardosh berishligi bilan belgilanadi. Bu esa, umumiy tezlik, kuchlilik va jadallikka bo'linadi. Umumiy chidamlilik mahoratini oshirishning asosiy vositalari quyidagilar: harakat chog'ida tezlik, suzish, to'siqlardan o'tish va sport o'yinlari.

Majmuiy mashg'ulotlar ertalabki badantariya mobaynida o'tkazilib, bunda shaxsiy tarkibning jismoniy tayyorgarligi quyidagi mashqlar bo'yicha tekshiriladi: turnikda tortilish; 100 metrga yugurish; 1(3) kilometrga yugurish.


Ertalabki badantariya — harbiy xizmatchilar jismoniy tayyorgarligining muhim omillaridan biri hisoblanib, inson organizmini uyqudan so'ng tez tetiklashtirish maqsadlariga yo'naltirilgan.



Tortilish—jagʻ turnik yuqorisiga chiqariladi.



Uzatilgan qoʻllarda, oyoqlar juftlangan holda osilib turiladi.




Sakrab tushish. Oyoq tovonlari juftlangan, uchlari ajratilgan, qoʻllar esa, oldinga, yelka kengligida, barmoqlari toʻgʻrilangan, kaftlari ichkariga qaratilib uzatiladi.

Kuch mashqlarini bajarish




Dastlabki holat — orqaga yotib, qoʻllar yonga qoʻyiladi, oyoqlar sherik tomonidan mahkam ushlab turiladi.




BIR — tana oldinga bukiladi, qoʻl uchlari oyoq uchlariga uzatiladi.

IKKI — dastlabki holat qabul qilinadi.


Bruslarda tebranib, qoʻllarni bukish va toʻgʻrilash usullarini bajarish



Bruslarga tiralib, tebranish.



Oldinga tebranish.




Qo'llarni bukish.



Ortga tebranib, qo'llar to'g'rilanadi va o'ng (chap)ga sakraladi.

Arqonga tirmashib chiqish usullarini bajarish

Bunda avval tik turgan holatda arqonning tepasidan ushlanadi. Oyoqlar mumkin qadar tepaga ko'tarilib, arqon oyoqlar bilan qisib olinadi, so'ngra qo'llar bilan tepaga tortiladi va bir vaqtning o'zida oyoqlar to'g'rilanadi.



Qo'l bilan arqonni ushlab, ikki oyoq arqonga chirmashib, yuqoriga ko'tariladi.



Ikki qo'l bilan arqonni mahkam ushlab, ikki oyoq oldinga uzatiladi.

Qurol bilan mashqlar bajarish



Jangga hozirlanish.



Oldinga tashlanib, nayza sanchish.

Qurol bilan jang qilish usullari

Dushman tomonidan tutib olingan avtomatni tortib olish



Dushman avtomatni ikki qo‘li bilan mahkam ushlab olgan.



Oyoq bilan raqib oyoqlarining orasiga zarba beriladi.



Dushman tomonga yonbosh bilan burilib, uning tizzasiga zarba beriladi.

Avtomatni ikki qo'lda mahkam tutgan holda aylana harakat bajarib, raqib yerga yiqitiladi.



Dushman qo'lidan avtomat tortib olinadi.

Qurollangan dushmanni quolsizlantirish



Ro‘paradagi dushman tomon chap oyoqda bir qadam qo‘yilib, o‘ng qo‘lning bilagi bilan avtomat dastagiga uriladi.



Tana va o‘ng oyoqni yonga tashlab, o‘ng qo‘l bilan dushman zarbasi qaytariladi va quroli mahkam ushlab olinadi.



Yana bir qadam tashlagan holda boshqa qo‘l bilan qurol tortib olinadi.

**Dushmanning pichoq bilan yuqoridan qilgan hamlasini
qaytarish va uni qurolsizlantirish**




Oldinga qadam tashlab, bilak bilan zarba qaytariladi.



Ayni paytda boshqa qo'l bilan raqib qo'lini qo'ltig'iga yaqin joyidan tutib olinib, pichoq tashqariga yo'naltiriladi va qurolsizlantiriladi.

Dushman siquvidan ozod bo'lish. Bo'yinni orqa tomonda tutib olgan dushman siquvidan xalos bo'lish



Bo'yinni orqa tomondan tutib olgan dushman siquvi.



Tanani biroz pastga tushirib, dushman qo'li tutib olinadi va boshni yonga burib, raqib tiz-zasining ostiga tovon bilan zarba beriladi.



Qo'llarni keskin yuqoriga harakatlantirib, dushman siquvidan xalos bo'lish va uni yelka uzra yerga uloqtirish lozim.



Shundan so'ng, raqibga og'riq keltiruvchi amallar bajariladi.

Piyodalar belkuragi bilan zarba berish



Piyodalar belkuragi bilan yuqoridan zarba berish.



Dushmanning quloch ochib, yuqoridan bergan zarbasi chap qo'l yuqoriga ko'tarilib, raqib qo'li ostiga zarba berish bilan qaytariladi.



Boshqa qo'l bilan belkurak sopi tashqi tomonidan tutib olinadi.



Dushmanga oyoq bilan zarba beriladi va belkurakni uning bosh barmog'i tomoniga aylantirib, tortib olinadi.

**Dushmanning pastdan, pichoq bilan qilgan hamlasini qaytarib,
uni qurolsizlantirish**



Bir qadam oldinga tashlab, raqib bilagidan mahkam tutib olinadi.



Dushman bilagini o'zingizdan o'ngga burab, kaftingiz bilan raqib panjasi ortiga qattiq zarba bering va bu bilan pichoqni uning qo'lidan urib tushiring.

Yon tomondan berilgan zarbani qaytarish



Bir qadam oldinga tashlab, raqib bilagidan tutib olinadi.



Dushman panjasi ikki qo'l bilan tutib olinib, yuqoriga ko'tariladi va o'zi tomonga bukilib, oyoqlari orasiga zarba beriladi.



Dushman qo'li tashqi tomonga qayrilib, yerga yiqitiladi.

Pastdan berilgan zarbani qaytarish



Dushman bilagi qo'l bilan tutib olinadi.



Boshqa qo'l bilan raqib yengidan tutib, oyoq bilan zarba beriladi.



Dushmanni o'zingiz tomonga siltab, muvozanatdan chiqarasiz va qo'lini orqasiga qayirib, kaftingiz yoni bilan bo'yniga zarba berasiz.



Yoqasi (sochi)dan tutgan holda unga og'riq keltiradigan harakatlar bilan raqibni qo'lga olasiz.



Dushmanni bog‘lash uchun uni yerga qulatish lozim.



Yerga yotgan dushman ustiga o‘tirib, tutilgan qo‘li tanasiga mahkam bosiladi.



Dushman qo‘li qayrilib, bog‘lanadi.

Pastdan yoki to'g'ridan berilgan zarbani qaytarish



Dushman bilagi tashqi tomoni yuqorisidan mahkam tutib olinadi.



Qo'llarini ichkariga siltab-qayirib, yelkasini o'z yelkangiz ostiga tortasiz va yelka bilan bosib, raqibni yerga qulatasiz.



Bilak mushaklarini bosib, raqib qo'llari orqasiga qayriladi va ustiga o'tirib olinadi.



Boshqa qo'li ham qayrilib, bog'lanadi.


Qo'l bilan beriladigan zarbalar



To'g'riga.




Pastdan.




Yon tomondan.

Bo'yinni old tomondan tutib olgan dushman siquvidan xalos bo'lish



Bo'yinning old
tomondan tutib
olinishi.



Oyoq bilan dushmanga zarba
berib, mushtlarni juftlagan
holda raqib qo'llarini ikki
tomonga yoyib tashlaysiz va
pastdan zarba berasiz.

Tanani orqadan tutib olgan dushman siquvidan xalos bo'lish



Tananing orqadan tutilishi.

Tovon bilan dushman oyoqlari orasiga zarba beriladi.



Qo'llarini yuqoriga keskin harakatlantirib, dushman siquvidan xalos bo'linadi va raqib qo'lidan mahkam tutgan holda uni yelka uzra yerga qulatiladi.

Tanani old tomondan tutib olgan dushman siquvidan xalos bo'lish



Tananing old tomondan tutilishi.



Tizza bilan dushman
oyoqlari orasiga zarba
beriladi.



Tana biroz pastga tushiriladi-da,
keskin siltanish bilan dushman
qo'llari siquvidan xalos bo'linadi.



Shundan so'ng, oyoq bilan
takror zarba beriladi.

Oyoqlarni old tomondan tutib olgan dushman siquvidan xalos bo'lish



Oyoqlarning old tomondan
tutib turilishi.



Dushman boshiga qarata
yuqoridan zarba beriladi.



Bir qo'l bilan dushman boshining orqasidan, ikkinchi qo'l bilan
jag'idan tutib, uning bo'yni qayirib (sindirilib) tashlanadi.

Oyoqlarni orqa tomondan tutib olgan dushman siquvidan xalos bo'lish



Oyoqlarning orqa
tomondan tutib
turilishi.



Oldinga yiqila turib, oyoqlar dush-
man siquvidan xalos etiladi va ayni
paytda, uning yuziga qarata oyoqlar
bilan zarbalar beriladi.

Qo'lni orqaga qayirish



Bir qo'l bilan dushman bilagi-
dan, ikkinchisi bilan esa, uning
yengidan tutiladi.



Raqib qo'li chig'anog'idan
bukilib, beli tomoni qayriladi.

Raqibni yelka uzra yerga uloqtirish



Dushman qoʻlidan tutib, kuch bilan siltab oʻzingizga tortasiz.




Ayni paytda, raqib tomonga orqangiz bilan tez aylanib, uning qoʻlini qattiq tortib, yelkangiz ustiga oʻrnatasiz va oyoqlarni biroz bukasiz.

Oyoqlaringizni keskin toʻgʻrilab, tos suyagingiz bilan raqib soniga zarba bergan holda uning oyoqlarini yerdan uzasiz.



Qoʻllaringizni kuch bilan keskin siltab, raqibni yelkangiz uzra oshirib, yerga uloqtirasiz va unga ogʻriq keltiruvchi harakatlarni amalga oshirasiz.



Oyoqlarni orqa tomondan chalish



Raqibning yengi va yelkasidan tutiladi.



Oldinga va yonga qadam tashlab, raqibni qattiq siltaysiz, uning yukini oldinda turgan oyog'iga olib o'tasiz va suyanib turgan oyog'iga oyog'ingizni tirab, yiqitasiz.



Qo'llaringizni siltab, dushmanni yerga uloqtirasiz.

3-bob. TO'SIQLARDAN O'TISH

Yagona to'siqlar maydoni bilan tanishish

To'siqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- gorizontol (okoplar, chuqurchalar, kovaklar);
- vertikal (devorlar);
- tor maydonchali tayanchlar (balkalar).

To'siqlarning turi va o'lchamlariga qarab, ularga tayanib va tayanmay sakrashlar, chuqurlikka sakrash, osilib chiqish, tor tayanchlarda harakat qilish orqali yengib o'tiladi, tayanmasdan sakrashlar unchalik keng bo'lmagan gorizontol to'siqlarni va baland bo'lmagan vertikal to'siqlarni yengishda ishlatiladi.

Tayanib sakrashlar ko'krak barobarigacha bo'lgan balandliklarni yengishda, chuqurlikka sakrashlar esa, baland to'siqlardan sakrashda, uy derazalarida qo'llaniladi. Devor va shunga o'xshash balandliklarni ishg'ol etishda, osilib chiqishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- oyoqning son qismiga tayangan holda;
- ko'krakka tayangan holda;
- ilashgan holda;
- kuch bilan.

Yugurib kelib, bir oyoq bilan to'siqdan bir qadam narida yerdan turtiladi, ikkinchi bukilgan oyoq bilan devorga tiraladi, qo'llar bilan devor chetidan ushlanadi. Chap qo'lni devor tepasiga yetguncha tortiladi. Chap oyoqni to'siqqa qisib, o'ng oyoqni siltab, tovonni esa, devor tepasiga ilashtirib olingach, devorning orqasiga sakraladi.

Devorlardan kuch bilan oshib o'tish. Xuddi oldingi usuldagidek yugurib kelinadi, bir oyoqda yerdan turtilib, qo'llar bilan devor to'siqning chekkasidan ushlanadi. Qo'llar bilan yuqoriga tortilgach, oyoqlar bilan yordam berilib, tayanib olinadi. So'ngra to'siqning turi va holatiga qarab, quyidagi usullarning biridan foydalangan holda to'siqdan o'tib sakraladi:

- to'siqning orqa tomoniga o'zini tashlaydi;
- to'siq ustiga o'tirib olgach, oyoqlarni osiltirib o'tirgan holda sakrab tushiladi;
- to'siqqa o'ng oyoqni tirab va undan chap oyoqni olib o'tgach, qo'llarga tayangan holatda irg'ib tushiladi.

Alohida to'siqlar va to'siqlar guruhidan o'tish

a) Gorizontal to'siqlardan o'tish.

Unchalik keng bo'lmagan gorizontal to'siqlardan va baland bo'lmagan vertikal to'siqlardan tayanmagan holda sakrash usulida o'tiladi. Sakralganda oyoqlar bir yoki ikki oyoq bilan tushiladi.

b) Ko'krak barobaridagi vertikal to'siqlar.

Bunday to'siqlardan tayanib sakrash usuli bilan o'tiladi. Yugurib kelib, to'siq ustiga sakraladi. Tiklanmasdan ikkinchi oyoqni ham to'siq ustiga olib chiqiladi va yerga sakrash holati davom ettiriladi yoki to'siqdan qo'l va oyoqqa tayangan holda o'tish mumkin.

d) Tor tayanch orqali harakat qilish.

To'siqlar orqali o'tishda xoda, balka, relslar tashlab qo'yilganda tor tayanch orqali harakat qilish qo'llaniladi. Bunda quyidagi usullarda harakat qilinadi:

- tor tayanchga o'tirib olib harakat qilish;
- yurib va yugurgilab harakat qilish.

Turli holatlarda granata uloqtirish texnikasini o'rganish

Granatani quyidagi holatlarda uloqtirish mumkin:

a) Joyda tik turgan holda.

Bunda nishon tomonga yuzi bilan qarab turiladi. O'ng qo'lga granata ushlanadi, o'ng oyoqni bir qadam orqaga tashlab, salgina bukiladi. O'ng qo'l tepaga ko'tarilib, orqaga tashlanadi, o'ng oyoq bilan turilib, gavgani esa oldinga tashlab, granata uloqtiriladi.

Granatani uloqtirayotganda, avtomat ko'krakda, orqada yoki chap qo'lida bo'lishi mumkin.

b) Harakat vaqtida granatani uloqtirish.

Harakat vaqtida granatani uloqtirish uchun chap oyoqni tashlash bilan siltash boshlanadi. Granatali qo'l oldinga pastga tushiriladi. Ikki qadam bilan o'ng oyoq sal tashqariga buriladi.

Bir vaqtda ham gavda buriladi, ham orqaga tashlanadi. Chap oyoqni yana orqaga tashlash bilan gavda burishdan to'xtatiladi, qo'l orqaga oxirgi chekka holatga keltiriladi. Chap oyoqni qo'yib bo'lingach, tezlikdan foydalanib, granata nishonga qarab uloqtiriladi.

Har xil to'siqlardan o'tish mashqini bajarish



Transheyaga tushib, granata uloqtirishni mashq qilish.



Quduqdan chiqishni mashq qilish.



G'ishtli devordan o'tishni mashq qilish.



Devor teshigidan o'tishni mashq qilish.



Buzilgan zinadan o'tishni mashq qilish.



Buzilgan ko'prikdan o'tishni mashq qilish.



Devordan oshishni mashq qilish.



Labirintdan o'tishni mashq qilish.



Xandaqdan sakrab o'tishni mashq qilish.

d) Tizzalagan holda granatani uloqtirish.

Bu holatda qurol chap qo'lga olinadi yoki burstverga qo'yiladi. So'ng o'ng tizzaga o'rnatilib, granata ushlagan qo'l orqaga olinadi va silkilanadi. Bunda gavda orqaga engashiladi, o'ng tomonga buriyadi. Ko'krak bilan nishonga burilib, chap oyoqqa engashiladi. Granata nishonga uloqtiriladi.

Yotgan holda granatani uloqtirish

Bu holatda qurol o'ng tomonga qo'yiladi. Granata o'ng qo'lga olinib, qo'llar ko'krakka tortiladi. Qo'llar bilan turtilib, o'ng oyoq orqaga tortiladi. Chap tizzada turilib, bir vaqtda granatali qo'l orqaga, o'ng oyoq bilan turtilib, ko'krak bilan nishonga beriladi va oldinga yiqilib, granata uloqtiriladi.

Bu holatda granatani uloqtirish uchun o'ng oyoq iloji boricha orqaga qo'yiladi, granatali qo'l tepa bilan orqaga tashlanadi. So'ng chap qo'l bilan okop (o'ra) chekkasidan ushlab kuch bilan to'g'rilanadi, qo'l tepadan oldinga siltanib granata nishonga uloqtiriladi.

Yagona to'siqlar qatoridan o'tish

Yagona to'siqlar qatorida quyidagi mashq bajariladi: masofa 200 metr.

Boshlang'ich holat—to'siqlar qatori oldidagi chiziqqa yotgan holat.

«Olg'a» komandasi berilganda:

1. Sakrab 20 metr yuguriladi va 2,5 metr kenglikdagi chuqurlikdan sakrab o'tiladi.

2. Labirint yo'laklardan yugurib o'tiladi.

3. Xohlagan usulda 2 metrli devordan oshib o'tiladi.

4. Vertikal narvon orqali buzilgan ko'priknig ikkinchi qismiga chiqiladi. Balkadan yugurib borib, oxiridan yerga sakrab tushiladi.

5. Buzilgan pillapoyalarning uchinchi pog'onasidan oshib o'tiladi, lekin, albatta, oyoq yerga tegish sharti bilan to'rtinchi pog'onaning tagidan o'tiladi.

6. Devorning derazasi orqali o'tiladi.

7. Okop (xandaq)ga yugurib boriladi. Unga sakrab tushiladi va aloqa yo'li orqali quduqqacha boriladi.


8. Yerdan granatani olib, devordagi derazalarning xohlagan biriga yoki devor ortidagi 2,5 metrli maydonchaga uloqtiriladi. Bunda 3 tagacha granata otishga ruxsat beriladi. Granatalarning og'irligi 600 gr.

9. Quduqdan sakrab chiqib, devordan sakrab o'tiladi.

10. Engashgan narvon orqali buzilgan pillapoyaning to'rtinchi pog'onasiga chiqiladi va pillapoya pog'onalaridan yugurib tushiladi.

11. Vertikal narvon orqali buzilgan ko'priknig balkasi ustiga chiqiladi. Undan yugurib borib, uzilgan joydan sakrab o'tiladi va engashgan taxta orqali pastga yugurib tushiladi.

12. Ikki metrli kenglikdagi chuqurdan sakrab o'tiladi, yo'lak-kacha o'tib olib, to'siqlar qatorining boshlanish chizig'i kesib o'tiladi.



To'siqlar maydoni (umumiy ko'rinish):

1 — to'siqlar qatorining boshlanish liniyasi; 2 — tez yugurish uchun uchastka; 3 — chuqurlik (yuzasining eni 2 m, 2,5 m, 3 m, chuqurligi 1 m); 4 — labirint (eni 2 m, bo'yi 1,1 m, yo'lkalar orasi 0,5 m, yo'lkalar soni 10 ta); 5 — devor (balandligi 2 m, qalinligi 2,5 sm) engashgan doska bilan (doska uzunligi 3,2 m, eni 25—30 sm); 6 — buzilgan ko'priklardan iborat (balandligi 2 m). Bu ko'priklardan 3 ta to'g'ri burchakli 0,2x0,2 balka bo'laklaridan iborat, birinchisining uzunligi 2 m, ikkinchisi 3,8 m, boshidan 135° li burilishgacha 1 m, boshidan 135° li burilishgacha 2,8 m, balkalar orasida uzilishlar kattaligi 1 m, ikkinchi bo'lak boshida va uchinchi bo'lak boshida hamda oxirida vertikal narvonlar mavjud bo'ladi; 7 — buzilgan pillapoya (eni 2 m, pog'onalar balandligi 0,8 m, 1,2 m, 1,8 m) pog'onalar orasi 1,2 m, oxirgi pog'onada 2,3 m.li pillapoya; 8 — g'isht devor (balandligi 1,1 m, eni 2,6 m, qalinligi 0,4 m) ikki ko'zi bor: pastkisi 1x0,5 m, yuqorigisi 0,5x0,6 m. G'isht devor ostida 2,6x3 m.li maydoncha bor; 9—quduq (chuqurligi 1,5 m, eni 1 m) va aloqa yo'li (uzunligi 8 m, bir burilish bilan); 10 — transheya (chuqurligi 1,5 m); 11 — yugurish yo'lakchasi (eni 2 m).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy chiniqish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Buyuk bobokalonlarimiz jismoniy tarbiya xususida qanday fikrlar bildirishgan?
3. Qo'l jangi bo'yicha mashqlarni o'zlashtiring.
4. Umumiy jismoniy tayyorgarlik nimalardan iborat?
5. To'siqlardan o'tishda qanday amallar bajariladi?

1. **Armiya** — fransuzcha «*armee*», lotincha «*armee*» soʻzidan olinib, qurollantirish maʼnosini bildiradi. Biron-bir mamlakatning Qurolli Kuchlari majmuasiga — armiya deyiladi. Tor maʼnoda quruqlikdagi qoʻshinlarni ham armiya deyishadi. Armiyaning yana bir necha sifat va talqinlari bor. Masalan, harakatdagi armiya, bu— bevosita jang maydonlarida qatnashayotgan qoʻshinga nisbatan aytiladi. Yana bir maʼnosi—bir yoki bir necha qoʻshin turlari birikmasidan (umumqoʻshin, havo va h.k.) tashkil topgan, yirik harbiy operatsiyalarni amalga oshirishga moʻljallangan tezkor qoʻshinlar birlashmasi ham armiya deyiladi.

2. **Harbiy doktrina** — mudofaa doktrinasi. Harbiy qurilishning yoʻnalishini, mamlakat va Qurolli Kuchlarning urushga tayyorgarligi, urush olib borish yoʻllarini belgilovchi rasmiy qarashlar va qoidalar tizimidir.

3. **Qurolli Kuchlar** — davlatning yoki bir guruh davlatlarning harbiy tashkiloti va u siyosiy hokimiyatning muhim omili. Qurolli Kuchlarning maqsad va vazifalari davlat siyosatining Mudofaa vazirligi — respublika Qurolli Kuchlarining davlat boshqaruvi idorasi hisoblanadi.

4. **Milliy xavfsizlik** — inson, jamiyat va davlat, yaʼni ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida xavfsizlikni taʼminlash tushuniladi.

5. **Plats** — harbiy saf mashqlari, koʻriklar va paradlar oʻtkaziladigan maydon.

6. **Kazarma** — italyancha «*caserma*» soʻzidan olingan boʻlib, harbiy qism shaxsiy tarkibi joylashtiriladigan bino maʼnosini anglatadi.

7. **BMP** (боевая машина пехоты) — piyodalar jangovar mashinasi.

8. **BTR** (бронетранспортёр) — zirhlangan g'ildirakli jangovar mashina.

9. **Ataka** (hamla) — qattiq (shiddatli) hujum.

10. **Kumulyativ** — kuchli ta'sir etuvchi snaryad yoki o'q.

11. **Ekipaj** — kema, samolyot, tank komandasining shaxsiy tarkibi.

12. **Okop** — o'ra, xandaq.

13. **Fugas** — portlovchi moddaning zaryadi.

14. **Apparel** — tuynuk va o'raga tushish yo'lagi.

15. **Artilleriya quroli** — to'p, zambarak.

16. **Zapal** — pilta, granata, mina piltasi.

17. **Zatvor** — qulf (otish qurolining qulfovchi mexanizmi).

18. **Manyovr** — jang maydonida qo'shinlarning dushmanga zarba berish uchun qulay vaziyat olish maqsadidagi harakati.

Qisqartmalar

MO'B — motoo'qchi batalyon.

MO'V — motoo'qchi vzvod.






MO'Gr — motoo'qchi guruh.

MO'S — motoo'qchi seksiya.

TGr — tank guruhi.

SHARTLI BELGILAR

Boshqaruv punkti va aloqa turlari



— batalyon kuzatuv qo'mondonlik punkti, vzvod kuzatuv qo'mondonlik punkti:
1—mudofaa va hujumda piyoda tartib holati; 2—piyodalar jangovar mashinasida harakat holati va boshqa jangovar texnikalar tegishli belgilar bilan, guruh kuzatuv qo'mondonlik punkti — bir chiziq bilan belgilanadi.

— kuzatuv punkti (posti) qaysi qo'shinlarga mansubligi ko'rsatiladi.

Harf belgi ichida: *B*—havodagi kuzatuv; *H*—muhandislik kuzatuv; *T*— texnik kuzatuv; *X* — kimyoviy kuzatuv.

— punkt (post) belgilanishi. Boshqa punktlar (postlar) tegishli yozuvlar bilan.

— harakatlarni regulirovka qiluvchi post yoki regulirovkachi (*K*—komendant posti, *KПП*—nazorat-o'tkazish punkti, *КТП*—nazorat-texnik punkti).

— aloqa tarmog'i: 1—dala (olib boruvchi); 2 — bir joyda turadigan (statsionar). Taktik belgilari qo'shin turlarining rangi bilan belgilanadi. Belgi oldida yoki ichida qo'shimcha tushuntiruv yozuvlari bo'lishi mumkin (vaqt, tarkibi va boshqa ehtiyojlar).


— radiopriyomnik (radio qabul qiluvchi). Radiostansiyalar: 1— harakatlanuvchi; 2— olib yuruvchi; 3— tank, BMP, BTR, avtomobilda — tegishli belgilar bilan.



—yadroviy zarba, portlash kuchi 40 kg; portlash kuchini ko'rsatish, portlash turi (*B*—havodagi, *H*—yerdagi yoki suv usti-dagi, *Π*—yer ostidagi, qum, suv ostidagi, doira ostidagi, qum, suv ostidagi) ichkari doira radiusi — tamoman buzilishlar, tash-qari doira radiusi—ochiqda joylashgan shax-siy tarkibning shikastlanishi ko'rsatiladi.



—xavfsiz masofaning uzoqlik chizig'i, chiziqdagi do'ngliklar yadroviy portlash tarafga qaratiladi.



—dushmanning yadroviy minasi. Uning zaryad quvvati (2 kg) o'rnatilganligi (10 m) yoki portlash turi, aniqlangan portlash vaqti va sanasi ko'rsatiladi.




—dushmanning kimyoviy fugaslar may-doni, uning aniqlangan vaqti va sanasi ko'r-satiladi. Fugaslar portlatilgan, yorilgan maydoni sariq rang bilan ko'rsatiladi.




—dushman tarafidan zaharli moddalar bilan zaharlangan hudud. Uning qo'llash vositasi turlari (*AB*—aviatsiya bilan, *P*—ra-keta, *A*—artilleriya, *Φ*—fugaslar), zaharli moddaning aniqlangan turi, qo'llanilgan vaqti va sanasi, zaharlangan havo (bulut) yo'nalishi.



—dushman tomonidan biologik (bakterio-logik) vositalar bilan zararlangan hudud. Qo'zg'atuvchi, kasallanganlar miqdori, qo'llanilgan (aniqlangan) vaqti va sanasi.



—maxsus ishlov hududi, uning raqami, ishlab turish vaqti va sanasi ko'rsatiladi.



—degazatsiyalashtirilgan o'tish joyi, uning raqami va kengligi (3,5 m).



—minalashtirilgan hudud.



—simli to'siqlar (chiziqlar miqdori qatorlar sonini bildiradi).



—tankka qarshi qo'yiladigan to'siqlar (joy, to'siqlar) uning qator miqdori (2) va uzunligi (400 m) ko'rsatiladi.



—tankka qarshi minalar maydoni (o'lchami—xarita masshtabi bo'yicha).



—piyodalarga qarshi minalar maydoni (o'lchami xarita masshtabi bo'yicha).



—to'siqlardan o'tish—uning raqami va (10 m) kengligi ko'rsatiladi.



—dushman tomonidan vayron etilgan ko'prik (obyekt). Vayron qilingan (yakson etilgan) dushman obyekti (nishon) qizil chiziqlar bilan o'chiriladi.




—vayron qilingan (tuzatib bo'lmaydigan) yo'l hududi, uning uzunligi (0,8 km) va aylanib o'tish ko'rsatiladi.



—tankka qarshi chuqurlik, uzunligi (0,7 km) ko'rsatiladi.



—suv bilan ta'minlash punkti: *C*—burg'ilangan quduq (скважина), *P*—buloq, *K*—quduq ishlab chiqarish ko'rsatmasi (BM 3/4).



—harakat marshruti, uning raqami (1) va boshlang'ich punktdan o'tgan masofasi (100 km) ko'rsatuvi bilan.



—batalyon tibbiy punkti, kimga tegishliligi ko'rsatiladi.



—o'qchi sanitar.



—batalyon punkti, tegishli ko'rsatuvi bilan (*П*—oziq-ovqat punkti, *Б*—jangovor ta'minot punkti).

Maxsus qoʻshinlar harakati



—terrorchi tashkilotlar qurolli otryadi boshqaruv shtabi (punkti): 1—100 tagacha boʻlgan kishi.



—terrorchi tashkilot qurolli tuzilmalari egallagan hududi (tashkilotga tegishliligi, tuzilmaning ahamiyatli soni koʻrsatiladi).



—garovga olinganlar joyi, garovga olinganlar soni, vaqti va sanasi koʻrsatiladi.



—jangari-avtomatchi: *K* —komandir, *Ch* — mergan, *П* — pulemyotchi, *nП*—pulemyotchi yordamchisi, *Гр*—granatomyotchi: *nГ* — granatomyotchi yordamchisi, *P* — razvedkachi, *Can.* — sapyor, *Пр*—yoʻlboshlovchi, *H* — kuzatuvchi.



—nazoratdan oʻtish punkti (uning raqami, kimga tegishliligi va tarkibi koʻrsatiladi).



—blok post (uning raqami, kimga tegishliligi va tarkibi koʻrsatiladi).




—razvedka qiluvchi guruh (uning tartib raqami, kimga tegishliligi va tarkib soni koʻrsatiladi).



—razvedka qiluvchi zarbdor guruh (uning tartib raqami, kimga tegishliligi va tarkib soni koʻrsatiladi).



—shturm qiluvchi guruh (uning tartib raqami, kimga tegishliligi va tarkib soni koʻrsatiladi).



—qurolli tuzilmalar tomonidan qurshab olingan hudud (uning raqami, vaqti va sanasi koʻrsatiladi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T., «O'zbekiston», 1992.
2. Начальная военная подготовка. М., «Просвещение», 1985.
3. Приемы и способы действия солдата в бою. М., «ВИ», 1988.
4. Учебник сержанта танковых войск. М., «ВИ», 1989.
5. Учебник сержанта мотострелковых войск. М., «ВИ», 1989.
6. *Temur tuzuklari*. T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
7. *Фредерик Де Мулинен*. Право войны. Руководство для вооруженных сил. М., Международный Комитет Красного Креста, 1993.
8. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari. T., «O'zbekiston», 1996.
9. Наставление по физической подготовке в Вооруженных силах Республики Узбекистан (НФП-97). Т., 1997.
10. *Ханс-Петер Гассер*. Международное гуманитарное право. Введение. М., Международный Комитет Красного Креста, 1999.
11. Основные положения Женевских конвенций и дополнительных протоколов к ним. Издание второе, исправленное. М., Международный Комитет Красного Креста, 2000.
12. *G.M. Tansiqboyeva*. Xalqaro gumanitar huquq. T., 2000.
13. *F.A. Abdullayev, E.X. Rasulev, A.R. Rahmonov*. Qurolli to'q-nashuvlar huquqi. T., «Adolat», 2001.
14. *T. Hakimov*. Xalqaro gumanitar huquq. O'quv qo'llanma. T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
15. *I.K. Abdukarimov*. Men general bo'layan. T., «Cho'lpon», 2001.

16. Vatan himoyasi — muqaddas burch. T., «O‘zbekiston», 2001.
17. Международное право ведения военных действий. Сборник Гаагских конвенций и иных международных документов. М., Международный Комитет Красного Креста, 2001.
18. Xalqaro gumanitar huquq. Jeneva konvensiyalari to‘plami. T., «Adolat», 2002.
19. Огневая подготовка. Материальная часть стрелкового оружия, наступательных и оборонительных гранат. Часть 1. УБП, 2003.
20. Огневая подготовка. Материальная часть СПГ-9, АГС-17 и противотанковых ракетных комплексов. Часть 2. УБП, 2003.
21. Учебно-методические материалы по международному гуманитарному праву. Для преподавателей и студентов общественно-гуманитарных дисциплин. Выпуск I. Т., Издательство народного наследия им. А. Кадыри, 2003.
22. H. Jo‘rayev. Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash. T., «Sharq», 2004.
23. Otish tayyorgarligi (o‘quv qo‘llanma). T., «Sharq», 2004.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I. HARBIY ISH ASOSLARI

1-bob. Umumqo‘shin jangi asoslari.....	16
2-bob. Askarning jangdagi harakati.....	48
3-bob. Razvedka.....	60
4-bob. Muhandislik jihozlash va ularni ko‘zdan yashirish.....	77
5-bob. Qurolli Kuchlarda qo‘llaniladigan minalar.....	79
6-bob. Joyda xaritasiz oriyentirlanish.....	86

II. OTISH TAYYORGARLIGI

1-bob. Kalashnikov avtomati, stvol ostidagi GP-25 granatomyoti, parchalanuvchi qo‘l granatalari tuzilishi, asosiy qism va ko‘rsatkichlari.....	94
2-bob. Parchalanuvchi qo‘l granatalarining vazifasi, jangovar ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlatish prinsipi.....	121
3-bob. Kichik kalibrli multiq.....	128
4-bob. Quroldan otish asoslari va qoidalari.....	130
5-bob. Joyida turib va harakat paytida qo‘zg‘almas hamda paydo bo‘luvchi nishonlarga o‘t ochish.....	139

III. HARBIY XIZMAT ASOSLARI

1-bob. Qurolli to‘qnashuvlar huquqi.....	147
1.1. Qurolli to‘qnashuvlar huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi.....	147
1.2. Qurolli to‘qnashuvlar huquqining ba’zi asosiy tushunchalari. Kombatantning xatti-harakati qoidalari.....	173
1.3. Qurolli to‘qnashuvlar huquqini buzganlik uchun javobgarlik.....	182
1.4. Qurolli to‘qnashuvlar huquqini farqlovchi timsol va belgilar. Qizil Xoch va Qizil Yarim oy xalqaro harakati.....	197

2-bob. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.....	211
3-bob. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari — Davlat harbiy tashkiloti. O‘zbekiston Respublikasi mudofaasining asosi.....	230
4-bob. Harbiy xizmatchilar va ular orasidagi munosabatlar. Harbiy intizom.....	252
5-bob. Kundalik naryad, vzvod bo‘yicha posbonning vazifalari.....	269
6-bob. Qorovul xizmati.....	273
6.1. Qorovul xizmati va uning tashkil etilishi.....	273
6.2. Qorovul va uning tarkibi. Soqchi va uning majburiyatlari.....	274
6.3. Qorovullarni tayyorlash.....	277
6.4. Soqchi va uning majburiyatlari.....	279
6.5. Post va uning jihozlanishi. Soqchining postdagi harakatlari	282
6.6. Soqchi qo‘lidagi qurol bilan harakatlanishi va qurolni qo‘llash usullari.....	286
6.7. Soqchilarni almashtirish.....	288
6.8. Qorovulxonada ichki tartib-intizom.....	290
7-bob. Qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari.....	293

IV. AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIK

1-bob. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligi zaruriy sharti.....	306
2-bob. Umumiy jismoniy tayyorgarlik.....	309
3-bob. To‘siqlardan o‘tish.....	336
Harbiy atamalar izohi.....	345
Shartli belgilar.....	347
Foydalanilgan adabiyotlar.....	356

Ch31 **JAMOA. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tay-yorgarlik** (I qism). Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. 6-nashri. T.: «ILM ZIYO», 2013. —360 b.

I. Hammuallif.

UO'K 355.233.1 (575.1)(075)

KBK 43.4ya722

ISBN 978-9943-303-33-1

ODILJON ABDUMO'MINOVICH ORTIQOV,
SHUHRAT SHAVKATOVICH UBAYDULLAYEV,
ISMATULLA QOSIMOVICH TO'XTASHEV,
BAHODIR BERDIYEVICH G'AFUROV

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK

I qism

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
uchun o'quv qo'llanma*

6-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Mas'ul muharrir *I. Ikromov*
Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhih *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 15-iyulda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90¹/₁₆, «Tayms»
harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 22,5+1,0 b.t.
rangli surat. Nashr tabog'i 21,0. 4673 nusxa. Buyurtma № 42

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 24—2013.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, Shayxontohur ko'chasi, 86-uy.